Chindan-da, Oqilxon Sharafiddinov bu "Alifbe"ni yaratish uchun uzluksiz izlandi, boshlang'ich sinfni uqish jarfyonida ham uzoq yillik tajribasiga, qolaversa, kompleks tizimli o'qitishga muljallab tuzilgan va 1928 yilda "Bilim va mehnat". 1929—1930-yillarda esa "Mehnat bolalari" nomlari bilan chop etilgan alifbelari tajribasiga suyandi, bolalar shoirilariga murojaat qilib, u yoki bu harf faolligidagi so'zlardan bitilgan quvnoq qisqa hajmli she'rlar yozdirib, ular tanlovini o'tkazdi. O'sha tanlovda Shukur Sa'dullaeving 17 ta jajji she'ri unga, ma'qul tushdi va ularni o'rganilayotgai harfni yozish va o'qitish maqsadiga ko'ra o'z "Alifbe" sida joylashtirdi. Shu xildagi mashaqqatli mehnat natijasida yuzaga kelgan "Alifbe" dastlab lotik alifbosida 1938-yildan 1940-yilgacha, 1941-yildan esa 1996-yilgacha kirill alifbosida uzluksiz qayta -qayta bosilib turdi. Uning dastlabki nashri 400 ming nusxada edi, sunggi har bir nashri ham 400-500 ming nusxa oraliq'ida bo'ldi. O'tgan 55 yil davomida xalqimizning uch avlodini savodxon qilgan bu kitobning umumiy tiraji sal kam 25 million nusxani tashkil etadi. Bu qadar salmoqli adadda tarqalish va ommaviy o'qishga sazovor bo'lish har qanday kitobga nasib qilavermaydi. Ha, shu muddat davomida Oqilxon Sharafiddinov "Alifbe"si kirib bormagan o'zbek xonadoni va undan yozish va o'qish sabog'ini olmagan o'zbek qolmadi. Bunda muallifning M.Mirzaahmedov bilan hamkorlikda birinchi sinf o'qituvchilariga muljallanib yaratgan va 1959 yilda ommaviy nashr qilingan "Alifbeni o'qitish metodikasi" qo'llanmasi ham ayrica xizmat qildi.

Binobarin, uning bu tarixiy xizmatini buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning:

Xalq yulinda kim sanga bir harf o'qitmish ranj ila,

Aylamak bo'lmas ado oning haqin ming ganj ila,

- degan hikmatida ta'kidlanganidek, baholash oson emas, lekin Oqilxon Sharafiddinov siymosi XX-asrda o'zbek xalqining buyuk muallimlaridan biri, muallimlar muallimi bo'lib qolaverdi. U o'z alifbesini takomillashtirish ustida muttasil izlandi, nihoyat davr shiddatiga kuchi yetmay qolgach, "yangi programma va yangicha o'qitish munosabati bilan" uni qayta ko'rish zaruriyatini his qilish tufayli 1974-yilda boshlang'ich ta'lim muammolarining yirik tadqiqotchisi Qumri Abdullaevani hammualliflikda izlanishga da'vat etdi. Hamkorlik esa "Alifbe"iing yanada takomillashuviga, qolaversa, yana 20-yilcha muddat davomida o'qish va o'rgatishda yaroqli bo'lib qolshini ta'minladi.

Oqilxon Sharafiddinov e'tiroficha bunda Qumrixon Abdullaevaning "O'z mahorati, bilimi va zakovatini namoyish" qilavergani ham ayrica rol o'ynadi. Bu "Alifbe" shu qadar fazilatlariga ega bo'lishiga qaramay, unda sho'ro davri mafkurasi kasri seziladi, qolaversa, hatto ayrim o'rinlarda kompilyativlik qusurlaridan ham qutula olmagan edi. Undagi bunday qusurlar haqida O'zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjon "Alifbe"dagi sirli qop (*"Yoshlik"jurnali, 1988, 3-son, 56-59 b*) va yana boshqa bir sevimli bolalar shoiri Tursunboy Adashboev "Sirli qop" - tahrirbop (*"Yoshlik" jurnala, 1988, 10 -son, 75- 76 b*), shuningdek, o'zga bir qator mualliflar kuyunchaklik bilan yozgandilar. Ayniqsa, A.Obidjon "Alifbe"ni «yaratish va takomillashtirishdagi katta mehnatlar, izlanishlar uchun mualliflar oldida ta'zim bajo keltirishi"ni ta'kidlab, undagi qator qusur va kamchiliklarni asosli qilib ochib tashladi va ularni bartaraf etishga oid takliflarni ham o'rta tashladi. Inchunin,



u talay harflarning, jumladan, “A”, “O”, “N”, “A”, “U” va boshqalarning yozilishini o’rganishga bag’ishlangan sahifalarga berilgan rasmlar o’sha harflarni o’rganishga to’la xizmat qilmasligini, qolaversa, rus “Azbuka”siga kompilyativlik bilan - yondashganliklaridan “M” harfida o’zbek turmushiga u qadar mos kelmovchi “malina”so’zi va uning rasmini, “B” va “Sh” harflari sahifalarida rus xalq ertaklari “Bo’g’irsoq” va “Sholg’om” mazmuniga mos rasmlarni berganliklari, bunda ruslardagi “malina”ning o’zbeklarda “parmonchak”deyilishini, “Bo’g’irsoq” so’zidagi yetti harfdan beshtasi - o’, g’, r, s, q harflari hali o’rganilmagan bir sharoitda bu so’zni ko’chirib yozish ko’r-ko’ronalikka olib kelishini o’ylab ham ko’rmaganliklarini mantiqli tahlil qilib ko’rsatdi. “Bolani chalg’itishga, uning o’rganishi va o’zlashtirishni qiyinlashtiradigan” bunday misollar “Alifbe”da behad ko’pligini ta’kidlab, “darslikni deyarli qayta tuzish kerak”degan xulosani o’rtaga tashlaydi. So’ngra o’zi kirill yozuvidagi o’zbek alifbosidagi 33 harf va 2 ta belgining har birini qaysi so’z va rasm bilan ifodalashga doir aniq takliflarini bayon qiladi, uning takliflarida talay e’tiborli nuqtalar bor. Shunga qaramay, d, q, j, e, ch, sh, yu, ya harflariga oid takliflarida e’tiroz uyg’otadigan mulohazalar ham yetarli. Chunki, o’sha harflarga oid so’zlar va rasmlar o’zbekona turmushga o’zlashgan esa-da, hali 1-sinf o’quvchilari anglashiga qiyinchilik tug’dirishi tabiiydir. E” harfida yelkan va uning rasmi taklif qilinsa, “Sh” harfida yana rus xalq ertagi “Sholg’om”ga oid rasmlar taklif qilingan. Qolaversa, “d”

harfida “xirmondagi don”, “q” harfida “qand” rasmlari taklif qilinadiki, bularda aniqlik yetishmaydi, “yu”da oktyabryatlar yulduzchasi, «ya»da yashik rasmlari taklif qilinganki, bularda ham usha davrga xos g’oyalar aksini topgan, “yashik” o’zbekcha so’z emas.

Q.Abdullaeva mazkur “Alifbe”ni shu takliflar asosida bir qadar tuzatishga o’rindi, biroq XX asrning oxirlarida lotin alifbosiga ko’chilishi munosabati bilan uzlari safiga yangi mualliflarni qo’shgan holda tuzgan “Aiifbe”da shu takliflardan unumliroq foydalandi, O.Sharafiddinov, Q.Abdullaeva, K.Nazarov, M.Rozixojaeva, S.Ma’rufjonovlar hamkorligida lotin yozuvida bitilgan “Alifbe” (“Shodlik”) 1996 - 2000-yillarda besh marta chop qilindi. Unda O harfida qushlarni, L harfida lola, U harfida uzum, O’ harfida o’poq, F harfida fil, S harfida g’oz rasmlarining berilishida qay darajadadir A.Obidjon takliflari ta’sirini sezmaslikning iloji yo’q. Binobarin, bunday ta’sir izlari keyin yaratilgan alifbelarda ham ko’zga tashlanadi. Jumladan R.Safarova, M.Inoyatova, M.Shokirova, L.Shermamatovalar yaratgan va 2003-yildan hozirgacha besh nashri amalga oshgan “Alifbe”da ham bunday holatni ko’zatish mumkin. Inchunun, tilga olingan “Alifbe”dagi A harfida ayiq, N harfida non, L harfida lola, V harfida baliq rasmlari berilganida o’sha takliflarning amaldagi ijrosi sezilarlidir.

Umuman, asr boshidan hozirga qadar o’zbek alifbo darsliklarining o’z tarixiy tadriji va rivojlanish negizlari mavjud bo’lib u jadedlar tomonidan boshlangan ilk harakatchilikka borib taqaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O’zbekiston Respublikasi Oliy Ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-5847-son Farmoni.

2. Sattarova, I. M., & Abdulmadjidova, M. (2021). Ta'lim Jarayoni Samaradorligini Oshirishda O'Yinli Texnologiyalardan Foydalanish Pedagogik Zaruriyat Sifatida. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(6), 5-9.

3. Сариев Ш.У.Бoshlang'ich sinf ўқиш дарсларида матн устида ишлаш орқали нутқ ўстириш назарияси ва амалиёти (1-, 2-сinf материаллари мисолида)): Пед. фан. номз. дисс. –Т:2020. 4. Тўхлиев Б., Шамсиева М., Зиёдова Т. Ўзбек тили ўқитиш методикаси. –Т: Янги аср авлоди, 2006

4. Doniyarov M., Mamarahimova N. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy madaniyatini shakllantirishda innovatsion yondoshuvning ahamiyati. Архив Научных Публикаций JSPI. 2020 y.

5. Hamzayevna, O. M. (2023). Creative approach in developing the communication skills of primary class guards. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, 2(5), 55

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ]

[AUTHORS INFO]

Nusratova Hamida Cho'liyevna

Buxoro davlat universiteti dotsenti,

Zubaydullayeva Madinabonu Kamol qizi

Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA NUTQ MADANIYATINI TAKOMILLASHTIRISH USULLARI



Ozodova Madina Hamza qizi

Buxoro davlat universiteti, Buxoro shahri

Annotatsiya:

KIRISH: Ushbu maqolada nutqni shakllantirish, nutqning sofligiga erishish yo'llari, boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini o'stirish usullari, shuningdek o'quvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish haqida so'z yuritilgan bo'lib, nutq madaniyatini takomillashtirish usullari ham keltirilgan.

MAQSAD: boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq madaniyatini tarkib toptirish orqali ularning nutq sofligiga, so'z boyligini oshirish, adabiy til me'yorlariga amal qilishni hamda nutq madaniyatini takomillashtirish usullarini ishlab chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: O'quvchilar nutqini o'stirish o'z metodik vositalariga ega, o'zining mashq turlari bor. Bulardan eng muhimlari bog'lanishli nutq hisoblanadi. Nutq o'stirishda izchillik to'rt shartni, ya'ni mashqlarning izchilligini, istiqboli, xilma-xilligi, xilma-xil mashq turlarini umumiy maqsadga bo'ysundirish ko'nikmasini amalga oshirish bilan ta'minlanadi. Har bir yangi mashq oldingisi bilan bog'lanadi va keyingisiga o'quvchini tayyorlaydi, umumiy maqsadga bo'ysungan holda yana qandaydir yangilik qo'shadi. Maktabda o'quvchilar nutqini o'stirishga ona tili o'qitishning asosiy vazifasi deb qaraladi. Nutq o'stirish faqat ona tili va o'qish savodxonligi darslaridagina emas boshqa fanlarda ham amalga oshirilishi mumkin.

XULOSA: O'quvchilar nutqini o'stirishning mashg'ulotning boshqa turlari bilan bog'liqligi. O'quvchilar nutqini o'stirish boshqa o'quv predmetlaridan o'tkaziladigan mashg'ulotlar bilan ham uzviy ravishda bog'lanadi. Ona tili darslarida o'quvchilar til yordamida tabiat va kishilar hayoti haqida bilim oladilar: ular kuzatishni, o'ylashni va ko'rganlari, eshitganlari, o'qiganlari haqida to'g'ri bayon qilishni o'rganadilar. Ona tili darslari bolalar lug'atini boyitishga samarali yordam beradi, nutqni to'g'ri tuzishni o'rgatadi. O'qish savodxonligi darsi va u bilan bog'liq holda olib boriladigan kuzatish, ekskursiya o'quvchilarga tabiat hodisalari, kishilar hayoti va mehnati haqida, axloq qoidalari, boshqa kishilar bilan muomala normalari haqida bilim beradi; bu darsda bolalar nutqiga, uni shakllantirish va o'stirishga keng imkoniyat mavjud.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, nutq o'stirish, so'z boyligi, nutq madaniyati, tafakkur, fikr, usul.

МЕТОДЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ РЕЧИ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Озодова Мадина Хамзаевна

Бухарский государственный университет, город Бухара

Аннотация:

ВВЕДЕНИЕ. В данной статье говорится о формировании речи, способах достижения чистоты речи, методах развития речи младших школьников, а также о повышении речевой культуры учащихся, а также представлены методы повышения культуры речи.

ЦЕЛЬ: заключается в разработке способов повышения речевой культуры учащихся младших классов путем повышения чистоты их речи, словарного запаса, соблюдения норм литературного языка, культуры речи.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Развитие речи учащихся имеет свои методические средства, свои виды упражнений. Наиболее важным из них является связная речь. Последовательность в развитии речи обеспечивается выполнением четырех условий: последовательность упражнений, перспектива, разнообразие и умение подчинять разные виды упражнений общей цели. Каждое новое упражнение соединяется с предыдущим и готовит ученика к следующему, добавляет что-то новое, подчиненное общей цели. В школе развитие речи учащихся считается основной задачей обучения родному языку. Развитием речи можно заниматься не только на занятиях по родному языку и чтению, но и по другим предметам.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Связь речевого развития учащихся с другими видами обучения. Развитие речи учащихся неразрывно связано с деятельностью других учебных предметов. На занятиях родным языком учащиеся познают природу и жизнь людей с помощью языка: учатся наблюдать, думать, правильно описывать то, что видят, слышат и читают. Занятия родным языком эффективно помогают обогатить словарный запас детей, учат правильно структурировать речь. Занятие по чтению и связанные с ним наблюдения и экскурсии дают учащимся знания о явлениях природы, жизни и труде людей, правилах морали, нормах обращения с другими людьми; на этом занятии открываются широкие возможности для детской речи, ее формирования и роста.

Ключевые слова: Начальное образование, речевое развитие, словарный запас, культура речи, мышление, мышление, метод.

METHODS OF IMPROVING SPEECH CULTURE IN PRIMARY CLASS STUDENTS

Ozodova Madina Hamzayevna

Bukhara state university, Bukhara city

Annatation:

INTRODUCTION: This article talks about shaping speech, ways to achieve purity of speech, methods of developing speech of primary school students, as well as improving the speech culture of students, and methods of improving speech culture are also presented.

The connection of developing students' speech with other types of activities. The development of students' speech is also inextricably linked with activities in other subjects. In

native language lessons, students learn about nature and the life of people with the help of language: they learn to observe, think and correctly describe what they see, hear, and read. Native language lessons effectively help enrich children's vocabulary, teach them to correctly structure speech. The reading literacy lesson and the observation and excursion conducted in connection with it give students knowledge about natural phenomena, people's life and work, about morals, and about the norms of interaction with other people; this lesson provides ample opportunities for children's speech, its formation and development.

GOAL: The goal is to develop methods for improving the purity of speech and vocabulary of primary school students by instilling a culture of speech, adhering to literary language standards, and improving their culture of speech.

MATERIALS AND METHODS: The development of students' speech has its own methodological tools, its own types of exercises. The most important of these is connected speech. Consistency in the development of speech is ensured by the implementation of four conditions, namely the consistency of exercises, perspective, variety, and the ability to subordinate different types of exercises to a common goal. Each new exercise is connected with the previous one and prepares the student for the next, while subordinating it to a common goal, adding something new. The development of students' speech at school is considered the main task of teaching the native language. Development of speech can be carried out not only in the lessons of the native language and reading literacy, but also in other subjects.

Key words: Primary education, speech development, vocabulary, speech culture, thinking, thought, method.

Nutq-kishi faoliyatining turi, til vositalari (soʻz, soʻz birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq oʻzaro aloqa va xabar funktsiyasini, oʻzaro fikrni his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga taʼsir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishining aktiv faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. Nutqda fikr shakllantiriladi, shu bilan birga, fikr nutqni yaratadi. «Nutq tafakkur bilan chambarchas bogʻlangandir. Nutq boʻlmasa, tafakkur ham boʻlmaydi, til materiali boʻlmasa, fikrni ifodalab berib boʻlmaydi». Fikrni nutqiy shakllantirish uning aniq, tushunarli, sof, izchil, mantiqiy boʻlishini taʼminlaydi. Tilni egallash shu tilning fonetikasini, lugʻat tarkibini, grammatik qurilishini bilib olish, fikrni takomillashtirish uchun, tafakkurni oʻstirish uchun shart sharoit hozirlaydi. Bilimlar, dalillar, har-xil axborotlar tafakkurning ham, nutqning ham materialidir.

Nutq tafakkur jarayonini oʻrganishning muhim vositasi boʻlib xizmat qiladi. Nutqdan

oʻquvchi fikriy rivojining asosiy oʻlchovlaridan biri sifatida foydalaniladi. Oʻquvchining barcha oʻquv predmetlaridan materialni oʻzlashtirishi va umumiy aqliy rivojlanish haqida fikr yuritganda, u yoki bu mavzuni oʻquvchi oʻz nutqida (yozgan inshosida, axborotida, qayta hikoyalashda, savollarga bergan javobida) qanday bayon eta olishiga qaraladi. Shunday qilib, nutqni tafakkurdan ajratib boʻlmaydi, nutq tafakkur asosida rivojlanadi; fikr nutq yordamida pishib yetiladi, yuzaga chiqadi. Ikkinchi tomondan, nutqning oʻsishi fikrni shakllantirishga yordam beradi, takomillashtiradi. Nutq oʻzaro aloqa va xabar, oʻz fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga taʼsir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. Oʻquvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli taʼlim olish qurolidir.

Nutq oʻstirish nima? Agar oʻquvchi va uning tildan bajargan ishlari koʻzda tutilsa,

nutq o'stirish deganda tilni har tomonlama (talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishini, bog'lanishli nutqni) faol amaliy o'zlashtirish tushuniladi. Agar o'qituvchi ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda, o'quvchilarning tilning talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishi va bog'lanishli nutqni faol egallashlariga yordam beradigan metod va usullarni qo'llash tushuniladi. Shuning uchun ham grammatika va imlo dasturi tovushlar va harflar, so'z, gap, bog'lanishli nutq kabi qismlarni o'z ichiga olgan. Ona tili dasturining bo'limlari «Xat-savod o'rgatish va nutq o'stirish», «O'qish va nutq o'stirish», «Grammatika, imlo va nutq o'stirish» deb nomlangan. Nutq faoliyati uchun, shuningdek o'quvchilar nutqini o'stirish uchun bir necha shartga rioya qilish zarur:

1. Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab bo'lishi kerak. O'quvchilar nutqini o'stirishning metodik talabi o'quvchi o'z fikrini, nimanidir og'zaki yoki yozma bayon qilish xohishini va zaruriyatini yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi.

2. Har qanday nutqning mazmuni, materiali bo'lishi lozim. Bu material qanchalik to'liq, boy, qimmatli bo'lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo'ladi. Shunday ekan, o'quvchilar nutqini o'stirishning ikkinchi sharti nutqqa oid mashqlarning materiali haqida bo'lib, o'quvchi nutqi mazmunli bo'lishi uchun g'amxo'rlik qilish hisoblanadi.

3. Fikr tinglovchi tushunadigan so'z, so'z birikmalari, gap, nutq oborotlari yordamida ifodalansagina tushunarli bo'ladi. Shuning uchun nutqni muvaffaqiyatli o'stirishning uchinchi sharti – nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi. O'quvchilarga til namunalarini berish, ular uchun yaxshi nutqiy sharoit yaratish zarur. Nutqni eshitish va undan o'z tajribasida foydalanish natijasida bolalarda ta'lim metodikasi asoslanadigan ongli ravishda «tilni sezish» shakllanadi. Nutq o'stirishning metodik sharti nutqiy faoliyatning keng

tizimini yaratish, ya'ni, birinchidan, yaxshi nutq namunasini idrok etish, ikkinchidan, o'rgangan til vositalaridan foydalanib, o'z fikrini bayon etish uchun sharoit yaratish hisoblanadi. Bola tilni nutqiy faoliyat jarayonida o'zlashtiradi. Buning o'zi yetarli emas, chunki u nutqni yuzaki o'zlashtiradi. Nutqni egallashning qator aspektlari mavjud. Bular:

1. Adabiy til me'yorlarini o'zlashtirish. Maktab o'quvchilarni adabiy tilni sodda so'zlashuv tilidan, sheva va jargondan farqlashga o'rgatadi, adabiy tilning badiiy, ilmiy, so'zlashuv variantlari bilan tanishtiradi.

2. Jamiyatimizning har bir a'zosi uchun zarur bo'lgan muhim nutq malakalarini, ya'ni o'qish va yozish malakalarini o'zlashtirish. Bu bilan o'quvchilar yozma nutqning xususiyatlarini, uning og'zaki-so'zlashuv nutqidan farqini bilib oladi.

3. O'quvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish. Til jamiyatdagi eng muhim aloqa vositasidir. Tilning mana shu ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqib, maktabda o'quvchilarning nutq madaniyatiga alohida e'tibor beriladi. Bu vazifalarni bajarish uchun o'qituvchi o'quvchilar bilan rejali ish olib borishi lozim. Buning uchun esa o'quvchilar nutqini o'stirish ustida ishlash tushunchasiga nimalar kirishini bilib olish muhimdir. Nutq o'stirishda uch yo'nalish aniq ajratiladi:

- 1) so'z ustida ishlash;
- 2) so'z birikmasi va gap ustida ishlash;
- 3) bog'lanishli nutq ustida ishlash.

So'z, so'z birikmasi va gap ustida ishlash uchun lingvistik baza bo'lib leksikologiya (frazologiya va stilistika bilan birgalikda), morfologiya, sintaksis xizmat qiladi; bog'lanishli nutq esa mantiqqa, adabiyotshunoslik va murakkab sintaktik butunlik lingvistikasiga asoslanadi. Ko'rsatilgan uch yo'nalish parallel olib boriladi: lug'at ishi gap uchun material beradi; so'z, so'z birikmasi va gap ustida

ishlash bog'lanishli nutqqa tayyorlaydi. O'z navbatida, bog'lanishli hikoya va insho lug'atni boyitish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr "O'zbekiston Respublikasi Oliy Ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni.
2. Sattarova, I. M., & Abdulmadjidova, M. (2021). Ta'lim Jarayoni Samaradorligini Oshirishda O'Yinli Texnologiyalardan Foydalanish Pedagogik Zaruriyat Sifatida. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(6), 5-9.
3. Сариев Ш.У.Бoshlang'ich sinf ўқиш дарсларида матн устида ишлаш орқали нутқ ўстириш назарияси ва амалиёти (1-, 2-сinf материаллари мисолида)): Пед. фан. номз. дисс. –Т:2020. 4. Тўхлиев Б., Шамсиева М., Зиёдова Т. Ўзбек тили ўқитиш методикаси. –Т: Янги аср авлоди, 2006
4. Doniyarov M., Mamarahimova N. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy madaniyatini shakllantirishda innovatsion yondoshuvning ahamiyati. Архив Научных Публикаций JSPI. 2020 y.
5. Hamzayevna, O. M. (2023). Creative approach in developing the communication skills of primary class guards. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, 2(5), 55

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Ozodova Madina Hamza qizi
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti
Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri
m.h.ozodova@buxdu.uz

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IJODIY TASAVVURINI BOYITISHDA BOLALAR ADABIYOTINING TUTGAN O'RNI



Matkarimova Sayyora Askarbekovna
Osiyo xalqaro universiteti, Buxoro shaxri

Annotatsiya.

KIRISH: Mazkur maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy tasavvurini shakllantirishda va boyitishda bolalar adabiyotining ahamiyatini tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqot davomida bolalar adabiyoti o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, estetik didni shakllantirish va ma'naviy olamini boyitishda tutgan o'rni o'rganiladi. Shu bilan birga, mualliflar o'quvchilarning ijodiy salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan usullar va yondashuvlarni taklif qilishadi.

MAQSAD: Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy tasavvurini rivojlantirishda bolalar adabiyotining tutgan o'rnini aniqlash va uning samarali usullarini o'rganish.

MATERIALLAR VA USULLAR:

- Bolalar adabiyotiga oid asarlarni tahlil qilish.
- Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan amaliy tadqiqot o'tkazish.
- Pedagogik yondashuvlarni tahlil qilish va sinovdan o'tkazish.
- Statistik ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish.

XULOSA: Bolalar adabiyoti boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy tasavvurini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ularning ijodiy salohiyatini oshirish uchun didaktik materiallardan foydalanish, o'quvchilarning adabiy asarlar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish va turli pedagogik usullarni qo'llash samarali natijalar beradi.

Kalit so'zlar: Bolalar adabiyoti, ijodiy tasavvur, boshlang'ich sinf, estetik tarbiya, ijodiy salohiyat, mantiqiy fikrlash.

РОЛЬ ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ В РАЗВИТИИ ТВОРЧЕСКОГО ВОООБРАЖЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ.

Маткаримова Сайёра Аскарбековна
Международный университет Азии, г. Бухара

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: Данная статья посвящена анализу значения детской литературы в формировании и обогащении творческого воображения учащихся младших классов. В ходе исследования изучается роль детской литературы в развитии навыков логического мышления учащихся, формировании эстетического вкуса и обогащении их духовного мира. При этом авторы предлагают методы и подходы, направленные на повышение творческого потенциала студентов.

ЦЕЛЬ: Определить роль детской литературы в развитии творческого воображения младших школьников и изучить ее эффективные методы.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:

- Анализ произведений детской литературы.
- Проведение практических исследований с учениками младших классов.
- Анализ и апробация педагогических подходов.
- Сбор и анализ статистических данных.

ВЫВОД: Детская литература играет важную роль в развитии творческого воображения учащихся младших классов. Для повышения их творческого потенциала эффективные результаты даст использование дидактических материалов, развитие навыков учащихся в работе с литературными произведениями, применение различных педагогических методов.

Ключевые слова: Детская литература, творческое воображение, начальная школа, эстетическое воспитание, творческий потенциал, логическое мышление.

THE ROLE OF CHILDREN'S LITERATURE IN ENRICHING THE CREATIVE IMAGINATION OF PRIMARY CLASS STUDENTS.

Matkarimova Sayyora Askarbekovna

International university of Asia, Bukhara city

Annotation.

INTRODUCTION: This article is devoted to the analysis of the importance of children's literature in forming and enriching the creative imagination of elementary school students. During the research, the role of children's literature in developing students' logical thinking skills, forming aesthetic taste and enriching their spiritual world is studied. At the same time, the authors offer methods and approaches aimed at increasing the creative potential of students.

GOAL: To determine the role of children's literature in the development of creative imagination of primary school students and to study its effective methods.

MATERIALS AND METHODS:

- Analysis of children's literature works.
- Conducting practical research with elementary school students.
- Analysis and testing of pedagogical approaches.
- Collection and analysis of statistical data.

CONCLUSION: Children's literature plays an important role in the development of creative imagination of elementary school students. To increase their creative potential, the use of didactic materials, the development of students' skills in working with literary works, and the use of various pedagogical methods will give effective results.

Key words: Children's literature, creative imagination, elementary school, aesthetic education, creative potential, logical thinking.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy tasavvurini boyitishda bolalar adabiyotining tutgan o'rni juda muhimdir. Bu yosh davrda bolalar dunyoqarashi, his-tuyg'ulari va tasavvuri tez rivojlanadi,

shuning uchun ular uchun maxsus yozilgan badiiy asarlar orqali ularga o'rgatish samarali hisoblanadi.

Bolalar adabiyotining quyidagi asosiy jihatlarini boshlang'ich sinf o'quvchilarining

ijodiy tasavvurini boyitishda muhim ahamiyatga ega:

1. Fantaziyani rivojlantirish

Bolalar adabiyotidagi ertaklar, qahramonlar va g'ayrioddiy voqealar bolalarning tasavvurini kengaytiradi. Ertaklardagi sehrli voqealar, obrazlar va hikoyalar bolalarning qiziqishini uyg'otib, ularni o'z dunyoqarashini shakllantirishga undaydi.

2. Estetik hissiyotlarni rivojlantirish

Go'zal til, obrazli tasvirlar va hissiyotga boy voqealar bolalar estetik zavqini oshiradi. Bu esa ularning san'at, tabiat va badiiy ijodga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

3. Axloqiy va tarbiyaviy o'rnak

Bolalar adabiyoti qahramonlarining xatti-harakatlari orqali bolalar yaxshi va yomonni ajratishni o'rganadi. Bu, o'z navbatida, ijodiy yondashuvda axloqiy qadriyatlarni aks ettirishga yordam beradi.

4. Til boyligini oshirish

Adabiy asarlarni o'qish bolalarning so'z boyligini kengaytiradi, ular yangi so'zlar, iboralar va ifoda shakllarini o'zlashtiradi. Bu ijodiy yozuv va og'zaki nutqni rivojlantirish uchun asos bo'ladi.

5. Hikoya qilish va yozuv ko'nikmalarini rivojlantirish

Bolalar adabiyotidagi hikoyalar ularni o'z tasavvuridagi voqealarni ifodalashga undaydi. Bu esa ularning mustaqil fikrlashi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Tavsiyalar:

- **Bolalarga mos asarlarni tanlash:** Ularning yosh xususiyatlariga mos, qiziqarli va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan asarlar tanlanishi kerak.

- **O'qish jarayonini qiziqarli qilish:** O'qish bilan birga teatrlashtirilgan sahnalar yoki rasmlar chizish kabi ijodiy mashg'ulotlar qo'shilishi maqsadga muvofiq.

- **Mustaqil ijodga rag'batlantirish:** Bolalarni o'z hikoyalarini yozishga, ertak uylab topishga yoki qahramonlar yaratishga undash kerak.

Bolalar adabiyoti, shubhasiz, ijodiy tasavvurni rivojlantirishda qudratli vosita bo'lib, u nafaqat bolalarning aqliy rivojlanishini, balki ularning shaxsiy shakllanishini ham ta'minlaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy tasavvurini boyitishda bolalar adabiyotining roli juda katta. Bolalar adabiyoti nafaqat qiziqarli hikoyalar va ertaklar, balki ularning fikrlash, tasavvur qilish, va yaratuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Quyida bolalar adabiyotining boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy tasavvurini boyitishga qanday ta'sir ko'rsatishi haqida bir necha asosiy nuqtalarni keltirib o'taman:

1. Tasavvur va Fantaziya Rivoji: Bolalar adabiyoti rang-barang obrazlar, fantastik voqealar va qiziqarli personajlar bilan to'ldirilgan bo'lib, bu o'quvchilarning tasavvurini kengaytiradi. Masalan, ertaklardagi sehrli olamlar ularni yangi g'oyalar va imkoniyatlarga ochadi.

2. Emotsional Rivojlanish: Hikoyalar orqali bolalar turli his-tuyg'ularni boshdan kechirishadi. Bu ularga empatiya (boshqalarni tushunish) qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. O'zlariga qiziq bo'lgan yoki og'riqli vaziyatlarni ko'rish orqali o'z his-tuyg'ularini anglash imkoniyatiga ega bo'lishadi.

3. Til Va Nutq Rivoji: Bolalarning adabiyotga bo'lgan qiziqishi ularning nutqini, lug'at boyligini va ifoda qilish qobiliyatini oshiradi. Har xil janrlardagi asarlar orqali yangi so'zlar, iboralar va tuzilmalarni o'rganadilar.

4. Kreativlikni Rag'batlantirish: O'qilgan hikoyalarga asoslangan ijodiy ishlar (masalan, rasm chizish yoki o'z hikoyasini yozish) bolalarda kreativ fikrlashni rag'batlantiradi. Ular o'z g'oyalarini amalga oshirishga intilishadi.

5. Madaniy Merosni O'rganish: Bolalar adabiyoti orqali milliy qadriyatlar, an'analar va madaniyat haqida ma'lumot olishadi. Bu



ularni o'z tarixiga va kelajagiga nisbatan mas'uliyat hissi bilan to'ldiradi.

6. Mantiqiy Fikrlashni Rivojlantirish: Ertaklarda mantiqiy xulosalarni chiqarishga yordam beradigan ko'p holatlar mavjuddir. Bolalar muammolarni hal etish jarayonida analitik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Bolalar uchun ijod etish an'analari juda erta boshlangan bo'lib, uzoq tarixga ega. Ertaklar, maqollar, topishmoqlar, qo'shiq (allalar, o'yin qo'shiqlari, ovunmaqchoqlar, erkalatmalar, sanoqlama)lar singari turli janrlarda yaratilgan asarlar, awalo, folklor namunalari sifatida paydo bo'lgan. Rus bolalar adibi M.Gorkiy aytganidek, so'z san'atining boshlanishi folklorda ekan, shubhasiz, bolalar adabiyotining ilk namunalari ham xuddi shu folklor bag'rida shakllana boshlagan. Barcha xalqlar bolalar adabiyotining vujudga kelishidagi mushtaraklik har bir xalqning ma'naviy tafakkuri taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq holda sodir bo'lgan va rivojlana borgan. Shu tariqa, xalqning o'zi farzandlari uchun maxsus adabiyotni maydonga keltirish tashabbuskori bo'lib chiqqan. Chunonchi, o'zbek xalqi orasida jodugar kampir, yalmog'iz, uchar ilon, To'g'ri va Egri to'g'risidaga ertaklar keng tarqalgan bo'lsa, O'rta Osiyo xalqlarida esa Shiroq, To'maris, Guldursun, Zarina, Sparetra, Odatida haqidagi afsonalar zo'r shuhrat qozongani Gerodot asarlari va boshqa qadimiy manbalardan ma'lumdir. Holbuki, bu ma'lumotlarning aksariyati eramizdan avvalgi VI - IV asrlarga borib taqaladi. O'rta Osiyo xalqlari madaniyatining keyingi taraqqiyotiga xos hodisa hind va arab folklori namunalari kirib kelishi, yoyilishi, yerli xalqlar og'zaki ijodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatib singa borishidir. Bu, asosan, yangi eraning boshlanishiga to'g'ri kelib, O'rta Osiyo xalqlarida yozma adabiyotining vujudga kelishigacha davom etdi. Keyinchalik esa, yozma adabiyotda ham

an'anaviylik muvozanatini ancha muddat saqlab qoldi. Chunonchi, "Panchatantra", "Kalila va Dimna" hamda "Ming bir kecha", "Vitaliyning yigirma besh hikoyasi" ertaklarining tarqalishi ana shunday mohiyat kasb etdi.

Ijodkor xalq badiiy so'zning yosh avlod tarbiyasidagi kuchi va jozibasiga qadim zamonlardayoq ishongan. U o'zining eng noyob asarlarini so'z mo'jizasi bilan bunyodga keltirgan. Badiiy so'z-xalqning barcha madaniy boyliklarini abadiylashtirgan. Hali yozuv nimaligini bilmagan vaqtlarda ham odamlar o'yinkuligini, surat chizishni bilardi. Xalqimiz bag'ridan ajoyib iste'dod sohiblari: mutriblar va naqqoshlar, roviylar va sangtaroshlar yetishib chiqqan. Ana shunday olis tarixning izlari, akssadolari xira bo'lsa-da, xalq tennalari va dostonlarida, ona allalari va bola o'qinlarida saqlanib qolgan. Maqol va matallar, ertak va afsonalar, latifa va chistonlar hamda qahramonlik dostonlariga xalqning aql-zakovati, orzu-havasi, ruhi va irodasi singdirilgan. Xalq ijodi shu xalqning birgalikdagi donoligi, san'ati mahsulidir. Bularning hammasidan bolani aqliy va jismoniy jihatdan sog'lom qilib o'stirishda, murg'ak qalbni chiniqtirishda samarali foydalanilgan. Bola endilikda dunyoga kelgan kunidan boshlab onaning ardog'ini, yoqimli allasini eshitadi. Bolalar uchun maxsus yaratilgan bu alia kishi ongiga ona suti bilan kiradi. Keyinchalik u tobora kengayadi, rang-barang ohanglar, xilma-xil obrazli so'zlar bilan to'la boshlaydi. Astasekin kattalarning bolalarga ataganlari, ertaklar, allalar, ermaklar, maqollar, topishmoqlar, tez aytishlar shaklida to'planib, kichkintoylar uchun kattagina og'zaki badiiy adabiyot yuzaga keladiki, shu adabiyotning barakali ta'sirida bolaning ma'naviy dunyosi shakllanadi. Bunday adabiyot bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan, bola ruhiyatining hamma qirralarini o'zida aks ettirgan bo'ladi. Bolalar ermaklari, o'yinlari,

qo'shiqlari esa ulaming kelgusidagi amaliy xatti-harakatlari uchun poydevor hozirlaydi. Bolalar o'z harakatlarida, mashg'ulotlarida kattalarga taqlid qiladilar, tezroq ulg'ayishni orzu qiladilar. Bolani yoshligidayoq foydali ishlarga o'rgatish, o'yinlari, qo'shiqlari, mashg'ulotlari orqali bo'lsa-da uni ommaning oddiy, lekin munosib a'zosi qilib o'stirish, tez o'suvchan, bitmas-tuganmas faoliyatini jamiyat uchun foydali ishga yo'naltirish butun insoniyat oldidagi eng muhim vazifa

bo'lib kelgan. Bunda bolalar folklorining xizmati beqiyos kattadir. Bolalar folklori bolalarda eng yaxshi insoniy fazilatlarini vatanparvarlik, mehnatga muhabbat, kishilarga ishonch, do'stlarga sadoqat tuyg'ularini, kattalar bilan birgalikda tabiat olzgarishlariga qarshi kurashish va ulami yengish malakalarini tarbiyalaydi. Turgan gap, bu omillarning hammasini bolalar kayfiyatini, didini, xarakterini bilmasdan turib amalga oshirib bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Akbarovna, I. S. (2024). THE IMPORTANCE OF COMPARATIVE PEDAGOGY IN PRESCHOOL EDUCATION. *MASTERS*, 2(8), 22-27.
2. Akbarovna, I. S. (2024). O'QITUVCHINING KASBIY MALAKALARI. *MASTERS*, 2(8), 15-21.
3. Akbarovna, I. S. (2024). ЗНАЧЕНИЕ СРАВНИТЕЛЬНОЙ ПЕДАГОГИКИ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ. *PSIXOLOGIYA VA SOTSIOLOGIYA ILMIY JURNALI*, 2(7), 14-20.
4. Akbarovna, I. S. (2024). ПРОФЕССИОНАЛЬНЫЕ НАВЫКИ УЧИТЕЛЯ. *PSIXOLOGIYA VA SOTSIOLOGIYA ILMIY JURNALI*, 2(7), 7-13.
5. Akbarovna, I. S. (2024). PROFESSIONAL SKILLS OF THE TEACHER. *WORLD OF SCIENCE*, 7(8), 1-7.
6. Akbarovna, I. S. (2024). МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМДА Qiyosiy PEDAGOGIKANING AHAMIYATI. *WORLD OF SCIENCE*, 7(8), 8-13.
7. Akbarovna, I. S. (2024). SPORT O 'YINLARI REJASI ORQALI SOG 'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLAR. *MASTERS*, 2(5), 91-97.
8. Akbarovna, I. S. (2024). ЗДОРОВАЯ СЕМЕЙНАЯ СРЕДА КАК СОЦИАЛЬНЫЙ ФАКТОР ПОДГОТОВКИ МОЛОДЕЖИ К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ. *MASTERS*, 2(5), 98-104.
9. Akbarovna, I. S. (2024). A HEALTHY FAMILY ENVIRONMENT AS A SOCIAL FACTOR IN PREPARING YOUNG PEOPLE FOR FAMILY LIFE. *WORLD OF SCIENCE*, 7(5), 529-535.
10. Akbarovna, I. S. (2023). Formation of Ideological Immunity to Destructive Information in Adolescents. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 119-122.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ]

[AUTHORS INFO]

Matkarimova Sayyora Askarbekovna
Osiyo xalqaro universiteti magistranti,
Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri
matkarimovasayyora7@gmail.com

**KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARNING MA'NAVY-AXLOQIY
TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK TIZIMI.**



Nassullayeva Dildor Sharofovna
Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya.

KIRISH: Yosh avlodga tarbiya berishdek murakkab vazifani hal etishda maktab juda katta ahamiyat kasb etadi. Ayni shu joyda yoshlarimiz ijtimoiy jamiyat va ilmiy texnika taraqqiyoti talablariga javob bera oladigan mukammal ma'lumotlarni oladilar. Maktab yoshlarining dunyoqarashlariga poydevor hamda g'oyaviy e'tiqodlari uchun negiz yaratadi, ularning irodalarini shakllantiradi, xalqimiz baxtsaodati yo'lida sidqi dildan mehnat qilishga taayyorlaydi. Shuning uchun ham mamlakatimizda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (2020 yil 23.09) ta'lim tizimining buguni va kelajagiga umid bilan qarashga undaydi. Hozirgi zamon maktabi tubdan yangilanmoqda. Maqolada shu kabi ilmiy xususiyatlar haqida fikr bildirilgan.

MAQSAD: Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishning pedagogic xususiyatlarini ishlab chiqish.

MATERIALLAR VA METODLAR: Inson va jamiyatning o'zaro ta'sirining natijasi ijtimoiylashuv jarayonidir. Shaxs ma'lum bir jamiyatga kirganda, o'sha jamiyatning qoidalarga bo'ysunishga majbur bo'ladi. Ya'ni, jamiyat unga ta'sir qiladi. Ammo shaxs ham keyinchalik o'zining boshqa jamiyatlarda orttirgan bilimi, tajribasini bu jamiyatga ham olib kira boshlaydi va o'z navbatida shaxs ham jamiyatning o'zgarishi, takomillashishiga ham ta'sir qiladi. Shaxsning ijtimoiylashuvi jarayoni butun umri davomida davom etadi, chunki jamiyat doimo rivojlanishda bo'lib, doimiy o'zgarishlar va yangilanishlarni sinab ko'radi. Jamiyat ichidagi insonlar ham bu yangilanishlarga moslashishga majbur. Aks holda boshqa jamiyatlarga ketish yoki ajralib chiqishlariga to'g'ri keladi. Hozirgi XXI-asrdagi jamiyatlarning ko'pchiligi oldingi davrlardan ko'ra ancha tolerantroq va bag'rikengroq. Yosh avlodni jamiyatda o'z o'rni va o'z pozitsiyasida tura olishi uning maktab va oilada rivojlantirilgan ijtimoiylashuv jarayoniga ko'p jihatdan bog'liq.

XULOSA: Bolaning ijtimoiylashuvida tarbiyaning ham alohida o'rni bor. Avvalo oiladagi tarbiya, so'ngra maktabga qadam qo'ygandan keyin pedagog tomonidan beriladigan tarbiya. Chunki kichik yoshdagi o'quvchilar yangi sharoitlarga moslashish jarayonida asosiy ijtimoiylashuv agenti o'qituvchisi hisoblanib, bola ba'zan ota-onasidan ham ko'proq u bilan ko'proq muloqot qiladi. Shuning uchun ham biz pedagoglardan o'z kasbimizga mas'uliyat bilan yondashib va har bir o'quvchini o'z farzandimizdek ko'rib, kelajagiga befarq bo'lmasligimiz zarur.

Kalit so'zlar: o'quvchi, shaxs, tarbiya, inson, maktab, ta'lim, tarbiya, axloq, odob, pedagog, taraqqiyot, sinf, balog'at yoshi, kichik maktab yoshi, ontogenez.

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ СИСТЕМА ФОРМИРОВАНИЯ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ ШКОЛЬНИКОВ.

Насуллаяева Дилдор Шарофовна

Магистрант Международного Азиатского университета

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: Школа имеет очень важное значение в решении непростой задачи воспитания молодого поколения. Здесь наша молодежь получит прекрасную информатсию, способную удовлетворить потребности общества и научно-технического развития. Школа создает основу мировоззрения и идеологических убеждений молодежи, формирует ее волю, готовит к упорному труду на благо счастья нашего народа. Именно поэтому принятый в нашей стране Закон «Об образовании» (23 сентября 2020 года) призывает нас с надеждой смотреть на настоящее и будущее системы образования. Современная школа полностью реконструируется. В статье комментируются такие научные особенности.

ЦЕЛЬ: Разработка педагогических особенностей формирования духовно-нравственного воспитания учащихся младшего школьного возраста.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Результатом взаимодействия человека и общества является процесс социализация. Когда человек попадает в определенное общество, он вынужден подчиняться правилам этого общества. То есть общество влияет на него. Однако в дальнейшем личность начинает приносить в это общество знания и опыт, полученные в других обществах, а личность, в свою очередь, также влияет на изменение и совершенствование общества. Процесс социализация человека продолжается на протяжении всей его жизни, поскольку общество постоянно развивается, постоянно пробует изменения и обновления. Люди внутри общества также вынуждены адаптироваться к этим обновлениям. В противном случае им придется уйти в другие общества или отделиться. Большинство обществ XXI века гораздо более толерантны и толерантны, чем в предыдущие эпохи. Способность молодого поколения стоять на своем месте и положении в обществе во многом зависит от процесса социализация, развивающегося в школе и семье.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Особую роль в социализация ребенка играет образование, прежде всего, воспитание в семье, затем образование, которое дает педагог после поступления в школу. Потому что педагог считается главным агентом социализация в процессе адаптация младших школьников к новым условиям, и ребенок порой общается с ним больше, чем со своими родителями. Именно поэтому нам, педагогам, необходимо ответственно подходить к своей профессии и относиться к каждому ученику как к своему ребенку, не быть равнодушными к его будущему.

Ключевые слова: ученик, человек, образование, человек, школа, образование, воспитание, нравственность, манеры, педагог, развитие, класс, взрослая жизнь, младший школьный возраст, онтогенез.

PEDAGOGICAL SYSTEM OF FORMING THE SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Nassullayeva Dildor Sharofovna

Graduate student of Asia International University

Annotation.

INTRODUCTION: The school plays a very important role in solving the complex task of educating the young generation. In this place, our young people will receive excellent information that can meet the requirements of social society and scientific and technical development. The school creates a foundation for young people's worldviews and ideological beliefs, shapes their will, prepares them to work hard for the happiness of our nation. That is why the Law "On Education" adopted in our country (September 23, 2020) encourages us to look with hope at the present and the future of the education system. The modern school is being completely renovated. The article comments on such scientific features.

GOAL: To develop pedagogical features of the formation of spiritual and moral education of students of junior school age.

MATERIALS AND METHODS: The result of interaction between man and society is the process of socialization. When a person enters a certain society, he is forced to obey the rules of that society. That is, society affects him. However, later on, the individual begins to bring the knowledge and experience gained in other societies to this society, and in turn, the individual also affects the change and improvement of the society. The process of socialization of a person continues throughout his life, because society is constantly evolving, constantly trying changes and updates. People within the society are also forced to adapt to these updates. Otherwise, they will have to go to other societies or separate. Most of the societies in the 21st century are much more tolerant and tolerant than in previous eras. The ability of the young generation to stand in its place and position in society largely depends on the process of socialization developed in school and family.

CONCLUSION: Education has a special role in the socialization of a child. First of all, education in the family, then education given by a pedagogue after entering school. Because the teacher is considered the main agent of socialization in the process of adaptation of young students to new conditions, and the child sometimes communicates with him more than his parents. That is why it is necessary for us pedagogues to approach our profession responsibly and treat every student as our own child, and not be indifferent to their future.

Key words: student, person, upbringing, person, school, education, education, morals, manners, pedagogue, development, class, adulthood, junior school age, ontogenesis.

Tarbiya deganda shakllanayotgan shaxsda shaxsiy, axloqiy sifatlarini shakllantirishni tushunamiz. Tarbiya, ta'lim berish bilan mustahkam aloqada bo'lgani holda o'ziga xos qonuniyatlarga ham egadir. Ta'lim – tarbiya yagona jarayondir. Lekin, ular bir-biriga aynan o'xshash emas. Ta'lim va tarbiyaning birligi avvalo, ularning maqsadining umumiyligidadir.

Abdulla Avloninining «Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bo'lsa ham bir biridan ayrilmaydigan, birining biriga bog'langan kabitur» deb ta'kidlashi bejiz emas. Ma'lum bo'ladiki, ta'lim va tarbiyani bir-biridan ajratish mumkin emas. Shu bois,

hozirgi kun pedagogikasining asosiy vazifasi bilim berib, tarbiyalash tamoyiliga ko'ra tarbiyalab, bilim berish bo'lmog'i lozim.

Inson va jamiyatning o'zaro ta'sirining natijasi ijtimoiylashuv jarayonidir. Shaxs ma'lum bir jamiyatga kirganda, o'sha jamiyatning qoidalariga bo'ysunishga majbur bo'ladi. Ya'ni, jamiyat unga ta'sir qiladi. Ammo shaxs ham keyinchalik o'zining boshqa jamiyatlarda orttirgan bilimi, tajribasini bu jamiyatga ham olib kira boshlaydi va o'z navbatida shaxs ham jamiyatning o'zgarishi, takomillashishiga ham ta'sir qiladi. Shaxsning ijtimoiylashuvi jarayoni butun umri davomida davom etadi,



chunki jamiyat doimo rivojlanishda bo'lib, doimiy o'zgarishlar va yangilanishlarni sinab ko'radi. Jamiyat ichidagi insonlar ham bu yangilanishlarga moslashishga majbur. Aks holda boshqa jamiyatlarga ketish yoki ajralib chiqishlariga to'g'ri keladi. Hozirgi XXI-asrdagi jamiyatlarning ko'pchiligi oldingi davrlardan ko'ra ancha tolerantroq va bag'rikengroq. Yosh avlodni jamiyatda o'z o'rni va o'z pozitsiyasida tura olishi uning maktab va oilada rivojlantirilgan ijtimoiylashuv jarayoniga ko'p jihatdan bog'liq.

Hozirda boshlang'ich ta'lim tizimining asosiy vazifalari o'quvchilarni har tomonlama barkamol shaxs etib tarbiyalash maqsadida ularga mustaqil fikrlash, o'zligini anglash, bilimlarni o'rganishda, maktabda va maktabdan tashqari ishlarda faollik, boy ma'naviyatimiz va qadriyatlarimizni o'rgatish, o'z shaxsidagi "men"ni tanitish, yuksak axloqiy fazilatlar va estetik ruhda tarbiyalashdan iborat.

Kichik maktab yoshidagi bola shaxsining ijtimoiy faolligini rivojlantirish maktab ta'limini modernizatsiya qilishning strategik yo'nalishlaridan biridir. Kichik maktab yoshi 7 yoshdan 11 yoshgacha davom etadi. Bola rivojlanishining ijtimoiy holati jiddiy o'zgarishga uchraydigan bosqichi. Bu davrda u maktabga ya'ni ta'lim dargohiga chiqadi va uning zimmasiga ma'lum qoidalarga amal qilish, vazifalarni bajarish kabi ma'suliyatlar tushadi. Ijtimoiylashuvda muhim odamlar sifatida tengdoshlarning ahamiyatini ham ta'kidlab o'tmoq kerak. Tengdoshlar shaxsiyat ijtimoiylashuvining alohida agentlari sifatida ajralib turadi. Nima uchun ular bolaning rivojlanishi uchun juda muhim? O'spirin va undan katta yoshdagi odam o'zini qiziqtirgan ma'lumotlarga ehtiyoj sezadi. Bu kattalar tomonidan emas, balki tengdoshlar tomonidan to'liq ta'minlanishi mumkin. Shu sababli, qiziqish guruhlari shakllantirilib, ularda shaxsiyat rivojlanishda davom etadi. Ba'zi bolalar

sinflar ichida o'ziga o'xshagan do'stlar bilan tez til topishishadi, bunda ularning o'zaro qiziqish, dunyoqarashlarining mos kelishi sabab. Ota-onalar bolani noto'g'ri sozlangan submultural guruhlar ta'siriga tushib qolmasligi uchun boshqarishi kerak. Pedagog esa ota-onalarga nisbatan kichik maktab yoshidagi bola shaxsiyatini rivojlantirishga juda katta ta'sir kuchiga ega. Pedagogning har bir o'rgatgan bilimlarini kichik maktab yoshidagi bolalar tomonidan haqiqatligiga ishonishlik, ularga taqlid qilishlik, topshirilgan vazifalarni mehr va muhabbat bilan bajarishlik kabi psixologik xususiyatlar boshlang'ich ta'limning muhim shartlaridan biridir. Shu bilan birga, ushbu xususiyatlar bolalar tarbiyasidagi ilk axloqiy va madaniy sifatlarning shakllanishi bilan bog'liq jarayon hisoblanadi.

Tarbiya — muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'rnatish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni. Boshqacharoq talqin etilganda, tarbiya yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonidir. Tarbiya tamoyili insonning mintaqaviy, munitsipal va lokal darajada umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, etnik xususiyatlar, shuningdek mintaqaviy munitsipal va lokal sharoitlarni inobatga olib, tarbiya muassasalarida insoniy, yosh, differensial va individual yondashuvlar asosida manaviy-qadriyat jihatidan tarbiyalashni amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish uchun ishlab chiqilgan. So'nggi o'n yilliklar davomida pedagogika va boshqa fanlarda ijtimoiylashuv va tarbiya tushunchalarining o'zaro munosabati keng muhokama qilib kelinmoqda. Davlat mafkurasining o'zgarishi sababli bu muammoga alohida e'tibor qaratish lozim. Shu bilan birga ba'zi mualliflar tarbiyani ijtimoiylashuv bilan almashtirishga

harakat qilishmoqda. Boshqalari tarbiyani bola ijtimoiylashuvining bir qismi sifatida o'rganishadi. Ba'zi olimlar esa ijtimoiylashuv deganda fuqaroviy va axloqiy tarbiyani tushunishadi. To'rtinchi guruh olimlari shaxs ijtimoiylashuvini tarbiyaning asosiy maqsadi deb hisoblashadi. Biroq tarbiya bola ijtimoiylashuvining asosiy omillaridan biri ekanligini hamma tan oladi. Tarbiyaning asosida ijtimoiy harakat bo'lishi, uni ijtimoiylashuvdan farqlaydi. Umuman olganda, ijtimoiylashuv uzluksiz jarayondir, ya'ni inson doimo jamiyat bilan munosabatda bo'ladi. Tarbiya esa diskret (uzlukli) jarayondir. Chunki u muayyan tashkilotlarda amalga oshirilib, zamon va makonda cheklangan bo'ladi. Bunga uning ko'p ma'noliligini sabab qilib ko'rsatsak bo'ladi. Tarbiyani ijtimoiy hodisa, faoliyat, jarayon, qadriyat, tizim, ta'sir, o'zaro munosabat sifatida ko'rib chiqsak bo'ladi. Bu tushunchalarning hech qaysisi tarbiya mazmunini to'liq ochib bera olmaydi. Quyida ijtimoiylashuvning nisbatan ijtimoiy nazorat qilinuvchi jarayonga xos bo'lgan umumiylikni aks etishga harakat qilingan tarbiyaning ta'rifi keltirilgan. Biroq unda oilaviy, diniy, ijtimoiy tarbiyaning xususiyatlari inobatga olinmagan.

A.V.Mudrik quyidagi ta'rifni ilgari suradi:

Tarbiya-insonning jamiyatga ko'nikishiga ko'maklashuvchi va bu ko'nikish sodir etiladigan guruh va tashkilotlarning xususiyatlariga mos keluvchi sharoitlar yaratuvchi insonning ongli rivojlanishi. Bu ta'rif to'liq to'g'ri hisoblanmaydi. Bu faqat muallifning nuqtai nazarini aks ettiradi.

Ijtimoiy omillarni insonga ta'sir ko'rsatishining tarkibiy qismi bo'lgan tarbiya o'z xususiyatlariga ega. Bu jarayon boshqalaridan farqli ravishda doimo bir maqsad sari yo'naltirilgan va bu faoliyat maxsus tayyorlangan odamlar tomonidan amalga oshiriladi. Tarbiya jarayonida bola

ijtimoiylashuviga ta'sir qiluvchi boshqa omillar muhit, OAV, madaniyatlar inobatga olinadi. Biroq shuni esda tutish lozimki, tarbiya boshqa ijtimoiy omillar ichida o'z o'rniga ega hamda boshqa omillarning o'rnini to'ldira olmaydi ham, bekor qila olmaydi ham. Tarbiyaning bola rivojlanishiga ta'siri vaqt o'tgan sari o'zgaradi. Bola qanchalik kichik bo'lsin, tarbiya uning shakllanishiga shuncha ko'p ta'sir ko'rsatadi. Vaqt o'tgani sayin tarbiyaning hissasi kamayib boradi. Bu vaqtda bolaning u yoki bu ijtimoiy qadriyatni tanlashdagi mustaqilligi ortadi. Borgan sari tashqi tarbiyaviy omillarning ta'siri kamayadi. Biroq boshqa bir jarayon-o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni rivojlana boshlaydi. Bolaning o'z shaxsini mukammallashtirish, o'z-o'zini rivojlantirish bo'yicha mustaqil faoliyatini anglashi ortadi. Ma'lumki, o'z-o'zini tarbiyalashga ehtiyoj shaxs rivojining eng yuksak shakli hisoblanadi. Bizning modelga binoan insonning o'z-o'zini tarbiyalashi ehrom bunyod etish bilan barobardir.. Shuning uchun o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni bir umrga cho'ziladi. Tarbiya o'z-o'zini tarbiyalash va boshqa ijtimoiy omillarning (madaniy, diniy, tarixiy an'analar, OAV, maktab jamoasi, do'stlar, bolalar bog'chasi va boshqalar) ijobiy ta'siri natijasida bolaning jamiyatga integratsiyalashuvining tabiiy jarayonini sodir etadi. Ijtimoiy muhitning ta'siri qanchalik turli bo'lsa, bola undan shuncha erkin va mustaqil bo'ladi. Bola sotsium tomonidan qabul qilingan xulq-atvor me'yorlarini qabul qilishi bilan bir qatorda oz navbatida bola o'zining ham individual xususiyatlarini sotsiumga qo'shib borishi mumkin va bu jarayon bolaning jamiyatga integratsiyalanishi deb ataladi. Bu jarayonlar spontan, stixiyali va tartibsiz holda amalga oshirilishi va aksincha boshqarilib, ma'lum maqsadga yo'naltirilib ham borilishi mumkin. Bu jarayon esa tarbiyalash deb ataladi. Bolaning ongli, faol va mustaqil

faoliyati esa o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni deb ataladi. Jamiyatdagi barcha mutaxassislarning va tarbiyachilarning harakatlari bolaning ijtimoiy adaptatsiyalanishiga qaratilgan. Shuni ham aytib o'tish kerakki, bola tarbiyani avvalo oiladan oladi, demak dastlabki ijtimoiylashuv jarayonida aynan oila muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga yaqqol misol qilib quyidagilarni ayta olaman: "Markaziy Amerikada yashovchi Yagua qabilasini o'rgangan etnograf olim P.Fexosning ma'lumotiga ko'ra, bu qabilada go'dak yura boshlashi bilan onasi uni o'ziga xos jamoani tashkil qilgan tengdoshlariga qo'shib qo'yardi. Go'dakni ota-onasi emas, balki katta farzandlar gapirishga, shaxsiy gigienaga amal qilishga o'rgatishar, atrof-muhit bilan tanitishar edi. Turli yoshdagi bolalarning o'ynashlari ijtimoiylashuvning muhim vositasi sifatida namoyon bo'lardi. Moboda, favqulodda hodisa ro'y bermasa ota-ona bu jarayonga kam aralashar, bolani tajriba orttirishga undardilar". Ko'rinib turibdiki, oiladagi beriladigan tarbiyaning o'rni bola shaxsining rivojlanishi, ijtimoiylashuvda ahamiyatli.

Boshlang'ich sinf "Tarbiya" darsligining o'quvchi ijtimoiylashuvdagi ahamiyati juda yuqori. Tarbiya fani o'quvchilarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, ularning har tomonlama ijtimoiylashuviga ko'maklashish, samarali hamkorlik qilish, vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy, ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish, o'zlarining intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda, o'quvchilarga sifatli bilim berish, ularni to'g'ri tarbiya yo'liga yo'naltirish, zarur bilim va hayotiy ko'nikmalarga ega bo'lishlariga, mustaqil hayotga moslashishlariga ko'mak ko'rsatish, turli vaziyatlarda huquqiy, ma'naviy mezonlarga

asoslangan holda qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan estetik jihatdan zamonaviy bezatilgan, qiziqarli va psixologik-pedagogik materiallarga boy. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tarbiya darsligidagi mavzular o'quvchilar yoshiga mos, hamda o'quvchining ijtimoiy muhitga moslashishida ham ahamiyat kasb etadi. Bu darslik orqali o'quvchilar o'z-o'zlarini ijtimoiy tizimga tayyorlash, jamiyat bilan muloqotda bo'lish va jamiyatning qoidalari va qo'llanmalari bilan tanishishadi. Bu o'quvchilarga quyidagi maqsadlarni kuzatishga yordam beradi:

1. O'quvchilarning shaxsiylik rivojlantirish: "Tarbiya" darsligi orqali o'quvchilar o'z-o'zlarini ijtimoiy tizimga qanday qilib tayyorlashi, boshqa insonlar bilan muloqotda bo'lishi, qoida va tartibga rioya qilishni o'rganadi. Bu esa ularning shaxsiylik rivojlantirishiga yordam beradi.

2. Hamkorlik va jamoatda ishtirok etishni o'rganish: "Tarbiya" darsligi orqali o'quvchilar hamkorlik qilish, guruhda ishtirok etish va jamoatda birgalikda faoliyat ko'rsatishni o'rganadi. Bu jarayonlar orqali ular jamiyatda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar va mahoratni rivojlantirishadi.

Demak xulosa qilib aytishimiz mumkinki, bolaning ijtimoiylashuvda tarbiyaning ham alohida o'rni bor. Avvalo oiladagi tarbiya, so'ngra maktabga qadam qo'ygandan keyin pedagog tomonidan beriladigan tarbiya. Chunki kichik yoshdagi o'quvchilar yangi sharoitlarga moslashish jarayonida asosiy ijtimoiylashuv agenti o'qituvchisi hisoblanib, bola ba'zan ota-onasidan ham ko'proq u bilan ko'proq muloqot qiladi. Shuning uchun ham biz pedagoglardan o'z kasbimizga mas'uliyat bilan yondashib va har bir o'quvchini o'z farzandimizdek ko'rib, kelajagiga befarq bo'lmasligimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Elov Z.S. Sud psixologik ekspertizasi tarixi rivojlanish jarayoni bosqichlari. PEDAGOG RESPUBLIKA ILMIY JURNALI. 7 – TOM 4 – SON / 2024 - YIL / 15 – APREL. 306-313
2. M.A.Gafarova., Z.S.Elov. Inklyuziv ta'limda pedagog-psixologning kasbiy psixologik xususiyatlari. PEDAGOG RESPUBLIKA ILMIY JURNALI. 7 – TOM 4 – SON / 2024 - YIL / 15 – APREL. 477-480
3. Z.Elov. Социально-психологические причины формирования девиантного поведения у подростков. Pedagogik mahorat. Ilmiy jurnal. 2024
4. Z.S.Elov. Zo'ravonlik jinoyatlarini sodir etuvchi shaxslar toifasi psixologiyasi. Pedagogik akmeologiya. Ilmiy jurnal 5/3. 2024
5. Элов Зиёдулло, Я. САМИНЖОНОВ. Ўсмирлар орасида ўз жонига қасд қилиш ҳолати психологик муаммо сифатида. 2024. Journal of Pedagogical and Psychological Studies 2 (2), 69-78
6. O.Mamatov., Z.Elov. Talabalarni bilish faoliyatiga motivlashtirishning psixologik va pedagogic asoslari. Journal of Pedagogical and Psychological Studies 2 (1), 37-42. 2024
7. Z.Elov. Identifikatsiya jarayoni muammosining psixologiyada o'rganilishi. ZAMONAVIY PSIXOLOGIK TADQIQOTLAR INTEGRATSIYASI. Ilmiy konferensiya to'plami. 2023
8. Z.Elov. O'z joniga qads qilish masalasi jamiyat oldida turgan muhim ijtimoiy-psixologik muammo sifatida. 2023. Journal of Pedagogical and Psychological Studies 1 (12), 50-54
9. Z.Elov. Shaxsda fobiya holati va uning diagnostikasi. 2023. Journal of Pedagogical and Psychological Studies 1 (11), 66-74
10. Z.Elov. Suitsidial xulq-atvor haqida tahlillar va nazariyalar. 2023. Journal of Pedagogical and Psychological Studies 1 (10), 11-22
11. Z.S.Elov. Suitsidial xulq-atvorning zamonaviy psixologiyada o'rganilishi: tahlillar va nazariyalar. 2023. Science and Education 4 (10), 326-342

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Nassullayeva Dildor Sharofovna
Osiyo xalqaro universiteti magistranti
Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIM TIZIMIDA TALABALARNING MA'NAVY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI



Atakulova Nargizaxon Alijonovna
Andijon davlat universiteti, Andijon shahri

Annotatsiya.

KIRISH: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida talabalarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirishning ahamiyati, asosiy yo'nalishlari va ularning ijtimoiy ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari O'zbekistonda milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta'lim tizimini tashkil etish orqali talabalar ma'naviy kamolotiga erishish mumkinligini ko'rsatdi. Talabalar dunyoqarashini rivojlantirishda ta'lim muassasalari, oilaviy muhit va ijtimoiy tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlik muhim rol o'ynashi qayd etilgan.

MAQSAD: Talabalarning ma'naviy kamolotini ta'minlash, ularga mustahkam ijtimoiy va axloqiy tamoyillarni singdirishning muhim jihati sifatida milliy qadriyatlarning o'rni o'rganish.

MATERIALLAR VA METODLAR: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida talabalarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish masalasi tahlil qilindi. Tadqiqotda nisbiy kuzatish, tahlil va sintez metodlari qo'llanildi. Talabalarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy, psixologik, madaniy omillar o'rganilib, turli ta'lim darajalarida qo'llaniladigan usullar va yondashuvlar tahlil qilindi. Tadqiqot uchun tanlangan manbalar asosida adabiyotlar tahlili amalga oshirildi, bunda talabalarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar va ularning o'zaro bog'liqligi o'rganildi. Bundan tashqari, talabalarning ma'naviy rivojlanishini aniqlash uchun mahalliy ta'lim muassasalari va ijtimoiy tashkilotlarda olib borilayotgan tadbirlar haqida ham statistik ma'lumotlar tahlil qilindi.

XULOSA: O'zbekiston ta'lim tizimi yosh avlodning ma'naviy rivojlanishini ta'minlashda katta rol o'ynaydi. Talabalarning dunyoqarashini shakllantirish jarayonida milliy qadriyatlar va umuminsoniy tamoyillarga asoslangan ta'lim va tarbiya usullaridan foydalanish bu boradagi natijalarni kuchaytirmoqda. Ushbu tadqiqotning natijalari talabalarning o'ziga xos madaniy va axloqiy qiyofasini shakllantirish uchun ta'lim tizimining o'ziga xos imkoniyatlari borligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: talaba dunyoqarashi, ma'naviy rivojlanish, milliy qadriyatlar, ta'lim tizimi, axloqiy tarbiya, ijtimoiy hamkorlik, oila va jamiyat.

ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ДУХОВНОГО СОЗНАНИЯ СТУДЕНТОВ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Атакулова Наргизахан Алиджоновна
Андижанский государственный университет, город Андижан

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье анализируется значение развития духовного мировоззрения учащихся в системе образования Республики Узбекистан, основные направления и их социальная значимость. Результаты исследования показали, что достичь духовной зрелости учащихся можно путем организации системы образования на основе национальных и общечеловеческих ценностей в Узбекистане. Отмечается, что сотрудничество образовательных учреждений, семейного окружения и общественных организаций играет важную роль в развитии мировоззрения студентов.

ЦЕЛЬ: Изучить роль национальных ценностей как важного аспекта обеспечения духовной зрелости учащихся, привития им прочных социальных и нравственных принципов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: В статье проанализирован вопрос развития духовного мировоззрения учащихся в системе образования Республики Узбекистан. В исследовании использовались методы относительного наблюдения, анализа и синтеза. Изучены социальные, психологические и культурные факторы, имеющие значение в формировании духовного мировоззрения студентов, а также проанализированы методы и подходы, используемые на разных уровнях образования. На основе отобранных для исследования источников был проведен анализ литературы, в ходе которого изучены основные факторы, влияющие на развитие духовного мировоззрения студентов и их взаимозависимость. Кроме того, с целью определения духовного развития учащихся также анализировалась статистическая информация о деятельности, проводимой в местных образовательных учреждениях и общественных организациях.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Система образования Узбекистана играет важную роль в обеспечении духовного развития молодого поколения. Использование в процессе формирования мировоззрения учащихся методов воспитания и обучения, основанных на национальных ценностях и общечеловеческих принципах, усиливает результаты в этом отношении. Результаты данного исследования показали, что система образования обладает собственными возможностями формирования уникального культурно-нравственного образа обучающихся.

Ключевые слова: мировоззрение студента, духовное развитие, национальные ценности, система образования, нравственное воспитание, социальное сотрудничество, семья и общество.

THE MAIN DIRECTIONS OF DEVELOPING THE SPIRITUAL OUTLOOK OF STUDENTS IN THE EDUCATION SYSTEM OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Atakulova Nargizakhan Alijonovna
Andijan State University, Andijan city

Annotation.

INTRODUCTION: This article analyzes the importance of developing the spiritual outlook of students in the educational system of the Republic of Uzbekistan, the main directions and their social significance. The results of the research showed that it is possible to achieve spiritual maturity of students by organizing the education system based on national and universal values in Uzbekistan. It is noted that cooperation between educational institutions, family environment and social organizations play an important role in the development of students' outlook.

GOAL: To study the role of national values as an important aspect of ensuring the spiritual maturity of students, instilling in them strong social and moral principles.

MATERIALS AND METHODS: This article analyzed the issue of developing the spiritual outlook of students in the educational system of the Republic of Uzbekistan. Relative observation, analysis and synthesis methods were used in the research. The social, psychological and cultural factors that are important in the formation of the students' spiritual worldview were studied, and the methods and approaches used at different levels of education were analyzed. Based on the sources selected for the research, a literature analysis was carried out, in which the main factors influencing the development of students' spiritual worldview and their interdependence were studied. In addition, in order to determine the spiritual development of students, statistical information about the activities conducted in local educational institutions and social organizations was also analyzed.

CONCLUSION: The educational system of Uzbekistan plays a major role in ensuring the spiritual development of the young generation. The use of education and training methods based on national values and universal principles in the process of forming the worldview of students strengthens the results in this regard. The results of this study showed that the educational system has its own opportunities to form a unique cultural and moral image of students.

Key words: student outlook, spiritual development, national values, educational system, moral education, social cooperation, family and society.

Ўзбекистон Respublikasi ta'lim tizimi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va madaniy yangilanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Bunda talabalarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirish davlat tomonidan alohida e'tibor qaratilgan masalalardan biridir. Talabalarning ma'naviy dunyoqarashini boyitish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish va yuksak axloqiy tamoyillarni shakllantirish orqali mamlakatda barqaror ijtimoiy muhitni yaratish ko'zlangan. Shu jihatdan ta'lim muassasalari nafaqat bilim berish, balki yosh avlodni ma'naviy tarbiya bilan ham ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Hozirgi vaqtda globallashuv jarayonlari va yangi axborot texnologiyalari talabalar hayotining barcha jabhalariga ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa, o'z navbatida, ularning ma'naviy dunyoqarashiga ham o'zgarishlar olib kelmoqda. Shu sababli, talabalarning mustahkam ma'naviy negizga ega bo'lishini ta'minlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Bu borada

Ўзбекistonda amalga oshirilayotgan davlat siyosati yangi avlodning milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalanishini qo'llab-quvvatlaydi. Asatova va Zubaydovanning (2024) tadqiqotlariga ko'ra, Ўзбекistonda yangicha dunyoqarashni shakllantirish uchun ta'lim tizimi bilan bog'liq ko'plab muammolar yechimini topmoqda va yangi ijtimoiy munosabatlar tizimi yaratilib, milliy ma'naviy qadriyatlar rivojlantirilmoqda.

Talabalarning ma'naviy kamolotini ta'minlash, ularga mustahkam ijtimoiy va axloqiy tamoyillarni singdirishning muhim jihati sifatida milliy qadriyatlarning o'рни alohida ahamiyat kasb etadi. Milliy qadriyatlar yosh avlodning axloqiy-ruhiy salohiyatini oshirishga, shaxsiy kamolot jarayoniga, ijtimoiy muhitda o'z o'rnini topishiga yordam beradi. Milliy ma'naviyatni shakllantirish va mustahkamlash masalalarida ta'lim tizimi bevosita vositachi sifatida maydonga chiqadi. Ta'lim muassasalari tomonidan talabalarga milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik va xalqaro



hamkorlik ruhida tarbiyalash bugungi kunda muhim hisoblanadi. Shu sababdan, talabalarining ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rilmoqda. Shaxsning ma'naviy-ahloqiy madaniyati ularning axloqiy dunyoqarashiga va har xil hayotiy hodisalar va jarayonlarga munosabatiga ta'sir etuvchi asosiy omil hisoblanadi. Shaxsning ijtimoiy muhitda o'z o'rnini topa olish qobiliyati uning dunyoqarashi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli talabalarining ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish davlat ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bunda, ayniqsa, talabalarining shaxsiy madaniyati va ijtimoiy munosabatlaridagi axloqiy normalar katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida talabalarining ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish muammosi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda turli yondashuvlar va istiqbollari mavjud.

Asatova va Zubaydova (2024) ta'kidlaganidek, yangi O'zbekistonning ma'naviy yangilanish jarayonida yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish va ularni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu ma'naviy o'zgarishlar talabalarining ijtimoiy faolligini oshirish va ularga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Lutfullayeva (2024) o'z tadqiqotida milliy qadriyatlarning shaxs ma'naviy kamolotidagi o'rnini ochib beradi va ta'lim tizimining bu boradagi rolini yoritadi. Uning fikricha, ta'lim muassasalari orqali yosh avlodga milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik va xalqaro hamkorlik tamoyillari singdirilmoqda. Bunday yondashuv esa nafaqat talabaning shaxsiy dunyoqarashiga, balki jamiyatning kelajakda barqaror rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Saidov (2024) tomonidan keltirilgan fikrlar esa shaxsning ma'naviy-ahloqiy madaniyatining shakllanishida oila, ta'lim muassasalari va ijtimoiy muhitning o'rnini katta ekanligini ta'kidlaydi. Bu uch omilning uzviy bog'liqligi shaxsning axloqiy va ma'naviy qiyofasini shakllantirishda muhimdir.

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida talabalarining ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish masalasi tahlil qilindi. Tadqiqotda nisbiy kuzatish, tahlil va sintez metodlari qo'llanildi. Talabalarining ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy, psixologik, madaniy omillar o'rganilib, turli ta'lim darajalarida qo'llaniladigan usullar va yondashuvlar tahlil qilindi. Tadqiqot uchun tanlangan manbalar asosida adabiyotlar tahlili amalga oshirildi, bunda talabalarining ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar va ularning o'zaro bog'liqligi o'rganildi. Bundan tashqari, talabalarining ma'naviy rivojlanishini aniqlash uchun mahalliy ta'lim muassasalari va ijtimoiy tashkilotlarda olib borilayotgan tadbirlar haqida ham statistik ma'lumotlar tahlil qilindi. Ushbu metodologik yondashuv talabalarining dunyoqarashini shakllantirishda ta'lim tizimining roli va ahamiyatini chuqurroq o'rganishga imkon berdi. Natijalarning muvofiqligi va ishonchliligini ta'minlash uchun zamonaviy ilmiy va amaliy tadqiqotlar natijalari bilan solishtirildi, xulosa va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida talabalarining ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish jarayonida kuzatilgan asosiy natijalar quyidagilardan iborat:

Birinchidan, ta'lim muassasalari o'quv dasturlariga ma'naviy va axloqiy tarbiya bilan bog'liq fanlarni kiritish orqali talabalar dunyoqarashiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.



Bu jarayonda asosiy e'tibor yoshlarning milliy o'zlikni anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishga qaratilgan.

Asatova va Zubaydovanning (2024) tadqiqotida keltirilganidek, O'zbekistonning yangi avlodini tarbiyalashda yangi dunyoqarash va milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya usullarining keng qo'llanilishi kuzatilmoqda. Bu holat yosh avlodning o'z milliy qadriyatlarini anglash va ularga rioya qilish orqali milliy g'urur va iftixor tuyg'usini kuchaytirishiga xizmat qilmoqda.

Ikkinchidan, ta'lim tizimi yoshlar orasida ma'naviy tarbiyani rivojlantirish uchun turli xil tadbirlar va loyihalarni amalga oshirmoqda. Masalan, Lutfullayeva (2024) ta'kidlaganidek, talabalarni ma'naviy jihatdan kamolotga yetaklashda o'qituvchilar va pedagoglarning roli katta. Ular talabalarni har xil ijtimoiy loyihalarda ishtirok etishga undash, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish orqali ma'naviy jihatdan shakllantirishga hissa qo'shmoqda. Shuningdek, turli seminarlar, forumlar va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar yoshlar orasida axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni keng targ'ib qilishga xizmat qiladi. Ushbu tadbirlar nafaqat talabalarni nazariy bilimlar bilan boyitadi, balki amaliy ko'nikmalar hosil qilish imkoniyatini ham taqdim etadi.

Uchinchidan, ta'lim tizimida talabalar ma'naviy dunyoqarashining shakllanishida oila va jamiyatning o'rni alohida o'rin tutadi.

Saidov (2024) o'z tadqiqotida shaxsning ma'naviy rivojlanishi uchun oila, ta'lim muassasasi va ijtimoiy muhitning uzviy bog'liqligini ta'kidlaydi. Oila va ijtimoiy muhit talabaning axloqiy dunyoqarashi va qadriyatlari shakllanishida asosiy rol o'ynaydi. Shuningdek, ta'lim muassasalarida jamiyat a'zolari bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan turli xil ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar talabalar ma'naviyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Yakunda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ta'lim tizimi talabalarning ma'naviy rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ta'lim muassasalarida ma'naviy tarbiya ishlari keng miqyosda olib borilmoqda, talabalar dunyoqarashini shakllantirishda o'qituvchilar, ota-onalar va ijtimoiy tashkilotlar hamkorlikda ishlamoqda. Talabalar ma'naviyatini rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari va yangi yondashuvlar ta'lim tizimida samarali qo'llanilib, ularning kelgusidagi ijtimoiy hayotga tayyorgarligini oshirishda ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston ta'lim tizimi talabalarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirishda asosiy rol o'ynaydi. Talabalarning axloqiy va madaniy tamoyillarini mustahkamlashda nafaqat ta'lim muassasalari, balki oilaviy muhit va jamiyatning keng qatlamlari ham muhim rol o'ynaydi.

Asatova va Zubaydova (2024) tomonidan ta'kidlanganidek, mamlakatda yangi avlodning dunyoqarashini milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan boyitish jarayoni kuchaytirilmoqda. Bu yondashuv talabalarni ma'naviy jihatdan boyitish va ularning o'ziga xos madaniy qadriyatlarini shakllantirishda ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Lutfullayeva (2024) ma'naviy kamolotning milliy asoslariga e'tibor qaratishni ta'limning muhim yo'nalishi sifatida ko'rsatgan. Uning tadqiqoti jamiyatning barcha qatlamlarida milliy qadriyatlarni mustahkamlashning ahamiyatini ta'kidlaydi. Biroq, jamiyatda axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy normativlarning qisman pasayishi, yoshlar o'rtasida ma'naviy bo'shliqlar yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, talabalarning dunyoqarashini rivojlantirishda barcha ta'lim va tarbiya beruvchi tashkilotlarning o'zaro hamkorligi muhimdir. Bu tadqiqotning ahamiyati

shundaki, ta'lim tizimida talabalarning axloqiy va ma'naviy tarbiyasi bilan shug'ullanish, ularning jamiyatdagi ijtimoiy faolligini oshirish va o'ziga xos dunyo qarashi hakllantirishga yordam beradi.

O'zbekiston ta'lim tizimi yosh avlodning ma'naviy rivojlanishini ta'minlashda katta rol o'ynaydi. Talabalarning dunyoqarashini shakllantirish jarayonida milliy qadriyatlar va umuminsoniy tamoyillarga asoslangan ta'lim va tarbiya usullaridan foydalanish bu

boradagi natijalarni kuchaytirmoqda. Xulosa qilib aytganda, ta'lim tizimi nafaqat bilim berish bilan cheklanmasdan, yosh avlodning ma'naviy va axloqiy jihatdan yuksalishida ham muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tarzda shakllantirish talabalarning ma'naviy rivojlanishini ta'minlash va ular orqali jamiyatning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shish uchun mustahkam poydevor yaratmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Asatova, D., &Zubaydova, N. (2024). YANGI O'ZBEKISTONDA YANGICHA DUNYOQARASH. PROBLEMS AND SOLUTIONS OF SCIENTIFIC AND INNOVATIVE RESEARCH, 1(6), 316-320.
2. Lutfullayeva, A. (2024). SHAXS MA'NAVIY KAMOLOTIDA MILLATNING O'RNI. Science and innovation in the education system, 3(6), 35-39.
3. Saidov, I. S. (2024). SHAXS MA'NAVIY-AHLOQIY MADANIYATI TUSHUNCHASI, MOHIYATI VA TUZILISHI. Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari, 32(1), 92-96.
4. Raimjonov, S. (2024). BIZ YOSHLAR KORRUPSIYAGA QARSHIMIZ. Молодые ученые, 2(12), 142-146.
5. Mamatkulov, S. (2020). Dunyoqarash va hayotiy pozitsiya: strukturaviy tahlil. Архив Научных Публикаций JSPI.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Atakulova Nargizaxon Alijonovna
Andijon davlat universiteti tayanch doktranti
Manzil: O'zbekiston, 200100, Andijon shahri

ПОДВИЖНЫЕ ИГРЫ КАК ОСНОВНОЙ КОМПОНЕНТ ВОСПИТАНИЯ ФИЗИЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ ШКОЛЬНИКОВ И ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ



Кузиева Феруза Исмаиловна.

Бухарский государственный педагогический институт, город Бухара

Аннотация.

Введение: В современном мире, где дети всё более сидят перед экранами, подвижные игры становятся важным инструментом в воспитании физических способностей и форми

ровании здорового образа жизни. Эта статья исследует роль подвижных игр в школьной среде и их значимость для развития детей. Мы рассмотрим, как подвижные игры способствуют физической активности, социальной адаптации и общему благополучию школьников, а также как их внедрение в учебный процесс помогает сформировать здоровый образ жизни с раннего возраста.

ЦЕЛ: Развивать физические способности учащихся посредством игр, проводимых на свежем воздухе, и формировать у них представления о здоровом образе жизни.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Физическая активность играет важную роль в поддержании здоровья детей. Она способствует укреплению мышц и костей, развитию сердечно-сосудистой системы, улучшению общего самочувствия и настроения. Современные технологии и развлечения приучают детей к пассивному образу жизни, а подвижная игра предлагает интересный и эффективный способ вовлечь их в активную деятельность. Физическая активность играет ключевую роль в сохранении и укреплении здоровья детей и подростков. Это подтверждается многими исследованиями, которые обнаружили положительную связь между уровнем физической активности и различными показателями здоровья.

ВЫВОДЫ: В заключение можно сказать, что подвижные игры являются мощным инструментом пропаганды здорового образа жизни среди школьников. Они сочетают в себе элементы физической активности, развития социальных навыков и освоения здоровых привычек и навыков. Важно отметить, что для достижения наилучших результатов сбалансированное использование активных игр следует сочетать с другими методами пропаганды здорового образа жизни, такими как занятия спортом, здоровое питание, активное общение с родителями и сверстниками.

Ключевые слова: физическая активность, здоровье, здоровый образ жизни, подвижные игры, психологическое здоровье.

OUTDOOR GAMES AS A KEY COMPONENT OF DEVELOPING PHYSICAL ABILITIES IN SCHOOLCHILDREN AND A HEALTHY LIFESTYLE.

Kuzieva Firuza Ismailovna

Bukhara state pedagogical institute, Bukhara city

Annotation.

INTRODUCTION: In today's world, where children spend more and more time in front of screens, outdoor games are becoming an important tool in developing physical abilities and forming a healthy lifestyle. This article explores the role of outdoor games in the school environment and their importance for children's development. We will consider how outdoor games contribute to physical activity, social adaptation and general well-being of schoolchildren, as well as how their introduction into the educational process helps to form a healthy lifestyle from an early age.

GOAL: To develop students' physical abilities through games played outdoors and to form their ideas about a healthy lifestyle.

MATERIALS AND METHODS: Physical activity plays an important role in maintaining children's health. It helps to strengthen muscles and bones, develop the cardiovascular system, improve overall well-being and mood. Modern technologies and entertainment accustom children to a passive lifestyle, and outdoor games offer an interesting and effective way to involve them in active activities. Physical activity plays a key role in maintaining and strengthening the health of children and adolescents. This is confirmed by many studies that have found a positive relationship between the level of physical activity and various health indicators.

CONCLUSIONS: In conclusion, it can be said that active games are a powerful tool for promoting a healthy lifestyle among schoolchildren. They combine elements of physical activity, development of social skills and acquisition of healthy habits and skills. It is important to note that to achieve the best results, the balanced use of active games should be combined with other methods of promoting a healthy lifestyle, such as sports, healthy nutrition, active communication with parents and peers.

Key words: physical activity, health, healthy lifestyle, active games, psychological health.

Здоровый образ жизни – это способ активного освоения человеком условий жизни, соблюдения режима дня, тренировки организма на основе активного движения, занятий спортом, полноценного и качественного питания, соблюдения гигиенических правил питания, общения, а значит достижения экологической культуры, получение духовного образования, основанного на общечеловеческих и национальных ценностях, умение воздерживаться от вредных привычек. Формирование здорового образа жизни – сложный

системный процесс, включающий в себя множество компонентов образа жизни современного общества. Проводимые исследования показывают, что обеспечение жизни и здоровья человека, воспитание физически подготовленного подрастающего молодого поколения становится сегодня актуальной проблемой.

Согласно анализам Всемирной организация здравоохранения, среди факторов, влияющих на здоровье человека, на медицинскую помощь приходится 10 процентов, генетические

факторы – 15 процентов, состояние окружающей среды – 20 процентов. Самое главное, что образ жизни человека (физическая активность, режим питания, вредные привычки) влияет на его здоровье до 55%. Вклад отдельных факторов различной природы в показатели здоровья зависит от возраста, пола и индивидуально-типологических особенностей человека. Из этого распределения можно понять, что состояние здоровья каждого человека на 90% уникально, поскольку зависит от наследственности, факторов окружающей среды и главным образом от индивидуального образа жизни человека (поведения каждого человека, его привычек, действий, стремлений, склонности). Кроме того, важно поощрять школьников к активности в течение дня и приучать их к здоровому образу жизни с раннего возраста.

В современном обществе, где образ жизни связан с сидячей работой и отдыхом, формирование здоровых привычек у детей приобретает особое значение. Школьный возраст – важный период, в котором у учащихся формируются предпочтения и привычки, которые могут сопровождать их на протяжении всей жизни. В этой статье мы объясняем, почему подвижные игры являются основным средством пропаганды здорового образа жизни среди школьников.

Физическая активность и здоровье. Физическая активность играет важную роль в поддержании здоровья детей. Он способствует укреплению мышц и костей, развитию сердечно-сосудистой системы, улучшению общего самочувствия и настроения. Современные технологии и развлечения приучают детей к пассивному образу жизни, а подвижная игра предлагает интересный и эффективный способ вовлечь их в

активную деятельность. Физическая активность играет ключевую роль в сохранении и укреплении здоровья детей и подростков. Это подтверждается многими исследованиями, которые обнаружили положительную связь между уровнем физической активности и различными показателями здоровья.

1. Физическое здоровье:

Опорно-двигательный аппарат: Регулярная физическая активность, в том числе игры на свежем воздухе, способствует укреплению мышц и костей, что снижает риск развития остеопороза и других заболеваний.

Сердечно-сосудистая система: Умеренные и интенсивные физические нагрузки улучшают работу сердца и сосудов, снижают артериальное давление и риск развития сердечно-сосудистых заболеваний.

Ожирение. Подвижные игры помогают сжигать калории и контролировать вес, что может помочь предотвратить ожирение и такие заболевания, как диабет и некоторые виды рака.

Общее самочувствие: регулярная физическая активность улучшает настроение, снижает стресс и депрессию, повышает уровень энергии и общий жизненный тонус.

2. Психологическое здоровье:

Самооценка и уверенность. Участие в подвижных играх может помочь укрепить самооценку и уверенность в себе, особенно когда дети добиваются успеха в соревнованиях или совместных начинаниях.

Социальные навыки: подвижные игры дают детям возможность общаться с другими, учатся работать в команде, разрешать конфликты и развивать дружеские отношения.

Когнитивная деятельность. Физическая активность, включая игры,

может помочь улучшить когнитивные функции, такие как концентрация, внимание, память и гибкость ума.

Таким образом, активная игра является не только источником физической активности, но и мощным инструментом сохранения и улучшения здоровья детей и подростков, включая физическое, психологическое и социальное благополучие. Они не только поощряют физическую активность, но и способствуют формированию здорового образа жизни на протяжении всей жизни. Социальное взаимодействие и командная работа:

Подвижные игры также помогают детям развивать социальные навыки. Участие в групповой деятельности требует умения работать в команде, общаться с друзьями и учитывать интересы других участников. Эти навыки не менее важны, чем физическое здоровье, а подвижные игры отлично подходят для их развития.

Формируем здоровый образ жизни:

Активные подвижные игры служат основой формирования здорового образа жизни у детей. Регулярное проведение физических упражнений в игровой форме поможет учащимся усвоить важность здорового образа жизни и пробудит интерес к активному отдыху. Этот опыт может стать важным фактором сохранения детьми здорового образа жизни в будущем. Кроме того, при выборе игр для детей и подростков важно понимать возрастные особенности. Дети разного возраста имеют разный уровень двигательных навыков, координация и познавательных способностей. Поэтому важно выбирать игры, соответствующие

уровню сложности и умениям ребенка. Для детей младшего возраста лучше выбирать простые и легкие игры, а для подростков можно выбирать более сложные и трудные игры. Время игры должно быть ограничено, чтобы оно не мешало другим аспектам их жизни, например учебе, физической активности и общению с семьей и друзьями.

Выбор правильных подвижных игр для возраста вашего ребенка поможет ему развиваться здоровым и веселиться на протяжении всей жизни.

Краткое содержание. В заключение можно сказать, что подвижные игры являются мощным инструментом пропаганды здорового образа жизни среди школьников. Они сочетают в себе элементы физической активности, развития социальных навыков и освоения здоровых привычек и навыков. Важно отметить, что для достижения наилучших результатов сбалансированное использование активных игр следует сочетать с другими методами пропаганды здорового образа жизни, такими как занятия спортом, здоровое питание, активное общение с родителями и сверстниками. Активные подвижные игры являются не только средством развлечения, но и мощным средством формирования здорового образа жизни школьников. Они способствуют физическому развитию, социальным навыкам и здоровым привычкам. Поэтому важно поощрять и поддерживать участие детей в подвижных играх, чтобы обеспечить здоровое и счастливое детство, а также создать основы здорового образа жизни в будущем.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Ma'murov B.B. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. B: "Durdona" -2019.-216 b
2. Ф.И. Кузиева Способы организация самостоятельной работы студентов физического образования //Проблемы науки 2021 4(65), s 65-67

3.Rahim S., Dilobar S. The development of a culture of healthy lifestyle in student girls through physical education and sports as a pedagogical problem //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 12. – №. 2. – С. 69-73.

4.Ф.И. Кузиева. Механизм формирования здорового образа жизни у студентов на занятиях по физическому воспитанию // Вестник науки и образования, 2022- 4-2 (124).-

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ]

[AUTHORS INFO]

Kuziyeva Feruza Ismailovna

Buxoro davlat pedagogika instituti "Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi"
kafedrası katta o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH MAKTAB YOSHIDAGI BADMINTONCHILAR UCHUN JISMONIY VA AQLIY RIVOJLANISHINING XUSUSIYATLARI



Azimov Nodir Nasilloevich

Buxoro davlat pedagogika instituti, Buxoro shahri

Annotatsiya.

KIRISH: maqolada yosh badmintonchilarning jismoniy sifatlari va aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha murabbiy tomonidan olib boriladigan mashg'ulotlar jarayoni bayon etilgan.

MAQSAD: Harakatli o'yinlar orqali yosh badmintonchilarning jismoniy sifatlarini va aqliy xususiyatlarini oshirish.

MATERIALLAR VA METODLAR: Boshlang'ich guruhdagi yosh badmintonchilarning jismoniy sifatlari va aqliy xususiyatlarini rivojlantirish bo'yicha tuli mashg'ulotlar kompleksini yaratish.

XULOSA: Yosh badmintonchilarning mashg'ulot samaradorligini oshirish va musobaqa jarayonlariga tayyorlash bo'yicha mashg'ulotlar mexanizmini ishlab chiqishga mutaxassislar tomonidan katta e'tibor qaratilmoqda. Uni kelajakda yaxlit fundamental tadqiqot sifatida o'rganish navbatdagi vazifalardan sanaladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich tayyorgarlik, harakat sifatlari, jismoniy sifati, yosh badmintonchilar, harakat sifatlari, texnika, aqliy qobiliyat, individual fazilatlar.

ОСОБЕННОСТИ ФИЗИЧЕСКОГО И УМСТВЕННОГО РАЗВИТИЯ БАДМИНТОНИСТОВ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Азимов Нодир Насиллоевич

Бухарский государственный педагогический институт, город Бухара

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: в статье описывается тренировочный процесс, проводимый тренером по развитию физических качеств и умственных способностей юных бадминтонистов.

ЦЕЛЬ: Повышение физических качеств и психических качеств юных бадминтонистов посредством подвижных игр.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Создание комплекса тюлевых упражнений по развитию физических качеств и психических особенностей юных бадминтонистов в начальной группе.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Большое внимание специалисты уделяют разработке механизма тренировок юных бадминтонистов по повышению их тренировочной эффективности и подготовке к соревновательным процессам. Изучение его в будущем как целостного фундаментального исследования считается одной из следующих задач.

Ключевые слова: базовая подготовка, двигательные качества, физические качества, юные бадминтонисты, двигательные качества, техника, умственные способности, индивидуальные качества.

FEATURES OF PHYSICAL AND MENTAL DEVELOPMENT FOR BADMINTON PLAYERS OF PRIMARY SCHOOL AGE

Azimov Nodir Nasilloevich

Bukhara State Pedagogical Institute, Bukhara city

Annotation

INTRODUCTION: the article describes the process of training conducted by a trainer for the development of physical qualities and mental abilities of young badminton players.

GOAL: Increase the physical qualities and mental characteristics of young badminton players through action games.

MATERIALS AND METHODS: The creation of a complex of tuli exercises for the development of physical qualities and mental characteristics of young badminton players in the initial group.

CONCLUSION: Great attention is paid by specialists to the development of a training mechanism for improving the training efficiency of young badminton players and preparing them for competition processes. Studying it as a holistic fundamental study in the future is considered one of the next tasks.

Key words: initial training, qualities of movement, physical quality, young badminton players, qualities of movement, technique, mental ability, individual qualities.

Hozirgi davrda jismoniy tarbiya va sportga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa badminton sport turiga havaskorlar va shug'ullanuvchilar soni tobora oshib bormoqda. 7-10 yosh badminton mashg'ulotlariga kirish va boshlash uchun eng mos davr sanalib, chunki aynan shu yosh oralig'ida jamoaviy sportda muhim bo'lgan asosiy jismoniy fazilatlarni rivojlantirish uchun his tuyg'ular shakllanadi. Bu yoshda maxsus harakat qobiliyatlari bazasi shakllanadi va sport texnika tayyorgarlik poydevori qo'yiladi.

Yosh badmintonchilarda bosqichli mashg'ulot jarayoniga ijobiy uyg'unlikni shakllantirish, ularda shaxsiy, jamoaviy gigiena va sport intizomiy ko'nikmalarini shakllantirish, tartib va mas'uliyatni

shakllantirish muhim ahamiyat kasb yetadi. Ushbu individual fazilatlar yosh sportchining uzoq muddatli mashg'ulot jarayoniga adaptatsiyasi va kelajakda yuqori ko'lamdagi monoton yuklamalarni bajarishi uchun zarur bo'ladi.

Murabbiy 7-10 yoshli sportchilar bilan ishlashda avtoritar boshqaruv uslubidan foydalanishi, guruhdagi sportchilar o'rtasida mas'uliyatni taqsimlashi, badmintonchilarning yaxlit jamoasini shakllantirishi kerak. Buning uchun murabbiy, rahbar sportchilar haqida qo'shimcha ma'lumotlar to'plash, ota-onalar, jamoatchilik va o'qituvchilar bilan yaqindan muloqot qilish, yosh badmintonchilarning fe'l-atvor xususiyatlarini aniqlash, liderlik fazilatlarini namoyon etish, mashg'ulotlar

jarayonida har bir sportchining ustuvor motivlarini o'rganish zarur.

7-10 yosh organizmning keskin o'sishi va rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Orqa miyadagi harakatchanlik va miya yarim sharlari apparatlarning elastikligi murabbiyga mahoratning barcha bosqichlarida badmintonda zarur bo'lgan moslashuvchanlikni maqsadli ravishda rivojlantirishga imkon beradi. Shu bilan birga, miya va yetakchi o'yin qo'lining funksiyalarini miya yarim sharlari harakatchanligidan qat'iy nazar, orqa mushaklarni kuchaytirishga va ularning bir xil rivojlanishiga e'tibor berish muhimdir. Bu yoshda insonning, pastki qo'llarning va yelka kamarning yirik mushaklarining rivojlanishi tez sur'atlar bilan sodir bo'ladi, kichik mushaklar esa sekinroq rivojlanadi. Natijada, bu toifa yosh bolalar uchun aniq kichik harakatlarni bajarish murakkablik paydo qiladi.

7-10 yoshli bolalarning zaruriy ko'nikmalari tana avtonom tizimining funksional imkoniyatlariga bog'liq. Bu yoshdagi bolalar va kattalar tanasi o'rtasidagi farqlar sezilarli: o'pkaning yirik qobig'i, vaqt birligida o'pkadan oqib o'tadigan qonning katta miqdori, nafas olishning daqiqali hajmining katta tezligi, minutlik qon hajmi, dam olishda ham, ish paytida ham, qon tomirlarining yuqori elastikligi bir bitridan keskin farq namoyon qiladi.

Bu yosh toifasidagi bolalar dinamik yuklamalarga yaxshi chidamlilikka ega bo'ladilar. Qisqa vaqt ichida ham ishlatiladigan statik pozitsiyalar ular tomonidan yomonroq qabul qilinadi. Bu yoshda yuqori quvvatli mushak harakatlari, kamdan-kam hollarda va qat'iy miqdorda qo'llanilishi kerak.

Badmintonni o'rganish jarayonida bajariladigan harakat fazalarining muvofiqlashtirish murakkabligini hisobga olish kerak. Miya yarim po'stlog'idagi motor analizatori doimiy ravishda takomillashib

boradi. Oddiy muvofiqlashtirish mashqlari boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar tomonidan kuch, fazoviy va vaqt xususiyatlariga ko'ra yaxshi baholanadi. Bo'g'imlarning kengayishi bilan bog'liq bo'lgan fazoviy harakatlar yosh sportchilar tomonidan yaxshiroq, yomonroq, qayishqoqlik bilan qabul qilinadi. Badminton bo'yicha tizimli mashg'ulotlar bilan bolalarning muvofiqlashtirish tezda yaxshi samara beradi

7-10 yoshli bolalarning chidamliligi kattalarnikidan sezilarli darajada farq qiladi. Ushbu davrda murabbiyning vazifasi ko'plab yangi va turli harakatlarni o'rgatishdir. Boshlang'ich maktab yoshida vosita harakatlarining asoslarini fazalarini shakllantirish va badmintonning texnik elementlarining rang-barangligini yanada takomillashtirish imkoniyati o'rtasida bevosita aloqadorlik mavjud.

7-10 yoshli yosh badmintonchilarning mashg'ulot jarayonini tashkil qilishda morfofunktsional xususiyatlar bilan bir qatorda psixofiziologik xususiyatlar ham muhimdir.

Bu yoshga kelib, miyaning og'irligi kattalar vaznining 90% ga yetadi, ammo uning tarkibiy shakllanishi davom yetadi. Maktabda o'qish va sport bo'limida o'ynash bolaning aqliy jarayonlarini asta-sekin nazorat qilishga yordam beradi. Bu yoshda kuch, harakatchanlik, tezlik, asabiy jarayonlarning muvozanati sezilarli darajada rivojlanadi. Biroq, ularning barqarorligi minimal darajada bo'lib, bu bola asab tizimining yuqori charchoqlarini keltirib chiqaradi. Ko'rsatkichni yuqori darajada ushlab turish uchun murabbiy vazifalarni, mashqlarni bajarish shartlarini, boshlang'ich pozitsiyalarini tez-tez o'zgartirishi, mashg'ulot jarayoniga turli xil ochiq o'yinlar va raqobatdosh mashqlarni kiritishi, shu bilan mashg'ulotning hissiy tomonlarini oshirishi, har xil o'yin vositalari bilan faoliyatlarini stabillashtirishi kerak.



Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning asab tizimining yuqori qo'zg'aluvchanligi, reaktivligi va chidamliligi shartli vosita reflekslarining tez birlashishiga va badminton mahorat sirlarini oson o'rganishga yordam beradi.

Kichik yoshdagi maktab bolalarda ularning fe'l-atvori hali shakllanmagan, bu inijlik, qo'pollik, intizomsizlik, xudbinlik, jizzakilik va qo'rquv bilan namoyon bo'ladi. Badmintonning sport bo'limidagi tizimli mashg'ulotlar kompleksi shu munosabatlarni, ijobiy fazilatlarini rivojlantirishga yordam beradi, tartib-intizomga o'rgatadi va kuchli irodali fazilatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Badminton o'yinidagi mashg'ulotlar bolaning jismoniy, aqliy va irodaviy salohiyatining uyg'un rivojlanishini ta'minlaydigan va shu bilan birga optimal yuk darajasini ta'minlaydigan tarzda tashkil etilishi kerak. Buning uchun o'quv mashg'uloti turli xil pedagogik ta'sir vositalari va usullari bilan ta'minlanishi kerak. Murakkab mashqlarni nisbatan sodda mashqlar bilan, qiziqarli va rang-barang mashqlarni bir xil, ammo zarur mashqlar bilan birlashtirish kerak.

Badminton sport bo'limida mashg'ulot jarayoni sportchilarga individual yondashuvga muvofiq tashkil etilishi va iloji bo'lsa, murabbiy boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishi, jinsi, psixologiyasi va jismoniy tayyorgarligini hisobga olgan holda mashqlar kompleksini tanlashi kerak. Zero, yuqoridagi tavsiyalarni umumlashtirib, shuni xulosa qilishimiz mumkinki, 7-10 yoshli badmintonchilarning mashg'ulot jarayonining asosiy yo'nalishi sportga barqaror qiziqishni shakllantirish, keng ko'lamli harakat malakalariga, ko'nikmalarga o'rgatish, jismoniy barkamol rivojlanish sifatleri, badminton o'ynash texnikasi asoslarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Dastlabki tayyorgarlik bosqichining vazifalari sportchilarning salomatligini mustahkamlash va keyingi mashg'ulotlar uchun istiqbolli badmintonchilarni tanlash va badminton o'ynash texnikasini takomillashtirishdan iborat. Yosh badmintonchilarning jismoniy rivojlanishi - bu sportchilarning sog'lig'ini belgilovchi muhim mezonlar hisoblangan bir qator irsiy va ijtimoiy omillar bilan belgilanadigan, ularning o'sishi va rivojlanishini tavsiflovchi ko'rsatkichlar yig'indisidir.

4. В данном пособии рассматриваются основные принципы обучения дошкольников художественной гимнастике, с акцентом на игровые методы обучения и использование гимнастических предметов.
5. **Демина, М.В.** (2018). *«Физическая культура и спорт в дошкольных образовательных учреждениях»*. — Москва: ВЛАДОС.
6. Пособие освещает аспекты организации физической культуры в детских садах, включая занятия гимнастикой, подготовку к соревнованиям и работу с родителями.
7. **Кузнецова, Н.В.** (2021). *«Психологическая подготовка детей к соревнованиям»*. — Казань: Академия спорта.
8. Книга посвящена вопросам психологической подготовки детей к соревнованиям, с акцентом на развитие уверенности, стрессоустойчивости и эмоциональной устойчивости.

VOLEYBOLNI HAR TOMONLAMA O'RGANISH EVOLYUTSIYASI VA O'YIN QOIDALARI VA TEXNIKASI



*Quliyev Shuhrat Shomurodovich
Buxoro davlat pedagogika instituti
Jismoniy tarbiya va sport kafedrası o'qituvchisi*

Annotatsiya.

Dinamik va qiziqarli jamoaviy sport turi bo'lgan voleybol bir asrdan ortiq boy tarixga ega. Ushbu ilmiy maqola voleybolning rivojlanishi, uning kelib chiqishi, asosiy bosqichlari va turli davrlarda o'yinning rivojlanishini o'rganadi. Bundan tashqari, u sportni tartibga soluvchi qoidalarni chuqur tahlil qiladi va o'yinchilarning kortda ustunlik qilish uchun foydalanadigan asosiy usullarini o'rganadi.

Kirish: Dastlab yopiq o'yin sifatida ishlab chiqilgan voleybol dunyo miqyosida tan olingan va keng tarqalgan sport turiga aylandi. Ushbu bo'limda voleybol haqida umumiy ma'lumot berilgan, uning kelib chiqishi va yillar davomida o'sishi ko'rsatilgan. Maqsad - o'yin tarixi, qoidalari va texnikasini har tomonlama o'rganish uchun zamin yaratish.

Kalit so'zlari: Voleybol texnikasi, tarixiy evolyutsiya, olimpiya sport, ralli skorlari, libero pozitsiyasi, Rotatsiyalar, aylanish sxemalari.

ЭВОЛЮЦИЯ ВСЕСТОРОННЕГО ИЗУЧЕНИЯ ВОЛЕЙБОЛА, ПРАВИЛ И ТЕХНИКИ ИГРЫ

Аннотация.

Волейбол – динамичный и захватывающий командный вид спорта – имеет богатую, более чем столетнюю историю. В данной научной статье рассматривается развитие волейбола, его зарождение, основные этапы и развитие игры в разные периоды. Кроме того, в нем дается углубленный анализ правил, регулирующих этот вид спорта, и исследуются ключевые приемы, которые игроки используют для доминирования на площадке.

Введение: Изначально разработанный как закрытая игра, волейбол стал признанным во всем мире и широко распространенным видом спорта. В этом разделе представлена общая информация о волейболе, его происхождении и развитии на протяжении лет. Цель – создать основу для всестороннего изучения истории, правил и техники игры.

Ключевые слова: техника волейбола, историческая эволюция, олимпийский вид спорта, раллийные очки, позиция либеро, ротация, схемы ротации.

COMPLETE LEARNING OF VOLLEYBALL EVOLUTION, GAME RULES AND TECHNIQUE.

Annotation.

Volleyball, a dynamic and exciting team sport, has a rich history spanning over a century. This scholarly article examines the development of volleyball, its origins, key stages, and the evolution of the game over time. It also provides an in-depth analysis of the rules governing the sport and explores the key techniques players use to dominate the court.

Introduction: Originally developed as an indoor game, volleyball has become a globally recognized and popular sport. This section provides an overview of volleyball, its origins, and its growth over the years. The goal is to provide a foundation for a comprehensive study of the game's history, rules, and techniques.

Keywords: Volleyball technique, historical evolution, Olympic sport, rally scores, libero position, Rotations, rotation patterns.

Kelib chiqishi va asoschisi
Voleybolning sayohati 19-asrning oxirida jismoniy tarbiya o'qituvchisi Uilyam G. Morgan voleybol o'yiniga muqobil o'yinni ixtiro qilgan paytdan boshlangan. Ushbu bo'lim voleybolning kelib chiqishini ko'rib chiqadi, uning yaratilishiga va erta rivojlanishiga sabab bo'lgan holatlarga oydinlik kiritadi. Olimpiya o'yinlariga kirish va professionallashtirish: 1964 yilda voleybolning olimpiya sport turi sifatida tan olinishi uning rivojlanishida muhim bosqich bo'ldi. Ushbu bo'lim Olimpiya o'yinlari inklyuziyasining sportning global maqomiga ta'sirini o'rganadi va voleybolning professionallashtirishiga, shu jumladan professional ligalarning shakllanishiga va elita o'yinchilarning ko'payishiga o'rganadi.

Baholash tizimi: Voleybolda ball tizimini tekshirish, shu jumladan ralli skorlari, ochkolarni taqsimlash va o'yin formatlari. Ushbu bo'limda har bir ochkoni tartibga soluvchi qoidalar va o'yinlar qanday g'alaba qozonilishi aniqlangan. Voleybolda keng tarqalgan nosozliklar va qoida buzarlilar, shu jumladan noqonuniy zarbalar, to'rga teginishlar, oyoq xatolari va boshqa qonunbuzarliliklarni o'rganish. Ushbu bo'limda ushbu qoidalar halol o'yin va sport mahoratiga qanday hissa qo'shishi haqida tushuncha beradi.

Voleybol o'yini qoidalari: Baholash tizimi: Voleybolda ball tizimini tekshirish, shu jumladan ralli skorlari, ochkolarni taqsimlash va o'yin formatlari. Ushbu bo'limda har bir ochkoni tartibga soluvchi qoidalar va o'yinlar qanday g'alaba qozonilishi aniqlangan.

Rotatsiyalar va almashtirishlar: O'yinchilarni almashtirish va almashtirish bilan bog'liq qoidalarni tushunish jamoaning muvaffaqiyati uchun juda muhimdir. Ushbu bo'limda aylanish sxemalari, libero pozitsiyasi va o'yin davomida almashtirishlardan strategik foydalanish ko'rsatilgan.

Xatolar va buzilishlar: Voleybolda keng tarqalgan nosozliklar va qoidabuzarliliklar, shu jumladan noqonuniy zarbalar, to'rga teginishlar, oyoq xatolari va boshqa qonunbuzarliliklarni o'rganish. Ushbu bo'limda ushbu qoidalar halol o'yin va sport mahoratiga qanday hissa qo'shishi haqida tushuncha beradi.

Voleybol texnikasi

Xizmat qilish texnikasi: Har xil xizmat ko'rsatish usullarini har tomonlama tahlil qilish, masalan, suzuvchi xizmat, sakrash xizmati va sakrash xizmati. Shuningdek, ushbu bo'limda xizmat ko'rsatishning aniqligi va turli vaziyatlarda xizmatlardan strategik foydalanishning ahamiyati muhokama qilinadi.



O'tkazish va sozlash:O'tish va o'rnatishning asosiy usullarini, shu jumladan platforma o'tish joyini, tepadan o'tishni va to'xtatuvchining rolini o'rganish. Ushbu bo'lim to'pni samarali nazorat qilishda aniq to'p uzatish va o'rnatishning ahamiyatiga urg'u beradi.

Hujum va blokirovka:Hujum usullarini chuqur o'rganish, shu jumladan, tikish, ag'darish va rulonli zarbalar. Bundan tashqari, ushbu bo'lim samarali aniq o'yin muhimligini ta'kidlab, blokirovka qilish va qazish kabi himoya strategiyalarini qamrab oladi.

Himoya qobiliyatlari: Qazish va qabul qilish kabi muhim mudofaa qobiliyatlarini va jamoaning mudofaa qobiliyatini oshirishda liberoning rolini o'rganish. Ushbu bo'lim

mudofaa o'yinida tezkor reflekslar va strategik joylashuvning muhimligini ta'kidlaydi.

Aldamchi xizmatlar: Raqiblarni aldash uchun mo'ljallangan servislarni tekshirish, jumladan, aylanma, sakrash va gibrid servislar. Ushbu bo'lim aldamchi xizmatlar ortidagi psixologiyani va o'yinchilar taktik ustunlikka erishish uchun ulardan qanday foydalanishlari haqida o'rganadi.

Sport fanlari va voleybol: O'yinchilarning ish faoliyatini yaxshilash va jarohatlarning oldini olish uchun sport fanlari voleybolda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu bo'lim biomexanika, ovqatlanish, kuch va konditsionerlik va sport psixologiyasi kabi mavzularni o'z ichiga olgan sport fani va voleybolning kesishishini o'rganadi.

Voleybol texnikasining evolyusiyasi

1-jadvali

Davr	Texnik elementlar	O'zgarishlar tavsifi
XX asr boshlari	O'yinning asoslari: pas, qabul qilish, to'p uzatish	To'p uzatish sodda usullarda amalga oshirilardi. To'pni uzatish hech qanday sakrashsiz, joyidan turib bajarilardi.
1920-yillar	Bloklash	Bloklash himoya usuli sifatida kiritildi. Bloklar asosan sakrashsiz, yerda turib bajarilardi.
1940–1950-yillar	Hujum zarbalarini rivojlantirish	Quvvatli hujum zarbalari paydo bo'ldi. Tezkor hujumlar uchun tez pas berish usuli qo'llanila boshlandi.
1960-yillar	Kombinatsiyali hujumlar	Hujum harakatlarining kombinatsiyalari qo'llanila boshlandi, bu jumladan, tezkor to'plar va aldovchi paslardan iborat edi.
1970-yillar	Sakrab uzatish, bloklarni takomillashtirish	Sakrab to'p uzatish usullari paydo bo'ldi, bu to'pning quvvati va tezligini oshirardi. Bloklash jamoaviy va ko'proq tashkillashgan bo'ldi.
1980-yillar	Himoya maydoni, maxsus pozitsiyalar (libero)	Himoyani kuchaytirish uchun libero pozitsiyalari joriy etildi. Himoyachilar tezkor va taktik jihatdan tayyorgarlik ko'ra boshladi.

Davr	Texnik elementlar	O'zgarishlar tavsifi
1990-yillar	Murakkab uzatishlar (planlashtirilgan, kuchli), himoya taktikalarini rivojlantirish	Planlashtirilgan uzatish va taktik tayyorgarlikning ahamiyati ortdi. Texnika tahlili uchun videotakrorlardan foydalanish boshlandi.
2000-yillar	Jismoniy tayyorgarlikni kuchaytirish, sakrash va zarbalar standartlari	O'yinchilarning sakrash chidamliligi va quvvatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi, bu o'yinni yanada dinamik va tomoshabop qildi.
2010-yillar	Yuqori texnologiyali mashg'ulotlar, ma'lumotlarni tahlil qilish, sun'iy intellekt	O'yinchilarni tayyorlashda tahlildan foydalanish, harakatlarni kuzatish va zarba quvvatini o'lchash texnologiyalari joriy qilindi.
2020-yillar	Avtomatlashtirish, VAR, yangi materiallardan foydalanish (to'plar, formalar va h.k.)	Videotakror tizimlari standartga aylandi. Forma va to'p materiallari yengil va aerodinamik bo'ldi.

Voleybol texnikasining evolyusiyasi qoidalar, jismoniy tayyorgarlik va texnologiyalarning rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. Bu o'yinni yanada tezkor, tomoshabop va strategik jihatdan qiyin qilib boradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ushbu ilmiy maqolada voleybolning tarixiy evolyusiyasi, o'yin qoidalari va asosiy usullarini o'z ichiga olgan har tomonlama tadqiq qilinadi. Sportning boy tarixi va murakkab dinamikasini tushunish futbolchilar, murabbiylar va ishqibozlar uchun juda muhimdir. Voleybol rivojlanishda davom etar ekan, uning ildizlari, qoidalari va usullarini chuqurroq bilish ushbu hayajonli jamoaviy sport turining doimiy o'sishiga va zavqlanishiga yordam beradi. Voleybol butun dunyo bo'ylab sportchilar va ishqibozlarni o'ziga jalb qilishda davom etar ekan, uning tarixi, qoidalari va texnikasini chuqur tushunish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu ilmiy maqola

voleybolning kamtarona boshlanishidan tortib, bugungi kunda biz biladigan murakkab va dinamik sport turiga qadar har tomonlama o'rganishni ta'minlashga harakat qildi. Asosiy qoidalaridan tortib ilg'or strategiyalar va texnologik innovatsiyalargacha bo'lgan o'yinning nozik tomonlarini o'rganish orqali biz ushbu hayajonli jamoaviy sport turini doimiy ravishda qadrlash va rivojlantirishga hissa qo'shishga umid qilamiz. O'yinchilar, murabbiylar va tadqiqotchilar mumkin bo'lgan chegaralarni bosib o'tishda davom etar ekan, voleybol izlanishlar, innovatsiyalar va mukammallikka bo'lgan ishtiyoqni chorlaydigan dinamik va doimiy rivojlanib boruvchi mashg'ulot bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. FIVB - International Volleyball Federation. (2022). "Volleyball." <https://www.fivb.com/en/volleyball>
2. Morgan, W. G. (1895). "The Origin and Development of the Game of Volley Ball." Springfield College Digital Collections.
3. Grimsley, G. (2008). "Volleyball: History of the Game." Capstone Press.

MAKTAB O'QUVCHILARINI JISMONIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA YENGIL ATLETIKA VOSITALARIDAN FOYDALANISH



Narzullayev Sayfullo Sadullayevich
Jismoniy tarbiya va sport kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Jismoniy tarbiya va sport bugungi kunga kelib yurtimizda shiddat bilan rivojlanayotgan sohaga aylanib kelmoqda. Mazkur maqolada maktab o'quvchilarini jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishda yengil atletikaning vositalaridan foydalanish ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: yengil atletika, jismoniy tarbiya, jismoniy sifatlar, yugurish texnikasi, yugurish tezligi, mashq, mashg'ulot, chaqqonlik, yuklama, mikroskl.

Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi fani mashg'ulot sikllari samaradorligini oshirish yo'llarini topishga borgan sari ko'proq diqqatni jalb qilmoqda. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin: mashg'ulot yuklamalari hajmi va jadalligini oshirish, farmakologiya hamda fizioterapiya vositalari uning ko'rinishlari, to'g'ri ovqatlanish, yashash tarzi va shunga o'xshashlardan keng foydalanish. Yuqorida sanab o'tilgan faktorlarni inkor qilmagan holda, turli tuzilish birliklaridagi "Texnologiyalar"ni, shu jumladan, haftalik mikrosikllarni tuzishni o'z ichiga olgan mashg'ulot sikllari sifatini yaxshilash uchun diqqatni yanada ko'proq zahiralarga qaratish kerak. Mashg'ulotni "Blok" tizimi asosida rejalashtirish yaxshi natijalarga erishish va shu bilan birga charchash hamda tiklanish sikllari orasidan zarur bo'lgan moslikni ta'minlash uchun sportchi organizmi imkoniyatlardan yanada to'liqroq foydalanish imkonini beradi.

Qisqa masofaga yuguruvchilar foydalanadigan yuklamalarning o'ziga xos asosiy xususiyatlari yengilroq mashg'ulot yuklamalarining murakkabrog'i bilan

almashinib turishidir. Lekin bir qator tadqiqotchilar yuklamalarning faqatgina kattalikda emas, balki ularning mikrosikllarda ancha foydali almashinuvi va umumiy kumulyativ ta'sirdan so'ng bo'ladigan ko'rinishlari bilan bog'liq ta'sirini o'rganish kerakligini ko'rsatadilar.

Yetakchi olimlardan N.G.Ozolin mashg'ulot sikli va uning ayrim tuzilish birliklarini tuzish muammosi bilan ko'p yillar davomida qiziqib kelishmoqdalar. Lekin hozirgi paytda amaliyotda yuklamalarning hajmi va shiddati oshib borayotganligi sababli ko'tarilgan ko'pgina savollar, asosan, tajribadan kelib chiqib hal qilinmoqda. Xususan, bu mashg'ulot siklining eng muhim tuzilish birligi haftalik mikrosiklga tegishlidir. Mikrosikllar asosida mashg'ulotni rejalashtirish yaxshi natijalarga erishish va shu bilan bir vaqtda charchash va tiklanish sikllari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash uchun sportchi organizmidagi imkoniyatlardan yanada to'laroq foydalanishga imkon beradi. Mashg'ulot mikrosikllarid turlicha yo'nalishdagi mashqlar qilinadi. Ulardan har qaysi sportchi organizmiga ma'lum birta

ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun mikrosiklni shunday tuzish kerakki, u mashg'ulotning u yoki bu bosqichigamos keluvchi barcha asosiy yuklamalarni foydali echishiga imkon bersin (31, 41, 45). Mikrosikllarni tuzishdagi ko'pgina masalalarni yechish asosida muskul faoliyati bilan bog'liq bo'lgan charchash va tiklanish sikllari to'g'risidagita'minot yotadi. Mushak faoliyatining fiziologiya va bioximiya bo'yicha tadqiqotlari orqali jismoniy yuklamalardan keyingi tiklanish sikllarining fazali ekanligi ko'rsatilgan (10, 13, 45). Tiklanish davrida kelib chiquvchi turli tizimlardan konstruktiv o'zgarishlar chidamlilikning oshishiga asos bo'ladi. Shu tufayli ish davridan keyingi davrda ikki davrni farqlash kerak:

1) Bu fazada mushak ishi ta'sirida o'zgaruvchi jismoniy va vegetativ funksiyalari (turli tiklanish davri) bo'lib, uning asosida organizm gomeostazining tiklanishi hisoblanadi.

2) Konstruktiv faza (tiklanishning qoldirilgan davri)dagi siklda ketma-ket bo'ladigan reaksiyalar yig'indisi tufayli organizmning organ va

to'qimalarida funksional hamda tuzilmalari qayta qurilishi shakllanishi kelib chiqadi. Odatda xuddi shu davrda energiya potentsiallari juda katta kompleksatsiyani va muhitning hamda ruhiy sikllarning turli parametrlari fazasi kuzatiladi. Tiklanishning qoldirilgan davrida organizm holatining qonuniy o'zgarishlariga mos ravishda mashg'ulot yuklamalari va mashqlarining almashinib turishi bu holatdagi o'zgarishlarni boshqarib turish uchun zamin yaratadi.

Ma'lumki, jismoniy ishdan keyingi tiklanish sikllari isteroxron tarzida o'tadi, ya'ni juda katta kompleksatsiyasi bir vaqtning o'zida ro'y beradi. Shu yerda savol tug'iladi, qaysi tiklanuvchi funksiyaga qarab ish tutish. Bu 6-7 kunda bir martadan ko'p bo'lmagan katta mashg'ulot yuklamalariga ega mashqlarni qo'llashni bildirib, u sport

amaliyoti bilan qarama-qarshilikka uchraydi. N.V.Zimkin, N.I.Volkovlar jismoniy mashqlarning xususiyatlari va ularni qo'llash uslubi, yuklamalarning turli kattalik hamda yo'nalishga ega bo'lgan umumiy, ta'sirga bog'liq bo'lgan ayrim yuklamalardan kelib chiquvchi oqibatlarini tadqiq qilishning keng istiqbolini aniqlovchi ishlarida bu holatdan chiqib ketish yo'lini topamiz. Ta'kidlash joizki, bu mualliflarning turli yo'nalishdagi yuklamalarning almashinuvini oqilona tashkil qilish masalalariga yondashuvi hozirgi kunda yangilik emas. Uning amaliy ahamiyati ilgari L.P.Matveyev tomonidan aniqlangan. Uning hisoblashicha, mashg'ulotlar va dam olish oraliqining tuzilmasi asosiy mashg'ulotlarida qo'llagan mashqlarga nisbatan, tiklanish yoki yuqori ish qobiliyati bo'lganda olib borish uchun kerak. Bundan tashqari, L.P.Matveyev ko'rsatishicha, bir mashg'ulot tugagach, undan keyin tiklanish sikllari tugagunga qadar, organizm, hali yetarlicha yuqori darajada ish qobiliyatiga egaligida boshqa yo'nalishdagi yuklamali mashg'ulot o'tkazish mumkin. Lekin bu va shunga o'xshash fikrlar nazariy tahlil hamda sport amaliyotining ayrim hollaridagi ma'lumotlarga moslanadi, qisqa masofalarga yugurishdagi mashg'ulotning o'ziga xosligini hisobga olgan holda tajribada o'rganishga e'tibor qaratadi.

Qisqa masofalarga yuguruvchilarning turli yo'nalishdagi mashg'ulotlardan keyingi tiklanish reaksiyalarini tadqiq qilib, barcha o'rganilgan ko'rsat- kichlar bo'yicha to'liq tiklanishni tezlik yo'nalishi mashg'ulotlaridan keyin 6-8 soat o'tgach, umumiy va maxsus chiniqishni takomillashtirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlardan keyin esa, ba'zi bir holatlarning tiklanishgacha yetib bora-olmasligi, boshqalarning yuqori darajada tiklanishlarini qayd qildilar. Bunda mashg'ulotlar (turgan joyda 15 s. yugurish testi bo'yicha ish qobiliyati va maxsus



chiniqishni rivojlantiruvchi mashg'ulotlardan so'ng kuchning tushish tezligi koeffitsientidan tashqari)ning o'ziga xosligini tushuntiruvchi jiddiy farqlar topilmadi. Ketma-ket uch kunlik mashg'ulotlardan so'ng barcha, asosan vegetativ tizim faoliyatini xarakterlovchi ko'rsatkichlarning yomonlashuvi qayd qilindi. Bundan kelib chiqib, mualliflar uch kunlik mashg'ulotdan keyin uch kun dam olish kerakligi haqida xulosa qiladilar. Bu tadqiqotning ijobiy tomoni shundaki, mualliflar tomonidan turli yo'nalishdagi mashg'ulotlarning organizmga ta'siri tadqiqot qilinib, ketma-ket ikki yoki uchta mashg'ulotning natija yig'indisi aniqlangan.

Yuqorida aytib o'tilganlardan kelib chiqib, quyidagi musobaqaga tayyorgarlik mikrosiklni A.M.Baratov bo'yicha tahlil qilib chiqildi. Unga ko'ra tayyorgarlik sikli quyidagicha:

I. Qishki musobaqalarga tayyorgarlik.

Dushanba. tezlik sifatlarini rivojlantiruvchi va texnikani takomil-lashtirish:

- 1) chigalyozdi yugurish – 15 daq.
- 2) MYuM – 6x60 m.
- 3) tezlanish – 3x100 m.
- 4) yugura kelib yugurish – 3x20 m., 2x30 m., 2x50 m. shiddat – 91-95 % (to'la tiklanib).

5) yugura kelib yugurish – 3x20 m., 2x30 m., 2x50 m. shiddat – 96

– 100 % (to'la tiklanib). 6) pastki startdan yugurish – 4x30 m., 2x40 m., 1x60 m. shiddat – 91-95 % (to'la tiklanib). 7) pastki startdan yugurish – 4x30 m., 2x40 m., 1x60 m. shiddat – 95-100% (tiklanib).

Seshanba. Maxsus chidamlilik va egiluvchanlikni rivojlantirish:

- 1) chigalyozdi yugurish – 15 daq.
- 2) MYuM – 6x60 m.
- 3) tezlanish – 3x100 m.
- 4) qayta yugurish – 3x100 m., 2x150 m., 2x250 m. shiddat – 91-95%.
- 5) qayta yugurish

– 2x100 m., 1x150 m. shiddat – 96-100%. 6) Egiluvchanlik mashqlari – 30min. Chorshanba. Kuch va tezkor – kuch sifatlarini rivojlantirish:

- 1) chigalyozdi yugurish – 15 daq.
- 2) qurbaqacha saqrash – 100 marta.
- 3) girya bilan ishlash – 2 seriya – 15 martadan.
- 4) basketbol. Payshanba. Umumiy chidamlilik va egiluvchanlikni rivojlantirish: 1) chigalyozdi yugurish – 15 daq.
- 2) kross – 6 km. (km=5 daq.). Juma. 1) chigalyozdi yugurish – 25 daq. Shanba va Yakshanba – musoboqa.

II. Yozgi musobaqalarga tayyorgarlik davri.

Dushanba. tezlik sifatlarini rivojlantirish va texnikani takomil-lashtirish:

- 1) chigalyozdi yugurish – 15 daq.
- 2) MYuM – 6x60 m.
- 3) tezlanish – 3x100 m.
- 4) pastki startdan yugurish – 5x30 m., 1x40 m., 2x60 m. shiddat – 91-95

% (to'la tiklanib). 5) pastki startdan yugurish – 5x30 m., 1x40 m., 2x60 m. shiddat – 96-100 % (to'la tiklanib). 6) sekin yugurish- 5 daq. Seshanba. Maxsus chidamlilik va egiluvchanlikni rivojlantirish:

- 1) chigalyozdi yugurish – 15 daq.
- 2) MYuM – 6x60 m.
- 3) tezlanish – 3x100 m.
- 4) qayta yugurish – 2x100 m., 2x150 m., 1x300 m. shiddat – 91-95%.
- 5) qayta yugurish – 1x100 m., 1x250 m. shiddat – 96- 100%.
- 6) Egiluvchanlik mashqlari – 20min.
- 7) Sekin yugurish – 5 daq.

Chorshanba. Kuch va tezkor – kuch sifatlarini rivojlantirish: 1) chigalyozdi yugurish – 30 daq.

2) qurbaqacha saqrash – 2x60 m.

3) gira bilan ishlash – 2 seriya

– 15 martadan.

4) sekin yukurish – 11 daq.

Payshanba. Pastki startdan yugurish- ni takomillashtirish: 1) chigalyozdi yugurish – 15 daq.

2) tezlanishlar – 3x100 m.

6) pastki startdan yugurish – 4x30 m., 4x50 m., 1x80 m. shiddat – 91-95%.

4) pastki startdan yugurish – 2x30 m. shiddat – 100%.

5) sekin yukurish – 13 daq.

Juma. 1) chigalyozdi yugurish – 30 daq.

Shanba va Yakshanba – musoboqa. Shunday

qilib, berilgan yuklamani bajarish ko'p jihatdan yuguruvchining anaerob imkonlarini rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, 190 zar/daq.li YuQS bilan masofalar orasida 6 daq. dam olish bilan bo'ladigan 3x80 m.ga qayta yugurish shug'ullanuvchilar organizmiga yanada ko'proq ta'sir ko'rsatadi, shu sababli ertasi kuni anaerob va yuqori tezlik imkoniyatlarini ta'riflab beruvchi ko'rsatkichlarning hali tiklanishga ulgurmagani qayd qilinadi. Lekin, qisqartirilgan yuklamalar hisobiga tezkorlikni dam olish orqali rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Mashg'ulotlarning u yoki bu tartibini aniqlashda, xususi mashg'ulot samarali (organizmning bir yuklamadan yoki bir xususiyatga ega bo'lgan yuklamalar kompleksidan ta'sirlanishi) kabi kumulyativ samara, ya'ni turli qulay yo'nalishdagi yuklamalarning organizmga ta'siridan kelib chiqqan oqibatlarni (xususi samara)ni umulashtirishni ham hisobga olish zarur. Shu bilan birga oqibatlar faqatgina moslashish samarasi ko'rinishida jamlanib qolmasdan, balki organizmda umumlashib, uni yangi sifat holati bilan ta'minlaydi (10, 12, 22). Yuqoridagilarni hisobga olib, mashg'ulot siklida turlicha tuzilish birliklarini, xususan, 13-15 yoshdagi qisqa masofaga

yuguruvchilarda tayyorgarlikni mikro va mezosikllarni tashkil qilish masalalarini ishlab chiqish muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Bugungi kunda mashg'ulot siklini ilmiy jihatdan qulaylashtirish zaruriyati tug'ilganligi ko'rilmog'daki, bu mashg'ulot siklining turli tuzilish birliklari mazmuni va prinsiplari, shu jumladan mikro va mezosikllarni aniqlash bilan bog'liqdir. Bunda siklni, qulaylashtirish deganda, biz uni tuzishda harakat imkoniyatlarining eng ko'p o'sishini ta'minlovchi variant tanlashni tushunamiz. Bir vaqtning o'zida qulay variantni tanlash sportchini tayyorlashda hal qilinadigan masala va qonuniyatlardan kelib chiqib, siklning mazmunini aniqlash va bu mazmunni vaqtlarga tarqatib chiqish bilan bog'langan bo'lib, bunda masala va qonuniyatlarni sportchining sport mahoratiga erishishni ta'minlaydi. Boshqacha qilib aytganda, mashg'ulot siklini qulaylashtirish-bu mashg'ulot dasturini shunday tuzish kerakki, bunda uning mazmunini tartibga keltirish sharti qo'yiladi.

Ushbu tadqiqotda qisqa masofaga yuguruvchilar shiddatli mashg'ulot yuklamalarini bajargandan so'ng funksional holat va muskul ish qobiliyati ko'rsatkichlari tiklanishiga bog'liqligi ko'rsatilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Andris E.R., Qudratov R.Q. Yengil atletika. – T.: 1998. – 124 b.
2. Andris E.R. Upravleniye trenirovkoy v bege na 100 metrov. – T.: 1990. – 109 s.
3. Jilkin A. I., Kuzmin V. S., Sidorchuk Ye. V. Legkaya atletika (Ucheb. posobiye dlya stud. vissh. ucheb. zavedenii. – M.: Izdatelskiy sentr «Akademiya», 2009. - 464 s.
4. Shakirjanova K.T. Yengil atletikada sport mashg'ulotlari asoslari. – T.: 2008. – 72 b.
5. Abdukhamidov, R. N. (2021). IMPROVING PSYCHOPHYSIOLOGICAL TRAINING OF TEENAGE BOXERS WITH THE HELP OF IMPROVISED MEANS OF GAMES. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 1(1.5 Pedagogical sciences).
6. Абдухамидов, Р. Н. (2021). САМАРАЛИ ВОСИТА ВА УСУЛЛАР ЁРДАМИДА ЎСМИР БОКСЧИЛАРНИНГ ПСИХОФИЗИОЛОГИК ТАЙЁРГАРЛИГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. Academic research in educational sciences, 2(Special Issue 1).
7. Халмухамедов, Р. Д., Абдухамидов, Р. Н., Каримов, Ш. Қ., & Усмонхўжаев, С. Т. (2021). СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ СУДЕЙСТВА В БОКСЕ. Academic research in educational sciences, 2(Special Issue 1)

KURASHCHI SPORTCHILARDA JISMONIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI



Shamsov Murodjon Qurbonovich
Buxoro davlat pedagogika instituti
Jismoniy madaniyat fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Kirish: Maqolada kurash sport turining ahamiyati, yoshlar orasida mazkur sportni ommalashtirishning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri bayon etilgan. Asosiy e'tibor kurashchilarning jismoniy fazilatlarini shakllantirish masalalariga qaratilgan. Jismoniy sifat chidamlilik jahon standartlari tahlil qilingan.

Maqsad: Kurashda muvaffaqiyatga erishish uchun sportchining jismoniy sifatlarini kompleks rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Kuch, chidamlilik, tezlik, moslashuvchanlik, koordinatsiya, muvozanat va portlash kuchi kabi sifatlar kurash texnikasi va taktikasi bilan uzviy bog'liq. Ushbu sifatlarini rivojlantirish orqali sportchi raqibga qarshi samarali harakat qila oladi, uzoq davom etuvchi kurashda o'zining jismoniy imkoniyatlarini saqlaydi va raqibning hujumlariga muvaffaqiyatli qarshi tura oladi.

MATERIAL VA METODLAR: Muvaffaqiyatga erishish uchun individual yondashuvni qo'llash, mashg'ulotlarni to'g'ri rejalashtirish va texnikani mukammallashtirish zarur. Jismoniy sifatlarini oshirish bilan birga sportchining ruhiy tayyorgarligi va sog'lom turmush tarzi ham kurashdagi g'alabani asosiy omillari hisoblanadi. Shunday qilib, jismoniy sifatlarini to'g'ri metodikalar orqali rivojlantirish nafaqat sportchining shaxsiy salohiyatini oshiradi, balki musobaqalarda yuqori natijalarga erishishda mustahkam poydevor yaratadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: Kurashchining musobaqa faoliyati ko'p qirrali va mushak tizimining ulkan ishi bilan bogliq (kurashda statik va dinamik tartibda ishlovchi deyarli hamma mushak guruhlari qatnashadi). Shuning uchun chidamlilik nafaqat ishlayotgan mushaklarga yetkazib beriladigan kislorod miqdori bilan, balki mushaklarning o'zining uzoq vaqt davom etadigan kuchli zo'riqishli ishga bo'lgan moslashishi bilan aniqlanadi. Sportchi trenirovka va musobaqa faoliyatida ma'lum bir toliqishni yengib o'tgan taqdirdagina uning chidamliligi takomillashadi.

XULOSA: Jismoniy fazilatlar, harakatlar bajarish jarayonlarida harakat maqsadiga muvofiq o'zaro bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Jismoniy fazilatning birining yuqori darajada rivojlangan bo'lishi boshqa fazilatlarini ham takomillashuviga olib keladi. Jismoniy tayyorgarlik jarayonlarida jismoniy fazilatlarini uyg'un rivojlantirishga katta e'tibor qaratish kerak. Jismoniy tayyorgarlik darajasi ortib borish bilan kurashchilar maxsus fazilatni takomillashtirishga harakat qiladilar.

Kalit so'zlar: jismoniy sifat, sport, chidamlilik, trenirovka, aerob, anaerob.

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ФИЗИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ У СПОРТСМЕНОВ-БОРЦОВ

Шамсов Муроджон Курбанович
Бухарский государственный педагогический институт
Преподаватель факультета физической культуры

Аннотация.

Введение: в статье рассказывается о значении единоборств, влиянии популяризации этого вида спорта среди молодежи на развитие общества. Основное внимание уделяется вопросам формирования физических качеств борцов. Физическое качество анализируется по мировым стандартам выносливости.

Цель: для достижения успеха в борьбе важно комплексное развитие физических качеств спортсмена. Такие качества, как сила, выносливость, скорость, гибкость, координация, равновесие и взрывная сила, неразрывно связаны с техникой и тактикой борьбы. Развивая эти качества, спортсмен может эффективно действовать против соперника, сохранять свои физические возможности в длительной борьбе и успешно противостоять атакам соперника.

Материал и методы: для достижения успеха необходимо применять индивидуальный подход, правильно планировать тренировки и совершенствовать технику. Наряду с повышением физических качеств, психическая подготовка спортсмена и здоровый образ жизни также являются основными факторами победы в борьбе. Таким образом, развитие физических качеств с помощью правильных методик не только повышает личностный потенциал спортсмена, но и создает прочную основу для достижения высоких результатов на соревнованиях.

Обсуждение и результаты: соревновательная деятельность борца многогранна и связана с огромной работой мышечной системы (в борьбе участвуют практически все группы мышц, работающие в статическом и динамическом порядке). Таким образом, выносливость определяется не только количеством кислорода, доставляемого к работающим мышцам, но и собственной адаптацией мышц к длительной интенсивной напряженной работе. Выносливость спортсмена улучшается только в том случае, если он преодолевает определенную усталость в тренировочной и соревновательной деятельности.

Вывод: физические качества проявляются во взаимосвязи в процессах выполнения действий в соответствии с целью действия. Высокоразвитый характер одного из физических качеств приводит к совершенствованию и других качеств. В процессах физической подготовки следует уделять большое внимание гармоничному развитию физических качеств. С повышением уровня физической подготовки борцы стараются совершенствовать особое качество.

Ключевые слова: физическое качество, спорт, выносливость, тренировки, аэробные, анаэробные.

METHODOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF PHYSICAL QUALITIES IN WRESTLING ATHLETES

Shamsov Murodjon Qurbonovich
Bukhara State Pedagogical Institute
Teacher, Faculty of Physical Culture

Annotation.

Introduction: the article describes the importance of wrestling sports, the impact of popularizing this sport among young people on the development of society. The main focus is on the issues of the formation of the physical qualities of wrestlers. Physical quality durability has been analyzed in world standards.

Objective: to achieve success in the fight, it is important to develop the athlete's physical qualities in a complex way. Qualities such as strength, endurance, speed, flexibility, coordination, balance, and blast strength are inextricably linked with wrestling techniques and tactics. By developing these qualities, the athlete is able to act effectively against the opponent, maintain his physical capabilities in a prolonged struggle and successfully resist the opponent's attacks.

Materials and methods: to achieve success, it is necessary to take an individual approach, correctly plan training and perfect the technique. Along with increasing physical qualities, the athlete's mental fitness and healthy lifestyle are also the main factors of victory in the fight. Thus, the development of physical qualities through the right methodologies not only increases the personal potential of the athlete, but also creates a solid foundation in achieving high results in competitions.

Discussion and results: The Wrestler's competition activities are multifaceted and are associated with the enormous work of the muscle system (almost all muscle groups involved in the fight, working in a static and dynamic order). Therefore, endurance is determined not only by the amount of oxygen supplied to the working muscles, but also by the adaptation of the muscles themselves to a long-lasting strong-tension work. Its endurance will improve only if the athlete has overcome a certain exhaustion in training and competition activities.

Conclusion: physical qualities are manifested in interdependence according to the purpose of action in the processes of performing actions. The fact that one of the physical qualities is highly developed also leads to the improvement of other qualities. In the processes of physical preparation, great attention should be paid to the harmonious development of physical qualities. With an increase in the level of physical fitness, wrestlers try to improve a special quality.

Keywords: physical quality, sports, endurance, training, aerobic, anaerobic.

Kurashchining chidamliligi - bu butun bellashuv davomida harakatlarni yuqori sur'atda bajarish va butun musobaqa davrida bir nechta bellashuvlarni shiddat bilan o'tkazish qobiliyatidir. Yuqori darajadagi chidamlilik kurashchiga katta trenirovka va musobaqa nagruzkalarini o'zlashtirishga, musobaqa faoliyatida o'zining xarakteristik harakatlarini to'laqonli ravishda amalga oshirishga imkon beradi.

Kurashda umumiy va maxsus chidamlilik farqlanadi.

Umumiy chidamlilik deganda sportchining sust shiddatdagi ishini uzoq

vaqt bajarishga bo'lgan qobiliyati tushuniladi.

Maxsus chidamlilik kurashchining musobaqa bellashuvi davomida turli xususiyatdagi harakatlar va amallarni har xil kuchlanishlar bilan hamda gavdaning turli holatlarida yuqori sur'atda bajarish qobiliyati orqali tavsiflanadi.

Kurashchining musobaqa faoliyati ko'p qirrali va mushak tizimining ulkan ishi bilan bogliq (kurashda statik va dinamik tartibda ishlovchi deyarli hamma mushak guruhlari qatnashadi). Shuning uchun chidamlilik nafaqat ishlayotgan mushaklarga yetkazib beriladigan kislorod miqdori bilan,

balki mushaklarning o'zining uzoq vaqt davom etadigan kuchli zo'riqishli ishga bo'lgan moslashishi bilan aniqlanadi. Sportchi trenirovka va musobaqa faoliyatida ma'lum bir toliqishni yengib o'tgan taqdirdagina uning chidamliligi takomillashadi. Jismoniy toliqish va chidamlilik asosida mushak faoliyatining turli xildagi ta'minoti jarayonlari yotganligini bilgan holda ularning faoliyat ko'rsatish darajasini oshirish uchun ularga maqsadli ta'sir etish mumkin.

Trenirovka yuklamasi, sportchi organizmiga ta'sir ko'rsatish chorasini sifatida, quyidagi tavsiflar bilan belgilanadi:

- mashq shiddati;
- mashq davomiyligi;
- takrorlash soni;
- dam olish oralig'i davomiyligi;
- dam olish xususiyati.

Bajarilayotgan mashq shiddati energiya ta'minotining aerob va anaerob

jarayonlari nisbati xususiyatiga ta'sir ko'rsatadigan yuklamaning eng muhim tavsifi hisoblanadi. To'rtta shiddat zonasini ajartish qabul qilingan: maksimal, submaksimal, katta, sust. Mashq davomiyligi uni bajarish shiddatiga nisbatan teskari bog'liqlikka ega. Ish davomiyligining 20 - 25 sekunddan 4 -5 minutgacha ko'payishi bilan uning shiddati keskin kamayadi. Mashqning energiya ta'minoti turi uning davomiyligiga bog'liq. Anaerob-glikolitik rejimdagi mashqlar davomiyligi 3-8 sekunda, anaerob-glikolitik rejimda 20 sekunddan 3 minutgacha hamda aerob rejimda - 3 minutdan va ko'proqqa teng. Ko'p sonli tadqiqotlar natijalariga asosanib, davomiyligi har xil bo'lgan maksimal jismoniy yuklamada anaerob va aerob jarayonlarning umumiy energetik metabolizmga nisbatan hissasini aniqlash mumkin. Tegishli natijalar 4-jadvalda keltirilgan.

1 - jadval

Davomiyligi har xil bo'lgan maksimal jismoniy yuklamada anaerob va aerob jarayonlarning umumiy quvvat sarflanishiga ketadigan nisbiy ulushi

Ishning davomiylilik chegarasi	Quvvatning chiqishi			Nisbiy ulush	
	Anaerob jarayonlar	Aerob jarayonlar	Jami	Anaerob jarayonlar %	Aerob jarayonlar %
10 sek	20	4	24	83	17
1 min	30	20	50	60	40
2 min	30	45	75	40	60
5 min	30	12	150	20	80
10 min	25	245	270	9	91
30 min	20	675	695	3	97
60 min	15	1200	1215	1	99

Mashqlarni takrorlash soni ularning organizmga ta'sir ko'rsatish darajasini belgilaydi. Aerob sharoitlarda ishlashda takrorlash sonini ko'paytirish nafas olish va qon aylanish organlari faoliyatini yuqori darajada uzoq vaqt ushlab turishga majbur qiladi. Anaerob rejimda mashqlarni takrorlash soni kislorodsiz mexanizmlarning

tugashiga yoki markaziy asab tizimining qurshovda kolishiga olib keladi.

Dam olish oralig'i davomiyligi organizmning trenirovka yuklamasiga bo'lgan javob reaksiyasi hajmi singari, uning xususiyatini ham aniqlash uchun katta ahamiyatga ega. Bunda dam olish oraliqlarida sodir bo'ladigan tiklanish jarayonlari quyidagilardan iborat:

- tiklanish jarayonlari tezligi bir xil emas - avval tiklanish tez kechadi, so'ng sekinlashadi;

- turli ko'rsatkichlar har xil vaqtdan keyin tiklanadi (geteroxronlilik);

- tiklanish jarayonida ish qobiliyati va boshqa ko'rsatkichlarning fazali o'zgarishi kuzatiladi.

Dam olish oraliq'r i tiklanish uchun yetarli bo'lgan sust shiddatli mashqlarni bajarishda har bir keyingi urinish taxminan avvalgisiga o'xshagan ko'rinishda boshlanadi. Ushbu holda dam olish oraliq'ini kamaytirishda yuklama ko'proq aerob yuklamaga aylanadi, chunki odatda 3-4 minutga kelib vujudga kelayotgan nafas olish jarayonlari ham o'z kuchini saqlab qolgan bo'ladi. Maksimal va submaksimal quvvatli mashqlardagi dam olish oraliq'ini kamaytirish yuklamani anaerob yuklamaga aylantiradi, chunki mashq takrorlangan sari kislorod qarzi oshib boradi.

Dam olish xususiyati mashqlar o'rtasida faol, sust va aralash bo'lishi mumkin.

O'qitishning kritik nuqtasiga yaqin bo'lgan tezlikda ishlash paytida faol dam olish nafas olish jarayonlarini yuqori darajada ushlab turishga yordam beradi va ishdan dam olishga hamda aksincha holatga keskin o'tishning oldini oladi. Bu yuklamani ko'proq aerob yuklamaga olib keladi. Bundan tashqari, og'ir mehnatdan so'ng faol dam olish tiklanish jarayonlarini tezlashtiradi. Mashqlar o'rtasida sust dam olish paytida sportchi, butkul tinch holatda bo'lib, hech qanday harakatlarni bajarmaydi.

Chidamlilikni rivojlantirish uchun quyidagi uslublar qo'llaniladi: bajariladigan mashqlar hajmi va shiddatini oshirish, o'zgaruvchan, oraliqli, o'zgaruvchan-oraliqli, takrorlash.

Hajmni oshirish uslubi shundan iboratki, jismoniy mashqlarni bajarish vaqti mashg'ulotlardan mashg'ulotga asta-sekin oshib boradi. Bu uslub mashg'ulotlar sonini ko'paytirishini nazarda tutadi. Shiddatni

oshirish uslubi jismoniy mashqlarni bajarish sur'ati, shuningdek butunlay mashg'ulot zichligini mashg'ulotdan mashg'ulotga asta-sekin oshirib borishni ko'zda tutadi.

O'zgaruvchan uslub shundan iboratki, jismoniy mashqlar har xil sur'atda bajariladi. Bunda past sur'atda o'tkaziladigan vaqt bo'laklari mashg'ulotdan mashg'ulotga kamayib, baland sur'atda o'tkaziladiganlari ortib boradi.

Oraliqli uslub shundan iboratki, bunda jismoniy mashqlar bo'laklarga bo'linib (seriyalab), sust va faol dam olish oraliqlari bilan bajariladi. Trenirovka vazifalari mashqlarni bajarish sur'ati va davomiyligiga, shuningdek kurashchining mashq qilganlik darajasi hamda kayfiyatiga qarab, ish hamda dam olish oraliqlari davomiyligiga ko'ra har xil bo'lishi lozim. Takrorlash uslubi shundan iboratki, sportchi bir mashg'ulotning o'zida yoki bir nechta mashg'ulotda hajmi va shiddatiga ko'ra bir xil bo'lgan mashqlarni takrorlaydi.

Sport trenirovkasi jarayonida hamma uslublar bir-biri bilan turlicha uyg'unlashtirilgan holda qo'llaniladi. Chidamlilikni tarbiyalash samaradorligi ko'p jihatdan trenirovka jarayonining oqilona tuzilganligi bilan belgilanadi. Turli yo'nalishdagi mashqlarni bajarishda ma'lum bir ketma-ketlikka amal qilish va ularning ijobiy o'zaro ta'sir etishini ta'minlash juda muhimdir. Quyidagi ketma-ketlikka rioya etish maqsadga muvofiqdir:

- avval anaerob mashqlar (tezkor va tezkor kuch), so'ngra anaerob-glikolitik (kuch chidamliligi uchun) mashqlar;

- avval anaerob, so'ngra aerob mashqlar (umumiy chidamlilik uchun);

- avval anaerob-glikolitik, keyin aerob mashqlar.

Agar mashqlar ketma-ketligi teskari bo'lsa, tez trenirovka samarasining o'zaro ta'siri salbiy bo'ladi, hamda bunday mashg'ulot kam foyda beradi.

Jismoniy fazilatlar, harakatlar bajarish jarayonlarida harakat maqsadiga muvofiq o'zaro bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Jismoniy fazilatning birining yuqori darajada rivojlangan bo'lishi boshqa fazilatlarni ham takomillashtirishga olib keladi.

Jismoniy tayyorgarlik jarayonlarida jismoniy fazilatlarni uyg'un rivojlantirishga katta e'tibor qaratish kerak. Jismoniy tayyorgarlik darajasi ortib borish bilan kurashchilar maxsus fazilatni takomillashtirishga harakat qiladilar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Azizov N.X. Belbog'li turkiston kurashi. - Toshkent: o'qituvchi, 1998.
2. Борисов К. Практика рукопашного боя. Учебное пособия под/рек. 2003 г
3. Salomov R.S. Sport mashg'ulotining nazariy asoslari – Toshkent., O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti, 2005 yil - 238 b.
4. Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish Toshkent., O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti 2005 yil - 171 b.
5. Dzyudo kurashi. A.A.Absatarov. A.A.Istomin. Toshkent Iqtisod-Moliya 1993 yil.

MUALLIFLAR HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Shamsov Murodjon Qurbonovich

Buxoro davlat pedagogika instituti jismoniy madaniyat fakulteti o'qituvchisi

A large, thick, blue circular brushstroke graphic that is slightly irregular, resembling a hand-painted ring. It is centered on the page and serves as a background for the main title.

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI

ТАЛАБАЛАРНИНГ ТАШКИЛОТЧИЛИК ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА РИВОЖЛАНТИРИШ.



Феруза Садикова

*Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти
Миллий тадқиқот университети, Тошкент шаҳри*

Аннотация.

КИРИШ: Ушбу мақолада бугунги кунда олий таълим муассасалари талабаларнинг мустақил таълим жараёнида талабаларнинг ташкилотчилик қобилиятларини ривожлантириш борасида амалга оширилаётган ишлар, ушбу жараёнда учраётган муаммолар борасида фикр юритилган.

МАҚСАД: Мустақил таълим орқали талабалар ташкилотчилик қобилиятларини ривожлантириш.

МАТЕРИАЛЛАР ВА МЕТОДЛАР: Тадкикот методологияси мазкур ишда олий таълим муассасаларида талабаларнинг мустақил ишлаш фаолиятини ривожлантириш омилларидан фойдаланишнинг мазмунни мақсади, вазифалари ва тамойиллари ўрганилди. Тадкикот давомида тизимли ёндашув ва таҳлил қилиш усулларида фойдаланилди. Таҳлил ва натижалар Ўзбекистон Республикасида олий таълимни тизимли ислоҳ қилишнинг устувор йўналишларини белгилаш, замонавий билим ва юксак маънавий-ахлоқий фазилатларга эга, мустақил фикрлайдиган юқори малакали кадрлар тайёрлаш жараёнини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш, олий таълимни модернизация қилиш, илғор таълим технологияларига асосланган ҳолда ижтимоий соҳа ва иқтисодиёт тармоқларини ривожлантириш борасида катта ишлар олиб борилмоқда.

ХУЛОСА: олий таълим муассасаларида мустақил таълим жараёнини амалга оширишда тизимли ишларни йўлга қўйиш, талабаларни мустақил ишлашга ўргатиш ижодий ва ижтимоий фаол, ижтимоий - сиёсий ҳаётда мустақил равишда ўз ўрнини топа олиш малакасига эга бўлган, истиқболий вазифаларни қўйиш ва ҳал қилиш қобилиятига эга бўлган кадрларнинг янги авлодини шакллантиришга асос бўлади.

Калит сўзлар: таълим, мустақил таълим, ташкилотчилик қобилияти, компетенция, замонавий ёндошувлар.

РАЗВИТИЕ ОРГАНИЗАЦИОННЫХ НАВЫКОВ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ.

Феруза Садикова

*Ташкентский институт инженеров ирригация и механизация сельского хозяйства,
Национальный исследовательский университет, г. Ташкент*

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье обсуждается работа, проводимая высшими учебными заведениями в процессе самостоятельного обучения студентов, и проблемы, возникающие в этом процессе.

ЦЕЛЬ: Развивать организаторские способности учащихся посредством самостоятельного обучения.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Изучена методология исследования в данной работе, цели, задачи и принципы использования факторов развития самостоятельной работы студентов вузов. В ходе исследования использовались системный подход и аналитические методы. Анализ и результаты: определение приоритетов системного реформирования высшего образования в Республике Узбекистан, поднятие процесса подготовки высококвалифицированных кадров, обладающих современными знаниями и высокими морально-этическими качествами, на новый уровень качества, модернизация высшего образования, социальная сфера базируется на передовых образовательных технологиях и проводится большая работа по развитию отраслей экономики.

ВЫВОД: Налаживание системной работы по осуществлению самостоятельного образовательного процесса в высших учебных заведениях, обучению студентов самостоятельной работе, созданию нового поколения кадров творческих и социально активных, обладающих навыками самостоятельного нахождения своего места в общественной и политической жизни. Жизнь, у которых есть способность ставить и решать перспективные задачи, является основой формирования.

Ключевые слова: образование, самостоятельное образование, организаторские способности, компетентность, современные подходы.

**DEVELOPMENT OF STUDENTS' ORGANIZATIONAL SKILLS IN THE PROCESS OF
INDEPENDENT STUDY.**

Feruza Sadikova

*Tashkent institute of irrigation and agricultural mechanization engineers,
national research university, Tashkent city*

Annotation.

INTRODUCTION: In this article, the work carried out by higher educational institutions in the process of independent education of students, and the problems encountered in this process, are discussed.

GOAL: To develop organizational skills of students through independent education.

MATERIALS AND METHODS: Research methodology in this work, the purpose, tasks and principles of the use of factors for the development of independent work of students in higher education institutions were studied. A systematic approach and analytical methods were used during the research. Analysis and results: setting priorities for the systematic reform of higher education in the Republic of Uzbekistan, raising the process of training highly qualified personnel with modern knowledge and high moral and ethical qualities to a new level in terms of quality, modernization of higher education, social sphere based on advanced educational technologies and great work is being done on the development of economic sectors.

CONCLUSION: Establishing systematic work in the implementation of the independent education process in higher education institutions, teaching students to work independently, creating a new generation of personnel who are creative and socially active, who have the skills to independently find their place in social and political life, who have the ability to set and solve prospective tasks is the basis for formation.

Key words: education, independent education, organizational ability, competence, modern approaches.

Маълумки, ҳар бир мамлакатнинг юксалиши, ривожланиши ёки аксинча, инқирозга юз тутиши ўша мамлакатдаги таълим тизимининг қай даражада ривожланганлигига боғлиқдир. Ҳозирда янгиланаётган жамият учун ҳамда эркинлашаётган иқтисодий, ижтимоий ва сиёсий муносабатлар учун, аввало, шу сифатларга мос тарзда фаолият кўрсатишга қодир таълим тизими зарур. Шунинг учун ҳам таълим тизимига Ўзбекистон Республикаси ижтимоий тараққиёти соҳасида устувор йўналиш деб ёндашилади. Мустақил таълим жараёнида талабаларнинг ташкилотчилиги қобилиятларини ривожлантириш педагогик муаммо сифатида эканлигини таҳлил этар эканмиз, Ўзбекистон Республикасида олий таълимни тизимли ислоҳ қилишнинг устувор йўналишларини белгилаш, замонавий билим ва юксак маънавий-ахлоқий фазилатларга эга, мустақил фикрлайдиган юқори малакали кадрлар тайёрлаш жараёнини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш, олий таълимни модернизatsia қилиш, илғор таълим технологияларига асосланган ҳолда ижтимоий соҳа ва иқтисодиёт тармоқларини ривожлантириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сонли Фармони асосида “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси” қабул қилинганлиги айтиш мумкин. Мустақил таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2909-сонли қарори [3].

қаратилганлигини эътироф этиш мумкин. Мазкур концепцияда олий таълим соҳасида давлат-хусусий шерикликни ривожлантириш, ҳудудларда давлат ва нодавлат олий таълим муассасалари фаолиятини ташкил этиш асосида олий таълим билан қамров даражасини 50 фоиздан ошириш, соҳада соғлом рақобат муҳитини яратиш; Шу боис, “Таълим тўғрисида” ги Қонунда мустақил фикрлайдиган, юқори малакали мутахассис кадрлар тайёрлаш тизими акс эттирилган [2]. Шунингдек, мазкур муаммоларни тизимли ҳал қилиш борасида Республикада ҳуқуқий меъёрий асослар яратилди. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони [6], Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сонли Фармони[1], Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2909-сонли қарори [3].

Мустақил иш талқинига бўлган ёндашувларни таҳлил қила туриб, шуни айтиш мумкинки, ўқув жараёнида унинг аҳамиятини аввалдан англаб етганларини кўриш мумкин. Ф.А.Дистервег ўқувчиларни ақлий кучларини ривожлантириш ғоясини кўриб чиқиб,



шунинг таъкидлагани: “ривожланиш ва таълим ҳеч бир инсонга берилиши ва етказилиши мумкин эмас. Ҳар ким бунга шахсий фаолияти билан эришиши керак. Инсон ўзининг мустақил йўл билан эгалламагани - уники ҳисобланмайди” деб фикр билдирган [9]. Буюк мутафаккиримиз Абдулла Авлонийнинг фикрича, - «Фикр тарбияси энг керакли, кўп замонлардан тақдир(орзу) қилиб келинган, муаллимларнинг диққатларига суялган ва виждонларига юкланган муқаддас бир вазифадир. Фикр инсонни шарофатлик, ғайратлик бўлишига сабаб бўлур»- деб ёзади ўзининг «Туркий гулистон ёхуд ахлоқ» асарида. Яна шу асарида бадан тарбияси билан бир қаторда фикр тарбиясига ҳам алоҳида аҳамият беради. Унинг таъкидлашича, фикр тарбияси “ муаллимнинг ёрдамига сўнг даражада мухтождир” ва инсон ҳаётида муҳим аҳамиятга эга: “Фикр агар яхши тарбият топса, Ханжар олмосдан бўлур ўткур. Фикрнинг ойнаси олурса занг, Руҳи равшан замир ўлур бенур” деб айтиб ўтганлар [10]. Л.В.Голиш ва Д.М.Файзуллаевалар ўзининг олиб борган илмий тадқиқот ишларида таълим олувчилар томонидан мустақил ишни бажаришда уларнинг фаолияти тизимида кўрсатилган ҳар бир элементларнинг муваффақиятли режалаштириш, ташкиллаштириш, мониторинг ва баҳолаш зарур эканлигини асослаб беришган [7]. М.Баракаевнинг илмий-педагогик тадқиқот ишларини ўрганиб, “Мустақил таълим – олий таълим тизимида таълимнинг шундай бир шаклидирки, бунда талабаларнинг ўқув фаолияти педагог томонидан бошқарилиб, топшириқлар берилади, маслаҳатлар уюштирилади ва бажарилиши назорат қилинади” деб таъкидлайди [8].

Тадқиқот методологияси мазкур ишда олий таълим муассасаларида

талабаларнинг мустақил ишлаш фаолиятини ривожлантириш омилларидан фойдаланишнинг мазмуни мақсади, вазифалари ва тамойиллари ўрганилди. Тадқиқот давомида тизимли ёндашув ва таҳлил қилиш усулларида фойдаланилди. Таҳлил ва натижалар Ўзбекистон Республикасида олий таълимни тизимли ислоҳ қилишнинг устувор йўналишларини белгилаш, замонавий билим ва юксак маънавий-ахлоқий фазилатларга эга, мустақил фикрлайдиган юқори малакали кадрлар тайёрлаш жараёнини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш, олий таълимни модернизация қилиш, илғор таълим технологияларига асосланган ҳолда ижтимоий соҳа ва иқтисодиёт тармоқларини ривожлантириш борасида катта ишлар олиб борилмоқда. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепциясининг “Олий таълим тизимини ривожлантиришнинг стратегик мақсадлари ва устувор йўналишлари” деб номланган 3-бобининг “Олий таълим билан қамровни кенгайтириш, олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш сифатини ошириш” деб номланган 1-§ да “Мустақил таълим соатлари улушини ошириш, талабаларда мустақил таълим олиш, танқидий ва ижодий фикрлаш, тизимли таҳлил қилиш, тадбиркорлик кўникмаларини шакллантириш, ўқув жараёнида компетенцияларни кучайтиришга қаратилган методика ва технологияларни жорий этиш, ўқув жараёнини амалий кўникмаларни шакллантиришга йўналтириш, бу борада ўқув жараёнига халқаро таълим стандартларига асосланган илғор педагогик технологиялар, ўқув дастурлари ва ўқувуслubbий материалларни кенг жорий этиш” [1] масалаларида таълим олувчиларнинг мустақил таълим



олишлари, мустақил ишлаш малакаларини узлуксиз ошириш орқали мутахассисларнинг зарурий компетенцияларини, ижодий яратувчанлик, тадқиқотчилик, мантикий тафаккурини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилган.

Бугунги кундаги таълим тизимида олиб борилаётган ислохотлар талабаларни мустақил фикрлашини ривожлантириш, индивидуал таълим траекторияларига асосланган, талабаларда креатив фикрлаш, амалий кўникмаларни шакллантиришга оид муаммоларни бартараф этишга қаратилгандир. Олий таълим муассасаларида бу вазифаларни амалга оширишга босқичма-босқич ўтиш режалаштирилган. Бугунги кунда олий таълим тизимида мустақил таълим соатлари улушини камлиги, талабаларда мустақил таълим олиш, танқидий ва ижодий фикрлаш, тизимли таҳлил қилиш, тадбиркорлик кўникмаларини шаклланмаганлиги, ўқув жараёнидоталабаларда ташкилотчилик қобилияти, компетенцияларни кучайтиришга қаратилган методика ва технологияларни жорий этиш замон талабига мос келмаслиги асосий муаммолар қаторига киради. Шундай экан, олий таълим тизимида мустақил таълим соатлари улушини ошириш, талабаларда мустақил таълим олиш, танқидий ва ижодий фикрлаш, тизимли таҳлил қилиш, тадбиркорлик кўникмаларини шакллантириш, компетенцияларни кучайтиришга қаратилган методика ва технологияларни жорий этиш, ўқув жараёнини амалий кўникмаларни шакллантиришга йўналтириш, бу борада ўқув жараёнига халқаро таълим стандартларига асосланган илғор педагогик технологиялар, ўқув дастурлари ва ўқувуслужий материалларни кенг жорий

этиш бугунги куннинг асосий вазифаларидан биридир. Замонавий шароитда таълим жараёнининг барча имкониятларига кўра шахсни ривожлантириш, ижтимоийлаштириш ва унда мустақил, танқидий, ижодий фикрлаш қобилиятларини тарбиялашга йўналтирилиши талаб қилинмоқда. Юксак малакали мутахассисларни истеъмолчилар талабларига қараб тайёрланиши, талабаларни танлаган ихтисосликлари бўйича билим, кўникма ва малакаларини шакллантирилиши мустақил равишда билим олишга ва амалий фаолиятга ўргатилиши таъминланиши керак.

Мустақил таълим жараёнида талабаларнинг ташкилотчилик қобилиятларини ривожлантиришга муаммо сифатида талқин этилганлиги боис, 2020-йил 23-сентябрда тасдиқланган янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонунида ҳам “Мустақил таълим олиш якка тартибда амалга оширилади ҳамда таълим олувчиларни касбий, интеллектуал, маънавий ва маданий ривожлантиришга хизмат қилади” [2] деб белгилаб қўйилганлигини келтириб ўтиш мумкин. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора –тадбирлари тўғрисида”ги қарорида: “Ҳар бир олий таълим муассасаси жаҳоннинг етакчи илмий-таълим муассасалари билан яқин ҳамкорлик алоқаларини ўрнатиш, ўқув жараёнига халқаро таълим стандартларига асосланган илғор педагогик технологиялар, ўқув дастурлари ва ўқув-услужий материалларини кенг жорий қилиш, ўқув-педагогик фаолиятга, мастер-класслар ўтказишга, малака ошириш курсларига хорижий ҳамкор таълим муассасаларидан юқори малакали ўқитувчилар ва олимларни фаол жалб



қилиш ..." [3] таъкидланиб, муҳим аҳамият касб этади.

Ҳозирги кунда таълим жараёнини, олий таълимнинг ўқув режа ва дастурларини янги педагогик технологиялар ва ўқитиш усулларини кенг жорий этиш, магистратура илмий-таълим жараёнини сифат жиҳатидан янгилаш ва замонавий ташкилий шаклларни жорий этиш асосида янада такомиллаштириш асосий муаммолар қаторида ва ушбу муаммолардан келиб чиқиб, олий таълимнинг ўқув режа ва дастурларини янги педагогик технологиялар ва ўқитиш усулларини кенг жорий этилган янги авлодини яратиш, магистратура илмий-таълим жараёнини сифат жиҳатидан янгилаш ва замонавий ташкилий шаклларни жорий этиш бош мақсад бўлиб қолмоқда. Бугунги глобаллашув шароитида таълим жараёнида илғор педагогик технологиялар ва фаол усуллардан фойдаланиш, янги ишлаб чиқарилаётган техник воситаларни татбиқ қилиш, кўпроқ талабаларни мустақил ишлашга ундаш, илғор тажрибалардан сабоқ беришнинг турли йўлларида кенг фойдаланиш мақсадга мувофиқдир. Яна бир жиҳати муҳимки, олий таълим тизимида таълим олаётган талабаларнинг танлаган касбига мойиллиги, лаёқатлари, билим ва кўникмаларини ривожлантириш, уларнинг танлаган йўналишлари бўйича мутахассис сифатида шаклланишлари учун махсус фанларни ўқитишни самарали ташкил қилишни таъминлаш лозим. Ҳар қандай жамиятда бўлганидек, республикамизнинг тараққиётида бозор иқтисодиёти шароитида рақобатга бардош бера оладиган малакали мутахассисларни тайёрлаш асосий муаммо ҳисобланади. Мутахассис кадрлар тайёрлаш, унинг сифат ва самарадорлигини ошириш борасида ҳам

сўнгги йилларда кенг қўламли ишлар қилинди ва қилинмоқда. Жумладан, тайёрланаётган мутахассис кадрларнинг мустақиллиги, ижодкорлиги, тадбиркорлиги, фаоллиги каби хислатларни таркиб топтиришга алоҳида эътибор берилмоқда. Таълим муассасаларида мустақил ишни қандай бажаришни ҳар бир талабанинг ўзи амалга оширади. Мувафаққиятга эришиш учун талабанинг ўзи сабр-тоқат билан, машаққатлардан кўркмай ўз устида ишлаши керак. Буни эса талабанинг ўзи режалаштиради ва амалга оширади [4]. Жамиятнинг барча жабҳаларидаги муаммолар, ўзгаришлар олий таълим муассасаларида талабаларини тайёрлаш жараёнига ҳам таъсир қилиб ва янгидан янги талабларни қўяди.

Ҳозирги пайтда ҳам назарий билим ва амалий кўникмага эга, ўзгаришларга мосланувчан, эркин фикрлайдиган, касбий ҳамда ҳаётий муаммоларини мустақил ҳал қила оладиган мутахассисларга, кадрларга эҳтиёж катта. Шу билан бирга, олий таълим муассасаларида талабаларидан ҳар томонлама билимдонлик, мустақил фикрлай оладиган, ташкилотчилик қобилиятига эга шахс даражасини талаб этади. Бундай талабларнинг бажарилиши албатта уларни бутун ҳаёти давомида билим олишга ўргатиш орқали таъминланади. Фаол таълим шароитида ўзлаштирилган билим, эгалланган кўникма ва малакалар мазмунан тизимли ва мантиқан тугалланган тарзда шакллантирилиб турли ишлаб чиқариш вазиятларида қўлланишга имкон беради. Таълим олувчиларни фаоллаштириш уларнинг мустақил ўрганиш қобилиятларини ривожлантириш имконини беради. Мустақил таълим жараёнида талабаларнинг ташкилотчилик қобилиятларини ривожлантиришга муаммони ечими



сифатида шуни айтишимиз мумкинки, олий таълим муассасаларида ўқув жараёнини босқичма-босқич кредит-модуль тизимига ўтказишдир. Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясида 2030 йилга қадар республикадаги барча олий таълим муассасаси (ОТМ)нинг 85 фоизи, жумладан, 2020/2021 ўқув йилининг ўзидан 33 та олий таълим даргоҳини кредит-модуль тизимига ўтказиш кўрсатиб ўтилди. Кредит-модуль тизими, бу — таълимни ташкил этиш жараёни бўлиб, ўқитишнинг модуль технологиялари жамламаси ва кредит ўлчови асосида баҳолаш модели ҳисобланади. Уни бир бутунликда олиб бориш серқирра ҳамда мураккаб тизимли жараёндир. Кредит-модуль тамойилида иккита асосий масалага аҳамият берилади: талабаларнинг мустақил ишлашини таъминлаш; талабалар билимини рейтинг асосида баҳолаш. Шундай экан, кредит – модуль тизими дарс машғулотларини нафақат ўқитишни инноватсион таълим технологиялари асосида олиб бориш, балки талабадан мустақил ўқиш-ўрганиш, таълимга янгича муносабатда бўлиш, меҳнат бозори талабидан келиб чиқиб, зарурий ва чуқур назарий билимларни эгаллаш, амалий кўникмаларини шакллантиришга ўргатишдан иборатдир. Мухтасар айтганда, мазкур тизим талабанинг касбий ривожланиши ва камолотига йўналтирилган. Илм соҳибининг бутун ҳаёти давомида билим олишини таъминлашга ҳамда меҳнат бозори ва замонавий талабларга жавоб бера оладиган инсон капиталини шакллантиришга қаратилган деб айтиш мумкин. Кредит-модуль тизимининг жорий этилиши ўқитувчи ва талабанинг ҳамкорликда ишлашида муҳим омил ҳисобланади. Модулли таълимда педагог тингловчининг ўзлаштириш жараёнини

ташкил этади, бошқаради, маслаҳат беради, текширади. Талаба эса йўналтирилган объект томон мустақил ҳаракат қилади. Энг катта урғу ҳам талабаларнинг мустақил таълим олишига қаратилади. Хулоса ва таклифлар Олий таълим муассасалари мустақил таълим жараёнида талабаларнинг ташкилотчилик қобилиятларини ривожлантириш асосий масалардан ҳисобланади. Бу борада қуйидаги йўналишлар бўйича тизимли ишларни амалга ошириш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз. Биринчидан, бугунги кунда амалга оширилаётган таълим тизимидаги ислохотлар негизда таълим олувчиларнинг онглилиги ва фаоллигини ошириш учун ўқитиш жараёни шундай ташкил этиш керакки, бунда талабалар илмий билимларни ҳамда уларни амалда қўллаш методларини онгли ва фаол эгаллаб оладиган, уларда ижодий ташаббускорлик ва ўқув фаолиятида мустақиллик, тафаккур, нутқ техникасини ривожлантиришга хизмат қилишини таъминлашга эътибор қаратиш. Иккинчидан, ушбу соҳада муваффақиятларга эришган новатор ўқитувчиларнинг ишларини оммалаштириш, тажриба алмашиш ишларини йўлга қўйишлаб чиқиш. Учинчидан, бугунги кунда рақамли иқтисодиёт даврида талабаларнинг мустақил таълимга оид маълумотларини замон талаблари асосида шакллантириш ва расмийлаштириш йўллари йўлга қўйиш. Тўртинчидан, мустақил таълим жараёнида талабаларнинг ташкилотчилик қобилиятларини ривожлантиришда хориж тажрибасидан фойдаланиш имкониятларини йўлга қўйиш.

Юқорида санаб ўтилган фикрларга асосланган ҳолда айтиш мумкинки, олий таълим муассасаларида мустақил таълим жараёнини амалга оширишда тизимли

ишларни йўлга қўйиш, талабаларни мустақил ишлашга ўргатиш ижодий ва ижтимоий фаол, ижтимоий - сиёсий ҳаётда мустақил равишда ўз ўрнини топа

олиш малакасига эга бўлган, истиқболий вазифаларни қўйиш ва ҳал қилиш қобилиятига эга бўлган кадрларнинг янги авлодини шакллантиришга асос бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Шавкат Мирзиёев. Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепцияси. 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сон Фармони. <https://lex.uz/>
2. Ш.Мирзиёев. Ўзбекистон президенти Шавкат Мирзиёев Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисида сўзлаган нутқи. 2016 йил, 15 декабрь. <https://kun.uz/>
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони. <https://lex.uz/>
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора –тадбирлари тўғрисида”ги қарори. “Халқ сўзи” газетаси. 2017 йил, 21 апрель, № 79 (6773).
5. “Таълим тўғрисида”ги Қонун. ЎРҚ-637-сон. 2020-йил 23-сентябрь. <https://lex.uz/>
6. Тожибоева Д. Махсус фанларни ўқитиш методикаси. - Т: Фан ва технология, 2007. -271 б. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2020 yil 6/2020 (№ 00050) <http://iqtisodiyot.tsue.uz> 228
7. Голиш Л.В., Файзуллаева Д.М. Педагогик технологияларни лойиҳалаштириш ва режалаштириш. – Т: ТДИУ, 2014.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Феруза Садикова

Психология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) доцент

Манзил: Ўзбекистон, 200100, Тошкент шаҳри

SUDGA OID PSIXOLOGIK EKSPERTIZASINING RIVOJLANISH JARAYONI VA TARIXI



Elov Ziyodullo Sattorovich

Osiyo xalqaro universiteti dotsenti,
Psixologiya fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya.

KIRISH: Ushbu maqolada hozirgi kunga qadar chuqur izlanishga va qator ilmiy tadqiqotlar o'tkazishga, shuningdek juda ko'plab munozara va baxslarga sabab bo'layotgan, aniqlik va diqqat, juda katta bilim talab etilayotgan, sudga oid psixologik ekspertiza soxasining asl xususiyati va ushbu jarayonning qanday tarixga ega ekanligini tahlil qilingan bo'lib, ushbu soxadagi ulkan o'zgarishlar qilish, aniqliklarni zamonaviy texnologiyalar bilan yanada mukamallashtirish, bugungu zamonning muhim talabi ekanligi keng yoritib berilgan.

MAQSAD: Sudga oid psixologik ekspertiza jarayonining rivojlanish xususiyatlarini o'rganish va tahlil qilish.

MATERIALLAR VA METODLAR: Asli sudga oid psixologik ekspertiza biz uchun nimaga kerak degan savol paydo bo'ladi. Javob shundaki, aniq tashxis, tahlil, bir insonni hayot mamoti uchun ham vijdonan kurash olib borish uchun, bir insonni hayotini asrab qolish uchun ham bizga sudga oid psixologik ekspertiza kerak. Sud psixologik ekspertizasi bu – sudda huquqiy masala uchun ishlatiladigan baxs yoki munozara. Shu sababli sudga oid psixologik ekspertizasi bu – sud sharoitida ilmiy psixologik nazariyalar haqidagi suhbat yoki munozara olib borish jarayoni hisoblanadi.

XULOSA: Sud – psixologik ekspertizasining asosiy vazifasi psixik jarayonlarning kechishi natijasida, so'roq qilinuvchi shaxsning individual xususiyatlariga ko'ra, isbot uchun tegishli bo'lgan faktlarni u tomonidan adekvat qabul qilinishi, eslab qolishi va so'zlab berish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

Kalit so'zlari: Sud ekspertizasi, psixolog, ekspert, barmoq izi, ekspertiza turlari, sudlov jarayoni, sudya, affekt, depressiya.

ПРОЦЕСС РАЗВИТИЯ И ИСТОРИЯ СУДЕБНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ

Элов Зиёдулло Саттарович

*Доцент Азиатского международного университета,
доктор психологических наук (DSc)*

Аннотация:

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье рассматривается первоначальный характер области судебно-психологической экспертизы, которая требует больших знаний, точности и внимания и которая до сих пор является причиной многих дискуссий и споров, а также

природа этого процесса. Проанализировано, какую историю он имеет, и широко объяснено, что внесение огромных изменений в этой области, повышение точности с помощью современных технологий является важным требованием сегодняшнего времени.

ЦЕЛЬ: Изучить и проанализировать особенности развития процесса судебно-психологической экспертизы.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Возникает вопрос, зачем нам необходима судебно-психологическая экспертиза. Ответ в том, что нам нужна точная диагностика, анализ, судебно-психологическая экспертиза, чтобы добросовестно бороться за смерть человека, сохранить ему жизнь. Судебная психология — это аргумент или дебаты, используемые в суде по юридическим вопросам. Таким образом, судебно-психологическая экспертиза – это процесс ведения беседы или обсуждения научных психологических теорий в судебном порядке.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Основной задачей судебно-психологической экспертизы является адекватное признание имеющих значение для доказывания фактов с учетом индивидуальных особенностей допрашиваемого в результате психических процессов, заключается в определении возможностей запоминания и декламирования.

Ключевые слова: Судебная экспертиза, психолог, эксперт, отпечаток пальца, виды экспертиз, судебный процесс, судья, аффект, депрессия.

DEVELOPMENT PROCESS AND HISTORY OF FORENSIC PSYCHOLOGICAL EXPERTISE.

Elov Ziyodullo Sattorovich

Asian international university associate professor,

Doctor of Psychology (DSc)

Annotation:

INTRODUCTION: In this article, the original nature of the field of forensic psychological expertise, which requires a great deal of knowledge and precision and attention, and which has been the cause of many discussions and debates to date, and the nature of this process It has been analyzed what kind of history it has, and it is widely explained that making huge changes in this field, improving accuracy with modern technologies, is an important requirement of today's time.

GOAL: To study and analyze the development features of the process of forensic psychological expertise.

MATERIALS AND METHODS: The question arises as to why forensic psychological expertise is necessary for us. The answer is that we need an accurate diagnosis, analysis, forensic psychological expertise in order to conscientiously fight for the death of a person, and to save a person's life. Forensic psychology is an argument or debate used in court for a legal issue. Therefore, forensic psychological expertise is the process of conducting a conversation or discussion about scientific psychological theories in a court setting.

CONCLUSION: The main task of the forensic psychological examination is to determine the possibilities of adequate reception, recall and recitation of the facts relevant for proof, as a result of mental processes, according to the individual characteristics of the interrogated person.

Key words: Forensic expertise, psychologist, expert, fingerprint, types of expertise, judicial process, judge, affect, depression.

ASR asrda inson va uning baxtli hayot kechirishi muammosi har qachongidan ham dolzarb masalaga aylandi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev aytganlaridek: **“....., biz har bir fuqaro o‘zining kuch va imkoniyati, qobiliyati va salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun keng sharoit va imkoniyat yaratib berishimiz kerak”**. Bu esa jamiyat a‘zolaridagi ijtimoiy psixologik muammolarni o‘z vaqtida yuqori darajada yechimini topishni talab qiladi.

Biz bilamizki har narsani ibtidosi va intihosi bor, ammo ilm-fan ma‘rifatda aslo yakun bo‘lmaydi. Qancha bilib o‘rganganiz qadar shuncha ko‘p yangiliklar yaratishimizni va albatta jamiyatga foydamiz tegishini anglab yetamiz. Ushbu bilimlar orqali kelajak avlodlarga, juda katta ma‘naviy ozuqa yetkazib beramiz. Hozirgi kunda o‘rganilayotgan ba‘zi bir soxalar uzoq bir davrlarni bosib o‘tganini ko‘rishimiz mumkin. Ammo, qaysidir davrlarda ma‘lum sohalaridagi tanazzul tufayli, rivojlanish va o‘rishda susayish keying davrlarda o‘zining kamchiliklari bilan taraqqiyotga ta‘sir etayotganini ko‘rishimiz mumkin. Bugun bu kabi sohalarida orasida o‘zgarishga va rivojlanishga yanada muhtoj bo‘lgan sudga oid psixologik ekspertiza jarayoni haqidagi ilmiy ma‘lumotlarni tadqiq qildik.

Asosiy tahlillar: Bugungi kunda, yuridik sohaning kun sayin rivojlanib borayotganligi natijasida, uning qator tarmoqlari shu jumladan yuridik psixologiya ham rivojlanmoqda. Natijada sohaning muammolari yuzasidan turli amaliy tadbirlarda sifat bosqichiga erishish uchun mavjud tajribalarga tayanib, mahalliy mutaxassislar tomonidan bir qator masalalar qayta ko‘rib chiqilishi lozim³:

1. Bugun Jahon psixologiyasida qo‘llanilib kelayotgan “Standartlar”ga

tayanib, yuridik psixologiyada psixologik metodikalardan foydalanish borasida mahalliy muhit uchun aniq ko‘rsatmalar ishlab chiqish;

2. Mahalliy sharoit uchun qo‘llanishi lozim bo‘lgan yuridik psixologiya sohasidagi qo‘llanmalarni nashr ettirib borishni yo‘lga qo‘yish;

3. Yuridik psixologiya imkoniyatlaridan foydalanish bo‘yicha amaliy qo‘llanmalar ishlab chiqish;

4. Mutaxassislar tayyorlash jarayonida Yuridik psixologiyaning boshqa tarmoqlari bo‘yicha ularning standartlari masalasi uchun alohida mashg‘ulot mavzularini ajratish lozim.

Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida, fanlar tizimida psixologiya fani muhim ahamiyatga ega. Akademik B.M. Kedrovning fikricha – psixologiya o‘zlashtirilayotgan gumanitar, aniq va maxsus fanlarning markazini tashkil etadi.

Huquqni muhofaza qilish faoliyatida psixologik bilimlar quyidagi jarayonlarda qo‘llaniladi:

- ✚ shaxsni to‘g‘ri diagnostika qilish;
- ✚ insonga nisbatan individual yondashish;
- ✚ taktik usul va qarorlarni tanlash va ishlatish;

Yuridik sohada shaxsni mana shu kabi jarayonlar bilan tadqiq qilish va o‘rganish sudga oid psixologik ekspertizada amalga oshiriladi.

Asli sudga oid psixologik ekspertiza biz uchun nimaga kerak degan savol paydo bo‘ladi. Javob shundaki, aniq tashxis, tahlil, bir insonni hayot mamoti uchun ham vijdonan kurash olib borish uchun, bir insonni hayotini asrab qolish uchun ham bizga sudga oid psixologik ekspertiza kerak.

² **Mirziyoyev Sh.M.** Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O‘zbekiston. 2016. 23-bet.

³ **Elov Z.S.** Yuridik psixologiya. B.: 2023 Kamolot nashriyoti 238-b.

Sud psixologik ekspertizasi bu – sudda huquqiy masala uchun ishlatiladigan baxs yoki munozara. Shu sababli sudga oid psixologik ekspertizasi bu – sud sharoitida ilmiy psixologik nazariyalar haqidagi suhbat yoki munozara olib borish jarayoni hisoblanadi.

Sudga oid psixologik ekspertiza nomi ya’ni argumentativ mashq degan ma’noni anglatuvchi sud tibbiyoti sifatidoshidan kelib chiqqan bo’lib, uning ingliz tilidagi eng qadimgi ma’nosi sudlarga tegishli, qo’llanilgan yoki sudlarga yoki ommaga muhokama va muzokaralarga mos keladi. Ingliz tilidagi ushbu so’z, lotincha sud tibbiy so’zidan olingan bo’lib bozor yoki shakli, ommaviy degan manoni anglatadi, bu esa o’z navbatida lotincha forum so’zidan kelib chiqqan bo’lib bozor joyi, degan ma’noni anglatadi.

Sudga oid psixologik ekspertiza tarixiga nazar soladigan bo’lsak, bu yo’nalishdagi dastlabli ishlar milodiy I-asrning boshlarida Rimlik notiq va huquqshunosh Kvintilian tomonidan, aybsiz kishini oqlash uchun asosiy sud ekspertizasidan foydalanganligi ma’lum⁴. Rim modeli zamonaviy sud va huquq tizimining asosini tashkil qiladi. Shunday qilib, qadimgi Rimda dalillarni tekshirishda ilmiy tamoyillar qo’llash ajablanarli emas. Ammo, G’arbda Rim imperiyasining qulashi bilan sud ekspertizasini qo’llanilaishini keying ming yillikdagi jarayoni to’xtab qolgan desak mubolag’a bo’lmaydi.

Milodning V-asrlarga borib, German va slyavyanlar jamiyatida birinchi bo’lib o’lim sabablarini aniqlashda tibbiy mutaxassislarni jalb qilish to’g’risida qonun chiqarilgan edi. Bu qonunga asosan tibbiyot hodimlarini alohida sud ishlariga jalb qilishini talab etilgan.

Tarixiy ekspertlarni izlanishlari natijasida VI-asrlarda Xitoy mutaxassislari ham ushbu sohada yaxsigina bilimlarga ega ekanligini aytib o’tish lozim. Ushbu faktlar bo’yicha o’sha davrdagi muhim qimmatga ega bo’lgan asar Ming Yuen Shin Lu nomli muallifning kitobida eslab o’tilganligini manbalar ko’rsatib o’tadi.

VII-asrda barmoq izlaridan indentifikasiya qilish vositasi sifatida foydalanish tushunchasi birinchi marta qo’llanildi. Tarixiy malumotlarga ko’ra savdogarlar o’zlaridan qarzdor bo’lgan mijozlarini kimligini uning barmoq izlarini hisob qog’oziga olish orqali tekshirishga musharraf bo’lgan. Keyinchalik esa bu metodikani sudyalari inkor etib bolmaydigan dalil sifatida qabul qilishgan.

Mana biz hozirgi zamonda qo’llab kelayotgan barmoq izlari aslida qanchalik tarixiy jarayonlarni bosib o’tganligini guvohi bo’lyapmiz aslida oddiygina savdogarlarni mijozlar bilan o’rasidagi o’rnatilgan bu kabi muloqot, bugungi davrda ham foydalanib kelinayotganligini ko’rishimiz mumkin.

Eramizdan avvalgi 1000-yilga kelib, o’sha davrlarda Xitoy, Bobil, Fors va yangi Shotlandiya kabu joylarda rasmiy hujjatlarni imzolashda ham barmoq izlarini ishlata boshlashgan.

Bu birgina barmoq izi ekspertizasini qisqacha tarixiy jarayoni hisoblanadi. Biz izlanish olib borayotgan ushbu soxada juda ko’plab ming yillik tarixga ega bo’lgan metodikalar borligini ko’rishimiz mumkin. Balki ba’zi bir metodikalarini hozirgi zamonaviy texnologiya asrida ham tatbiq etib uni zamon bilan hamfikir bo’lgan holda o’rganib chiqishimiz yoki yanada chuqurroq o’rgangan holda bu sohada yanada ulkan yutuqlarga erishishimiz mumkin.

⁴ Elov Z.S. Yuridik psixologiya. B.: 2023 Kamolot nashriyoti 238-b.

N.T.Tojiyeva., Z.S.Elov., Voyaga yetmaganlarda sudga oid psixologik ekspertiza o’tkazishning

psixologik xususiyatlari. Pedagogik va psixologik tadqiqotlar. 2024 №1

Bu tarixiy ma'lumotlardan tashqari, bugun zamonaviy ekspertiza jarayonida barmoq izlari bo'yicha yirik olim, sohaning otasi sifatida, AQShning Takoma shtatidagi indefikasiya byurosi (*HM Smit barmoq izi*) rahbari Frensis Galton⁵ hisoblanadi. Ko'pgina malumotlarda bu insonni barmoq izlari bo'yicha bugun dunyodagi eng asosiy shaxs sifatida qaraladi.

Xulosa va tahlillar: Yillar davomida o'rganilib asta-sekin taraqqiy eta boshlangan bu soxa hali ham rivojlanib bormoqda. Shu o'rinda o'quvchida Sudga oid psixologik ekspertiza bo'yicha tadqiqotchi kim degan savol paydo bo'lishi tabiiy jarayondir.

Arximed ehtimol birinchi sudga oid psixologik ekspertizani asoschisi bo'lgandir. Bir tarixiy ma'lumotda aytilishicha, qirol mahaliy zargardan maxsus oltin toj buyurtma qiladi, ammo, bu sof oltin emas deb gumon qilgan. U Arximeddin aldanganmi yoki yo'qligini aniqlashini so'raydi, lekin u tayyorlangan tojda biror bir sinov o'tkazmasdan, unga zarar etkazmasdan tekshirilishini xoxlaydi.

Yuqorida aytib o'tilgan afsonaga qo'shimcha ravishda sudga oid psixologik ekspertiza Xitoyda vujudga kelgan degan taxmin ham borligini unitmaslik lozim.

Yani bir dehqon o'z dalasida o'roq bilan o'ldirilgan. Tergovchilar tomonidan barcha dehqonlarning o'roqlarini yig'ib olishadi. Bir necha soniyalardan keyin bir o'roq chivinlarni o'ziga tortayotganligini

ko'rishadi va aynan shu o'roq qotillikda ishlatilganligini va uning sohibi qotil ekanligini aniqlashadi.

Davrlar o'tgani sayin, bu soxada ham asta-sekin rivojlanishlar bo'ldi, 1247-yillarda Xitoyda sudga oid psixologik ekspertiza bo'yicha birinchi darslik nashr etilgan bo'lib, u shubhali o'limini tekshirishda amal qilish kerak bo'lgan tartiblarini hujjatlashtiriladi.

Yana bir ma'lumotga qaraganda miloddan avvalgi 44-yilda Yuliy Sezar o'ldirilganidan keyin davolovchi doktor jasaddan topilgan 23 ta jaroxatdan faqat bittasi halokatli ekanligini aytib o'tganligini ham ko'rishimiz.

Sud – psixologik ekspertizasi predmeti shundan iboratki, bu yerda ayblanuvchi, sudlanuvchi, guvoh va jabrlanuvchi ko'rsatmalarining to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlash emas. Bu tergov va sudning vakolatlariga kiradi.

Sud – psixologik ekspertizasining asosiy vazifasi psixik jarayonlarning kechishi natijasida, so'roq qilinuvchi shaxsning individual xususiyatlariga ko'ra, isbot uchun tegishli bo'lgan faktlarni u tomonidan adekvat qabul qilinishi, eslab qolishi va so'zlab berish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

Yuqoridagilarga asoslanib va boshqa qator juda ko'plab manbalar o'rganilib chiqqan holda, sudga oid psixologik ekspertiza naqadar uzoq yillik tarixiga ega ekanligini ham ko'rishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T: O'zbekiston. 2016. 23-bet.
2. Elov Z.S. Yuridik psixologiya. Darslik. Buxoro-2023 Kamolot nashriyoti 486b
3. Elov Z.S. SUD-PSIXOLOGIK EKSPERTIZASI TARIXI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI (ilmiy manbalar tahlili asosida). Journal of Pedagogical and Psychological Studies 2 (1), 3-8. 2024

⁵ Elov Z.S. Yuridik psixologiya. B.: 2023 Kamolot nashriyoti 238-b.

N.T.Tojiyeva., Z.S.Elov., Voyaga yetmaganlarda sudga oid psixologik ekspertiza o'tkazishning

psixologik xususiyatlari. Pedagogik va psixologik tadqiqotlar. 2024 №1



4. Tojiyeva N.T., Elov Z.S., Voyaga yetmaganlarga sudga oid psixologik ekspertizasini o'tkazilishining psixologik xususiyatlari. 2024 ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР 1 (№1), 9-14
5. Elov Z.S. Sud-psixologik ekspertizalar o'tkazishning huquqiy va tashkiliy asoslari. 2024 TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN 2 (2), 58
6. Z.S.Elov. Zo'ravonlik jinoyatlarini sodir etuvchi shaxslar toifasi psixologiyasi. Pedagogik akmeologiya. Ilmiy jurnal 5/3. 2024
7. O.Mamatov., Z.Elov. Talabalarni bilish faoliyatiga motivlashtirishning psixologik va pedagogic asoslari. Journal of Pedagogical and Psychological Studies 2 (1), 37-42. 2024
8. Z.Elov. O'z joniga qads qilish masalasi jamiyat oldida turgan muhim ijtimoiy-psixologik muammo sifatida. 2023. Journal of Pedagogical and Psychological Studies 1 (12), 50-54
9. Z.Elov. Shaxsda fobiya holati va uning diagnostikasi. 2023. Journal of Pedagogical and Psychological Studies 1 (11), 66-74
10. Z.S.Elov. Suitsidial xulq-atvorning zamonaviy psixologiyada o'rganilishi: tahlillar va nazariyalar. 2023. Science and Education 4 (10), 326-342
11. F.A.Ismatova., Z.S.Elov. Huquq-tartibot organlari psixologining kasbiy kompetentsiyasi tuzilishini baholasning o'ziga xos xususiyatlari. 2022. ТАЪЛИМ ВА ИННОВАТСИОН ТАДҚИҚОТЛАР 1 (12/2), 241-245

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ]

[AUTHORS INFO]

Elov Ziyodullo Sattorovich

Osiyo xalqaro universiteti professori, psixologiya fanlari doktori (DSc)

elovziyo2021@gmail.com

JINOYAT SODIR ETISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK SABABLAR



Djumayeva Ruxshona Farrux qizi
Osiyo xalqaro universiteti, Buxoro shahri

Annotatsiya:

KIRISH: Ushbu maqolada qotillik jinoyatining psixologik sabablariga e'tibor qaratilgan. Inson ruhiyatidagi buzilishlar, stress, travma va g'azab kabi omillar qotillik sodir etilishiga qanday ta'sir ko'rsatishi tahlil qilindi. Shuningdek, ijtimoiy muhit, oilaviy mojaro va shaxsiy hissiyotlarning jinoyatchi xatti-xarakatiga ta'siri o'rganiladi. Maqola, qotillikning oldini olish uchun psixologik yordam va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning ahamiyatni yoritib beradi. Psixologik tahlil va real hayot misollari asosida jinoyatchilikni kamaytirish strategiyalari taklif etiladi.

MAQSAD: Jinoyat sodir etishga moyil bo'lgan shaxslar xususiyatlari va ularning ijtimoiy-psixologik sababalarini o'rganish.

MATERIALLAR VA METODLAR: Jinoyat qasd hosil bo'lish mexanizmini aniqlashda jinoyatchilikning umumiy qonuniyatlarini bilish bilan bir qatorda jinoyatchining shaxsini chuqur o'rganish ham zarur. Bunga ko'p jihatdan ushbu individ kiradigan ijtimoiy guruhlar bilan tanishish yordam beradi. Ushbu shaxsning yaqinlari o'rtasida hukmronlik qilayotgan o'zaro munosabatlar tarkibini o'rganish, bu shaxs a'zo bo'lgan ijtimoiy guruhlar psixologiyasini bilish, shaxs bilan jamiyat o'rtasidagi aloqani, individual va ijtimoiy ong aloqasini aniqlash zarur. Har qanday insonning ijtimoiy qiyofasi ko'p jihatdan uning mikro olami mazmuni bilan bog'liq bo'lib, ushbu mikro olamning psixologik tuzilishi individual xulq uchun kuchli katalizator bo'lib xizmat qiladi. Juda ko'p hollarda xulqning xususiyati atrof-muhitdagi axloqiy me'yorlarning mazmuniga bog'liq bo'ladi.

XULOSA: Jinoyatchilar qadriyatli-motivasion va ruhiy boshqaruv sohasida bir qator tipik buzilishlarga ega bo'ladilar. Voqelikni ular ijtimoiy taqiqlarga ta'sirchanlik keskin pasaygan sharoitda aks ettiradilar. Har bir jinoyatining asosida bir qator sabab va shart-sharoitlar, individualbiologik, ruhiy va ijtimoiy-psixologik omillarning ulanishi yotadi.

Kalit so'zlar: psixopat, sotsiopat, psixologik, biologik, jinoyat, holat, buzilish, shaxs, omillar, g'azab, nafrat, qasd, profayling

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИЧИНЫ СОВЕРШЕНИЯ ПРЕСТУПЛЕНИЙ

Джумаева Рухшона Фарруховна

Студентка международного университета Азии, город Бухара

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: Эта статья посвящена психологическим причинам убийств. Проанализировано, как на совершение убийства влияют такие факторы, как психологические нарушения, стресс, травма и гнев. Также изучается влияние социального окружения, семейного конфликта и личных эмоций на преступное поведение. В статье подчеркивается важность психологической помощи и социальной поддержки для предотвращения убийств. Стратегии снижения преступности предлагаются на основе психологического анализа и примеров из реальной жизни.

ЦЕЛЬ: Изучить особенности лиц, склонных к совершению преступлений, и их социально-психологические причины.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Для определения механизма формирования преступного намерения необходимо знание общих закономерностей преступности, а также глубокое изучение личности преступника. Знакомство с социальными группами, к которым принадлежит этот человек, поможет во многом. Изучить состав отношений между родственниками этого человека, знать психологию социальных групп, к которым принадлежит этот человек, понять взаимоотношения человека и общества, индивидуального и общественного сознания. необходимо определить связь. Социальный образ любого человека во многом связан с содержанием его микрокосма, а психологическая структура этого микрокосма служит мощным катализатором индивидуального поведения. Во многих случаях характер поведения зависит от содержания моральных норм в окружающей среде.

ВЫВОДЫ: У преступников имеется ряд типичных нарушений в сфере ценностно-мотивационного и психического контроля. Они отражают реальность в условиях резкого снижения чувствительности к социальным запретам. В основе каждого преступления лежит ряд причин и условий, индивидуальных биологических, психических и социально-психологических факторов.

Ключевые слова: психопат, социопат, психологическое, биологическое, преступление, состояние, расстройство, личность, факторы, гнев, ненависть, намерение, профилирование.

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL CAUSES OF COMMITMENT OF CRIMES

Djumayeva Rukhshona Farrukhovna

Student of International university of Asia, Bukhara city

Annotation:

INTRODUCTION: This article focuses on the psychological causes of murder. It was analyzed how factors such as psychological disturbances, stress, trauma and anger affect the commission of murder. Also, the influence of social environment, family conflict and personal emotions on criminal behavior is studied. The article highlights the importance of

psychological help and social support to prevent homicide. Crime reduction strategies are proposed based on psychological analysis and real-life examples.

GOAL: To study the characteristics of persons prone to committing crimes and their socio-psychological reasons.

MATERIALS AND METHODS: In order to determine the mechanism of formation of criminal intent, it is necessary to know the general laws of crime, as well as a deep study of the personality of the criminal. Getting to know the social groups to which this individual belongs will help in many ways. To study the composition of the relations between the relatives of this person, to know the psychology of the social groups to which this person belongs, to understand the relationship between the person and the society, individual and social consciousness. it is necessary to determine the connection. The social image of any person is largely related to the content of his microcosm, and the psychological structure of this microcosm serves as a powerful catalyst for individual behavior. In many cases, the nature of behavior depends on the content of moral standards in the environment.

CONCLUSIONS: Criminals have a number of typical disorders in the field of value-motivational and mental control. They reflect reality in conditions of a sharp decrease in sensitivity to social prohibitions. Each crime is based on a number of reasons and conditions, individual biological, mental and social-psychological factors.

Keywords: psychopath, sociopath, psychological, biological, crime, condition, disorder, personality, factors, anger, hatred, intent, profiling

*O*dil sudlovni oʻrnatishda psixologik bilimlardan foydalanish qadim zamonlardan boshlangan. Antik va oʻrta asrlarda (mil.av. III-asr) jinoiy javobgarlikka tortish uchun empirik tajribalardan foydalanilgan. Rossiyada jinoyatchilikda, jinoyatchining psixologiyasiga eʼtibor berish kerakligi toʻgʻrisida I.T.Posashkov faol fikr yuritadi. Uning nuqtai nazari boʻyicha jinoyatchilarning boshqa odamlarga nisbatan salbiy taʼsirini yoʻqotish maqsadida ularning xulq-atvorini tavsiflash kerak boʻladi. V.N.Tatishev fikriga koʻra “qonunlarni yoshlikdan bilish lozim, ularni bilmaslik buzilishga olib keladi”, degan nazariya ilgari suriladi. Knyaz M.M.Sherbatovning fikriga koʻra qonun chiqarishda xalqning psixologiyasi, insonlarning yuragini bilish lozimdir. U birinchilardan boʻlib jinoyatchini muddatdan avval chiqarib yuborish masalasini koʻtargan.

XIX asrda I.Gofbauerning “Sud hayotida psixologiyani qoʻllash” va I.Fridrixning “Sud psixologiyasiga oid muntazam qoʻllanma” deb nomlangan ilmiy

izlanishlarida psixologik nuqtai nazaridan shaxs, uni ayblash tushunchasi, sud jarayoni, psixologiyasi kabi savollar keng yoritib berilgan.

XX asrda I.S.Barshevning “Jinoiy huquqshunoslik fani”, N.Ya.Yanovich-Yanevskiyning “Jinoiy adliya toʻgʻrisida fikrlar” kabi ishlarida psixologiya bilimlariga katta eʼtibor qaratilgan. I.S.Barshevning fikri boʻyicha “psixologiyani bilmaslik bu tirik insonlarni emas, balki oʻlganlarni sud qilish demakdir”.

Jinoiy qasd hosil boʻlish mexanizmini aniqlashda jinoyatchilikning umumiy qonuniyatlarini bilish bilan bir qatorda jinoyatchining shaxsini chuqur oʻrganish ham zarur. Bunga koʻp jihatdan ushbu individ kiradigan ijtimoiy guruhlar bilan tanishish yordam beradi. Ushbu shaxsning yaqinlari oʻrtasida hukmronlik qilayotgan oʻzaro munosabatlar tarkibini oʻrganish, bu shaxs aʼzo boʻlgan ijtimoiy guruhlar psixologiyasini bilish, shaxs bilan jamiyat oʻrtasidagi aloqani, individual va ijtimoiy ong aloqasini aniqlash zarur. Har qanday

insonning ijtimoiy qiyofasi ko'p jihatdan uning mikro olami mazmuni bilan bog'liq bo'lib, ushbu mikro olamning psixologik tuzilishi individual xulq uchun kuchli katalizator bo'lib xizmat qiladi. Juda ko'p hollarda xulqning xususiyati atrof-muhitdagi axloqiy me'yorlarning mazmuniga bog'liq bo'ladi.

Psixologik buzilishlar:

Psixopatiya va sotsiopatiya: psixopatlar va sotsiopatlar odatda empatiyani his qilmaydilar va boshqalar hissiyotlariga befarq bo'ladilar. Bu ularda zo'ravonlikka moyillikni kuchaytiradi. Tadqiqotlarga ko'ra, qotillik sodir etgan jinoyatchilarning taxminan 25-30% psixopatik xususiyatlarga ega.

Bipolyar buzilish va depressiya: qotillik sodir etuvchi shaxslarning ayimlari ruhiy tushkunlik yoki og'ir bipolyar buzilish holatida bo'ladi. Ular g'azabni nazorat qila olmaslik natijasida jinoyatga qo'l urish mumkin.

Ijtimoiy omillar

Bola davridagi travmalar: bolalikda zo'ravonlikka uchragan yoki oilaviy muammolarga duch kelgan shaxslar kattalikda jinoyat sodir etishga moyil bo'ladi. Masalan, qotillik sodir etganlarning 60% dan ko'prog'i bolalikda jismoniy yoki ruhiy zo'ravonlikka duch kelgani aniqlangan.

Qo'zg'atuvchi muhit: ijtimoiy tengsizlik, qashshoqlik, ta'lim yetishmasligi va zo'ravonlikka to'la muhit shaxslarni qotilikka yetaklashi mumkin

Shaxsiy omillar

G'azab va qasos: qotillikning ko'plab hollari g'azab yoki qasos his-tuyg'ulari tufayli sodir etiladi. Bu holatda jinoyatchi asosan hissiy qaror qabul qiladi.

Ego va boshqarish ishtiyoqi: ayrim jinoyatchilar o'zini boshqalardan ustun qo'yish yoki ularni boshqarish ehtiyojini his qiladi. Ushbu hissiyot ko'pincha zo'ravonlik va qotillikka olib keladi.

Biologik sabablar

Miya faoliyatidagi buzilishlar: miya faoliyatidagi anomaliyalar, masalan, frontal korteksning shikastlanishi yoki limbik tizimdagi muammolar, shaxsni impulsiv va zo'ravon qilishi mumkin. Bu holatlar ko'pincha qotillik sodir etganlarda uchraydi.

Genetik omillar: ayrim tadqiqotlar ba'zi shaxslarning DNKsi ularning tajovuzkorlikka moyilligiga ta'sir qilishii ko'rsatadi. MAOA genining mutatsiyaga uchragan shakli bilan bog'liq jinoyatlar o'rganilgan.

Statistik ma'lumotlar

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha har yili taxminan 400 ming odam qotillik qurboniga aylanadi. Qotillik sodir etgan jinoyatchilarning 40-50% psixologik yoki ruhiy muammolarga ega bo'lganligi qayd etilgan. AQSHda sodir etilgan qotilliklarning 70% ini zo'ravonlikni rag'batlantiruvchi sharoitlar (masalan, oilaviy nizolar yoki moddiy qiyinchiliklar) bilan bog'liq.

Oldini olish choralarinin ahamiyati

- Travma bilan ishlash dasturlari, ayniqsa, bolalar uchun, qotilikka moyilikni kamaytirish mumkin.
- Psixologik yordam xizmatlarini kengaytirish orqali jinoyatchilikni kamaytirish mumkin.
- Stressni boshqarish va g'azabni nazorat qilish treninglari zo'ravonlikning oldini olishda muhimdir.

Psixologik tahlil usullari

a) Profayling (jinoyatchi portretini yaratish)

Bu usul jinoyatchining shaxsiy xususiyatlari, odatlari va harakatlarini aniqlashga yordam beradi.

- Qo'lanilishi: jinoyat joyidagi dalillar, qurbonning shaxsiyati va jinoyat usulidan kelib chiqib, jinoyatchining ruhiy holati aniqlanadi. Masalan, qotillik zo'ravonlik yoki manipulyatsiya asosida sodir etilganmi degan savolga javob topiladi.

- Misol: Ted Bundi kabi seriyali qotillar profiling orqali qo'lga olingan. Ularning aqilli, manipulyativ va o'ziga ishongan xarakterlari dalillar orqali tasdiqlanlagan.

b) Intervyu va so'rovnomalar

Jinoyatchi bilan suhbatlar orqali uning ruhiy holati va qotillikni sodir etishga undagan sabablar aniqlanadi.

- Qo'llanilish: jinoyatchilarning g'azab, qasos yoki travmatik tajribalari bilan bog'liq ruhiy holatlari o'rganiladi.

- Misol: AQSHda qotillik sodir etgan shaxslarning aksariyati intervyu davomida bolalik travmalari yoki oilaviy zo'ravonlik ta'sirida o'sganligini aytgan.

c) Psixologik testlar

Maxsus testlar orqali jinoyatchining ruhiy buzilishlari (masalan, psixopatiya, bipolyar buzilish) va shaxsiy xususiyatlari aniqlanadi.

- Qo'llanilishi: MMPI (Minnesota Multiphasic Personality Inventory) yoki PCL-R (Psychopathy Checklist Revised) kabi testlar jinoyatchilarning ruhiy halotini aniqlashda qo'llaniladi.

- Misol: 1990-yillardagi Jeffrey Dahmer ishi davomida, testlar uning psixopatiya va boshqa ruhiy buzilishlardan aziyat chekkanini ko'rsatgan.

Hayotiy misollar orqali tahlil

a) Seriyali qotil Ted Bundi

- Profiling: Ted Bundi o'z qurbonlarini diqqat bilan tanlab, ularni o'ziga jalb qilgan. Dalillar va uning yuqori darajadagi manipulyatsiya qobiliyatiga ega ekanini ko'rsatdi.

- Psixologik sabablar: bolaligida otasi tomonidan zo'ravonlikka uchragan va o'zini jamiyatda kamsitgan deb his qilgan. Bu g'azabini qotillik orqali ifodalashiga olib kelgan.

b) Nikson ismli bolalik qotili (real voqea)

- Voqea: 12 yoshli nikson qo'shnisining bolasini zo'ravonlik bilan o'ldirgan.

- Tahlil: suhbat va tahlillar davomida Niksonning bolaligida o'z otasini tomonidan jismoniy va ruhiy zo'ravonlikka uchragani ma'lum bo'ladi. Bu travma u o'z tengqurlari ustidan kuch ishlatish orqali o'zini himoya qilishga urinishi bilan bog'liq.

c) Mark Chapman (Jon Lennon qotili)

- Voqea: 1980-yil mashhur qo'shiqchi Jon Lennon o'ldirildi.

- Psixologik sabablar: Chapmanning ichki konfliktlari, ongidagi o'ziga past baho berish hissi va yulduzlarga qarshi ichki nafrati uni qotillikka olib keldi. Psixologik tahlillar uning o'ziga xos narsissistik xususiyatlarga ega bo'lganini aniqladi.

Ilmiy dalillar

- Frontal korteks va limbik tizimi: tadqiqotlarga ko'ra, jinoyatchilarning ko'pchiligida miya faoliyatida buzilishlar aniqlangan. Ushbu sohalar impulsni nazorat qilish va hissiy javob uchun mas'uldir.

- Statistika: jinoyatchilarning 60% dan ko'prog'i bolaligida jismoniy yoki ruhiy zo'ravonlikka duch kelgan.

Jinoyatchilikni oldini olish choralari

- Psixologik yordam: jinoyatchilarga o'z hissiyotlarini boshqarish uchun dasturlar tashkil etishi.

- Travma markazlari: bolalik travmasini boshdan kechirgan shaxslar uchun qo'llab-quvvatlov dasturlari.

- Ta'lim: ijtimoiy muammolarni hal qilish va konfliktni tinch yo'l bilan hal etishni o'rganish

Maqolamni xulosalash qismida ham ilmiy ham diniy tomondan xulosalab o'tib ketmoqchiman. Qotillik kabi og'ir jinoyatlarning sabablarini o'rganishda diniy va ilmiy yondashuvlar bir-birini to'ldiradi.

Diniy nuqtai nazard jinoyatning ma'naviy-axloqiy jihatlarini ochib bersa, ilmiy tahlillar uning ruhiy va biologik asoslarini yoritadi. Ushbu maqolada qotillikning sabablari va ularni yengish yollari diniy va ilmiy nazardan baholanib o'tildi.

Tavsiyalar

- Travma markazlari va psixologik yordam xizmatlarini rivojlantirish.
- Stressni boshqarish va g'azabni nazorat qilish bo'yicha maxsus treninglar o'tkazish.
- Ta'lim tizimida ijtimoiy ko'nikmalar va tinchlikni targ'ib qilish dasturlarini joriy etish.

1. Islom nuqtai nazaridan: qotillikning oldini olish uchun odamlar g'azab va nafratdan tiyilishi, sabr va kechirimli bo'lish kabi fazilatlarni shuningdek, din insonlarni o'zaro tinchlik va adolatni saqlashga chaqiradi.

Islom va ilm birgalikda qotillikning oldini olishda kuchli vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Inson hayptiga bo'lgan hurmatni shakllantirish orqali jamiyatda barqarorlikni ta'minlash mumkin.

Xulosa

Dinda qotillikning qoralanishi:

1. Hayotning muqaddasligi: Alloh Taolo Qur'onda shunday deydi: "kimda bir jonni nohaq o'ldirsa, u go'yo barcha insonlarni o'ldirgan bo'ladi. Kim bir jonni tiriltirsa, u go'yo barcha insonlarni tiriltirgan bo'ladi" (Moida surasi, 32-oyat). Bu oyat qotillikning nafaqat qurbon balki jamiyatga yetkazadigan zararini ko'rsatadi.

2. Nohaq qon to'kishning jazosi: Islomda nohaq qotillik qilgan shaxs uchun og'ir jazo belgilangan: "kim atayin bir mo'minni o'ldirsa, uning jazosi jahannamdir va doimiy ravishda azoblanadi" ("Niso surasi" 93-oyat). Bu oyat inson hayotini qadrlash va qotillikdan tiyilishga chaqiradi.

3. Ichki g'azab va sabrning ahamiyati: Islomda g'azabni nazorat qilish muhim ahamiyatga ega. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) dedilar: "Kuchli odam – bu kurashda yenguvchi emas, balki g'azabini jilovlay oluvchi kishidir" bu g'azab tufayli qotillik sodir etilishining oldini olish uchun psixologik choralar zarurligini ta'kidlaydi.

Har bir jinoyatining asosida bir qator sabab va shart-sharoitlar, individualbiologik, ruhiy va ijtimoiy-psixologik omillarning ulanishi yotadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Elov Z.S. Sud psixologik ekspertizasi tarixi rivojlanish jarayoni bosqichlari. PEDAGOG RESPUBLIKA ILMIY JURNALI. 7 – TOM 4 – SON / 2024 - YIL / 15 – APREL. 306-313
2. M.A.Gafarova., Z.S.Elov. Inklyuziv ta'limda pedagog-psixologning kasbiy psixologik xususiyatlari. PEDAGOG RESPUBLIKA ILMIY JURNALI. 7 – TOM 4 – SON / 2024 - YIL / 15 – APREL. 477-480
3. Z.Elov. Социально-психологические причины формирования девиантного поведения у подростков. Pedagogik mahorat. Ilmiy jurnal. 2024
4. Z.S.Elov. Zo'ravonlik jinoyatlarini sodir etuvchi shaxslar toifasi psixologiyasi. Pedagogik akmeologiya. Ilmiy jurnal 5/3. 2024
5. Элов Зиёдулло, Я. САМИНЖОНОВ. Ўсмирлар орасида ўз жонига қасд қилиш ҳолати психологик муаммо сифатида. 2024. Journal of Pedagogical and Psychological Studies 2 (2), 69-78
6. O.Mamatov., Z.Elov. Talabalarni bilish faoliyatiga motivlashtirishning psixologik va pedagogic asoslari. Journal of Pedagogical and Psychological Studies 2 (1), 37-42. 2024

7. Z.Elov. Identifikatsiya jarayoni muammosining psixologiyada o'rganilishi. ZAMONAVIY PSIXOLOGIK TADQIQOTLAR INTEGRATSIYASI. Ilmiy konferensiya to'plami. 2023
8. Z.Elov. O'z joniga qads qilish masalasi jamiyat oldida turgan muhim ijtimoiy-psixologik muammo sifatida. 2023. Journal of Pedagogical and Psychological Studies 1 (12), 50-54
9. Z.Elov. Shaxsda fobiya holati va uning diagnostikasi. 2023. Journal of Pedagogical and Psychological Studies 1 (11), 66-74
10. Z.Elov. Suitsidial xulq-atvor haqida tahlillar va nazariyalar. 2023. Journal of Pedagogical and Psychological Studies 1 (10), 11-22
11. Z.S.Elov. Suitsidial xulq-atvorning zamonaviy psixologiyada o'rganilishi: tahlillar va nazariyalar. 2023. Science and Education 4 (10), 326-342
12. F.A.Ismatova., Z.S.Elov. Huquq-tartibot organlari psixologining kasbiy kompetentsiyasi tuzilishini baholasning o'ziga xos xususiyatlari. 2022. ТАЪЛИМ ВА ИHHOBATSIQH TAДҚИҚOTЛAP 1 (12/2), 241-245

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Djumayeva Ruxshona Farruz qizi
Osiyo xalqaro universiteti talabasi
Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI RAHBARLARINING BOSHQARUV FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH



Kamolov Aziz Aminovich

Osiyo xalqaro universiteti magistri, Buxoro shahri

Annotatsiya:

KIRISH: Ta'lim muassasasining faoliyatidagi samaradorlik, birinchi navbatda, jamoadagi shaxslararo munosabatlar, vazifalarni qanchalik to'g'ri tashkil etilgani yoki etilmaganligiga bog'liq. Boshqacha aytganda, ishning qanday tashkil etilishi rahbarlik, boshqaruvchilikning tashkil etilishi darajasiga bog'liq. Har bir rahbar pedagogik tizimni boshqarar ekan, eng avvalo, undagi muammolar va bu tizimdagi a'zolarining pedagogik-psixologik xususiyatlarini bilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Maktab direktorlari boshqaruv faoliyatida ta'lim muassasasida barcha jarayonlarni tartibga solib turish uchun boshqaruv funksiyalarini mazmun va mohiyatini bilishlari zarur.

MAQSAD: Umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbarlarining boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish.

MATERIALLAR VA METODLAR: Umumta'lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish, boshqaruv faoliyati samaradorligini tushunchalari bo'yicha bir qator tadqiqot ishlari o'rganildi. Shunday ekan birinchi navbatda samaradorlik, boshqaruv faoliyat samaradorligi kabi tushunchalarini tahlil qilib o'tish lozim. Samaradorlik - sifatning umumlashgan o'lchovi. Samara deganda faoliyatda qo'yilgan maqsadga to'la yoki qisman erishish tushuniladi. Ta'lim sifatini oqilona darajasiga erishish ta'lim muassasasi boshqaruvidagi asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. Shu sababli sifatni boshqarish ba'zan samaradorlikni boshqarish deb ham atiladi.

XULOSA: Rivojlanish dasturi ta'lim dasturini amalga oshirishni ta'minlovchi ta'lim muassasasi infratuzilmasidagi o'zgarishlarni tavsiflaydi. Ta'lim dasturi ta'lim maqsadlarining dolzarbligi, mazmunning innovatsionligi, qo'llanilayotgan ta'lim texnologiyalari va o'quv-uslubiy majmualarning zamonaviyligi, ya'ni ta'limning dolzarbligi va zamonaviyligini asoslaydigan barcha jihatlarni ochib berish mumkin. Rivojlanish dasturida ta'lim jarayonini sifat, qulaylik va samaradorlikni oshirish yo'nalishida ta'minlashning huquqiy, tashkiliy, moliyaviy, boshqaruv va moddiy sharoitlarini o'zgartirishga e'tibor qaratish zarur.

Kalit so'zlar: boshqaruv faoliyati, KPI-samaradorlikning muhim ko'rsatkichi, maktab direktorning boshqaruv faoliyati samaradorligi, baholash mezonlari, baholash mexanizmlari.

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ДИРЕКТОРОВ ОБЩИХ СРЕДНИХ ШКОЛ

Камалов Азиз Аминович

Магистр Международного университета Азии, г. Бухара

Аннотация:

ВВЕДЕНИЕ: Эффективность деятельности образовательного учреждения зависит, прежде всего, от межличностных отношений в коллективе, от того, насколько хорошо организованы или нет поставленные задачи. Другими словами, то, как организована работа, зависит от уровня организации руководства и управления. Каждый руководитель, управляя педагогической системой, должен прежде всего обладать способностью знать проблемы в ней, педагогические и психологические особенности членов этой системы. Директору школы необходимо знать значение и суть управленческих функций, чтобы регулировать все процессы в образовательном учреждении.

ЦЕЛЬ: Повысить эффективность управленческой деятельности руководителей общеобразовательной школы.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Изучен ряд научно-исследовательских работ по повышению эффективности управленческой деятельности директоров общеобразовательных школ, концепции эффективности управленческой деятельности. Поэтому, прежде всего, необходимо проанализировать такие понятия, как эффективность, эффективность управления. Эффективность является общей мерой качества. «Самара» означает полное или частичное достижение цели, поставленной в деятельности. Достижение приемлемого уровня качества образования является одной из основных целей управления образовательным учреждением. По этой причине управление качеством иногда называют управлением эффективностью.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Программа развития описывает изменения в инфраструктуре образовательного учреждения, обеспечивающие реализацию образовательной программы. Могут быть выявлены актуальность образовательных целей, инновационность содержания, современность используемых образовательных технологий и учебно-методических систем, т.е. все аспекты, обосновывающие актуальность и современность образования. В программе развития необходимо сделать акцент на изменении правовых, организационных, финансовых, управленческих и материальных условий обеспечения образовательного процесса в сторону повышения качества, удобства и эффективности.

Ключевые слова: управленческая деятельность, КПЭ-важный показатель эффективности, результативность управленческой деятельности директора школы, критерии оценки, механизмы оценки.

INCREASING THE EFFICIENCY OF ADMINISTRATIVE ACTIVITY OF PRINCIPALS OF GENERAL SECONDARY EDUCATION SCHOOLS

Kamolov Aziz Aminovich

Master of Asia international university, Bukhara city

Annotation:

INTRODUCTION: The effectiveness of the activity of the educational institution depends, first of all, on interpersonal relations in the team, how well the tasks are organized or not. In other words, how the work is organized depends on the level of organization of leadership and management. Every leader, while managing a pedagogical system, should first of all have the ability to know the problems in it and the pedagogical and psychological characteristics of the members of this system. School principals need to know the meaning and essence of management functions in order to regulate all processes in the educational institution.

GOAL: To increase the effectiveness of management activities of general secondary school leaders.

MATERIALS AND METHODS: A number of research works on improving the effectiveness of management activities of general education school principals, concepts of effectiveness of management activities were studied. Therefore, first of all, it is necessary to analyze concepts such as efficiency, management efficiency. Efficiency is a general measure of quality. "Samara" means full or partial achievement of the goal set in the activity. Achieving a reasonable level of education quality is one of the main goals of educational institution management. For this reason, quality management is sometimes referred to as performance management.

CONCLUSION: The development program describes the changes in the infrastructure of the educational institution that ensures the implementation of the educational program. The relevance of educational goals, innovativeness of content, modernity of educational technologies and teaching-methodical systems used, i.e., all aspects that justify the relevance and modernity of education can be revealed. In the development program, it is necessary to focus on changing the legal, organizational, financial, management and material conditions of providing the educational process in the direction of increasing the quality, convenience and efficiency.

Key words: management activity, KPI-an important indicator of efficiency, effectiveness of school director's management activity, evaluation criteria, evaluation mechanisms.

Ta'limni boshqarish nazariyasida uning o'ziga xosligi ma'lum mezonlarga ko'ra tasniflangan boshqaruvga turli yondashuvlarda namoyon bo'ladi. Bu yondashuvlar boshqaruv jarayonining mohiyatini belgilab beradi va uning evolyutsiyasini tarixiy-pedagogik tadqiq qilish jarayonida tahlil predmeti bo'lib xizmat qilishi, ushbu boshqaruvning yetakchi paradigmasini kvalifikatsiya qilish funksiyasini bajarishi mumkin. Shubhasiz, ularning har biri boshqaruvni shakllantirish jarayonida u yoki bu tarixiy bosqichda ma'lum foyda keltirgan.

Ta'lim muassasasining faoliyatidagi samaradorlik, birinchi navbatda, jamoadagi shaxslararo munosabatlar, vazifalarni qanchalik to'g'ri tashkil etilgani yoki etilmaganligiga bog'liq. Boshqacha aytganda, ishning qanday tashkil etilishi rahbarlik, boshqaruvchilikning tashkil etilishi darajasiga bog'liq. Har bir rahbar pedagogik tizimni boshqarar ekan, eng avvalo, undagi muammolar va bu tizimdagi a'zolarining pedagogik-psixologik xususiyatlarini bilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Maktab direktorlari boshqaruv faoliyatida ta'lim muassasasida barcha jarayonlarni tartibga



solib turish uchun boshqaruv funksiyalarini mazmun va mohiyatini bilishlari zarur.

Strategik menejment sohasidagi ishlarni tahlil qilish bunday boshqaruvning mohiyati va o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga, «strategiya» tushunchasining asosiy xususiyatlarini va uning «rivojlanish» va «prognozlash» tushunchalari bilan bog'liqligini aniqlashga imkon berdi. Ta'limda «strategiya», «strategik menejment (menejment)» tushunchalari operativ boshqaruv va menejment o'rtasidagi farqlarni ko'rsatish uchun kiritildi, bunda asosiy e'tibor tashqi omillarga qaratiladi. Biroq, mualliflar bu mohiyatni belgilashda turlicha urg'u beradilar. Demak, G.Mintzberg, J.Kvinn, S.Goshals strategik menejmentni "tanlangan maqsadlarni amalga oshirishdan va munosabatlarning istalgan holatiga erishishga urinishlardan iborat tizim va uning muhiti o'rtasidagi aloqani aniqlash va o'rnatish jarayoni" deb qaraydilar. Resurslarni taqsimlash orqali atrof-muhit bilan samarali va samarali harakat qilish imkonini beradi.

Bugungi kunda dunyo miqyosida to'plangan tajribalar turli davlatlarda ta'lim muassasalari rahbarlarining faoliyati samaradorligini baholashning turlicha mexanizmlaridan foydalanish amaliyoti mavjudligini ko'rsatmoqda. Hozirda umumta'lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish va ularning kompetentligiga qo'yiladigan umumiy talablarni klassifikatsiyalash, maktab direktorlarining boshqaruv faoliyati samaradorligini baholashga oid ko'rsatkich va mezonlarni ishlab chiqish zarurati mavjud.

Umumta'lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyat samaradorligini baholashda faoliyat yo'nalishlarini aniqlashtirish va baholash mezonlarini ishlab chiqish.

Umumta'lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish, boshqaruv faoliyati samaradorligini tushunchalari bo'yicha bir qator tadqiqot ishlari o'rganildi. Shunday ekan birinchi navbatda samaradorlik, boshqaruv faoliyat samaradorligi kabi tushunchalarini tahlil qilib o'tish lozim.

Samaradorlik - sifatning umumlashgan o'lchovi. Samara deganda faoliyatda qo'yilgan maqsadga to'la yoki qisman erishish tushuniladi. Ta'lim sifatini oqilona darajasiga erishish ta'lim muassasasi boshqaruvidagi asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. Shu sababli sifatni boshqarish ba'zan samaradorlikni boshqarish deb ham aytiladi.

D.Tojiboyeva o'z tadqiqot ishlarida samaradorlikni baholashda odatda ko'proq ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlikni nazarda tutgan. Ijtimoiy samaradorlik – bu xo'jalik faoliyatining natijalarini jamiyatning maqsadi va ehtiyojlariga, uning a'zolari manfaatlariga mos kelishini anglatadi. Iqtisodiy samaradorlikga esa, eng avvalo, ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol samaradorligi sifatida qaratiladi.

M.Sharifxo'jayev va Yo.Abdullayevlarning fikriga ko'ra, boshqaruv samaradorligi o'z tabiati bilan murakkab jarayon. Uni faqat bir yoki ikki ko'rsatkich bilan ifodalab bo'lmaydi. Buning uchun ko'rsatkichlar tizimi zarur bo'lib, mazkur tizimni ikki yirik guruhga bo'lish mumkin.

1-rasm

BOSHQARUV SAMARADORLIGINI TASHKIL ETUVCHI GURUHLAR		
	Boshqarish tizimi faoliyatini tavsiflovchi miqdoriy ko'rsatkichlar: – boshqaruvdagi jonli mehnatning tejatlashini tavsiflovchi ko'rsatkichlar; – boshqaruv uchun sarflangan moliyaviy resurslarning tejatlashini tavsiflovchi ko'rsatkichlar; – boshqarish uchun sarflanadigan vaqtning tejatlashini tavsiflovchi ko'rsatkichlar.	Boshqaruvning ijtimoiy samaradorligini tavsiflovchi sifat ko'rsatkichlari: – boshqaruv apparati xodimlarining malakasi darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlar; – qabul qilingan qarorlar samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar; – boshqaruv jarayonidagi axborotlarning ishonchlilik va to'liqligini ifodalovchi ko'rsatkichlar; – boshqarish madaniyatini tavsiflovchi ko'rsatkichlar; – kommunikatsiyaning samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar; – boshqaruv apparatidagi mehnat sharoitini tavsiflovchi ko'rsatkichlar va h.k.

A.To'xtaboyevning ta'kidlashicha, boshqaruv samaradorligi uning boshqariluvchi ob'ekt maqsadlari va ijtimoiy-iqtisodiy samarasini ta'minlashdagi natijaviyligi bilan boshqarish xarajatlarini va unda foydalanilgan resurslarni taqqoslash orqali aniqlanadi. Boshqarish samaradorligini iqtisodiy ma'nosi – boshqarish xarajatlarining joriy holatida makro- va mikro darajada eng ko'p iqtisodiy samarani ta'minlash bo'lsa, ijtimoiy ma'nosi – boshqarish xarajatlarini joriy holatida eng ko'p ijtimoiy samarani ta'minlashdir.

G.S.Abdraxmanov boshqaruv faoliyati samaradorligini belgilangan me'yorlar asosida yuqori sifatlarga erishish darajasi hamda ta'lim tizimi faoliyatining sifat va miqdoriy xususiyatlarining zaruriy ko'rsatkichlarini ifodalovchi, maqsadga erishish darajasi bo'yicha aniqlashni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. Ta'lim muassasalarini boshqarishni ilmiy asosda tashkil etishda amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalar hamda ijobiy yechimini


topish zarur bo'lgan ayrim muammolarni inobatga olgan holda aytish mumkinki, ta'lim muassasalarini boshqaruv faoliyatining samaradorligi – bu boshqaruv qonuniyatlari, usul va metodlari hamda innovatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv faoliyati asosida tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayonining natijaviyligi hisoblanadi. Ta'lim muassasasining boshqaruv samaradorligi – bu boshqaruv faoliyati maqsadiga erishganlik ko'rsatkichi, ya'ni ta'lim muassasasida har bir ta'lim oluvchining shaxsini rivojlantiruvchi shart-sharoitlarning yaratilganligi hisoblanadi. Bizning fikrimizcha boshqaruv faoliyat samaradorligi – rahbarning ma'lum bir muddatda ta'lim muassasasida erishgan asosiy natijalari. Bu natijalarni aniqlashda faoliyat samaradorligini baholashning optimal mexanizmlaridan foydalaniladi.

Rivojlangan mamlakatlarda umumta'lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyat samaradorligini baholashda asosan o'zini o'zi baholash

tushunchasi ko'proq qo'llaniladi. Boshqaruv faoliyati samaradorligini rahbarning o'zi tomonidan tizimli baholanishi va natijalar asosida o'z ustida ishlash, rivojlantirish rejalarini tuzish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Virjiniya shtati Uilyama va Mariya kolleji professori Djeyms X.Strong o'z tadqiqotlarida umumta'lim maktab direktorlarini baholashda quyidagi standartlarni keltirib o'tgan:

2-rasm



Shunday ekan ta'lim muassasasining boshqaruv samaradorligi qaysi holatda, natijalarga, ta'lim muassasasi oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishayotganliklarini aniqlash uchun baholash, baholash mexanizmlarini qo'llash kerak bo'ladi.

Ta'lim tizimini boshqarishni rivojlantirishni o'rganishda strategik paradigmadan foydalanish, bizning fikrimizcha, nafaqat ushbu rivojlanishning etakchi tendentsiyalarini, balki eng muhim tendentsiyalarni ham saralash imkonini beradi.

Ta'limni strategik boshqarish paradigmasi kontekstida asarlarida keltirilgan faoliyatning umumiy nazariyasiga asoslanadi. L.S.Vigotskiy, E.V.Ilyenkova, A.N.Leontiev, S.L.Rubinshteyn, G.P.Shchedrovitskiy va boshqalar, biz mintaqadagi ta'limni boshqarish tizimining genezasiga eng mos keladigan maxsus shaklni - «topshiriqlar bo'yicha boshqarish» ni ajratib ko'rsatdik. "Vazifalar" deganda biz kelajakdagi natija (maqsad) modeli

shartlarini, natijaga erishish vositalarini, mablag'lardan foydalanish usullarini, faoliyatni amalga oshirish shartlarini va kelajakdagi natijani baholash mezonlarini tushunamiz. Shu ma'noda "vazifa"ni "strategiya"ning sinonimi sifatida ko'rish mumkin. Ehtiyoj qondirilmaguncha yoki boshqa muqobil variantga o'tish zarurati tug'ilmaguncha (strategiyani o'zgartirish) o'zgarmaydi. Vazifani shakllantirishni yakunlash harakat mavzusini strategiyani amalga oshirishga olib keladi, ya'ni «ijro etuvchi» bosqichiga. Aynan shu paytdan boshlab u tanlangan vosita va usullardan haqiqiy foydalanishga o'tish, ya'ni «ichki» tayyorgarlik jarayonidan haqiqiy «tashqi» faoliyatga o'tish, qondirishning haqiqiy amaliyotiga o'tish imkoniyatini oladi. dastlabki ehtiyoj. Faoliyat yondashuvi aspektida boshqaruv qarorlarini tahlil qilish, o'rganish, aniqlash, ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish bilan bog'liq vazifalar mavjud. Ushbu muammolarni hal qilish orqali maqsad sari yo'l topiladi. S.L.

Rubinshteyn va A.N. Leontiev vazifaning ma'nosini maqsadning birligi va unga erishish shartlari sifatida aniq talqin qildi. Maqsadga erishish shartlari o'zgarganda, lekin maqsadning o'zi saqlanib qolganda, vazifa ham o'zgaradi. Ta'limni boshqarishda faoliyat tamoyilini amalga oshirish sharoitida natija ta'lim tizimi emas, balki tizimga yondashuv natijasidir, ya'ni. tizim qo'yan vazifalarning sifati. Bunday holda, ishlab chiqarish sifati nuqtai nazaridan ta'limni boshqarishning evolyutsiyasi haqida gapirish mumkin.

Strategiyani shakllantirishda mas'uliyat tashkilot madaniyati, an'analar va boshqaruv uslubining xususiyatlarini hisobga olgan holda taqsimlanishi kerak. Madaniyat va mas'uliyat turi o'rtasidagi nomuvofiqlik ko'pincha strategiyaning samarasizligiga sabab bo'ladi. Shunday qilib, agar rahbarning qarori yakuniy va muhokama qilinmaydigan ta'lim muassasasida avtoritar madaniyat shakllangan bo'lsa, guruh mas'uliyati tizimini joriy etish aslida muassasa faoliyatini falaj qiladi, chunki jamoa a'zolari teng huquqlarga ega. Vakolatlari yagona mustaqil qaror qabul qila olmaydi. Aksincha, boshqaruvning «demokratik» uslubi, muassasada kollegial qarorlar qabul qilish an'anasi, hatto avtoritar boshqaruvni talab qiladigan favqulodda vaziyatlarda ham rahbar tomonidan strategiyani ishlab chiqish va amalga oshirish uchun mas'uliyatning jamlanishiga kuchli qarshilik ko'rsatadi.

Ta'lim muassasasini boshqarishni tartibga solish tizimining asosiy elementlaridan biri bo'lgan rivojlanish dasturi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Uning tarkibiga quyidagilar kiradi: ta'lim muassasasining ta'lim tizimining holati va o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish; kuchli va zaif tomonlarini, imkoniyatlar va cheklavlarni tahlil qilish; ta'lim muassasasi ta'lim tizimining holatini

muammoli tahlil qilish; ta'lim muassasasini rivojlantirish dasturining maqsadlari va kutilayotgan natijalari; maqsadlarga erishish uchun harakatlar; rivojlanish dasturini amalga oshirish bo'yicha reja-jadval; xarajatlar smetasi loyihasi, rejalashtirilgan natijalarga erishish monitoringi. Rivojlanish dasturining maqsadlarini amalga oshirish bo'yicha loyiha faoliyati natijasi umuman ta'lim jarayonida sezilarli o'zgarishlar bo'lishi kerak - bu maqsadlar, tuzilma, texnologiyalar, xodimlar, sharoitlar va boshqalardagi o'zgarishlar.

Xulosa Qisqa qilib aytganda, Rivojlanish dasturi ta'lim dasturini amalga oshirishni ta'minlovchi ta'lim muassasasi infratuzilmasidagi o'zgarishlarni tavsiflaydi.

Ta'lim dasturi ta'lim maqsadlarining dolzarbligi, mazmunning innovatsionligi, qo'llanilayotgan ta'lim texnologiyalari va o'quv-uslubiy majmualarning zamonaviyligi, ya'ni ta'limning dolzarbligi va zamonaviyligini asoslaydigan barcha jihatlarni ochib berish mumkin. Rivojlanish dasturida ta'lim jarayonini sifat, qulaylik va samaradorlikni oshirish yo'nalishida ta'minlashning huquqiy, tashkiliy, moliyaviy, boshqaruv va moddiy sharoitlarini o'zgartirishga e'tibor qaratish zarur.

Ta'lim muassasasi rahbarlarining boshqaruv faoliyatidagi samaradorligi ta'lim muassasasining umumiy faoliyati samaradorligi ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatadi.

Bundan tashqari umumta'lim maktab direktorlari boshqaruv faoliyati yo'nalishlarini to'g'ri tahlil qilishi lozim. Boshqaruv faoliyat samaradorligini baholash natijalariga ko'ra ta'lim muassasasi rahbarlari o'z ustida ishlash, muntazam kasbiy mahoratini oshirib borishi, ta'lim muassasasining to'g'ri va istiqbolli rejalarini tuzishda muhim ahamiyatga egadir.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5712-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-iyundagi "Umumta'lim muassasalarining faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 345-sonli qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-dekabrdagi "Davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik o'quv kurslarida o'qitish va ularga menejerlik sertifikatini berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 681-sonli qarori.
5. S.Turg'unov "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlari boshqaruv faoliyatining nazariy asoslari". Monografiya. - Toshkent: "Fan", 2006.
6. D.Tojiboeva "Samaradorlik va unga nazariy jihatdan klassik va neoklassik yondashuv". "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 5, oktabr, 2017.
7. M.Sharifxo'jayev, Yo.Abdullayev Menejment: Darslik.- Toshkent: "O'qituvchi", 2001.
8. A.T.To'xtaboyev Ma'muriy menejment. – Toshkent: "Moliya", 2003.
9. Абдрахманов Г.Диагностический подход и оценка эффективности управления современной школой: Автореферат. – Казань, 1998.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ]

[AUTHORS INFO]

Kamolov Aziz Amonovich

Qashqadaryo viloyati, Kasbi tuman ixtisoslashtirilgan maktab direktori,

Osiyo xalqaro universiteti magistri

Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri

EKSTREMAL VAZIYATLARDA AHOLINING TURLI QATLAMLARIGA PSIXOLOGIK XIZMAT KO'RSATISH



Avezov Olmos Ravshanovich

Osiyo xalqaro universiteti, Buxoro shahri

Annotatsiya:

KIRISH: Ushbu maqola ekstremal vaziyatlarda aholi qatlamlariga psixologik yordam ko'rsatishning muhimligini va samarali yondashuvlarni tahlil qiladi. Shuningdek, bolalar, yoshlar, kattalar va keksa yoshdagilar kabi turli ijtimoiy guruhlariga mos ravishda psixologik yordam ko'rsatishning metodikasi ko'rib chiqiladi.

MAQSAD: Psixologik yordam tizimini tashkil etish va uni ijtimoiy ehtiyojlarga moslashtirishga oid yondashuvlar ruhiy salomatlikni tiklash va aholi farovonligini yaxshilash va ularning tashqi shart-sharoitlar bilan o'zaro mutanosib rivojlanishi asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: Aholining turli qatlamlariga mos yondashuvlar zarur bo'lib, ularning psixologik yordamga ehtiyojlari bir-biridan farq qilishi, ekstremal vaziyatlar sharoitida aholi qatlamlariga psixologik yordam ko'rsatishning asosiy yo'nalishlari, statistik ma'lumotlar va ilmiy tadqiqotlar orqali tahlil qilingan;

bolalarga psixologik yordam ko'rsatishning samarali usullaridan biri o'yin orqali davolash, o'yin orqali bolalarga o'z his-tuyg'ularini ifodalash imkoniyati berilganida, ularning stress darajasi kamayishi va ruhiy holatlari yaxshilanishi isbotlangan;

ekstremal vaziyatlarda aholining turli qatlamlariga psixologik xizmat ko'rsatish jarayonida turli usullarni qo'llash natijasida shaxs psixoemotsional holatini barqarorlashtirish, stressga chidamlilikni rivojlantirishning shaxsning emotsional o'zini-o'zini baholash strategiyalarini ustuvor shakllanishi isbotlangan.

XULOSA: Ekstremal vaziyatlarda aholi qatlamlariga psixologik yordam ko'rsatish ahamiyatga ega bo'lib, uning samaradorligi aholi guruhi va holatiga qarab farq qiladi. Psixologik yordamning samarali bo'lishi uchun, yordam ko'rsatiladigan guruhlarining ehtiyojlarini hisobga olish va maxsus dasturlarni ishlab chiqish zarur. Statistik ma'lumotlar va ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, psixologik yordamni vaqtida va sifatli tashkil etish, aholi orasidagi ruhiy salomatlikni tiklashda muhim rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar: Ekstremal vaziyatlar, psixologik yordam, post-traumatik stress, ijtimoiy guruhlar, stressni boshqarish, bolalar, yoshlar, kattalar, keksa yoshdagilar, ruhiy salomatlik, tabiiy ofatlar, pandemiya, psixologik xizmatlar.

РОЛЬ ЛИЧНОСТИ ИНДИВИДУАЛЬНОГО ПОВЕДЕНИЯ В ОКАЗАНИИ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОМОЩИ СЕМЬЕ В РАЗЛИЧНЫХ ЭКСТРЕМАЛЬНЫХ СИТУАЦИЯХ

Авезов Олмос Равшанович

Международный университет Азии, город Бухара

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье анализируется важность оказания психологической поддержки населению в экстремальных ситуациях и эффективные подходы. Также рассмотрен метод оказания психологической поддержки различным социальным группам, таким как дети, молодежь, взрослые и пожилые люди.

ЦЕЛЬ: Подходы к организации системы психологической поддержки и ее адаптация к социальным потребностям заключаются в разработке практических рекомендаций, основанных на восстановлении психического здоровья и повышении благосостояния населения и их взаимном развитии с внешними условиями.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Необходимы соответствующие подходы к различным слоям населения, их потребности в психологической поддержке отличаются друг от друга, основные направления оказания психологической поддержки слоям населения в экстремальных ситуациях проанализированы на основе статистических данных и научных исследований;

одним из эффективных методов оказания психологической поддержки детям является лечение через игру, доказано, что когда детям предоставляется возможность выражать свои чувства через игру, у них снижается уровень стресса и улучшается психическое состояние;

В результате использования различных методов в процессе оказания психологической помощи разным слоям населения в экстремальных ситуациях доказано, что приоритетным формированием стратегий эмоциональной самооценки личности является стабилизация психоэмоционального состояния человека. Человека, развивать стрессоустойчивость.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: В экстремальных ситуациях важно оказать психологическую поддержку населению, и ее эффективность варьируется в зависимости от группы населения и ситуация. Чтобы психологическая поддержка была эффективной, необходимо учитывать потребности групп, которым оказывается помощь, и разрабатывать специальные программы. Статистические данные и научные исследования показывают, что своевременная и качественная организация психологической помощи играет важную роль в восстановлении психического здоровья населения.

Ключевые слова: Экстремальные ситуация, психологическая поддержка, посттравматический стресс, социальные группы, управление стрессом, дети, молодежь, взрослые, пожилые люди, психическое здоровье, стихийные бедствия, пандемия, психологические услуги.

THE ROLE OF PERSONAL INDIVIDUAL BEHAVIOR IN PROVIDING PSYCHOLOGICAL HELP TO THE FAMILY IN DIFFERENT EXTREME SITUATIONS

Avezov Olmos Ravshanovich

International university of Asia, Bukhara city

Annatation:

INTRODUCTION: This article analyzes the importance and effective approaches to providing psychological support to populations in extreme situations. It also examines the methodology for providing psychological support to different social groups, such as children, youth, adults, and the elderly.

GOAL: Approaches to organizing a psychological support system and adapting it to social needs consist of developing practical recommendations based on restoring mental health and improving the well-being of the population and their development in harmony with external conditions.

MATERIALS AND METHODS: Different approaches are needed for different segments of the population, and their needs for psychological assistance differ from each other. The main directions of providing psychological assistance to segments of the population in extreme situations have been analyzed through statistical data and scientific research;

It has been proven that one of the effective methods of providing psychological assistance to children is play therapy. When children are given the opportunity to express their feelings through play, their stress level decreases and their mental state improves;

As a result of using various methods in the process of providing psychological services to different segments of the population in extreme situations, it has been proven that stabilizing the psycho-emotional state of a person, developing stress resistance, and the formation of emotional self-assessment strategies of a person are prioritized.

CONCLUSION: In extreme situations, psychological assistance to the population is important, and its effectiveness varies depending on the population group and situation. For psychological assistance to be effective, it is necessary to take into account the needs of the groups to be assisted and develop special programs. Statistical data and scientific research show that timely and high-quality organization of psychological assistance plays an important role in restoring mental health among the population.

Key words: Extreme situations, psychological support, post-traumatic stress, social groups, stress management, children, youth, adults, elderly people, mental health, natural disasters, pandemics, psychological services.

Ekstremal vaziyatlar, masalan, tabiiy ofatlar, texnogen falokatlar, urushlar va pandemiyalar, insonlar uchun psixologik jihatdan jiddiy tahdidlar keltiradi. Bu hodisalar kishilarning ruhiy holatini bevosita ta'sir qiladi va ularga jismoniy va psixologik travmalar yetkazadi. Ekstremal vaziyatlarda psixologik xizmat ko'rsatish ahamiyati yuksakdir, chunki to'g'ri tashkil etilgan psixologik yordam, odamlarning stressni

engishiga va ularning ruhiy holatlarini tiklashga yordam beradi. Aholining turli qatlamlariga mos yondashuvlar zarur bo'lib, ularning psixologik yordamga ehtiyojlari bir-biridan farq qiladi. Ushbu maqolada ekstremal vaziyatlar sharoitida aholi qatlamlariga psixologik yordam ko'rsatishning asosiy yo'nalishlari, statistik ma'lumotlar va ilmiy tadqiqotlar orqali tahlil qilinadi.



Ekstremal vaziyatlar inson ruhiyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Misol uchun, 2004-yilda Indoneziyadagi tsunami oqibatida yuzaga kelgan falokat, 280,000 dan ortiq odamning hayotini yo'qotishiga olib keldi va millionlab insonlar beva qoldi. Ushbu tabiiy ofat natijasida yuzaga kelgan psixologik muammolar, odamlar orasida qayg'u, stress, travma va depressiyani keltirib chiqardi. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkilotining (WHO) 2005-yildagi hisobotiga ko'ra, sunamidan keyin Indoneziyadagi odamlarning 30 foizidan ortig'i psixologik muammolarga duch keldi, shuningdek, depressiya va qayg'u holatlari keng tarqaldi.

Bundan tashqari, 2020-yildagi COVID-19 pandemiyasi ham insonlarning psixologik holatini yirik miqyosda ta'sir qildi. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (WHO) ma'lumotlariga ko'ra, pandemiya davrida butun dunyo bo'yicha 60%dan ortiq odamlar psixologik muammolar bilan yuzlashdi, jumladan, depressiya, xavotir va stress holatlari keng tarqalgan. Shu bilan birga, pandemiya davrida bolalar va yoshlar orasida ruhiy salomatlik muammolari sezilarli darajada oshdi. Global Survey of Mental Health in the Covid-19 Pandemic (2021) hisobotida aytilishicha, 2020-yilda yoshlar o'rtasida depressiya holatlari 25% ga oshgan.

Bolalarga psixologik yordam ko'rsatish. Bolalar, o'zining psixologik rivojlanish jarayonida bo'lganligi sababli, ekstremal vaziyatlarda kattalarga qaraganda ko'proq psixologik stressga uchraydilar. 2011-yildagi Fukuşima yadroviy falokati misolida, Yaponiya psixologlarining tahlil qilishicha, 12 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida 70% dan ortig'i ruhiy travmalarni boshdan kechirgan. Xususan, ota-onalarini yo'qotgan yoki xavfli holatlarda bo'lgan bolalarda post-traumatik stress (PTSD) holatlari sezilarli darajada oshgan.

Bolalarga psixologik yordam ko'rsatishning samarali usullaridan biri o'yin

orqali davolashdir. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'yin orqali bolalarga o'z his-tuyg'ularini ifodalash imkoniyati berilganida, ularning stress darajasi kamayadi va ruhiy holatlari yaxshilanadi. Masalan, 2013-yilda AQShda o'tkazilgan tadqiqotda, ekstremal vaziyatlardan keyin psixologik yordam ko'rsatilgan bolalar orasida, o'yin orqali davolanish samaradorligi 60% ga oshganini ko'rsatdi.

Yoshlarga psixologik yordam ko'rsatish. Yoshlar, o'zini topish va mustaqil fikrlash davrida bo'lishgani uchun, ekstremal vaziyatlar ularga katta psixologik stress va tashvishlarni keltiradi. 2015-yilda Frantsiyada o'tkazilgan tadqiqotda, Parijda yuz bergan teraktlar natijasida 18-25 yoshdagi yoshlarning 35% i post-traumatik stressni boshdan kechirganligini bildirgan. Ushbu yoshlar o'zlarini zaif va beqaror his qilishadi, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda ma'lumot tarqatish, ta'limni davom ettirishda qiynalishadi.

Yoshlar uchun psixologik yordamda ijtimoiy tarmoqlarda faoliyatni ta'minlash, psixologik stressni boshqarish bo'yicha treninglar va guruhviy yordam shakllari samarali bo'lishi mumkin. 2018-yilda Avstraliyada o'tkazilgan tadqiqotda, yoshlarni guruhlar orqali psixologik yordamga jalb qilish, ularning stress darajasini 40% ga kamaytirganini ko'rsatdi.

Kattalar ga psixologik yordam ko'rsatish. Kattalar, xususan, ota-onalar va rahbarlar, ekstremal vaziyatlarda ko'pincha o'z oilalarining xavfsizligi haqida qayg'urishadi. Masalan, 2008-yilda O'zbekistonning Farg'ona viloyatida sodir bo'lgan yirik tabiiy ofat – zilzila vaqtida, aholining 60% dan ortig'i psixologik yordamga muhtoj bo'lgan. Bu jarayonda ko'plab odamlar o'zlarini bezovta, xavf ostida va ko'p holatlarda noqulay his qilishgan.

Kattalar uchun psixologik yordamda, stressni boshqarish, xavfsizlikni ta'minlash

bo'yicha maslahatlar va guruh terapiyasi ko'rsatilishi muhimdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, stressni boshqarish bo'yicha treninglar kattalar orasida stressni 30-50% ga kamaytiradi.

Keksa yoshdagilar ga psixologik yordam ko'rsatish. Keksa yoshdagilar, ularning jismoniy va psixologik holati zaif bo'lganligi sababli, ekstremal vaziyatlar ularga katta zarar yetkazishi mumkin. 2020-yilda AQShda o'tkazilgan tadqiqotda, COVID-19 pandemiyasi davrida keksa yoshdagi odamlarning 40% dan ortig'i depressiya va xavotir holatlariga duchor bo'lgan. Ularning 25% i yakkalanish va ijtimoiy izolyatsiya tufayli ruhiy salomatlikni yo'qotganini bildirgan.

Keksa yoshdagilar uchun psixologik yordamda, individual maslahatlar, jismoniy faollikni rag'batlantirish, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar va jamoalar bilan bog'lanishlari zarur. 2021-yilda Kanadada o'tkazilgan tadqiqotda, keksa yoshdagilarni ijtimoiy guruhlariga jalb qilish, ularning ruhiy holatini 50% ga yaxshilashini ko'rsatdi.

Psixologik yordamning tashkiliy asoslari. Psixologik yordamning samarali

bo'lishi uchun, uning tashkilotini to'g'ri rejalashtirish zarur. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, psixologik xizmatlar tizimi yaxshi tashkil etilgan bo'lsa, uning samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Masalan, 2019-yilda Yaponiya hukumati tomonidan tabiiy ofatlardan keyin psixologik yordam tizimi tashkil etilganida, 100,000dan ortiq odamga yordam ko'rsatildi va bu odamlarning 70% dan ortig'i ruhiy holatlarini yaxshilashgan.

Shuningdek, psixologik yordam tizimi doimiy ravishda tayyorlanishi va yangilanishi zarur. 2017-yilda Buyuk Britaniyada o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, psixologik yordam tizimi uchun tayyorgarlik ko'rgan psixologlar va mutaxassislar, zarurat tug'ilganida, yordamni samarali va tez taqdim eta olishgan.

Demak, ekstremal vaziyatlarda aholi qatlamlariga psixologik yordam ko'rsatish ahamiyatga ega bo'lib, uning samaradorligi aholi guruhi va holatiga qarab farq qiladi. Psixologik yordamning samarali bo'lishi uchun, yordam ko'rsatiladigan guruhlarining ehtiyojlarini hisobga olish va maxsus dasturlarni ishlab chiqish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Аvezов, О. Р. (2023, March). ЭКСТРЕМАЛ ВАЗИЯТЛАРДА СТРЕССБАРДОШЛИЛИК ТУШУНЧАСИ. In *E Conference Zone* (pp. 63-67).
2. Ravshanovich, A. O. (2024). PSIXOLOGIK XIZMATNING ASOSIY YO'NALISHLARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 3(28), 18-22.
3. Ravshanovich, A. O., & Tavakkal o'g'li, S. S. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TA'LIM-TARBIYA BERISHDA IJODIY O 'YINLARNING AMALIY AHAMIYATI. *Scientific Impulse*, 2(14), 344-347.
4. Gafurova, F. O., & Avezov, O. R. (2024). PSIXOLOGIYADA SHAXS IDENTIVLIGI MUAMMOSINI TADQIQ QILISH. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 19(2), 33-37.
5. Ravshanovich, A. O. (2024). PSIXOLOGIK XIZMAT KORSATISH PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI. *MASTERS*, 2(1), 52-55.
6. Avezov, O. R., & Ubaydullayeva, N. F. (2022). Logotherapy: how psychotherapy helps a person to find meaning in life. *Science and Education*, 3(4), 747-752.
7. Avezov, O. R., & Ubaydullayeva, N. F. (2022). Frankl logoterapiyasi va uning inson hayotidagi tutgan o'rni. *Science and Education*, 3(4), 753-759.

8. Avezov, O. R., & To, A. S. O. G. L. (2022). Ekstremal vaziyatlarda shaxsga psixologik ta'sir etishning o'ziga xos xususiyatlari. *Science and Education*, 3(4), 717-724.

**MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ]
[AUTHORS INFO]**

Avezov Olmos Ravshanovich

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri

avezov.olmos@gmail.com

ORCID: 0000-0003-0622-3419

OILAVIY BOLALAR UYLARIDA TARBIYALANAYOTGAN BOLALARNI IJTIMOIYLASHUVINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI



To'raqulov Laziz Tirkashevich

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti, Jizzax shaxri

Annotatsiya:

KIRISH: Ushbu maqolada oilaviy bolalar uyi tarbiyalanuvchilarining ijtimoiylashuv jarayonlari, bolalar salbiy ijtimoiy xodisalarning kabi jabirdiydasiga aylanib qolish sabablari, islom dinidagi rivoyatlar jamlangan. Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining shu sohaga oid qator farmon va qonunlari o'rin olgan.

MAQSAD: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oilaviy bolalar uylarini tashkil qilish yuzasidan berilgan topshiriqlarining ijrosini halqqa yetkazish, hamda bola asrab olgan ota-onalarning mas'uliyatini oshirishga qaratilgan fikr mulohazalarni ilmiy tahlil qilish.

MATERIALLAR VA METODLAR: Kuzatish, suhbat, mualliflik so'rovnoma «Tarbiyalanuvchilarni oilalarga moslashuvchanlik darajasini aniqlash», metodikasidan foydalanilgan shu bilan birga xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqot ishlaridan aniqlangan ma'lumotlar keltirilgan.

XULOSA: O'tkazilgan tadqiqot natijalari bo'yicha oila tipidagi bolalar uyi tarbiyalanuvchilarining ijtimoiy psixologik moslashuvi xususiyatlari ijobiy jihatdan namoyon bo'ldi. Tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy psixologik moslashuvi, ichki nazorat, o'zini va boshqalarni ijobiy qabul qilish, moslashganlik, emotsional komfort, ustuvorlik muammodan qochish xususiyatlarining ahamiyatli ta'siri asosida yuzaga chiqishini ilmiy tadqiqotimiz natijalarida asoslandi.

Kalit so'zlar: Oilaviy bolalar uyi, mehr-meruvvat, hayr-saxovat, insonparvarlik, oilalarning mustahkamligi, tarbiyalanuvchilarni ijtimoiylashuvi, pedagogika-psixologiya, rivoyatlar, islom dini, xalq pedagogikasi, etnopsixologiya, yetimlik va ijtimoiy etimlik va shu kabi tushunchalar o'rin olgan.

ОСОБЕННОСТИ СОЦИАЛИЗАЦИЯ ДЕТЕЙ, ВОСПИТАННЫХ В СЕМЕЙНЫХ ДЕТСКИХ ДОМАХ

Туракулов Лазиз Тиркашевич

*Джизакский государственный педагогический университет,
город Джизак*

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В статье обобщены процессы социализация воспитанников семейных детских домов, причины, по которым дети становятся жертвами негативных социальных явлений, а также повествования в исламской религии. В то же время опубликован ряд указов и законов Президента Республики Узбекистан в этой сфере.

ЦЕЛЬ: Обеспечить пропаганду реализации задач, поставленных Президентом Республики Узбекистан по организации семейных детских домов, а также научный анализ мнений, направленных на повышение ответственности усыновителей.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: наблюдение, интервью, авторский опросник. Использовалась методика «Определение уровня адаптированности детей к семье».

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: По результатам исследования в положительном ключе проявились особенности социально-психологической адаптации детей детских домов семейного типа. На основании результатов наших научных исследований было установлено, что на основе значимого влияния характеристик избегания проблем возникают социально-психологическая адаптация студентов, внутренний контроль, позитивное принятие себя и других, адаптивность, эмоциональный комфорт, расстановка приоритетов.

Ключевые слова: Семейный детский дом, доброта, щедрость, гуманизм, прочность семьи, социализация детей, педагогика-психология, нарративы, исламская религия, народная педагогика, этнопсихология, сиротство и социальное сиротство и подобные понятия.

SPECIFIC CHARACTERISTICS OF SOCIALIZATION OF CHILDREN RAISED IN FAMILY CHILDREN'S HOMES

Turakulov Laziz Tirkashevich

Jizzakh State Pedagogical University, Jizzakh city

Annotation

INTRODUCTION: The article summarizes the processes of socialization of children in family orphanages, the reasons why children become victims of negative social phenomena, as well as narratives in the Islamic religion. At the same time, a number of decrees and laws of the President of the Republic of Uzbekistan in this area were published.

GOAL: To provide propaganda for the implementation of the tasks set by the President of the Republic of Uzbekistan on the organization of family orphanages, as well as a scientific analysis of opinions aimed at increasing the responsibility of adoptive parents.

MATERIALS AND METHODS: observation, interviews, author's questionnaire. The method "Determining the level of adaptation of children to the family" was used.

CONCLUSION: According to the results of the research, the features of social psychological adaptation of children of family-type orphanages were shown in a positive way. It was based on the results of our scientific research that social and psychological adjustment of students, internal control, positive acceptance of themselves and others, adaptability, emotional comfort, and prioritization appear on the basis of the significant influence of problem avoidance characteristics.

Key words: Family orphanage, kindness, generosity, humanism, family strength, socialization of children, pedagogy-psychology, narratives, Islamic religion, folk pedagogy, ethnopsychology, orphanhood and social orphanhood and similar concepts.

Bizning yurtimizda hech kim o'zini yolg'iz his qilmasligi kerak.

I.Karimov

Odatda, ziyolilar yoki chet ellik kasbdoshlar bilan bo'lib o'tadigan ma'naviy-ma'rifiy davralarda xalqimiz tabiati haqida so'z ochilsa, elimizning ziynatida yaqqol ufu-urib turadigan mehmondo'stlik, mehnatsevarlik, bag'rikenglik singari sifatlarni ko'p bora esga olinadi. Shuningdek, ushbu tavsiflar bilan bir qatorda xalqimiz nomi bilan chambarchas bog'langan «o'zbek - bolajon», «o'zbek xalqi - bolajon xalq» degan sifatlarni ham keng tarqalgan. O'zbek xalqining bu singari sifatlarni bilan tavsiflanishiga qator tarixiy asoslar bor.

Xalqimiz ma'naviy, ma'rifiy yuksalishda beqiyos ulush qo'shgan ulug'larimiz ham asarlari, o'z amaliy harakatlari bilan bolaparvarlikni o'zgacha qadrlashgan. Bir misol. Hazrat Alisher Navoiy haqida so'z borganda u kishini yolg'iz o'tganliklari va tabiiyki, farzandlari bo'lmaganligini ko'p gapiramiz. Biroq adabiyotimiz tarixiga bag'ishlangan yangi tadqiqotlarda Alisher Navoiy hayotlarining turli davrlarida to'rt bolani farzandlikka (qaramoqqa) olganlari, ularga otalarcha mehr ko'rgazganliklari, ta'lim-tarbiya berganliklari, ular hazratga farzand maqomida bo'lganligi yozma manbalarda bitib qoldirilganligi aniqlangan. Eng qadim kezlardan ikki daryo oralig'idagi qutlug' zaminni makon tutgan xalqimiz ming yilliklardan buyon bolaparvarligi, bolaning begonasi bo'lmasligi to'g'risidagi o'z haqiqati bilan umrguzaronlik qilib keladi. Bu haqiqatlar xalqimizning qon-qoniga singib ketgan. Shu sababdan xalq tafakkuridagi bolasevarlik bilan bog'liq qadriyatlar elning otaso'zlari – maqollarda nihoyatda ko'p keladi. O'zbek xalq maqollarining eng yirik qatlamini ayni

bolaparvarlikka qaratilgan maqollar tashkil etishi ham ana shundan.

O'zbekiston Respublikasi Mustailikka erishgan kundan boshlab xukumatimiz kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish to'g'risida g'amxo'rlik qila boshladi. Bu g'amxo'rlik, albatta, bola asrab olgan oilalarga berilayotgan e'tibor bilan bevosita bogliqdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 11 fevral kuni “yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”⁶ qarorining quyidagi ba'zi bo'limlariga to'xtalsak o'rinli bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Maktab va maktabgacha ta'lim vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnatmunosabatlari vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi va moliya vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda “Mehribonlik” uylari, bolalar shaharchalari va bolalar uylariga 1 ta psixolog shtat birligini tashkil qilish agar tarbiyalanuvchilari soni 200 nafardan ortiq bo'lgan “Mehribonlik” uylari, bolalar shaharchalari va bolalar uylarida 2 ta psixolog shtat birliklarini tashkil qilish belgilab qo'yilgan;

O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan: Mehribonlik uylari va bolalar shaharchalari tarbiyalanuvchilarini dasturlash ko'nikmalariga o'rgatish hamda axborot texnologiyalari sohasida yosh mutaxassislarni tayyorlash maqsadida

⁶O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. Yetim bolalarga oid muhim qarori. Janiyat. 2019-yil 11 fevral kuni.

ularning internet tarmog'iga ulanishi va kompyuterlar bilan jihozlanishini, bunda 10-11 sinf o'quvchilariga "axborot-kommunikatsiya texnologiyalari" yo'nalishida yetakchi tashkilotlarda ishlab chiqarish amaliyotini o'tashi uchun sharoitlar yaratilishini kerakligi belgilab qo'yilgan. Yuqoridagi qarorlar mehribonlik uylari rahbar xodimlari va tarbiyachilari uchun mas'uliyat yuklaydi va shu bilan birga jamiyatning barcha qatlamdagi kishilarini diqqat e'tiborida bo'lishi kerak.

Mehribonlik uylari yetim-bolalar va ota-onasi qarovidan xamda oila muhitidan maxrum bulgan bolalar uchun davlat internati tamoyilidagi ta'lim-tarbiya muassasasiga aylantirildi va davlat tasarrufiga o'tkazildi.

Bola dunyoga keldimi ota-onalik bo'lish, ota-onasi bilan birga yashash, oilada erkin miloqot qilish, opa-singil, aka-uka va boshqa yaqin qarindoshlari bilan birga yashash xuquqiga ega. Bolaning bolaligini o'g'irlashga hech kimning xaqqi yo'q. Yurtboshimiz «O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yunalishlari» degan asarida shunday yozadi: «G'animlar nimalar deb saf-satasotmasin. O'zbekiston rahbariyati va xalqining tutgan yo'li qat'iy va mustahkam: biz doimo mehr-muruvvat, mehr-oqibat, yurtimizda tinchlik-totuvlik, xotirjamlikni saqlashga sodiq bo'lib qolaveramiz. Vatandoshlarimiz bir-birlariga yelkadosh, ahil va inoq bo'lib yashashida, yetim- yesirlar, nogironlar, qariyalar va bolalar, qarovsiz va muhtoj kishilarimiz himoyasini tashkil qilishda o'zimizning kuchimizni va mehnatimizni hech qachon ayamaymiz»[2].

Mustaqillik yillarida Mehribonlik uylari faoliyatini yaxshilashga doir maxsus qonunlar chiqdi. O'zbekiston Respublikasi

Prezidentining Farmonlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Vazirlar Mahkamasining qarorlari, normativ xujjatlari e'lon qilindi. Shu xujjatlar asosida «Mehribonlik uyi to'g'risi da Nizom» qabul qilindi bu tarixiy ahamiyat kasb etadi. Mehribonlik uylari to'g'risidagi Nizomning 1-qism, 3-moddasida shunday deyilgan: «Mehribonlik uyining asosiy vazifasi oilaviy muhitdan maxrum bulgan bolalar va o'smirlarni to'liq, ruhiy sog'lomlashtirishga, ijtimoiy mehnat moslashuviga va ijtimoiy-xuquqiy himoya qilishga ko'maklashuvchi uy sharoitiga eng ko'p darajada yaqinlashtirilgan muhitni yaratishdir»⁷.

Bu vazifani amalga oshirishda avvalo ta'lim-tarbiyaning roli benihoya kattadir. Mehribonlik uylarida ta'lim-tarbiya ishlarini olib borish davlata hamiyatiga ega bo'lgan dolzarb masaladir. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 39-moddasida shunday deyilgan: «Har kim qariganda, mehnat layoqatini yuqotganda, shuningdek, boquvchisidan maxrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega». O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 64-moddasida Yuqoridagi qonunlar fikr yuritishni yanada oydinlashtiriladi. «Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan maxrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarni ragbatlantiradi» deyilgan.⁸

Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 22-sentabrdagi 269-son qarorining 5-bandida Vasiylik va homiylik organlarining vakolatlari, ularning vazifalari belgilab qo'yilgan, masalan: yetim bolalarni va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlaydi va ularning hisobini yuritadilar; yetim bolalar va ota-onasining

⁷ Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 18 fevraldagi 59-sonli Qaroriga 3-ilova, «Mehribonlik uyi to'g'risida Nizom», «Ma'rifat» gazetasi, 1995 yil 29 mart.

⁸ Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 22-sentabrdagi 269-son qaroriga

qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar haqidagi ma'lumotlarning axborot bazasini yuritadilar, ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining ma'lumotlar bazasiga kiritish uchun taqdim etadilar, shuningdek davlat statistika hisobotini tegishli davlat statistika organiga qonun hujjatlarida belgilangan shaklda va muddatlarda taqdim etishlari belgilab qo'yilgan.

Afsuski XXI-asrga kelib ba'zi qo'shtirnoq ichidagi kimsalar, xalqimiz o'zining tarixida va tanasida bo'lmagan o'ziga yarashmagan ishlarni qilmaqdalar bolalarni tug'riqxonalariga tashlab ketish biroz ko'proq ko'zga tashlanmoqda. Elimizga xos bo'lmagan bolani tug'ruqxonalariga tashlab ketish yoki pulga sotish, o'z farzandini vahshiylarcha qiynoqqa solish, bolani uydan bezdirish uni og'ir yoshiga va jinsiga to'g'ri kelmaydigan mehnatga jalb qilish, uning mehnatidan majburiy foydalanish bir so'z bilan aytganda bolaning bolaligini og'irlash holatlari ko'payib borayotgani hech kimga sir emas. Ayni shunday vaziyatda bolaparvarlikni boshlashga xalqimizni davlat etayotgan yurtboshimizga raxmat. Masalan, Prezidentimiz 2020-yil 28-iyul kuni Yunusobod tumanidagi 21-sonli Mehribonlik uyiga tashriflari hamda shu kunning o'zidayoq nogironligi bo'lgan, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan yetim bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, ijtimoiy nafaqalar tizimini takomillashtirish masalalariga qaratilgan videoselektor yig'ilishi o'tkazgani so'zimizning birgina isboti desak xato bo'lmaydi. Ana shunday tashabbusga yana bir misol keltiramiz, Vazirlar Mahkamasi, Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi va Milliy gvardiyaning "Mehribonlik" uylari, Bolalar shaharchalari, oilaviy bolalar uylari va Sog'liqni saqlash vazirligi tizimining Bolalar uylarini (keyingi o'rinlarda — o'quv-tarbiya muassasalari)

Milliy gvardiyaga birlashtirish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

Milliy gvardiya "SOS — O'zbekiston bolalar mahallalari" uyushmasining bolalar mahallalari bilan hamkorlik o'rnatish. Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanidagi 5-va Kitob tumanidagi 4-mehribonlik uylari tugatildi. Birgina Qamashi tumanidagi 5-mehribonlik uyida 120 nafarga yaqin tarbiyalanuvchilar to'liq davlat tomonidan tarbiyalanar edilar, 2022-yilning 1-choragiga kelib Qamashi tumanidagi 5-mehribonlik uyida 120 nafar tarbiyalanuvchilar Oilalarga "oilaviy mehribonlik uylariga" olindi vaholangki bunday tarbiya muassasalari Respublikamizda o'ttizga yaqin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori.09.08.2021-yil.PQ-5215-son qarori yani "Mehribonlik uy"larini milliy gvardiyaga birlashtirish haqidagi qarorlari hayotda o'z isbotini topmoqda. Halqimiz yana qayta o'zini anglamoqda, ota-bobolarimizdan qolgan bir naql bor bolaning begonasi bo'lmaydi,

Eyimlik-insoniyat paydo bo'lganidan buyon mavjud, afsuski hayot-hayotligini qiladi.

Etimlik-insoniyat, jamiyat va uning taraqqiyotida mavjud bo'lgan xodisa hisoblanadi.

Afsuski bunday sabablarni ko'plab ko'rsatishimiz mumkin, lekin eng achinarlisi shundaki ota-onasi tirik bo'la turib etimlikni boshidan keshirayotgan bolalar butun dunyoda mavjud.

Yetim bolalarni va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar sonini ortib borishiga yo'l qo'ymaslik uchun quyidagi holatlarga yo'l qo'ymaslik lozim.

- Oilaning mustahkamligi, uning moddiy va ma'naviy to'la to'kisligini ta'minlash.

- Yangi hayotga qadam qo'ygan yosh oilalarni eng kamida besh yil ota-onasi bilan yashashini ta'minlash.

- Jamiyatda yuqori darajali-mustahkam oilalar sonini ko'paytirish.

- Yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohni qoralash, chunki bu xolat yaxshi natija bermasligi barchamizga ma'lum bu xolat sotsiologik, tibbiy, psixologik va boshqa tadqiqotlarda isbotlangan.

- Ishsizlar sonini kamaytirish chunki oilaning mustahkamligi ko'proq moddiyatga ham bog'liq.

- Erta nikohdan o'tishga yo'l qo'ymaslik.

Masalan, Anglyalik psixolog olim R.Beris quyidagi fikrlarni bildiradi, Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining ota-ona mehriq munosabati masalasini ilmiy tahlil qilib ...salbiy men kontseptsiasining shakllanishi va tajavuskorlik bolaning ota-onalarga va ota-ona rolini bajaruvchi shaxslarga nisbatan qupolligi natijasi hisoblanadi. Bolada hech kimga qo'shilmalik, odamovilik, tundlik, yolg'izlik hissi namoyon bo'la boshlaydi. Mazkur hislar esa bolada salbiy men kontseptsiasini keltirib chiqaradi⁹.

1-jadval

Oila tipidagi bolalar uyi tarbiyalanuvchilarini oilalarga moslashuvchanlik darajasini aniqlash so'rovnoma tadqiqot natijalari

T/r	So'rovnoma savollari	Жиззах N= 13 %	Samarqand N = 18 %	Qashqadaryo N = 24 %
1.	Vasiylikka olgan bolalarni o'z farzandingiz qatorida qabul qila olasizmi?			
	a) qabul qilaman	23	22,2	16,6
	b) qabul qilishga harakat qilaman	30,7	44,4	45,8
	v) bu faqat bizga bog'liq emas	46,1	33,3	37,5
2.	Qaromog'ingizdagi bolalar oilangiz muhitiga moslasha oldimi?			
	a) moslashib ketishdi	23,0	22,2	16,6
	b) moslashishga harakat qilishyapti	30,7	38,8	37,5
	v) shundan biroz xavotirdaman	46,1	38,8	45,8
3.	Farzandlaringiz bilan qaramog'ingizga olgan bolalar o'rtasidagi munosabat qanday?			
	a) o'zaro munosabatlari yaxshi	23,0	22,2	20,8
	b) o'zaro til topishib ketishadi deb o'ylayman	30,7	33,3	37,5
	v) bu holat bizni biroz xavotirga soladi	46,1	44,4	10

Ushbu so'rovnomaning «Vasiylikka olgan bolalarni o'z farzandingizdek qabul qila olasizmi?» degan savolga Qashqadaryo, Samarqand va Jizzax viloyati ota-onalarining (vasiylar) 16,6-23,0 foizi «qabul qilaman»,

30,7-45,8 foizi «qabul qilishga harakat qilaman», 33,3-46,1 foizi esa «bu faqat bizga bog'liq emas» degan javobni tanlaganlar. Bu holat shundan dalolat beradiki, 16,6-23,0 foiz vasiylar bolalarga mehr ko'rsatishlari, ularga

⁹ Beris R. Razvitiya Ya – kontseptsii i vospitaniya. M. 1986

barcha sharoitlarni yaratib berishlari, ularni o'z farzandlaridek yaxshi ko'rishlarini bildiradi. 30,7-45,8 foiz vasiylar esa bolalarni ijtimoiy holatini tushunishga va mehr ko'rsatishga harakat qilishlari namoyon bo'ldi. 33,3-46,1 foiz natija ko'rsatgan vasiylar esa bolalarni oilaga moslashishi faqat ularga bog'liq emasligini, bu holat tarbiyalanuvchilarning xarakteri, xulq-atvori va o'zini tutishiga hamda ularning ruhiy holatiga ham bog'liqligini ta'kidladilar. So'rovnomaning «Qaramog'ingizdagi bolalar oilangiz muhitiga moslasha oldimi?» degan savolga Jizzaxlik respondentlarning 23,0 foizi, Samarqandlik vasiylarning 22,2 foizi, Qashqadaryolik vasiylarning 16,6 foizi «moslashib ketishdi» degan javobni beriishgan bo'lsalar, shu savolning «moslashishga harakat qilishyapti» degan javobni Jizzaxlik vasiylarning 30,7 foizi, Samarqandlik vasiylarning 38,8 foizi, Qashqadaryolik ota-onalarning 37,5 foizi tanlaganlar. Jizzaxlik respondentlarning 46,1 foizi, Samarqandlik ota-onalarning 38,8 foizi va Qashqadaryolik vasiylarning 45,8 foizi «shundan biroz xavotirdaman» degan javobni bildirganlar. Demak, mehribonlik uyidan oilaviy bolalar uyiga o'tgan tarbiyalanuvchilarning oila muhitiga

moslashishlarida biroz qiyinchilik mavjud ekan. Bu holatda vasiy ota-onalar bolalarning ruhiy holatini, ularning xarakter xususiyatlarini hisobga olgan holda o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'yishlari, ularni oilaviy muhitga ko'nikishlariga imkon berishlari, vaqtincha qattiq nazoratga olmaslik va tarbiyaviy ishlarni olib borishlari lozim bo'ladi.

Ijtimoiy-psixologik so'rovnomaning «Farzandlaringiz bilan qaramog'ingizga olgan bolalar o'rtasida munosabat qanday?» degan savolga Jizzaxlik ota-onalarning 23 foizi, Samarqandlik ota-onalarning 22,2 foizi hamda Qashqadaryolik ota-onalarning 20,8 foizi «o'zaro munosabati yaxshi» degan javobni tanlaganlar. «O'zaro til topishib ketishadi deb o'ylayman» degan javobni Jizzaxlik (30,7 foiz), Samarqandlik (33,3 foiz) va Qashqadaryolik (37,5 foiz) ota-onalar, Jizzax (46,1 foiz), Samarqand (44,4 foiz) hamda Qashqadaryo (41,6 foiz) viloyat ota-onalar «bu holat bizni biroz xavotirga soladi» degan javobni qayd etganlar, ko'rinib turibdiki oilaga asrab olingan bolalarning oila muhitiga, oila a'zolariga hamda ularning qadriyatlariga moslashishi faqat ota-onalarga emas balki farzandlarga ham bog'liq ekan.

Adabiyotlar ro'yxati

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.Yetim bolalarga oid muhim qarori.Janiyat. 2019-yil 11-fevral.
2. Vazirlar Maxkamasining 1995 yil 18 fevraldagi 59-sonli Qaroriga 3-ilova, «Mexribonlik uyi to'g'risida Nizom», «Ma'rifat» gazetasi, 1995 yil 29 mart.
- 3.Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 22-sentabrdagi 269-son qarori.
4. Beris R. Razvitiya Ya – kontseptsii i vospitaniya. M. 1986.
- 5.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori.09.08.2021-yil.PQ-5215-son.
- 6.N.M.Egamberdiyeva Ijtimoiy pedagogika darslik. «Toshkent»2009, 94-bet
- 7.Tafakkur ziyosi ilmiy –uslubiy jurnal. 2019-yil 4-son.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

To'raqulov Laziz Tirkashevich

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Manzil: O'zbekiston, 200100, Jizzax shahar, Sh.Rashidov ko'chasi 4-uy
turaqulovl85@gmail.com

QO'RIQLASH XIZMATI XODIMLARINING KASBIY KOMPETENTLIGI OMILLARI KORRELYATSIYASI



Maxmudova Zulfiya Mexmonovna
Buxoro davlat universiteti, Buxoro shaxri

Annotatsiya:

KIRISH: Ushbu maqolada qo'riqlash xizmati xodimlari ijtimoiy-psixologik va kommunikativ kompetentligi omillarining namoyon etilishi va rivojlanishini tadqiq etish hamda uning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik omillarini takomillashtirish haqida fikr yuritilib, xodim ijtimoiy-psixologik kompetentligi va kommunikativ kompetentligini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar, komponentlarini aniqlash mexanizmlari ochib berilgan.

MAQSAD: qo'riqlash xizmati tizimida xizmat qilayotgan barsha xodimlar va harbiy xizmatchilarni axloqiy-ruhiy qo'llab-quvvatlashning mutlaqo yangi vazifalari, shuningdek, xodimlarning umumiy dunyoqarashi, ma'naviy va intellektual salohiyatini yuksaltirish, ularda vatanparvarlik, g'urur, iftixor, kasbiga sadoqat va yuqori mas'uliyat xislarini oshirish yuzasidan tadqiqot natijalari asosida tavsiya ishlab chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: Kompetentlik va kompetensiya kategoriyalarining tuzilmasini o'rganish jarayonida bir nechta yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Ko'pgina mualliflar faoliyatli yondashuvni istiqbolli deb baholaydilar, shuningdek ular kompetentlikni kasbiy faoliyatda namoyon bo'ladi va shu bilan bir qatorda uning asosi ham, deb hisoblaydilar. Bunday holatda kompetentlik jarayonning aniq doirasida samarali harakatni yuzaga keltirish uchun zarur bo'lgan ichki resurslar tizimi sifatida tushuniladi.

XULOSA: O'rganilgan empirik natijalar asosida qo'riqlash xizmati xodimlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligiga ta'sir etuvchi psixologik omillar (ish tajribasiga qarab) turli ko'rinishda bo'lishi mumkinligi kuzatildi. Ushbu omillarni aniqlash asosida qo'riqlash xizmati xodimlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligini oshirishdagi mavjud bo'lgan muammolarni bartaraf etish bo'yicha muayyan darajadagi psixologik tahlillar olib boriladi va shu tahlil natijalari asosida ularga psixologik xizmat ko'rsatishning keyingi vazifalarini aniqlab beradi.

Kalit so'zlar: kompetentlik, xodim ijtimoiy-psixologik kompetentligi, kasbiy kompetentlik, kompetentlik, kasbiy faoliyat, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar, kasbiy psixologik xususiyatlar

СООТНОШЕНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕРСОНАЛА СЛУЖБЫ ОХРАНЫ

Махмудова Зульфия Мехмоновна.

Бухарский государственный университет, город Бухара

Аннотация:

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье рассматривается исследование проявления и развития факторов социально-психологической и коммуникативной компетентности сотрудников служб безопасности и совершенствование ее специфических социально-психологических факторов, а также социально-психологических факторов и компонентов, развивающих социально-психологическую компетентность. раскрыты механизмы выявления коммуникативной компетентности работника.

ЦЕЛЬ: совершенно новые задачи морального и духовного обеспечения всех сотрудников и военнослужащих, проходящих службу в системе службы безопасности, а также повышения общего кругозора, морального и интеллектуального потенциала сотрудников, привития им патриотизма, гордости, верности своей профессии и Он заключается в разработке рекомендаций по результатам исследования по повышению чувства высокой ответственности.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: В процессе изучения структуры компетентности и категорий компетентности можно выделить несколько направлений. Многие авторы оценивают функциональный подход как перспективный, а также считают, что компетентность проявляется в профессиональной деятельности и одновременно является ее основой. В данном случае под компетентностью понимают систему трудовых ресурсов, необходимых для создания эффективного действия в конкретных рамках процесса.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: На основании изученных эмпирических результатов отмечено, что психологические факторы, влияющие на социально-психологическую компетентность сотрудников служб безопасности (в зависимости от стажа работы), могут быть различными. На основе выявления этих факторов будет проведен определенный уровень психологических анализов для устранения существующих проблем в повышении социально-психологической компетентности сотрудников служб безопасности и на основе результатов этого анализа будут определены следующие задачи оказания психологических услуг. им будет определено.

Ключевые слова: компетентность, социально-психологическая компетентность работника, профессиональная компетентность, компетентность, профессиональная деятельность, профессиональные знания, умения и компетенции, профессиональные психологические характеристики.

CORRELATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF PROTECTIVE SERVICE PERSONNEL

Makhmudova Zulfiya Mekhmonovna

Bukhara State University, Bukhara city

Annotation:

INTRODUCTION: This article discusses the research of the manifestation and development of the factors of socio-psychological and communicative competence of security service employees and the improvement of its specific socio-psychological factors, and the socio-psychological factors and components that develop the socio-psychological competence and communicative competence of the employee. detection mechanisms are disclosed.

THE GOAL: completely new tasks of moral and spiritual support of all employees and military personnel serving in the security service system, as well as raising the general outlook, moral and intellectual potential of employees, instilling in them patriotism, pride, pride, loyalty to their profession and It consists in developing a recommendation based on the results of the research on increasing the sense of high responsibility.

MATERIALS AND METHODS: In the process of studying the structure of competence and competence categories, several directions can be distinguished. Many authors evaluate the functional approach as promising, and they also believe that competence is manifested in professional activity, and at the same time, it is also its basis. In this case, competence is understood as a system of work resources necessary to create effective action within the specific framework of the process.

CONCLUSION: Based on the studied empirical results, it was observed that the psychological factors affecting the socio-psychological competence of security service employees (depending on the work experience) can be different. Based on the identification of these factors, a certain level of psychological analyzes will be conducted to eliminate the existing problems in increasing the social and psychological competence of security service personnel, and based on the results of this analysis, the next tasks of providing psychological services to them will be determined.

Key words: competence, social-psychological competence of an employee, professional competence, competence, professional activity, professional knowledge, skills and competencies, professional psychological characteristics.

Qo'riqlah xizmati xodimlarining kasbiy faoliyatiga psixologik tayyorgarlik darajasini takomillashtirish, ularning ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar va mexanizmlarini aniqlash, qo'riqlah xizmati xodimlarining kasbiy tayyorgarlik rolini oshirish va ularning faoliyat samaradorligiga ta'siri masalasini aniqlash alohida tadqiqot muammosi sanaladi.

Psixolog qo'riqlash xizmati tizimida xizmat qilayotgan barsha xodimlar va harbiy xizmatchilarni axloqiy-ruhiy qo'llab-quvvatlashning mutlaqo yangi vazifalari, shuningdek, xodimlarning umumiy dunyoqarashi, ma'naviy va intellektual salohiyatini yuksaltirish, ularda vatanparvarlik, g'urur, iftixor, kasbiga

sadoqat va yuqori mas'uliyat xislarini oshirish bilan bohlash vazifalarni belgilab beradi.

Xodimlarni ahloqiy-ruhiy qo'llab-quvvatlash psixodiagnostika, psixoprorfilaktika va psixokorreksiya ishlarida amalga oshiriladi.

Kompetentlik va kompetensiya kategoriyalarining tuzilmasini o'rganish jarayonida bir nechta yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Ko'pgina mualliflar faoliyatli yondashuvni istiqbolli deb baholaydilar, shuningdek ular kompetentlikni kasbiy faoliyatda namoyon bo'ladi va shu bilan bir qatorda uning asosi ham, deb hisoblaydilar. Bunday holatda kompetentlik jarayonning aniq doirasida samarali harakatni yuzaga keltirish uchun

zarur bo'lgan ichki resurslar tizimi sifatida tushuniladi. Kompetentlik tuzilmasi quyidagi komponentlarga ajratiladi: yo'naltiruvchi va ijrochi, mazmunli (bilim) va jarayonli (ko'nikma), kognitiv va operatsional.

Ijtimoiy-psixologik kompetentlik muammosining umumiy jihatlarini G.M.Andreyeva, Ye.A.Abulxanova-Slavskaya, V.P.Bederxanova, A.A.Bodalev, M.Kyarest, V.A.Labunskaya, A.N.Leontev, A.K.Markova, D.Mayers, Ye.S.Mixaylova, A.V.Petrovskiy, S.L.Rubinshteyn, A.V.Xutorskiy, A.J.Yujaninova kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

A.K.Markova ijtimoiy kompetentlikni mazmun jihatdan tahlil qilib, uning jarayonli va natijali tomonlarini ajratib ko'rsatgan. Muallif kompetentlik tuzilmasini jarayon (pedagogik faoliyat, pedagogik muloqot, o'qituvchi shaxsi) va pedagogik faoliyat natijalari, ya'ni ta'lim oluvchining ta'lim olganlik va tarbiyalanganlik nuqtai nazaridan tizimlashtirilgan.

Chunonchi, mehnat faoliyatining barcha jihatlarini uchun psixologik modul deb nomlanuvchi kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar, kasbiy psixologik xususiyatlar ishtirok etadi. Shuningdek, kompetentlik tuzilmasi faoliyatning ichki vositasi, ya'ni motiv, bilim, ko'nikma va malaka kabi elementlarni qarab chiqish uning jarayonli va natijali ko'rsatkichlarini hisobga olish haqidagi tasavvur paydo bo'ladi.

A.V.Xutorskiyning o'tkazgan ilmiy izlanishlarida, kompetentlik – o'ziga xos individual-psixologik xususiyat sifatida namoyon bo'lishi, kompetensiya esa insonning aniq bir muhitda samarali va sifatli faoliyati uchun zarur bo'lgan tayyorgarlikka qo'yilgan va oldindan belgilangan ijtimoiy talablardan iboratligini ta'kidlaydi.

Psixologik kompetentlik tuzilmasida J.G.Garanina quyidagi ikkita darajaning mohiyatini bilim, ko'nikma, malaka va fikrlash asosida talqin qiladi:

1) kategoriyalar, hissiy-emotsional obrazlar, ijtimoiy etalonlar, stereotiplar va boshqalar, hamda fikrlash tizimlari (ijtimoiy muammolarni hal etish bo'yicha refleksiv aqliy faoliyat);

2) amaliy, ijrochilik, ya'ni insonlar bilan o'zaro ta'sir o'tkazish malaka va ko'nikmalar tizimi. Yuqoridagi ikkala yo'nalish kompetentlikning refleksiv va progressiv xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Bizning fikrimizcha, agar shu ikki daraja bo'lmaganida edi kompetentlik tushunchasining mohiyati u qadar to'laqonli hisoblanmasdi.

O.A.Bulavenkoning ta'kidlashicha, kompetentlikni kasbiy faoliyatning o'ziga xos chizgisi sifatida emas, balki shaxsning turg'un oshirilgan yoki pasaytirilgan faollikda namoyon bo'luvchi holati sifatida qarash kerakligini taklif etadi. Fikrimizcha, kompetentlik faqat faol kasbiy faoliyatda namoyon bo'ladi, faoliyatda qanaqadir turg'unlik bo'lishi uni muvaffaqiyatga erishishda to'siq bo'lishi mumkin.

I.A.Zimnaya kompetentlikni yo'naltirilganlik, maqsadni qo'ya bilish, xulqning hissiy-irodaviy boshqarilishi, qadriyatli-mazmunli munosabatlarni o'z ichiga olgan shaxs xususiyatlari sifatida qaraydi. Uning fikricha, kompetentlik tuzilishi quyidagi komponentlar tizimidan iborat:

a) shaxsning ichki psixik, tashqi xulqiy harakatida ushbu xususiyatlarni namoyon qilishga tayyorlik;

b) muvaffaqiyatga erishish uchun vazifalarni bajarishning vositasi, metodlari va dasturlarini anglash, ijtimoiy va kasbiy masalalarni yecha olish, tartib-intizom talablari va o'ziga xos bo'lgan me'yorlariga rioya qilish. Bu kompetensiyaning asosiy mazmun-mohiyatini quyidagicha mazmunda ochib beradi;

c) bilimlarni amaliyotda qo'llay olish tajribasi, ya'ni ko'nikma va malaka;

d) hissiy-irodaviy regulatsiya, kompetentlikni namoyon qila olish qobiliyati, uning ijtimoiy va kasbiy o'zaro ta'sir holatlariga bog'liq holda namoyon bo'lishini muvofiqlashtirish sifatida.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, kompetensiya tarkibida ijtimoiy-psixologik va kasbiy kompetentlikning namoyon bo'lish holatlarida o'zini-o'zi nazorat qilish, shaxsiy va kasbiy imkoniyatini namoyon qilish qobiliyatini aks ettiruvchi o'ziga xos belgilarni ajratish zarur. Sud psixologik ekspertizasi jarayonida o'z bilim, ko'nikma va malakalarni samarali qo'llash sud psixolog xodimidan o'zini-o'zi idora qilish va o'zini-o'zi boshqarishning psixologik mexanizmlarining shakllanishini talab qiladi.

Demak, yuqoridagi tahlillarga tayangan holda, sud psixolog xodimlarining kommunikativ kompetentligiga aloqador bo'lgan jihatlarni rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri ekanligi, sud psixolog xodimlari kasbiy faoliyatining turli tomonlarini tadqiq etishni hozirgi zamon talabi sifatida tushunish lozim.

N.S.Aulova olib borilgan nazariy tahlillarga asoslanib shuni aytish mumkinki, mutaxassislarni faoliyatga tayyorlashda ijtimoiy kompetentlikning quyidagi mezonlarini asos qilish kerakligini ko'rsatadi:

- shaxs reflektiv faolligi darajasi – hamkasblarga munosabat, shaxsiy ahamiyatli kasbiy sifatlarda ifodalangan ideal mutaxassis obrazini tanlash, o'z kasbiga mosligini baholash, reflektiv (o'z tushunchasi va hatti-harakatlarni anglash) harakatlarning shakllanganligi;

- asosiy texnologik tayyorgarlik sifatida mazmunli-jarayonli, operatsional komponentning shakllanganlik darajasini, kasbiy faoliyatning vositalari, metodlari va yo'llarini egallash;

- bilish faollik darajasining o'zlashtirilgan kasbiy bilimlar tizimi, kasbiy masalalarni hal etish usullarini qo'llash ko'nikmasi;

- kasbning yuqori ijtimoiy belgilanganligida ishonchning shakllanganligi darajasi;

- samarali kasbiy faoliyat ko'nikmalarini o'zlashtirish zaruriyatining ahamiyatini anglash;

- ularni o'z kasbiy faoliyatida amalga oshirish yo'llarini topishga intilish;

- anglashning faollik darajasi.

Bizningcha, muallifning mazkur ta'rifida o'ziga xos ijtimoiy-psixologik omillar tizimiga alohida e'tibor qaratadi.

Bugungi kunda jahonda ijtimoiy-psixologik kompetentlikning quyidagi asosiy jihatlarga alohida ahamiyat beriladi:

- a) ijtimoiy – o'ziga mas'uliyatni his etish, hamkorlikda qarorlar qabul qilish va unda faol ishtirok etish qobiliyati, turli etnik madaniyat va dinlarga tolerantlik, shaxsiy qiziqishning jamiyat talablari bilan mosligi;

- b) kommunikativ – turli tillardagi yozma va og'zaki tarzda muloqot qila olish qobiliyatiga egalik;

- c) ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilayotgan ijtimoiy axborotga tanqidiy munosabat;

- d) kognitiv – doimiy ravishda ta'lim olish darajasini oshirishga intilish, o'zining imkoniyatini faollashtirish va amalga oshirishga bo'lgan ehtiyoj, ya'ni bilim va ko'nikmalarni mustaqil egallash, o'zini-o'zi rivojlantirish qobiliyati;

- e) madaniyatlararo kompetensiyalar;

- f) mustaqil bilish faoliyati sohasidagi kompetentlik;

- j) maxsus – kasbiy amallarni mustaqil bajarishga tayyorgarlik, o'z mehnati natijalarini baholash.

Yuqorida qayd etilgan ishlarda kompetentlik mezonlari umumilmiy, ijtimoiy, siyosiy-huquqiy va umumkasbiy bilimlar asosida talqin etilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Ta'kidlash kerakki, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni ijtimoiy-psixologik kompetentlik omili sifatida talqin qilish an'anasi ham mavjud.

Jumladan, psixologiya fanining fundamental asoslarini ochib bergan olimlardan E.F.Zeer va G.M.Romansevlarning metodologik xizmati shundaki, malaka insonning ijtimoiy va kasbiy qobiliyatlariga qo'yiladigan ijtimoiy va kasbiy malakaviy talablar majmuasi ekanligini isbotlab berishganligidadir.

Shunday qilib, malaka ham kompetentlik kabi asosiy va kasbiy bo'lishi, shu bilan birga, kasbiy malakalarni ko'pincha oddiy malakalar deb nomlash ham mumkin. Ilmiy adabiyotlarda asosiy malakalar sifatida quyidagilar kiritiladi:

– shaxsning kasbiy tayyorgarligi darajasidan tashqaridagi uning ekstrofunktsional bilimi, ko'nikmalari, individual xususiyalari;

– aniq kasblar guruhlarini sohasidagi ishni bajarish uchun zarur bo'ladigan shaxsning umumkasbiy bilimlari, ko'nikmalari va malakalari, shuningdek, qobiliyatlari va sifatleri;

– turli jamoalarga moslashish va ularda samarali faoliyat uchun zarur madaniyatlararo va sohalararo bilimlar, ko'nikmalar, malakalar va qobiliyatlar.

1-jadval

Qo'riqlash xizmati xodimlari kasbiy kompetentligi bilan ijtimoiy-psixologik kompetentligi umumiy ko'rsatkichlari orasidagi korrelyatsion bog'lanish natijalari (n=260)

Omillar		Kasbiy kompetentlik («Psixodiagnostik test» metodikasi bo'yicha)							
		Nevrotizm	Psixotizm	Depressiya	Vijdonlilik	Turg'unlashganlik	Umumiy faollik	Tobelik	Muomalaga kirishimlilik
Ijtimoiy-psixologik kompetentlik (Kunitsina metodikasi bo'yicha)	Insonlarni tushunish	0,219	0,106	-0,281	0,462	0,597*	0,311	0,232	0,679*
	Vaziyatlarni tushunish	0,239	-0,416	0,143	0,431	0,431	0,159	0,116	0,573*
	Uddaburonlik	0,190	-0,037	0,136	0,259	0,407	0,690*	-0,043	0,23
	Axloqiy ustanovkalar	0,387	0,102	-0,318	0,571*	0,320	0,187	0,362	0,418
	Muvaffaqiyatga erishganlik motivatsiyasi	0,401	-0,013	0,019	0,400	0,239	0,569*	-0,218	0,209
	Emotsional barqarorlik	0,523*	-0,233	0,078	0,526*	0,469	0,207	-0,108	0,189
	Imidj	0,368	0,230	0,104	0,266	0,482	0,168	0,223	0,201
	Sotsial psixologik kompetentlik	0,211	0,201	-0,155	0,434	0,466	0,401	0,186	0,701**
	Verbal kompetentlik	0,402	0,125	-0,154	0,398	0,487	0,201	0,109	0,609*

Operativ ijtimoiy-psixologik kompetentlik	0,561*	0,231	0,060	0,160	-0,102	0,642*	0,407	0,203
Ego kompetentlik	0,173	0,603*	0,412	0,435	0,228	0,204	-0,109	0,312
Kommunikativ kompetentlik	0,492	0,152	0,149	0,247	0,395	0,298	0,105	0,708**
Ishonchlilik	0,468	0,116	0,159	0,746**	0,512*	0,132	0,103	0,459
Barqaror insoniy munosabatlar	0,573*	0,103	-0,109	0,585*	0,432	0,473	0,109	0,608*
Shaxslilik kommunikativ imkoniyati	0,478	0,236	-0,189	0,241	0,208	0,089	0,122	0,587*

* $p \leq 0,05$, ** $p \leq 0,01$

Olib borilgan trening mashg'uloti natijasida aniqlovchi tajribada qo'lga kiritilgan natijalarning ijobiy tomonga o'sganligini ko'rishimiz mumkin. Nazorat tajribasidan olingan ma'lumotardan ko'rinib turibdiki, qo'riqlash xizmati xodimlarining kasbiy kompetentligi bilan ijtimoiy-psixologik kompetentligi ko'rsatkichlarining ijobiy shakllanayotganligini belgilovchi bir qancha statistik ahamiyatga ega bo'lgan alomatlar o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlikda o'z aksini topgan. qo'riqlash xizmati xodimlaridagi bunday ijtimoiy-psixologik imkoniyatning mavjudligi kasbiy faoliyatni to'g'ri tashkil qiluvchi omillardan biri sifatida xizmat qiladi. Natijada qo'riqlash xizmati xodimlari faoliyat jarayonida vujudga kelishi mumkin bo'lgan turli nizoli holatlar va o'zaro ziddiyatlarni bartaraf etish qobiliyatiga ega bo'lishi hamda samarali faoliyat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Qo'riqlash xizmati xodimlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligi bilan kasbiy kompetentligi namoyon etilishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'zaro bog'lovchi jihatlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularda insonlarni tushunish bilan turg'unlashganlik ($r=0,597$, $p \leq 0,05$), muomalaga kirishimlilik ($r=0,679$, $p \leq 0,01$), estetik taassurotchanlik ($r=0,585$, $p \leq 0,05$), nazokatlilik ($r=0,571$, $p \leq 0,01$) omillari, vaziyatlarni tushunish bilan muomalaga

kirishimlilik ($r=0,573$, $p \leq 0,05$) omili, uddaburonlik bilan umumiy faollik ($r=0,690$, $p \leq 0,05$) omili, axloqiy ustanovkalar bilan vijdonlilik ($r=0,571$, $p \leq 0,05$), omili, muvaffaqiyatga erishganlik motivatsiyasi bilan umumiy faollik ($r=0,569$, $p \leq 0,05$) omili, emotsional barqarorlik bilan nevrotizm ($r=0,569$, $p \leq 0,05$), Vijdonlilik ($r=0,526$, $p \leq 0,05$) omili, imidj bilan nazokatlilik ($r=0,706$, $p \leq 0,01$) omili, sotsial psixologik kompetentlik bilan muomalaga kirishimlilik ($r=0,701$, $p \leq 0,01$) omili, verbal kompetentlik bilan muomalaga kirishimlilik ($r=0,609$, $p \leq 0,05$) omili, operativ ijtimoiy-psixologik kompetentlik bilan nevrotizm ($r=0,561$, $p \leq 0,05$), umumiy faollik ($r=0,642$, $p \leq 0,05$) omillari, ego kompetentlik bilan nevrotizm ($r=0,603$, $p \leq 0,05$), nazokatlilik ($r=0,509$, $p \leq 0,05$) omillari, kommunikativ kompetentlik bilan muomalaga kirishimlilik ($r=0,708$, $p \leq 0,01$), omili, ishonchlilik bilan vijdonlilik ($r=0,746$, $p \leq 0,01$), turg'unlashganlik ($r=0,512$, $p \leq 0,05$) omillari, barqaror insoniy munosabatlar bilan vijdonlilik ($r=0,573$, $p \leq 0,01$), vijdonlilik ($r=0,585$, $p \leq 0,05$), muomalaga kirishimlilik ($r=0,608$, $p \leq 0,05$) omillari, shaxslilik kommunikativ imkoniyati bilan muomalaga kirishimlilik ($r=0,587$, $p \leq 0,05$) omili bilan ijobiy korrelyatsiya berganligi qo'riqlash xizmati xodimlarining kasbiy faoliyat samaradorligiga xizmat qilishi bilan

ahamiyatli ekanligini qayd qilish lozim (1-jadvalga qarang).

Demak, o'rganilgan empirik natijalar asosida qo'riqlash xizmati xodimlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligiga ta'sir etuvchi psixologik omillar (ish tajribasiga qarab) turli ko'rinishda bo'lishi mumkinligi kuzatildi. Ushbu omillarni aniqlash asosida

qo'riqlash xizmati xodimlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligini oshirishdagi mavjud bo'lgan muammolarni bartaraf etish bo'yicha muayyan darajadagi psixologik tahlillar olib boriladi va shu tahlil natijalari asosida ularga psixologik xizmat ko'rsatishning keyingi vazifalarini aniqlab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. O'smirlarda ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish. Monografiya. "Buxoro viloyat bosmaxonasi MChJ" nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 160.
2. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. Psychodiagnostics. O'quv qo'llanma. "Turon zamin ziyo" nashriyoti. Toshkent 2014. -B. 298.
3. Olimov L.Ya. Psixodiagnostika va psixometrika asoslari. Darslik. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 747.
4. Olimov L.Ya. Umumiy psixodiagnostika. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 1103.
5. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M.. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. o'quv qo'llanma. "Turon zamin ziyo" nashriyoti. T. 2020. -B. 820.
6. Olimov L.Ya., Nazarov A.M.. Xulqi o'g'ishgan bolalar psixologiyasi. O'quv qo'llanma. "Tafakkur avlodi" nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 490.
7. Olimov L.Ya., Bahronova M.O'. O'smirlar ma'naviyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Science and education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022 407-413 p.
8. F.A.Ismatova., Z.S.Elov. Huquq-tartibot organlari psixologining kasbiy kompetentsiyasi tuzilishini baholasning o'ziga xos xususiyatlari. 2022. ТАЪЛИМ ВА ИHHOBATSIOH TAДҚИҚОТЛАР 1 (12/2), 241-245
9. Z.S.Elov. Harbiy xizmatchi kasbiy kompetentligi namoyon etilishi va rivojlanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS). Volume. 7, Issue 01, January (2024) 800-803

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ]

[AUTHORS INFO]

Maxmudova Zulfiya Mexmonovna

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri

azizbekyarasev@mail.ru

ORCID: 0000-0001-9437-9741

**MAKTAB DIREKTORI O'RINBOSARLARINING BOSHQARUV QOBILIYATLARINI
SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK JIHATLARI.**



Akilov Faridun Firdavsovi

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat
universiteti, Samarqand shaxri*

Annotsiya:

KIRISH: Mazkur ilmiy maqolada maktab direktori o'rinbosarlarining boshqaruv qobiliyatlarini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik jihatlari ilmiy, nazariy va amaliy ahamiyatni keng qamrovli asosda yoritib berish nazarda tutilgan bo'lib, yurtimizda faoliyat yuritayotgan maktablar jamoalarining barcha turdagi faoliyatlarini tizimli tahlillar asosida chuqur o'rganib chiqish natijasida ularning sifat va samaradorligini muntazam rivojlantirib borishga erishish, maktablarni zamon talablariga moslashtirishga yo'naltirilgan takliflar, tavsiyalar va xulosalar ishlab chiqish orqali sohadagi mavjud muammolarni aniqlash orqali ularni o'z vaqtida bartaraf qilish barobarida ilmiy tahlillarni mazmun-mohiyatini amaliyotga tadbiq qilishni yo'lga qo'yish ko'zda tutilgan.

MAQSAD: Maktabda ta'lim sifatini oshirish — Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona yo'li hisoblanadi, millat taraqqiyotining asosi ham ta'lim jarayonini rivojlanishiga va maktablarda sifatli ta'lim-tarbiya berish.

MATERIALLAR VA METODLAR: Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan izchil islohatlar natijasida barcha tarmoq va sohalarining faoliyatini keng qamrovli rivojlantirishga yo'naltirilgan strategik ahamiyatga ega bo'lgan islohatlar amalga oshirilmoqda. Xususan, ta'lim, ilm-fan, sport, tibbiyot, iqtisodiyot, madaniyat, ma'naviy va ma'rifiy sohalarga jiddiy e'tibor berilmoqda. Ayniqsa yosh avlodga Sharqona odatlar va milliy qadriyatlar asosida voyaga yetkazish maqsadida yuritilayotgan oqilona siyosat tufayli yurtimizda ta'lim-tarbiyani sifatini yanada yaxshilashga, ilmga, o'qituvchilarning faoliyatini samaradorligini oshirishga, maktablarning boshqaruv jarayonlarini takomillashtirishga loyiq bo'lgan qobiliyatli rahbar-kadrlarni va malakali mutaxassislarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratilayotganligi diqqatga sazovordir. Bugun zamonaviy hayotni ilm-ma'rifat va ta'limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Hozir qaysi bir sohani olmang, uning rivoji uchun, avvalo, ta'lim tizimi taraqqiy etgan bo'lishi kerak. Zero, inson kapitaliga, uning iqtidoriga e'tibor qaratmay turib, kutilgan natijaga erishish qiyin.

XULOSA: Maktab direktori o'rinbosarlarining vazifasi rejalashtirish, o'quv faoliyatini tashkillashtirish va vazifalarni pedagogik jamoa bo'lib berishdan iborat. Undan tashqari maktab direktori o'rinbosarlari belgilab olingan rejalarni amalga oshirish jarayonini boshqaradi, bo'ysunuvchi xodimlarni faoliyatini tartibga solidi va shu orqali boshqaruv jarayonini tashkil qiladi hamda nazorat qiladi.

Kalit so'zlar: Qobiliyat, iqtidor, shaxsiy sifatlar, boshqaruv qobiliyatlarini shakillantirish, ijtimoiy-psixologik jarayonlar, rahbarga xos sifatlar, boshqaruvda shakllanish, ijodiy yondashuvlar, sifat va samaradorlikka erishish, jamoani tushunish.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ УПРАВЛЕНЧЕСКИХ НАВЫКОВ ЗАМЕСТИТЕЛЕЙ ДИРЕКТОРА ШКОЛЫ.

Акилов Фаридун Фирдавсович

*Самаркандский государственный университет
имени Шарофа Рашидова, город Самарканд*

Аннотация:

ВВЕДЕНИЕ: В данной научной статье предполагается осветить научную, теоретическую и практическую значимость социально-психологических аспектов формирования управленческих навыков заместителей директора на комплексной основе, а также углубленно изучить все виды деятельности школьных коллективов, действующих в нашей стране, на основе системного анализа, в результате чего добиться регулярного развития их качества и эффективности, путем выявления существующих проблем в сфере путем разработки предложений, рекомендаций и выводов, направленных на адаптацию школ к требованиям современной экономики. Для их своевременного устранения планируется реализовать содержание и суть научных анализов на практике.

ЦЕЛЬ: Повышение качества школьного образования – единственный путь развития Нового Узбекистана, основой развития нация является развитие образовательного процесса и качественного образования в школах.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: В результате последовательных реформ, реализуемых в нашей стране, реализуются реформы стратегического значения, направленные на комплексное развитие деятельности всех отраслей и отраслей. В частности, серьезное внимание уделяется образованию, науке, спорту, медицине, экономике, культуре, духовно-просветительской сфере. Благодаря рациональной политике, направленной на воспитание молодого поколения на основе восточных обычаев и национальных ценностей, способных руководителей и квалифицированных специалистов, достойных повышения качества образования в нашей стране, повышения эффективности деятельности учителей, совершенствования управления процессах школ примечательно, что подготовке уделяется особое внимание. Сегодня современную жизнь невозможно представить без развития науки и образования. Какую бы сферу вы ни выбрали сейчас, для ее развития в первую очередь должна быть развита система образования. Ведь трудно добиться ожидаемого результата, не обращая внимания на человеческий капитал и его талант.

ВЫВОД: Задача заместителей директора – планировать, организовывать воспитательную деятельность и ставить задачи педагогическому коллективу. Кроме того, заместитель руководителя школы руководит процессом реализации определенных планов, организует деятельность подчиненных сотрудников и тем самым организует и контролирует процесс управления.

Ключевые слова: Способности, талант, личностные качества, формирование управленческих навыков, социально-психологические процессы, лидерские качества,

формирование в управлении, творческие подходы, достижение качества и эффективности, понимание коллектива.

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF FORMING THE MANAGEMENT SKILLS OF DEPUTY SCHOOL DIRECTORS.

Akilov Faridun Firdavsovi

*Samarkand State University named after
Sharof Rashidov, Samarkand city*

Annotation:

INTRODUCTION: In this scientific article, it is intended to shed light on the scientific, theoretical and practical importance of the socio-psychological aspects of the formation of the management skills of the deputy principals on a comprehensive basis, and to study in depth all types of activities of school teams operating in our country based on systematic analysis. as a result, to achieve regular development of their quality and efficiency, by identifying existing problems in the field by developing proposals, recommendations and conclusions aimed at adapting schools to the requirements of the times in order to eliminate them in time, it is planned to implement the content and essence of scientific analyzes into practice.

THE GOAL: Improving the quality of school education is the only way to develop New Uzbekistan, the basis of the nation's development is the development of the educational process and quality education in schools.

MATERIALS AND METHODS: As a result of consistent reforms implemented in our country, reforms of strategic importance aimed at comprehensive development of activities of all industries and sectors are being implemented. In particular, serious attention is being paid to education, science, sports, medicine, economy, culture, spiritual and educational fields. Thanks to the rational policy aimed at bringing up the young generation based on Eastern customs and national values, capable leaders and qualified specialists who are worthy of improving the quality of education in our country, increasing the efficiency of teachers' activities, and improving the management processes of schools. it is noteworthy that special attention is paid to preparation. Today, modern life cannot be imagined without the development of science and education. No matter which field you choose now, for its development, first of all, the education system must be developed. After all, it is difficult to achieve the expected result without paying attention to human capital and its talent.

CONCLUSION: The task of deputy principals is to plan, organize educational activities and assign tasks to the pedagogical team. In addition, the deputy head of the school manages the process of implementation of the defined plans, organizes the activities of subordinate employees, and thereby organizes and controls the management process.

Key words: Ability, talent, personal qualities, formation of management skills, socio-psychological processes, leadership qualities, formation in management, creative approaches, achieving quality and efficiency, understanding the team.

Amalakatimizda amalga oshirilayotgan izchil islohatlar natijasida barcha tarmoq va sohalarning faoliyatini keng qamrovli rivojlantirishga yo'naltirilgan

strategik ahamiyatga ega bo'lgan islohatlar amalga oshirilmoqda. Xususan, ta'lim, ilm-fan, sport, tibbiyot, iqtisodiyot, madaniyat, ma'naviy va ma'rifiy sohalarga jiddiy e'tibor



berilmoqda. Ayniqsa yosh avlodga Sharqona odatlar va milliy qadriyatlar asosida voyaga yetkazish maqsadida yuritilayotgan oqilona siyosat tufayli yurtimizda ta'lim-tarbiyani sifatini yanada yaxshilashga, ilmga, o'qituvchilarning faoliyatini samaradorligini oshirishga, maktablarning boshqaruv jarayonlarini takomillashtirishga loyiq bo'lgan qobiliyatli rahbar-kadrlarni va malakali mutaxassislarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratilayotganligi diqqatga sazovordir. Bugun zamonaviy hayotni ilmiy-ma'rifat va ta'limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Hozir qaysi bir sohani olmang, uning rivoji uchun, avvalo, ta'lim tizimi taraqqiy etgan bo'lishi kerak. Zero, inson kapitaliga, uning iqtidoriga e'tibor qaratmay turib, kutilgan natijaga erishish qiyin.

Ta'lim sifatini oshirish — Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona yo'li hisoblanadi, millat taraqqiyotining asosi ham ta'lim jarayonini rivojlanishiga va maktablarda sifatli ta'lim-tarbiya berishga bog'liq hisoblanadi.

Bugungi kunda umumta'lim tizimini yanada takomillashtirish, maktab direktori o'rinbosarlarining boshqaruv qobiliyatlarini rivojlantirish, sifatli boshqaruvga qaratilgan ijtimoiy-psixologik xususiyatlari mazmun-mohiyatini ilmiy, nazariy va amaliy tomonlarini keng ko'lamli tarizda yoritib berish, maktablarni boshqaruv jarayonlarini davlat va jamiyat talablariga mosligini ta'minlash, o'quv va boshqaruv jarayonini ta'lim standartlari, o'quv rejalari va dasturlariga qo'yiladigan talablar darajasida ishlab chiqishni ta'minlashni tizimli ravishda yo'lga qo'yish, umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari uchun yangi darsliklar va o'quv-metodik majmualarni sifatini oshirish va hajmini oshirish, maktablarni moddiy-texnik jihozlash bo'yicha ilmiy tadqiqot davomida ishlab chiqilgan takliflar asosida ta'lim standartlariga mos holatda, o'quv rejalari, dasturlari va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish

mavzuning jamiyat hayoti uchun naqadar dolzar ekanligidan dalolat beradi.

Ilmiy tadqiqotdan ko'zlangan asosiy maqsad, maktab direktori o'rinbosarlarining boshqaruv doir kreativlik, tashkilotchilik, tashabbuskorlik, kognitivlik, tejamkorlik, halollik, bag'rikenglik, madaniyatlilik, ma'naviyatlilik, ma'rifatparvarlik, ilmiy bilish, tahlil qila olish, tushunish, his eta olish, kompetentlilik, xulosa chiqara olish kabi ko'plab ijtimoiy-psixologik qobiliyatlarini shakllantirish orqali yurtimizda faoliyat yuritayotgan maktablarni boshqaruv jarayonlarini sifat va samaradorligini muntazam oshirib borishni va ushbu sohani aniq maqsadlar asosida takomillashtirishni nazarda tutadi.

Yuqorida belgilab olingan maqsadlar asosida tadqiqotga doir quyidagi hal etilishi lozim bo'lgan vazifalar belgilab olindi:

1) umumta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni, o'qitishning samarali shakl va usullarini, ta'lim sifatini baholash va monitoring qilishning zamonaviy tizimlarini joriy qilish;

2) umumiy o'rta ta'lim tizimida, shuningdek, qisqa muddatli, shu jumladan xususiy o'quv mashg'ulotlarini ta'lim standartlari, o'quv rejalari va dasturlariga qo'yiladigan talablar asosida tashkil etishni yo'lga qo'yish;

3) maktablarda zamonaviy o'qitish metodlarini joriy etish orqali o'quv jarayonini takomillashtirish, zamonaviy talablar va ilg'or xorijiy tajriba asosida yangi darsliklar va o'quv-metodik majmualarni nashr qilishni yo'lga qo'yish;

4) maktab direktori o'rinbosarlarining boshqaruv qobiliyatlarini ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini keng qamrovli yoritib berishga qaratilgan ilmiy adabiyotlarni o'qib-o'rganib chiqish, maktablarda sifatli boshqaruvni tashkil etishga yo'naltirilgan ilmiy mulohazalar, nazariy takliflar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishni yo'lga qo'yish va boshqalar.

Sifatli boshqaruvga erishish uchun oddiy xohish yoki istak yetarli emas. Boshqaruv jarayonida aniq maqsadga erishish uchun ongli faoliyat yuritish, izchillik bilan harakat qilish, amalga oshirilishi kerak bo'lgan vazifalarni bajarish, tinimsiz mehnat qilish va ijtimoiy-psixologik jarayonlarda faol bo'lishi kerak bo'ladi. Shu orqali boshqaruv jarayoni natijador hisoblanadi.

Yuqorida keltirib o'tilgan ilmiy yondashuvlar va ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, boshqaruv jarayoning mazmun-mohiyati shundaki bunda rahbar yuqori yoki quyi pag'onada bo'lishidan qat'iy nazar u albatta madaniyatli, ilmiy, bilimli va mahoratli bo'lishi muhim hisoblanib, u har qanday ijtimoiy-psixologik jarayon erishishga yo'naltirilgan muddao va maqsadga, ya'ni u yoki bu maqsadga erishmoq uchun ko'zda tutilgan ta'limga oid mushtarak manfaatli orzularni ro'yobga chiqarilishiga yo'naltirilgan iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, kasbiy va ijtimoiy-psixologik maqsadlarni amalga oshishni o'zida aks ettiradi.

Maktab direktori o'rinbosarlarining boshqaruv qobiliyatlarini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik jihatlari haqida fikr yuritadigan bo'lsak, boshqaruv jarayoni – aslini olganda jamoani boshqarish, rahbarlikka bo'lgan qobiliyatlarini amaliyotda qo'llay olish, ijtimoiy-psixologik munosabatlarga kirisha olish, jamoani tushuna olish, ularni o'z ortidan ergashtira olish kabi ko'plab psixologik sifatlarni shakllantirish bugungi kunda muhim hisoblanadi. Shu orqali boshqaruvchi maktab jamoasidagi kadrlar resurslarini har tomondan o'zining maqsadlariga erishish uchun shakllantirish va ulardan foydalanish bo'yicha uzluksiz o'zaro bog'liq harakatlarning majmuasini tashkil etishi mumkin.

Ta'kidlangan jarayonni ya'ni uzluksiz o'zaro bog'liq harakatlar majmuini

maqsadlarga erishish uchun har tomonlama to'g'ri yo'naltirish eng avallo rahbar zimmasiga mas'uliyat yuklanadi. Shuning uchun rahbar shaxsi doimo rivojlanish uchun harakatda bo'lishi va faoliyatining ijobiy izchilligini ta'minlay olishi zarur. Aks holda maktablarning faoliyatining samaradorligi pasayadi va o'quv jarayoni o'z mazmun-mohiyatini yo'qotadi.

Maktab direktori o'rinbosarlarini boshqaruv jarayoni quyidagicha amalga oshiriladi:

- maktab direktori o'rinbosarlarining ma'lumotlar bazasini tayyorlash;
- maktab direktori o'rinbosarlari kelgusidagi ishlarini prognozlashtirish;
- maktab direktori o'rinbosarlarining faoliyatni to'g'ri tashkil etish;
- maktab direktori o'rinbosarlari va pedagog-xodimlarni halol va samarali mehnatga da'vat etish;
- maktab direktori o'rinbosarlarining mehnatlarini nazorat qilish;
- maktab direktori o'rinbosarlarining boshqaruv jarayonini to'g'ri tashkil etish;
- maktab direktori o'rinbosarlarining maqbul qarorlar qabul qilish.

Boshqaruvning qaysi bo'g'inida bo'lishidan qat'iy nazar, maktab direktori o'rinbosarlari rahbar o'z faoliyati natijalari va o'zi rahbarlik qilayotgan maktab faoliyatiga javobgardir. Shuning uchun ham "Maktab direktori o'rinbosarlarining mas'uliyati" tushunchasi mansabdor shaxslarning boshqaruv faoliyatiga baho berishda, ularning o'ziga topshirilgan ishga munosabatini tavsiflashda keng qo'llaniladigan ijtimoiy-psixologik jarayon hisoblanadi.

Boshqaruv maktab direktori o'rinbosarlarini shaxs anglab yetgan va qabul qilgan barcha vazifalarni sifatli bajarish zaruriyatini ifodalaydi. Darhaqiqat, har bir maktab direktori o'rinbosarlarida birinchi navbatda shaxsiy javobgarlik va mas'uliyat tushunchalari shakllangan bo'lishi kerak.

Chunki unga berilgan mansab yoki unvonning o'zi avallo ishonch va ikki barobar mas'uliyat hisoblanadi.

Bildirilgan ishonchni oqlash uchun xizmat vazifasiga mas'liyat bilan yondashish muassasa yutug'ining yarmiga tengdir. Shunday ekan boshqaruv jarayoni va rahbarlar faoliyatida "Maktab direktori o'rinbosarlari mas'uliyati" eng muhim tushunchalardan biridir.

Aslini olganda "Rahbarlik" so'zi forschadan "yo'lboshchilik" ma'nosini bildiradi, rahbarlik maktabda rasman mavjud joyda qaror topadi, liderlik esa psixologik munosabatlar jarayonida vujudga keladi. Rahbarning faoliyati huquqiy me'yorlar bilan ta'minlanadi.

Ikki yoki undan ortiq shaxslarning muayyan maqsad yo'lida birlashuvi yoki birlashtirilishi guruhni tashkil etadi.

Olib borilgan ilmiy tahlilardan kelib chiqib ta'kidlaydigan bo'lsak, ilmiy maqola uchun tanlangan mavzu dolzabligi, maqsadi, vazifalari, ilmiy asoslanganligi hamda nazariy va amaliy ahamiyati jihatidan keng qamrovli hisoblanadi. Ushbi mavzuning ahamiyatligi shundaki, maktab direktori o'rinbosarlarining boshqaruv qobiliyatlari rivojlantirishga qaratilgan ilmiy va nazariy bilimlarni tahliliy o'rganish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham maktab direktori o'rinbosarlarini boshqariv qobiliyatlarini rivojlantirishda ijtimoiy taraqqiyotning o'rin va ahamiyati, qulay ijtimoiy-psixologik muhit muhim hisoblanadi. Maktab direktori o'rinbosarlari qulay sharoitda faoliyat yuritisa u o'z natijasiga erishgan hisoblanadi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, yoshlarning jahon andozalariga mos sharoitlarda zamonaviy bilim hamda kasb-hunarlarni egallashi uchun barcha kuch va imkoniyatlar safarbar etilgani sababi ham shunda.

Bu sa'y-harakatlar natijasida o'tgan qisqa davrda maktabgacha ta'lim, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi katta o'zgarishlarga yuz tutdi. Ayniqsa, "Yangi O'zbekiston — maktab ostonasidan boshlanadi" degan shior asosida maktab ta'limini rivojlantirish umumxalq harakatiga aylandi.

Yetti yil davomida mamlakatimizda ta'lim sohasini rivojlantirish yo'nalishida olib borilayotgan islohotlar bugunga kelib o'zining salmoqli natijalarini bera boshladi. Bu holatni ta'lim rivojining raqam va sifat ko'rsatkichlarida yaqqol ko'rish mumkin.

Ichki ishlar idoralarida faoliyat yuritayotgan tibbiyot xodimlarini ijtimoiy-psixologik, kasbiy kompetentligini shakllantirishga erishish, sohaga oid xorijiy tajribalar va mahalliy tajribalardan

foydalanish, bu borada o'zlashtirilishi zarur bo'lgan ilmiy tadqiqot ishlarini tahliliy o'rganish, jismoniy va ruhiy sog'lomlashtirishni o'zida mujassamlashtiruvchi darsliklar hamda o'quv qo'llanmalarni nazariy ahamiyatini o'rganish, texnologik yondashuvlar asosida olingan kasbiy kompetentsiyaviy bilim, ko'nikma va malakalarni ichki ishlar idoralari xodimlarini jismoniy va ruhiy barqarorligini ta'minlash jarayonlariga safarbar qilishdan iborat. Bu esa o'z navbatida tibbiyot sohasini tubdan isloh qilish, kasbiy kompetentlikka va ijtimoiy-psixologik bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan tibbiyot xodimlarini mahoratli kadrlar sifatida tayyorlash natijasida tizimni yanada takomillashtirishga erishish, ushbu sohada faoliyat yuritayotgan mutaxassislarining kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishning alohida zarur huquqiy-me'yoriy asoslari yaratish ilmiy tadqiqot ishining maqsadini belgilab beradi.

Ilmiy tadqiqotning dolzarbligi va maqsadidan kelib chiqib, ichki ishlar idoralarida faoliyat yuritayotgan tibbiyot xodimlarini ijtimoiy-psixologik, kasbiy kompetentligini shakllantirishga uchraydigan mavjud muammolarni hal etishga qaratilgan quyidagi asosiy vazifalar belgilab olindi:

1. Ichki ishlar idoralarida faoliyat yuritayotgan tibbiyot xodimlarini ijtimoiy-psixologik, kasbiy kompetentligini shakllantirishga yo'naltirilgan ilmiy-nazariy mazmunga ega bo'lgan adabiyotlar hamda ilmiy tadqiqot ishlarini o'rganish asosida kasbiy kompetentligi va ijtimoiy-psixologik jarayonlarini yanada takomillashtirishni sifatli tashkil etishning jihatlarini tahliliy asosda yoritib berish.

2. Ichki ishlar idoralarida faoliyat yuritayotgan tibbiyot xodimlarini ijtimoiy-psixologik, kasbiy kompetentligini shakllantirishni ahamiyatini yoritib berish shu bilan birga ish jarayonida sifatli qo'llay

olinishini tashkil etishning nazariy va amaliy ahamiyatini keng qamrovli ko'rsatib berish.

3. Ichki ishlar idoralarida faoliyat yuritayotgan tibbiyot xodimlarini ijtimoiy-psixologik, kasbiy kompetentligini shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik vositalar va mexanizmlarini ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga joriy etishni yo'lga qo'yish.

4. Ichki ishlar idoralarida faoliyat yuritayotgan tibbiyot xodimlarini ijtimoiy-psixologik, kasbiy kompetentligini davomida amaliyotda zarur bo'lgan sohaga oid yangicha g'oyalar kiritish, o'zaro munosabatlarni tahliliy o'rganish orqali ularni samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy takliflar, tavsiyalar va ilmiy xulosalar ishlab chiqishga yo'naltirilgan.

Ichki ishlar idoralarida faoliyat yuritayotgan tibbiyot xodimlarining ijtimoiy-psixologik, kasbiy kompetentligini muntazam shakllantirib borish, ularni faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan obyektga yo'naltirilgan ilmiy, nazariy va amaliy faoliyatni ijtimoiy-psixologik xususliatlari hisoblanadi.

Ichki ishlar idoralarida faoliyat yuritayotgan tibbiyot xodimlarining ijtimoiy-psixologik va kasbiy kompetentligini hamda ularning faoliyat turlari hisoblanadi.

Ichki ishlar idoralarida faoliyat yuritayotgan tibbiyot xodimlarini ijtimoiy-psixologik, kasbiy kompetentligini shakllantirish va ularni sifatli rivojlantirishga qaratilgan o'ziga xos ijtimoiy-psixologik munosabatlari hamda tibbiy xizmatlar ko'rsatish xususiyatiga ega bo'lgan funksiyalarini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan munosabatlar majmui hisoblanadi.

Mavzuni nazariy-metodologik asoslarini aniqlash va tibbiyot xodimlarining ijtimoiy-psixologik, kasbiy kompetentligini ilmiy tahlillar asosida yoritib berishda Sharq mutafakkirlarining ilmiy yondashuvlariga ahamiyat qaratish lozim. Sharq tibbiyotining

asosiy maqsadi tananing balansini saqlash va qayta tiklashga yordam berishdir. Ilmiy tadqiqot davomida avvalo, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy, Abu Bakr ar-Roziy, Ismoil Jurjoni, Masixiy Al Karvakiy kabi ko'plab Sharq mutafakkirlarining asarlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Sharq allomalari ilmiy merosi fanining metodologik (uslubiy) ilmiy usul va tamoyillarini o'z ichiga qamrab oladi va ular quyidagilardan iborat: Ilmiy xolislik (obyektivlik); Tarixiy – tahliliylik; Mantiqiy – uzviylik; Vorislik va izchillik; Xronologik izchillik; G'oyaviylik va vatanparvarlik; Halol va xolislik; Qiyoslash va kuzatish; Kuzatish va umumiyashtirish; Baxslashish, munozara yuritish va isbotlash; Inson ruhiyati va jismini poklash; Xalolik va to'g'ri tarbiya olish kabi ko'lab ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy g'oyalarni targ'ib qilganlar.

Ular o'z asarlarida shaxsning insonlarni tushunish, his etish, muloqot mandlik, suhbatdoshning xulq-atvori, xatti-harakatlari, ichki kechinmalariga nisbatan adekvat sezuvchanlik, axloqiy ustanovkalar kabi sifatlarining namoyon etilishini "yuqori darajadagi ma'naviy-axloqiy sifatlar" deb ta'riflaganlar. Amerikalik tadqiqotchilar L.Stross va J.Morenlar sotsial-psixologik kompetentlikni "shaxsning ixtisosligi bo'yicha aniq faoliyatni bajarishda zarur bo'ladigan qobiliyatlar majmui" deb tavsiflaydilar. Ularning fikriga ko'ra, Sotsial-psixologik kompetentlikning shakllanish shart-sharoitlari va uni kasbiy faoliyat samaradorligiga ta'siri masalalari L.A.Petrovskaya, A.A.Bodalev, N.A.Kuzmina, L.M.Mitina, O.V.Sovronova tadqiqotlarida yoritib berilgan.

Rus olimlarining sog'liqni saqlash sohasida tibbiyot xodimlari ijtimoiy-psixologik kompetentligining o'rni va ahamiyatiga bag'ishlangan tadqiqotlariga e'tibor qaratsak, L.G.Matveva tibbiyot xodimlari har tomonloma yetuk bo'lishi



uchun belgilangan supervayzerlik trening dasturini o'zlashtirishi lozimligini uqtirib o'tadi. Shu jumladan, muallif Rossiyada tibbiyot xodimlari tayyorlashning muammolariga to'xtalib, ijtimoiy-psixologik kasbiy kompetentlikni tibbiyot xodimlari uchun muhim bo'lgan kasbiy komponent I.V.Kunina

1. Verbal kompetentlik.
2. Kommunikativ kompetentlik
3. Sotsial-professional kompetentlik
4. Ego kompetentlik

G.Beliskaya

1. Motivatsion kompetentlik
2. Kognitiv kompetentlik
3. Xulqiy kompetentlik

Tibbiyot xodimlarida ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillarini tadqiq etish tuzilmasi N.A.Kravsova o'z ilmiy tadqiqotlarida bemorga yondashishda, avvalo, uning yoshi, xarakter xususiyatlariga alohida e'tibor berish lozimligini ta'kidlab o'tadi. Muallifning fikricha, tibbiyot xodimlarining kasbiy faoliyat samaradorligini oshirish uchun, birinchi o'rinda, ularning psixologik-tibbiy tuzilmasini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

V.V.Guldan fikricha, poliklinikalarda tibbiy-psixologik kabinetlar va tibbiyot xodimlari uchun o'quvlar tashkil etilishi yuqori sifatli tibbiy yordam ko'rsatishni ta'minlaydi. Olim o'z tadqiqotlarida sog'liqni saqlash tizimida faoliyat yuritayotgan tibbiyot xodimlarining ijtimoiy-psixologik kasbiy kompetentligini rivojlantirish dolzarb muammolardan biri ekanligini ta'kidlab, kundalik amaliyotda tibbiyot va psixologiyaning o'zaro ta'siri masalasiga alohida to'xtalib o'tadi. Zamonaviy tibbiyot psixologiyasida kasalliklarga ta'sir qiluvchi psixologik omillar, tibbiyot xodimlari shaxsiy sifatlarining kasbiy faoliyat samaradorligiga ta'siri masalalari Z.R.Ibodullayev, D.I.Illamova, M.X.Karamyan, Z.Abidova, G.Q.Tulaganova, Yu.K.Narmetova-larning

tadqiqotlarida o'rganilgan. Tibbiyot fanlari doktori, professor Z.R.Ibodullayev zamonaviy sivilizatsiyaning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi, jamiyatda inson shaxsi rolining ortib borishi kuzatilayotgan bir paytda sog'liqni saqlash tizimida faoliyat ko'rsatayotgan tibbiyot xodimlarini tayyorlash masalasi bugungi kun uchun nihoyatda dolzarb masala ekanligini ta'kidlaydi. Tibbiyot xodimi har qanday bemor shaxsining emotsional holatlarini, yoshga oid ijtimoiy-psixologik rivojlanish xususiyatlarini bilishi va bemor bilan psixologik aloqa o'rnatish, davolash jarayonida turli xil psixologik usullarni qo'llay bilishi zarurligini uqtiradi.

Ichki ishlar idoralari tibbiyot xodimlarining kasbiy kompetentlik darajasini oshirish, ularning kasbiy faoliyatlarida mutaxassisligi, sohasida mutaxassisligi va samaradorligi ta'minlaydigan tushunchadir. Bu tushuncha soha xodimlarining kasbiy bilimlarga erishish, kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lish va ularni amalga oshirishga yordam beradi. Kasbiy shakllanish muhiti rivojlanishining asosiy maqsadi, insonlarga kasbiy kompetentsiyalarni rivojlantirish yordamida ularning o'zlarini o'zlashtirish va yangi kasbiy ko'nikmalarni o'rganishga imkoniyat yaratishdir.

Ilmiy tadqiqot ishining dolzarbligi va ko'zlangan maqsadidan kelib chiqib hal etilishi lozim bo'lgan quyidagi vazifalar belgilab olindi:

1. Ichki ishlar idoralari tibbiyot xodimlari kasbiy-kompetentligini takomillashtirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ilmiy adabiyotlar tahlili asosida, ilmiy nazariy va amaliy tomondan ahamiyatini yoritib berishga erishish.

2. Ichki ishlar idoralari tibbiyot xodimlari kasbiy-kompetentligini takomillashtirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ahamiyatini ochib berishga qaratilgan ilmiy dalillar keltirish.

3. Ichki ishlar idoralari tibbiyot xodimlari kasbiy-kompetentligini takomillashtirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari asosida yoritib berish va tibbiyot xodimlari faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan keng qamrovli takliflar, tavsiyalar va ilmiy xulosalar ishlab chiqish.

Respublikamiz psixologlari oldida ichki ishlar idoralari tibbiyot xodimlarining ijtimoiy-psixologik va kasbiy-kompetentligini shakllantirish sohasiga oid barcha masalalarni jamiyatimiz rivojlanishi nuqtai nazaridan o'rganish, tashkilotni yanada mukammal boshqarish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb masalaga aylangan.

Ichki ishlar idoralari tibbiyot xodimlarining ijtimoiy-psixologik va kasbiy-kompetentligini shakllantirishga doir tegishli yo'nalishida respublikamiz miqyosida qator ilmiy-amaliy ishlar bugungi kunda aytarli darajada o'rganilmagan.

Lekin, psixologiya fan sifatida hali bir qancha tashkiliy va nazariy masalalarni hal etish arafasida turibdi. Bular orasida asosiylari:

❖ ichki ishlar idoralari tibbiyot xodimlarining ijtimoiy-psixologik va kasbiy-kompetentligini shakllantirishga qaratilgan ilmiy-nazariy bilimlarni metodologiyasi masalasining mazmun-mohiyatini yoritib berish;

❖ ichki ishlar idoralari tibbiyot xodimlarining ijtimoiy-psixologik, kasbiy-kompetentligini shakllantirish tadqiqotlarda qo'llaniluvchi uslub metodlarning mahalliy mentalitet xususiyatlarini hisobga olgan holda moslashtirish va yangilarini ishlab chiqish;

❖ ichki ishlar idoralari tibbiyot xodimlarining ijtimoiy-psixologik va kasbiy-kompetentligini shakllantirishni ilmiylik asosida nazarda tutgan holda tadqiqot natijalarning obyektivligini ta'minlash;

❖ ichki ishlar idoralari tibbiyot xodimlarining ijtimoiy-psixologik, kasbiy-

kompetentligini shakllantirishga qaratilgan tadqiqotlar asosida xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishda mahalliy sharoit, yosh xususiyatlari, jins xususiyatlari hamda turmush omillarini hisobga olish.

❖ ichki ishlar idoralari tibbiyot xodimlarining ijtimoiy-psixologik va kasbiy-kompetentligini shakllantirishga qaratilgan moddiy-texnik bazalarni yaratish, ularni amaliyotda qo'llay olishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga erishish.

Yuqorida keltirib o'tilgan masalalar ilmiy maqola doirasida uchraydigan muammolarni hal etishga yo'naltirilgan bo'lib, bunda asosan ichki ishlar idoralari tibbiyot xodimlarining ijtimoiy-psixologik, kasbiy-kompetentligini shakllantirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar o'z aksini topadi:

- izchillik bilan ichki ishlar idoralari tibbiyot xodimlarining ijtimoiy-psixologik, kasbiy-kompetentligini shakllantirishga doir zamonaviy va kasbiy bilimlarni o'zlashtirib borishi,

- ichki ishlar idoralari tibbiyot xodimlarining ijtimoiy-psixologik, kasbiy-kompetentlikka ega bo'lish bilan bir qatorda zamonaviy texnologiyalar, usul va vositalardan, ta'sir eta olish mexanizmlaridan xabardor bo'lishi;

- ichki ishlar idoralari tibbiyot xodimlarining ijtimoiy-psixologik, kasbiy-kompetentligini shakllantirish jarayoniga fan-texnika va innovatsiyalarni so'nggi yangiliklarini samarali tadbiq etishga bo'lgan ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi;

- ichki ishlar idoralari tibbiyot xodimlarining ijtimoiy-psixologik, kasbiy-kompetentligini shakllantirishga asoslangan nazariy bilim, kasbiy ko'nikma va zaruriy tajribalarga ega bo'lish orqali amaliy malakalarini yuqori darajada qo'llay bilishi muhim hisoblanadi.

Darhaqiqat zamonaviy ta'lim tizimi rahbarlari buguni kunda yuqori bilimdonlik,

kasbiy salohiyat, samarali boshqaruv qobiliyatiga ega bo'lgan, ijtimoiy-kasbiy kompetentli, aniq va teran fikrlay oladigan bo'lishlari maqsadga muvofiqdir.

Ilmiy izlanishlar natijasida ichki ishlar idoralari tibbiyot xodimlarining ijtimoiy-psixologik va kasbiy-kompetentligini shakllantirishning ilmiy ahamiyatini oshirish, ularning kasbiy madaniyati, yksak ma'naviyati, axloqiy sifatlari, layoqati, iqtidori, qobiliyati, bilimdonligi, tashabbuskorligi, tashkilotchiligi, aqliy qobiliyati, kreativ fikrlash kabi ijodiy ko'plab ijodiy tafakkurini rivojlantirish orqali sohaga oid mavjud muammolarni o'z vaqtida bartaraf etish, tibbiy va axloqiy bilim, kasbiy kompetentligi hamda ijtimoiy-psixologik sifatlarini shakllantirishga qaratilgan bilim, ko'nikma, amaliy malakalarini takomillashtirishdan iborat.

Xulosa o'rnida ta'kidlash kerakki, inson uchun berilgan buyuk ne'mat bu uning ruhiy va jismoniy salomatligidir. Bu bebaho ne'matni har bir inson asrab-avaylash, uni qadriga yetish, parvarish qilishi, har bir

insondan katta mas'uliyat talab etadi. Ruhshunoslarning olib borilgan izlanishlari shuni ko'rsatadiki, insonlarda uchraydigan kasalliklarning sakson foizi asosan ruhiy beqarorlik, stressni boshdan kechirish, psixo-emotsional holatlaridagi buzilishlar, tushkunlik, kasbiy zo'riqish kabi ruhiy kechinma va holatlar natijasida kelib chiqishi mumkinligi aniqlangan. Insonning shaxs sifatida shakllanishida ongli faoliyat yuritishi muhim hisoblanadi. Aslini olganda uning tanasi va ruhiyati bir-birini to'ldirib turadi. Ikkisini yaxlitlikda asrab-avaylash insonning o'z qo'lida hisoblanadi. Shuning uchun ham kasalni davolagandan ko'ra uni oldini olgan yaxshi.

Ichki ishlar idoralari tibbiyot xodimlari o'z faoliyati davomida kasbiy kompetentligini yuqori darajada qo'llay bilishi ularning faoliyatini samaradorligini belgilab beradi. Shu tariqa tibbiyot xodimlarini ijtimoiy-psixologik va kasbiy-kompetentligi shakllanadi, rivojlanadi hamda takomillashib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston Strategiyasi"-T: O'zbekiston, 9-sentabr 2021. – 23
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi. - <https://stat.uz>, <https://stat.edu.uz/>, lex.uz.
2. Karimova V.M. "Ijtimoiy psixologiya". Darslik. – Toshkent: "Fan va texnologiyalar", 2012. – 125 b.
3. Zarifboy Ibodullayev. "Tibbiyot psixologiyasi", darslik. –T: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2019. 112-114 betlar.
4. A.M.Shonazarov. "Maxsus iqtisodiy zonalar rahbarlarining ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari". – //PSIXOLOGIYA ILMIY JURNAL 2024 yil, ISSN 2181-5291. № 3, SON. 227-234 betlar. www.psixologiyabuxdu.uz.
5. A.M.Shonazarov. Kasb psixologiyasi. – "O'quv qo'llanma" – Samarqand. SamDU Nashr-matbaa markazi, 2023 yil, 337 bet.
6. A.M.Shonazarov. Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini boshqarish va ularni samaradorligini oshirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari "Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy axborotnomasi" ilmiy-amaliy jurnal, ISSN 3030-3710 (P), ISSN 3030-3095 (E), (№4, 2024) <http://buxpxti.uz> 180-185 betlar.

7. K.B.Axmedjanov. A.X.Xolov. Yosh rahbar kadrlarda samarali qaror qabul qilish ko'nikmasini shakllantirish. O'quv qo'llanma // Toshkent. - "Tafakkur qanoti", 2020. 96 bet
8. Shonazarov A.M. Maxsus iqtisodiy zonalarini boshqarishning uslubiy va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari "Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy axborotnomasi" ilmiy-amaliy jurnal, ISSN 3030-3710 (P), ISSN 3030-3095 (E), (№5, 2024) [http://: buxpxti.uz](http://buxpxti.uz) 87-94 betlar.
9. A.M.Shonazarov. Ta'lim tizimi rahbarlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligini shakllanishiga oid nazariy-metodologik yondashuvlar. Zamonaviy ta'lim ilmiy-amaliy jurnal. №9 (130) 2023. ISSN 2181-6514. www.itm.uz. DOI: 10.34920/SO/VOL. 2023. ISSUE. 9.5
10. Shonazarov A.M. Zamonaviy rahbar kadrlarini tayyorlashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. ISSN 2181-6883 "PEDAGOGIK MAHORAT" Ilmiy-nazariy va metodik jurnal № 10, SON (2023-yil, noyabr). 97-102 betlar.
11. Shonazarov A.M. Development of socio-psychological competence of school principals of the general secondary education system. science and innovation international scientific journal volume 1 issue 8 uif-2022: 8.2| ISSN: 2181-3337 "Science and innovation" xalqaro ilmiy jurnali. Volume 1 Issue 8 <https://doi.org/10.5281/zenodo.7424124>.

**MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ]
[AUTHORS INFO]**

Kamolov Akramjon Akmaljonovich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti,
"Amaliy psixologiya" kafedrasini mustaqil tadqiqotchisi
Manzil: O'zbekiston, 200100, Samarqand shahri

MA'NAViy-AXLOQiy QADRYATLAR ASOSIDA YOSHLARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH



Elboboyev Yashin Komil o'g'li

*Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti,
Toshkent shahri*

Annotatsiya:

KIRISH: Ushbu maqolada ma'naviy-axloqiy qadryatlar asosida yoshlarning harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mexanizmlarini shakllantirish, ularda vatanga bo'lgan mehrini ifodalay olish haqida va vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish, umuminsoniy qadriyatlar asosida o'z tug'ilib o'sgan yurtiga hurmat va ehtirom tuyg'usini shakllantirishga insonparvarlikning muhim yo'nalishi sifatida e'tibor qaratish hamda globallashtirish sharoitida dunyo miqyosida tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etishi ayniqsa, har qanday mamlakat xavfsizligi va barqarorligini ta'minlashda, eng avvalo, ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlash masalalari borasida jiddiy izlanishlar talab qilinishi, bu esa mamlakatda yoshlarning vatanparvarlik fazilatini tarbiyalashda, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yanada takomillashtirish orqali xavfsizlikni ta'minlashda istiqboldagi maqsadlarga erishuvga zamin yaratadishi yoritilgan. Maskur maqolada yoshlarning vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi amaldagi holati va takomillashtirish yo'llari, milliy qadriyatlar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, talabalarni ajdodlar qoldirgan boy ma'naviy meros bilan vatanparvarlik ruhida tarbiyalash haqida so'z yuritilgan. Maqolada Amir Temur va temuriylar davri ma'naviy-estetik g'oyalarini o'rganish ularni tahlil etish mustaqil O'zbekistonning ijtimoiy va manaviy-madaniy rivoji yo'lida xalqimizni ayniqsa ishonchli kelajagimiz o'quvchi - yoshlarimizni milliy g'urur iftihor va ulug' Vatanga saodakat yo'lida tarbiyalashda fikr mulohazalar yuritilgan.

MAQSAD: Ma'naviy-axloqiy qadryatlar asosida yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning zarur xususiyatlarni ilmiy tadqiq qilish.

MATERIALLAR VA METODLAR: Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq ma'naviy – axloqiy qadryatlarni tiklash va abadiylashtirish masalalariga katta e'tibor qaratildi. Biz o'z taqdirimizni o'z qo'limizga olib, ma'naviy qadriyatlarimizga tayanib, hamda jahonda katta mavqeyga ega bo'lgan mamlakatlar tajribasidan to'g'ri o'zimizga kerakli xulosalarni olib xalqimizning azaliy orzularini ro'yobga chiqargan holda ozod, obod va farovon yashayotganligimiz buni esa xalqaro hamjamiyat tan olayotganligi bunday imkoniyatlarning barchasini aynan mustaqillik berayotganligini hammamizga yaxshi ayondir.

Mustaqillik tufayli ruspublika nufuzini belgilovchi barcha siyosiy va ijtimoiy jabhalarda islohatlar samarasi orqali katta yutuqlarga erishib kelinmoqda.

XULOSA: Milliy tarbiya nazariyasi o'z qoidalarini asoslash uchun falsafa, adabiyot, etika, estetika, pedagogika, psixologiya kabi fanlardan foydalanilmoqda. Tarbiya hayotning

moxiyati ichki aloqa va munosabatlarini aks ettiradi. Bugungi kunda shunchaki bilim egasi bo'lgan yoshlar emas, ijodkor, iste'dodi bilan ajralib turuvchi o'quvchilarni tarbiyalash zamon talabidir. Maktabda ta'lim olish davrida milliy tarbiya o'quvchilarni turli qobiliyatlarini rivojlantiradi. Tabiatga, jamiyatga qarash tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch quvvatlari yanada mustahkamlanadi. Bolaning Yoshi ulg'aygan sari bu faoliyat tobora ko'proq mustaqil xususiyatga ega bo'lib boraveradi.

Kalit so'zlar: Ma'naviyiy -axloqiy, qadryat, harbiy vatanparvarlik, barqaror, tahdid, umuminsoniy, metodika, qadriyat, axborot xurujlari, tuyg'u, uzluksiz, pozitsiya, innovatsion, xavfsizlik, globallashuv, jadallashuv, g'oya, qadr qimmat, iymon, oqibat.

ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЕЖИ В ДУХЕ ВОЕННОГО ПАТРИОТИЗМА НА ОСНОВЕ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ ЦЕННОСТЕЙ

Элбобоев Яшин Комилович

*Ташкентский государственный педагогический
университет имени Низоми, город Ташкент*

Аннотация:

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье на основе духовно-нравственных ценностей осуществляется формирование механизмов воспитания молодежи в духе военного патриотизма, умения выражать свою любовь к Родине, развитие чувства патриотизма, уважения. для страны их рождения и воспитания на основе общечеловеческих ценностей сосредоточить внимание на формировании чувства уважения как важном направлении гуманизма и содействии миру, безопасности и стабильности в глобальном масштабе в условиях глобализация безопасность важна, особенно в обеспечении безопасности и стабильности любой страны, прежде всего необходимы серьезные исследования по вопросам укрепления идеологического иммунитета против внутренних и внешних угроз, что необходимо для воспитания патриотической добродетели молодежи в страны, духовной и. Подчеркивается, что дальнейшее совершенствование работы по обеспечению безопасности создаст основу для достижения поставленных целей в будущем. В данной статье анализируется современное состояние воспитания молодежи в духе патриотизма и пути ее совершенствования на основе национальных ценностей. Говорили также о воспитании студентов в духе патриотизма, учитывая богатое духовное наследие, оставленное их предками. В статье исследование духовно-эстетических идей Амира Темура и периода Тимуридов, их анализ - это национальная гордость, гордость и величие нашего народа, нашей нация, особенно нашего надежного будущего, на пути социального, духовного развития. и культурное развитие независимого Узбекистана. Уделялось внимание воспитанию на пути преданности Родине.

ЦЕЛЬ: Научное исследование необходимых особенностей воспитания молодежи в духе военного патриотизма, основанного на духовно-нравственных ценностях.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: В первые годы независимости большое внимание уделялось восстановлению и увековечению духовно-нравственных ценностей. Мы свободны, беря свою судьбу в свои руки, опираясь на свои духовные ценности, делая необходимые выводы из опыта стран, занимающих высокое положение в мире, реализуя давние мечты нашего народа. всем нам ясно, что именно тот факт, что мы живем процветающе и международное сообщество признает это, дает нам все эти возможности.

Благодаря независимости достигнут большой прогресс во всех политических и социальных сферах, определяющих влияние Российской Республики.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Теория natsionalного образования использует философию, литературу, этику, эстетику, педагогику и психологию для обоснования своих правил. Образование отражает суть жизни, внутреннего общения и взаимоотношений. Сегодня необходимо обучать творческих и талантливых студентов, а не только молодых людей со знаниями. В ходе школьного обучения natsionalное образование развивает различные способности учащихся. Формируется система взгляда на природу и общество, укрепляются физические силы. По мере взросления ребенка эта деятельность становится все более самостоятельной.

Ключевые слова: Духовно-этический, ценность, военный патриотизм, устойчивый, угроза, универсальный, методология, ценность, информatsионные атаки, чувство, преемственность, позиция, инновatsионный, безопасность, глобализatsия, импульс, идея, ценность, дорога, вера, последствия.

EDUCATION OF YOUTH IN THE SPIRIT OF MILITARY PATRIOTISM ON THE BASIS OF SPIRITUAL AND MORAL VALUES

Elboboev Yashin Komilovich

*Tashkent state Pedagogical University named after Nizomi,
Tashkent city*

Annotation:

INTRODUCTION: In this article, on the basis of spiritual and moral values, the formation of mechanisms for educating young people in the spirit of military patriotism, the ability to express their love for the motherland, and the development of a sense of patriotism, respect for the country of their birth and upbringing based on universal human values to focus on the formation of a sense of respect as an important direction of humanitarianism and to promote peace, security and stability on a global scale in the context of globalization security is important, especially in ensuring the security and stability of any country, first of all, serious research is required on the issues of strengthening ideological immunity against internal and external threats, which is necessary for the upbringing of the patriotic virtue of the youth in the country, spiritual and It is highlighted that by further improving the security work, it will create a foundation for achieving the goals in the future. In this article, the current state of educating young people in the spirit of patriotism and ways of improvement are analyzed on the basis of national values. They also talked about educating students in the spirit of patriotism with the rich spiritual heritage left by their ancestors. In the article, the study of the spiritual and aesthetic ideas of Amir Temur and the Timurid period, their analysis, is the national pride, pride and greatness of our people, our nation, especially our reliable future, in the path of social, spiritual and cultural development of independent Uzbekistan. Considerations were made in education in the way of devotion to the motherland.

GOAL: Scientific research of the necessary features of educating young people in the spirit of military patriotism based on spiritual and moral values.

MATERIALS AND METHODS: In the first years of independence, great attention was paid to the restoration and perpetuation of spiritual and moral values. We are free by taking our destiny into our own hands, relying on our spiritual values, and by drawing the necessary

conclusions from the experience of countries that have a great position in the world, realizing the long-standing dreams of our people. It is clear to all of us that the fact that we are living prosperously and the international community recognizes this is precisely what gives us all these opportunities.

Due to the independence, great progress has been made in all political and social spheres, which determine the influence of the Russian Republic.

CONCLUSION: The theory of national education uses philosophy, literature, ethics, aesthetics, pedagogy, and psychology to justify its rules. Education reflects the essence of life, internal communication and relationships. Today, it is the need of the hour to educate students who are creative and talented, not just young people with knowledge. During school education, national education develops students' various abilities. The system of looking at nature and society is formed, and physical strength is strengthened. As the child grows up, this activity becomes more and more independent.

Key words: Spiritual-ethical, value, military patriotism, sustainable, threat, universal, methodology, value, information attacks, feeling, continuity, position, innovative, security, globalization, momentum, idea, value expensive, faith, consequences.

Bugungi kunda mamlakatimizda yosh avlodga bo'lgan e'tibor juda yuqori saviyada. Bugungi kun yoshlarini qo'rqmas, jasur va vatanga bo'lgan muhabbatini yanada oshirsak ertangi kunimiz albatta sermazmun va eng avvalo tinch totuv bo'lishi yaqqol nomoyon bo'ladi. Shunday ekan biz yoshlarni ma'naviy – axloqiy qadryatlar asosida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashimiz shart va zarur. Biz bunday maqsadlarga erishishimiz uchun eng avvalo yoshlarimizga tarixda o'chmas iz qoldirgan va jasorat ko'rsatgan bobolarimizning o'gitlarini uqtirishimiz va ularning axloqiy sifatlarini yoshlarga singdirishimiz lozim.

Harbiy ta'lim tizimida boshlangan islohotlarni uzviy davom ettirish, oliy harbiy bilim yurtlari, litsey va kollejlari, jumladan, «Temurbeklar maktabi» harbiy akademik litseylari faoliyatini takomillashtirish, ularda ta'lim olayotgan o'quvchilar qalbida milliy ruh, ona-Vatanga mehr va sadoqat, adolat tuyg'usini har tomonlama kuchaytirish, buyuk ajdodlar, jumladan, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Shohruh Mirzo, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi sarkardalarning boy jang san'atidan keng foydalanish muhimligi haqida prezidentimiz Sh.Mirziyoyev alohida ta'kidlab o'tdilar.

Mamlakatimiz istiqloлга erishgach, ma'naviy-axloqiy qadryatlar vatan va millat timsoliga aylandi. Mustaqilligimizning har bir tadbirida, suveren O'zbekistonning har bir qadamida ma'naviy-axloqiy qadryatlar hamnafas bo'lib bormoqda.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni Amir Temur siymosi bilan xalqimizni birlashtirishda, jipslashtirishda, iymon-oqibatli bo'lishda, madaniy-ma'rifiy ildizlarimizni chuqur anglashda, qudratli kelajagimizni qurishda bizga yangi-yangi kuch-quvvat va shijoat bag'ishlaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'biri bilan aytganda Buyuk sohibqiron Amir Temur bobomizning Oqsaroy peshtoqiga “Adolat – davlatning asosi va hukmdorlar shioridir”, degan hikmatli so'zlarni yozdirgani bejiz emas, albatta. Ushbu ulug'vor g'oya inson qadr-qimmatini oliy darajaga ko'tarish borasidagi amaliy harakatlarimiz poydevoriga aylandi”.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, “Buyuk Sohibqiron Amir Temur bobomiz biz – avlodlarga qoldirgan vasiyatida g'oyat muhim bir fikrga alohida urg'u berib, “El dardiga darmon bo'lmoq – ezgu

vazifangizdir”, - deb ta’kidlagani ayni haqiqat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz”** asarida O‘zbekiston o‘qituvchi va murabbiylariga tabrigida,” ayni paytda bugungi kunda oldimizda yanada muhim va dolzarb vazifalar turganini hammamiz yaxshi tushunamiz. Shu borada ilm-fan va ta’lim-tarbiya sohasining moddiy texnik bazasini yanada mustahkamlash, uning nafaqat davr bilan hamohang bo‘lishini, balki zamondan oldinda yurishini ta’minlash, pedagog kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning ilg‘or usullaridan keng foydalanish, bu ishlarni xorijdagi nufuzli markazlar bilan hamkorlikda olib borish, sohaga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, o‘qituvchi va domlarning mashaqqatli va mas’uliyatli mehnatini har taraflama rag‘batlantirish bilan bog‘liq vazifalarni amalga oshirish, qisqa qilib aytganda, hayotimizga katta kuch bilan kirayotgan yangi avlodimizni kamol toptirish uchun davlatimiz tomonidan barcha imkoniyatlar safarbar etiladi”.

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq ma’naviy – axloqiy qadryatlarni tiklash va abadiylashtirish masalalariga katta e’tibor qaratildi. Biz o‘z taqdirimizni o‘z qo‘limizga olib, ma’naviy qadriyatlarimizga tayanib, hamda jahonda katta mavqeyga ega bo‘lgan mamlakatlar tajribasidan to‘g‘ri o‘zimizga kerakli xulosalarni olib xalqimizning azaliy orzularini ro‘yobga chiqargan holda ozod, obod va farovon yashayotganligimiz buni esa xalqaro hamjamiyat tan olayotganligi bunday imkoniyatlarning barchasini aynan mustaqillik berayotganligini hammamizga yaxshi ayondir.

Mustaqillik tufayli ruspublika nufuzini belgilovchi barcha siyosiy va ijtimoiy jabhalarda islohatlar samarasi orqali katta yutuqlarga erishib kelinmoqda.

Amir Temur va uning nabiralari tomonidan yaratilgan ma’naviy qarashlarini

o‘rganish o‘quvchi yoshlarni Vatanparvarlik ruhida ularning ruhiy olamida poklanish hamda kelajakda vatan uchun jonini ham fido eta oladigan kadrlarni tarbiyalash ularnig ma’naviy-estetik qarashlarini o‘rganish muhim sanaladi.

Amir Temur va temuriylar davri ma’naviy-estetik g‘oyalarini o‘rganish ularni tahlil etish mustaqil O‘zbekistonning ijtimoiy va manaviy-madaniy rivoji yo‘lida xalqimizni ayniqsa ishonchli kelajagimiz o‘quvchi - yoshlarimizni milliy g‘urur iftior va ulug‘ Vatanga saodakat yo‘lida tarbiyalashda juda-juda muhimdir. Ma’naviyat tuyg‘usini shakllanishida ulug‘ allomalarimizning qoldirgan noyob asarlari va ularning o‘gitlariga bog‘liqdir. Yusuf Xos Hojib, Kaykavus, Voiz Koshifiy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Bobur va boshqa allomalarimizning ulkan xizmatlarini o‘rganish va ularni amalga tadbiiq etish bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Mustaqillika erishganimizdan keyingina biz buyuk ajdodimizning hurmatini o‘rniga qo‘ya oldik. Bizning bu intilishlarimizni Markaziy Osiyodagi qo‘shnilarimiz, madaniy xalqaro xamjamiyat qo‘llab-quvatladi.

“Temuriylar tarixi” davlat muzeyini tashkil etish to‘g‘risida”, “Amir Temur ordenini ta’sis etish to‘g‘risida” kabi qator farmon va qarorlar, hamda ularning ijrosi muhim tarixiy voqea bo‘lib, ushbu mavzuni davlat miqyosida ko‘tarilishi uning yanada dolzarbligini ko‘rsatadi.

Hozirgi kunda ham Prezident SH.M. Mirziyoyev “Temur tuzuklari” asarini o‘rganishga yanada katta e’tibor qaratib: **“Amir Temur bobomiz bilan hammamiz faxrlanamiz. Lekin, xolisona aytaylik, ulug‘ Sohibqironning “Tuzuklar”ini qancha yoshlar o‘qigan, Yoki buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberding hayoti va harbiy mahorati haqida hamma ham yetarli bilimga egami? Vaholanki, bu ajdodlarimizning**

g'alabalari, strategiya va taktikalarini dunyodagi ko'plab harbiy maktab va akademiyalarda bugun ham o'rganishadi".

O'quvchi yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida 2018-yil 23-fevralda Vazirlar Mahkamasining 140-sonli "Yoshlarni harbiy – vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi" ishlab chiqildi. Ushbu kansepsiya asosida qator ishlar amalga oshirilib yoshlar o'rtasida harbiy – vatanparvarlikni tarkib toptirishda asos bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 28.06.2019 yildagi PQ-4375-son qarori bilan Prinsipial yangi «Temurbeklar maktabi» harbiy-akademik litseylarini tashkil etish va ularning o'quv-tarbiyaviy jarayonini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi («Yo'l xaritasi»), shuningdek ularning faoliyatini tashkil etish bo'yicha boshqa hujjatlar tasdiqlandi.

Yoshlarni xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlariga, uning madaniyati va urf-odatlariga chuqur hurmatni, ularda halollik, vijdoniylik, vatanparvarlik, sadoqat, fidokorlik singari shaxs sifatlarini, shuningdek, milliy g'urur tuyg'ularini shakllantirish, xalqimizning tarixi va boy madaniyati, buyuk ajdodlarimizning, bebaho merosi, Vatan ozodligi va farovonligi yo'lida o'zini qurbon qilgan zamondosh vatandoshlarimizning qahramonligi asosida, O'zbekiston xalqiga sodiq, qat'iy hayotiy qarashlar va faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash; o'quvchilarda keng dunyoqarash, intellektual salohiyat, ijodiy va tahliliy fikrlashni rivojlantirish, tabiiy va aniq fanlar, xorijiy tillar va zamonaviy axborot texnologiyalari bo'yicha mustahkam bilimlarni shakllantirish, shuningdek, ularga vatanparvarlik singdirish, notiqlik va yetakchilik hislatlariga ega, jismonan rivojlangan, chidamli, mard va jasur vatan himoyachilarini, shuningdek, vatanparvar kadrlar uchun munosib nomzodlarni tayyorlashdir.

Olimlar vatanparvarlik tarbiyasini "barkamol, rivojlangan, oliy ma'lumotli, ijtimoiy faol va milliy ongli, chuqur fuqarolik mas'uliyatiga, sog'lom intellektual, ijodiy va ma'naviy fazilatlariga, qarindosh-urug' va vatanparvarlik tuyg'ulariga, mehnatsevarlik, iqtisodiy zukko, tashabbuskorlik va mehnatsevarlikka ega shaxsni shakllantirish" deb tushunadilar."

Ma'naviy-axloqiy qadriyatlar-bu falsafiy va ijtimoiy tushunchalar bo'lib, insonni o'rab olgan atrof-muhitni amaliy jihatdan o'zlashtirish natijasida vujudga keladi. Ta'lim tarbiya jarayonida ma'naviy qadriyatlar ijtimoiy tarixiy hodisani ifodalaydi. Umuman xulosa qilib aytganda bugungi yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdan maqsad, ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish bilan birga yurtimizning tinchligi uchun hissa qo'shish, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy salohiyatini ko'tarishga xizmat qilishidir. Respublikamizda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarimizning rivojlantirishga keng yo'l ochib berildi.

Milliy tarbiya nazariyasi o'z qoidalarini asoslash uchun falsafa, adabiyot, etika, estetika, pedagogika, psixologiya kabi fanlardan foydalanilmoqda. Tarbiya hayotning mohiyati ichki aloqa va munosabatlarini aks ettiradi. Bugungi kunda shunchaki bilim egasi bo'lgan yoshlar emas, ijodkor, iste'dodi bilan ajralib turuvchi o'quvchilarni tarbiyalash zamon talabidir. Maktabda ta'lim olish davrida milliy tarbiya o'quvchilarni turli qobiliyatlarini rivojlantiradi. Tabiatga, jamiyatga qarash tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch quvvatlari yanada mustahkamlanadi. Bolaning Yoshi ulg'aygan sari bu faoliyat tobora ko'proq mustaqil xususiyatga ega bo'lib boraveradi. Tabiat va jamiyat turmushda uchraydigan hodisa va sharoitlarni tushunishga ham idrok etib o'z atrofida qilargalarga munosabatda bo'lishga ko'nikib boradi.

- Ma'naviy axloqiy qadryatlar asosida vatanparvarlik ruhida shakllantirishni tashkil hayot bilan va mehnat bilan bog'liqligi. etilishi quyidagi vazifalarda o'z aksini topadi;
1. Ma'naviy – axloqiy tarbiyaning ma'lum qadriyatlarining ustuvorligi. maqsadga qaratilganligi.
 2. Ma'naviy – axloqiy tarbiyaning fiziologik xususiyatlarini hisobga olish. insonparvarlik qoidalari.
 3. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining
 4. Yoshlarda ma'naviy-axloqiy
 5. O'quvchi yoshlarning psixologik,

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari/ Nashrga tayyorlovchilar: Bekmurodov M, Quronboyev Q, Tangriyev L. – T: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. - 70-72b.
2. Mirziyoyev SH.M. Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq - farovon hayotning , do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir // Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. – T: 2018 yil 8 dekabr. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti - president.uz (<https://president.uz/uz/Lists/view/2180/>).
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent, O'zbekiston, 2018. – 92-93b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi yig'ilishidagi nutqi. Toshkent -2021 yil.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 28.06.2019 yildagi PQ-4375-son qarori bilan Prinsipial yangi «Temurbeklar maktabi» harbiy-akademik litseylarini tashkil etish va ularning o'quv-tarbiyaviy jarayonini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi («Yo'l xaritasi»), shuningdek ularning faoliyatini tashkil etish bo'yicha boshqa hujjatlar.
6. Tursunov Sh.R Talabalarda vatanparvarlik ruhini shakllantirishda innavatsion yondashuvlar: falsafa fanlari doktori Phd diss. –T-2023
7. F.A.Ismatova., Z.S.Elov. Huquq-tartibot organlari psixologining kasbiy kompetentsiyasi tuzilishini baholasning o'ziga xos xususiyatlari. 2022. ТАЪЛИМ ВА ИHHOBATSIQH TAДҚИҚОТЛАР 1 (12/2), 241-245
8. Z.S.Elov. Harbiy xizmatchi kasbiy kompetentligi namoyon etilishi va rivojlanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS). Volume. 7, Issue 01, January (2024) 800-803

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Elboboev Yashin Komilovich

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti
mustaqil tadqiqotchisi
Manzil: O'zbekiston, 200100, Toshkent shahri

VOYAGA YETMAGAN O'SMIRLAR XULIQ-ATVORIDA VUJUDGA KELADIGAN O'ZGARISHLAR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK JIHATLARI



Rizoqulov Zavqiddin Nuriddinovich
Osiyo xalqro universiteti, Buxoro shahri

Annotatsiya:

KIRISH: Maqolada voyaga yetmagan o'smir shaxsi va uning xulq-atvorida vujudga keladigan psixologik o'zgarishlarning sabablari, ularni vujudga keltiruvchi turli ijtimoiy omillar haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, o'smir shaxsi shakllanishida ta'lim va tarbiyaning o'rni, bunda oila va maktabning imkoniyatlari masalasiga alohida to'xtalib o'tilgan.

MAQSAD: Voyaga yetmagan o'smirlar xulq-atvorida vujudga keladigan o'zgarishlar shakllanishining psixologik sabablarini ilmiy tahlil qilish.

MATERIALLAR VA METODLAR: Oilada qahr-g'azab asosidagi ota-onalar munosabati bolalarni uydan bezdiradi. Uydan bezish, oila muhitini tan olmaslik o'smirlarda oilaviy muhitga nisbatan deformatsiyalashuvni keltirib chiqaradi. Natijada o'smir oiladan tashqari ko'cha muhitini o'ziga ma'qul ko'radi. Ko'cha muhiti esa ba'zan kriminal mazmunga ega bo'lishi mumkin. Natijada noaxloqiy va g'ayriqonuniy xulq-atvor muhitiga tushib qolgan o'smirda xulq og'ishining kelib chiqishi uchun imkoniyat yaratiladi.

Ota-onalarning qahr-g'azab asosidagi munosabati bolalar va o'smirlarda salbiy xarakter xislatlarining xususan, qo'rqqoqlik, tobelik, asabiylik, hissiyotlarga beriluvchanlik va mustaqil tafakkurning sustligi kabilarning shakllanishiga olib keladi. Qo'rqqoq, tobe bolalar va o'smirlardagi asabiylik, qo'zg'aluvchanlik va hissiyotlarga beriluvchanlik vaziyatlarning chigallashuviga, muammoli vaziyatlardan chiqib ketish yo'llarini noto'g'ri qo'llashga olib keladi.

XULOSA: Ta'lim muassasasida pedagoglar psixologlar bilan hamkorlikda o'quvchilarda eng yaxshi insoniy fazilatlarini rivojlantirish, ularda o'ziga ishonch, o'z xulqini yaxshilash motivlarini shakllantirishlari zarur

Kalit so'zlar: motiv, o'smir, shaxs, buzilish, xulq-atvor, psixik ta'sir, ijtimoiylashuv, oila, ta'lim, maktab, pedagog, stress, buzilish

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИЗМЕНЕНИЙ В ПОВЕДЕНИИ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ ПОДРОСТКОВ

Ризакулов Завкиддин Нуриддинович
Международный университет Азии, город Бухара

Аннотация:

ВВЕДЕНИЕ: В статье рассматриваются причины психологических изменений личности несовершеннолетнего и его поведения, а также различные социальные факторы, вызывающие их. Также особо была затронута роль образования и обучения в формировании личности подростка, вопрос возможностей семьи и школы.

ЦЕЛЬ: Научный анализ психологических причин изменения поведения несовершеннолетних.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ. Гневное воспитание в семье заставляет детей скучать дома. Скука, непризнание семейного окружения вызывает деформацию у подростков по отношению к семейному окружению. В результате подросток предпочитает уличную среду вне семьи. А уличная среда иногда может иметь криминальное содержание. В результате создается возможность зарождения девиантного поведения у подростка, попадающего в среду аморального и противоправного поведения.

Отношение родителей, основанное на гневе, приводит к формированию у детей и подростков отрицательных черт характера, в частности, таких как робость, подчиненность, нервозность, подверженность эмоциям и слабое самостоятельное мышление. Нервозность, возбудимость и чувствительность к эмоциям у робких, покорных детей и подростков приводит к путанице ситуаций и неправильному использованию способов выхода из проблемных ситуаций.

ВЫВОД: В образовательном учреждении педагогам во взаимодействии с психологами следует развивать у учащихся лучшие человеческие качества, формировать у них мотивацию уверенности в себе и самосовершенствования.

Ключевые слова: мотив, подросток, личность, расстройство, поведение, психологическое воздействие, социализация, семья, образование, школа, педагог, стресс, расстройство.

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE FORMATION OF CHANGES IN THE BEHAVIOR OF JUVENILE ADOLESCENTS

Rizakulov Zavkiddin Nuriddinovich
International University of Asia, Bukhara city

Annotation:

INTRODUCTION: The article discusses the causes of psychological changes in the personality of a minor and his behavior, as well as various social factors that cause them. Also, the role of education and training in the formation of a teenager's personality, and the issue of the family and school possibilities were specially touched upon.

GOAL: Scientific analysis of the psychological causes of changes in the behavior of minors.

MATERIALS AND METHODS: Anger-based parenting in the family makes children bored at home. Boredom, lack of recognition of the family environment causes deformation in adolescents in relation to the family environment. As a result, the teenager prefers the street environment outside of the family. And the street environment can sometimes have a criminal content. As a result, an opportunity is created for the origin of deviant behavior in a teenager who falls into an environment of immoral and illegal behavior.

The attitude of parents based on anger leads to the formation of negative character traits in children and adolescents, in particular, such as timidity, subordination, nervousness,

susceptibility to emotions and weak independent thinking. Nervousness, excitability and sensitivity to emotions in timid, submissive children and adolescents leads to confusion of situations and wrong use of ways to get out of problematic situations.

CONCLUSION: In the educational institution, pedagogues in cooperation with psychologists should develop the best human qualities in students, form motivations for self-confidence and self-improvement in them.

Key words: motive, adolescent, personality, disorder, behavior, psychological effect, socialization, family, education, school, pedagogue, stress, disorder

Ma'lumki, oilaviy tarbiya inson kamolotida muhim o'rin tutadi. Oilaning bolalarga tarbiyaviy ta'sir doirasi ijtimoiy ta'sir doirasi singari o'ta kengdir. Oila Vatanga muhabbat, ota-ona va atrofdagilarga sadoqat kabi yuksak axloqiy va ma'naviy sifatlarni shakllantirishda, turmushga, ijtimoiy faoliyatga nisbatan psixologik va amaliy jihatdan tayyorlashda katta imkoniyatlarga egadir.

Biroq keyingi yillarda oilada farzandlarimizni tarbiyalashda, ularni kamol toptirishda bir qator muammolar, nuqsonlarga duch kelinmoqda. Tabiiyki, ushbu muammolar bolalar va o'smirlar xulq-atvoriga, shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Kuzatishlarga qaraganda, keyingi yillarda oilalarda turli xil sabablarga ko'ra, xususan kishilarda kundalik turmush tashvishlariga barham berish, qiyinchiliklarni yengib o'tish va kelajakka nisbatan yangicha qarash layoqatining yetishmasligi va shu kabilarda oilada farzandlar tarbiyasiga e'tiborning biroz susayishiga sabab bo'lib, ota-onalar farzandlari bilan kam muloqotda bo'lishiga to'g'ri kelmoqda.

Shaxsning ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamolligi ijtimoiy turmushda vujudga kelgan turli xil nizoli vaziyatlardan chiqib ketishiga yordam beradi.

Ma'naviy-axloqiy jihatdan sust rivojlanganlik va shaxsdagi o'ziga xos xususiyatlar (o'zgaruvchan xarakterlilik, qo'zg'aluvchanlik, beqarorlik, hissiyotga beriluvchanlik, tobelik, jur'atsizlik va

boshqalar) esa bolalar va o'smirlarda deviant xulqning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Ota-onalarning oilada farzandlari bilan qilayotgan muomala va munosabatlari ko'rinishlari bolalar va o'smirlarda xulq og'ishining kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.

Oilada qahr-g'azab asosidagi ota-ona munosabati bolalarni uydan bezdiradi. Uydan bezish, oila muhitini tan olmaslik o'smirlarda oilaviy muhitga nisbatan deformatsiyalashuvni keltirib chiqaradi. Natijada o'smir oiladan tashqari ko'cha muhitini o'ziga ma'qul ko'radi. Ko'cha muhiti esa ba'zan kriminal mazmunga ega bo'lishi mumkin. Natijada noaxloqiy va g'ayriqonuniy xulq-atvor muhitiga tushib qolgan o'smirda xulq og'ishining kelib chiqishi uchun imkoniyat yaratiladi.

Ota-onalarning qahr-g'azab asosidagi munosabati bolalar va o'smirlarda salbiy xarakter xislatlarining xususan, qo'rqqoqlik, tobelik, asabiylik, hissiyotlarga beriluvchanlik va mustaqil tafakkurning sustligi kabilarning shakllanishiga olib keladi. Qo'rqqoq, tobe bolalar va o'smirlardagi asabiylik, qo'zg'aluvchanlik va hissiyotlarga beriluvchanlik vaziyatlarning chigallashuviga, muammoli vaziyatlardan chiqib ketish yo'llarini noto'g'ri qo'llashga olib keladi.

Ota-onalarning farzandlari hayoti va faoliyati bilan qiziqmasliklari, ularni nazoratsiz qoldirishlari ham o'smirni g'ayriqonuniy xulqatvorga olib keladi. Shuning uchun ota-onalar farzandlarining ayniqsa, o'smirlik yoshi davridagi

faoliyatlarini, bo'sh vaqtlarida nimalar bilan shug'ullanayotganliklarini domiy ravishda nazorat qilib borishlari maqsadga muvofiqdir.

Voyaga yetmaganlarda deviant fe'l-atvorning kelib chiqishiga sabab bo'luvchi oilaviy tarbiyaga bog'liq bo'lgan omillardan yana biri oilaviy tarbiyada o'ta qattiqqo'llik, avtoritar yondashuv, bolalarning fikr va qarashlarini inobatga olmaslikdir. Bugungi yoshlar mustaqil fikrlashga intiluvchan, o'z qarashlariga ega bo'lgan, aqlan yetuk yoshlardir. Yoshlar bilan hisoblashish, ularning fikr va mulohazalarini eshitish, kerakli joylarda maslahat berish yaxshi natijalar beradi.

Oilaviy tarbiyada qo'pollik, andishasizlik, haqorat, do'q- po'pisa va jismoniy jazolash singari usullardan foydalanish ko'pincha bolalar va o'smirlarning uydan qochishiga olib keladi.

Bunday bolalar oila muhitiga nisbatan ijtimoiy psixologik dezadaptatsiyalanish jarayoniga duch keladilar. Oqibatda bola o'ziga ma'qul bo'lgan oiladan tashqari guruh yoki ko'cha muhitini qabul qiladi. Bu muhit o'zining xarakteriga ko'ra, bolaga salbiy yoki ijobiy ta'sir qilishi mumkin.

Afsuski, nosog'lom muhit psixologiyasiga ega bo'lgan ko'cha muhiti bolalarga ko'p holatlarda salbiy ta'sir ko'rsatadi. Voyaga yetmaganlarda deviant axloq, xulq og'ishi va tarbiya buzilishining kelib chiqishiga ta'sir etuvchi yana bir omil ota-onalarda farzandlar tarbiyasiga doir bilimlarning yetarli emasligidir. Ota-onalar ba'zan farzandlariga o'ta darajada mehr qo'yadilar. Ularni asrab avaylaydilar, e'zozlaydilar. Aytgan yoki istagan narsalarni muhayyo qilishga intiladilar.

Ota-onasi tomonidan ko'rsatilayotgan bunday munosabat natijasida bolada manmanlik, birovlarini mensimaslik, mehnatning qadriga yetmaslik, sabrsizlik kabi salbiy xislatlar paydo bo'ladi. Bunday xislatlarga ega bo'lgan bolalarda o'zbek

xalqiga xos bo'lgan shukronalik, mehnatsevarlik, oliyjanoblik, o'zgalarga hurmat xislatlari shakllanmaydi.

Bugungi kunda o'zbek oilalarida mavjud bo'lgan tarbiyadagi nuqsonlardan yana biri ota-onalarning cheklash, rad etish, taqiqlash, ruxsat etmaslik asosidagi tarbiyalash usulidir. Bu xildagi tarbiya usulida bolalarning irodasi, xohishistagi, o'y-xayollari, orzu va intilishlari, fikr va mulohazalari inobatga olinmaydi.

Shuningdek, bunday tarbiya usulida bolalarga o'z fikr mulohazalarini ochiqcha bayon etish, mustaqil qarorlarga kelish va muayyan vaziyatlarga o'z nuqtai nazarini bildirish imkoniyati cheklanadi. Bolaning tafakkuri, qiziqishi, erkinligini hurmat qilmaslik mustaqil fikr yuritish qobiliyatining sust rivojlanishi, tortinchoqlik, o'z fikr-mulohazalarini bayon eta olmaslik, tobelik, qo'rqqoqlik va jur'atsizlik kabi salbiy xislatlarni keltirib chiqaradi. Jur'atsiz, tobe, tortinchoq bolada faollik va o'z-o'ziga ishonch hissi yetishmaydi. Shuningdek, ularda nutqning sust rivojlanishi holati ham kuzatiladi. Bunday bolalar butun umr davomida birovlariga tobe bo'lib yashaydilar. Ularda rahbarlik, boshqaruvchanlik qobiliyatlari o'ta past rivojlangan bo'ladi.

Hozirda o'zbek oilalarida berilayotgan tarbiya nuqsonlaridan yana biri oilaviy tarbiyada milliy qadriyatlarimizdan, ya'ni mifologiya, ertak, maqol, rivoyat va hadis ilmidan yetarlicha foydalanilmayotganligidir.

Milliy qadriyatlarimiz, xalq og'zaki ijodi durdonalari, rivoyatlar va hadis ilmi bolalarda yaxshilik, oliyjanoblik, xush xulqlilik xislatlarining shakllanishiga xizmat qilishligi hammaga ayon. Ma'naviy- axloqiy jihatdan sust rivojlanganlik va shaxs tipidagi o'ziga xos xususiyatlar (o'zgaruvchan xarakterlilik, qo'zg'aluvchanlik, beqarorlik, hissiyotga beriluvchanlik, tobelik, jur'atsizlik va boshqalar) esa bolalar va o'smirlarda xulq og'ishining kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Ta'lim muassasalarida xulq og'ishiga ega bo'lgan bolalar va o'smirlar o'rtasida olib boriladigan tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligi ularda faol hayotiy pozitsiyani shakllantirish, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida o'zaro yaqinlik va sog'lom munosabatni o'rnatishga bog'liqdir. Shuning uchun o'qituvchining berayotgan e'tiborini, ularni o'zlariga yaqin olayotganligini va yordam bermochi bo'layotganligini o'smir har doim his qilib turishi muhim hisoblanadi.

Bolalarga profilaktik ta'sir ko'rsatishda o'smirning shaxs sifatidagi shakllanishi jarayonini, uning o'ziga xos xususiyatlarini, xarakter xislatlari va psixologiyasini hisobga olgan holda ish tutish yaxshi natija berishini unutmaslik lozim. Bunda quyidagi omillarga e'tibor berish zarur.

Bolalar va o'smirlarda xulq og'ishining oldini olish ning muhim shartlaridan biri tarbiyaviy jarayonda ta'lim muassasasi va oila hamkorligini to'g'ri yo'lga qo'yishdir. Ko'pincha oila va muassasa hamkorligi, ota-ona va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro aloqaning uzilishi tufayli bolalar va o'smirlar tarbiyasini, ayniqsa, ular xulqidagi o'zgarishlarni tuzatish ancha qiyin kechadi.

Yoshlar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyati ularning yoshga oid va psixologik xususiyatlarini bilish hamda hisobga olishga bog'liqdir.

Bu holat eng nozik davr hisoblangan o'smirlik davrining alohida xususiyati bo'lib, u ko'proq shu davrga taalluqlidir. O'smirlik davrini o'tish davri, deb yuritadilar, chunki ana shu davrda bolalikdan kattalik holatiga o'ziga xos o'tish davri yuzaga keladi. Bu jarayonlar bola ruhiy faoliyatining jiddiy ravishda qayta qurilishi bilan bog'liqdir. Bolalarning ekspressiv-emotsional xususiyatlarini bilish ham ularni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Yoshlar bilan individual munosabatda ularning qanchalik emotsionalligi, hissiyotga beriluvchanligini, affektga moyil yoki moyil

emasligini, o'z hissiyotini tuta olisholmasligini va shuningdek, unda qanday hislar ustun ekanligini bilish juda muhimdir.

Kattalar har bir bolaning qanchalik to'g'riso'zligini, mehnatsevarligini, vijdonliligini, do'stlik va hamkorlikni qanchalik his qilishini kuzatib, bilib borishi zarur.

Salbiy axloqiy sifatlarga ega bo'lgan yoshlarda tajanglik, qo'pollik, yolg'onchilik, bezorilik, egoizm, qaysarlik, o'jarlik, intizomsizlik, qoidalarga rioya qilmaslik, o'zbilarmonchilik kabilar kuzatiladi va bunday xislatlarga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalashda individual yondashuv lozim. Chunki ular jamoa yoki ko'pchilik orasida o'zlarining ayblarini oshkor bo'lishini yoki tarbiya, tanbeh berayotgan kishining nasihat yoki ko'rsatmalariga bo'ysunishni yoqtirmaydilar, ular bilan muomalada nihoyatda ehtiyotkorlik, samimiylik, do'stona munosabatda bo'lish talab qilinadi.

Yoshlar bilan ishlashda ularning xarakteri, qiziqishlari, shaxsiy xususiyatlari e'tiborga olinishi lozim. Ko'p nasihat qilmaslik, urishmaslik, ovozini baland ko'tarmaslik, ko'p gapirmaslik maqsadga muvofiq. O'zaro samimiy munosabat, shaxsiy namuna, oila va muassasadagi kishilarning ishga ijobiy munosabatigina yoshlarda shunday bo'lishga havas tug'diradi.

O'smirlarning xatti-harakatlarini ijobiy yo'nalishga burib yuborish uchun ularda mas'uliyat, g'urur, javobgarlik, ishonch kabi yuksak hislarni tarkib toptirish lozim. Buning uchun ularga yoshi, kuchi, qobiliyati va qiziqishlarini hisobga olib, topshiriqlar berish ayni muddaodir. Ularni o'zlari qiziqqan to'garaklarga jalb qilish yaxshi natijalar beradi. Eng muhimi shundaki, tarbiyalanuvchilarga ishonish kerak. Ularning qo'lidan keladigan ishlarga e'tiborli bo'lib, uni bajarganidan keyin rag'batlantirish, uni ishni yana ham yaxshi bajarishda o'z fikrlarini bayon qilish ham muhimdir.

Yoshlarni be'mani hordiq chiqarish va ko'cha-ko'yda maqsadsiz yurishlariga yo'l qo'ymaslik lozim. Buning uchun maktab, mahalla, jamoatchilik va oila hamkorligini mustahkamlash, bolalarni iloji boricha maktabdan tashqari muassasalarga jalb etish chora-tadbirlarini qo'llash kerak.

Ushbu jarayonlarda mahalla faollari, ta'lim muassasasi psixologlari, pedagoglar va keng jamoatchilikning ishtirok etishini ta'minlash kerak.

Ta'lim muassasasida pedagoglar psixologlar bilan hamkorlikda o'quvchilarda eng yaxshi insoniy fazilatlarni rivojlantirish, ularda o'ziga ishonch, o'z xulqini yaxshilash motivlarini quyidagi yo'nalishlarda shakllantirishlari zarur:

bolalarni o'z xulq-atvorini o'zi baholashga o'rgatish;

o'quvchilarning ijobiy xatti-harakat qilishlarini muntazam nazoratga olish va ularga ishonish;

oilada, muassasada bolalarning oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishda erishgan yutuqlarini rag'batlantirish; tarbiya berishning optimal strategiyasini aniqlash;

o'quvchilarga individual yondashuv har biriga aniq maxsus pedagogik ta'sir o'tkazish;

tarbiyaviy ta'sirning bolani har tomonlama rivojlantirishga yo'naltirish;

darsdan tashqari faoliyatlarda bolalarga mustaqil faoliyat (o'qish, o'yin, mehnat, xobbi va qiziqishlari)ni tanlash uchun imkoniyat berish;

har bir bola uchun ularni aqlan hamda axloqan rivojlanishiga yo'naltirilgan tarbiyaviy ishlarni tashkil etish;

ota-onalar bilan ishlash jarayonida xududiy "Oila markaz"lari, mahalla fuqarolar yig'ini va shifokorlar bilan hamkorlik qilish juda muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Z. Elov. Zo'ravonlik jinoyatlarini sodir etuvchi shaxslar toifasi psixologiyasi. 2024. "ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ" международный научно-методический журнал 1 (9).
2. Z.S.Elov. O'z joniga qads qilish masalasi jamiyat oldida turgan muhim ijtimoiy-psixologik muammo sifatida. 2023. Journal of Pedagogical and Psychological Studies 1 (12), 50-54
3. З.Элов. Девиант хулқ-атвори ўсмирлар орасида суицидал ахлоқ тушунчаси ва илмий таҳлиллار. 2023. ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР 1 (№1), 170-178.
4. З.Элов. Девиант хулқ-атвори ўсмирларда кузатиладиган психологик ўзгаришларнинг ёш билан боғлиқ хусусиятлари (Вояга етмаганларга ижтимоий ёрдам кўрсатиш маркази тарбияланувчилари)ю 2022. PEDAGOGIK MAHORAT 2022 №6 1 (№), 72-75
5. Z.S.Elov. O'smirlik davrida shaxs xulq-atvorida kuzatiladigan reaksiyalarning psixologik ta'siri. PSIXOLOGIYA ILMIY JURNAL 1 (1, 2022), 27-
6. Elov Z.S. Sud psixologik ekspertizasi tarixi rivojlanish jarayoni bosqichlari. PEDAGOG RESPUBLIKA ILMIY JURNALI. 7 – TOM 4 – SON / 2024 - YIL /
7. Z.Elov. Социально-психологические причины формирования девиантного поведения у подростков. Pedagogik mahorat. Ilmiy jurnal. 2024
8. Z.S.Elov. Zo'ravonlik jinoyatlarini sodir etuvchi shaxslar toifasi psixologiyasi. Pedagogik akmeologiya. Ilmiy jurnal 5/3. 2024
9. Элов Зиёдулло, Я. САМИНЖОНОВ. Ўсмирлар орасида ўз жонига қасд қилиш ҳолати психологик муаммо сифатида. 2024. Journal of Pedagogical and Psychological Studies 2 (2), 69-78

10.O. Mamatov., Z.Elov. Talabalarni bilish faoliyatiga motivlashtirishning psixologik va pedagogic asoslari. Journal of Pedagogical and Psychological Studies 2 (1), 37-42. 2024

11.Z.Elov. Identifikatsiya jarayoni muammosining psixologiyada o'rganilishi. ZAMONAVIY PSIXOLOGIK TADQIQOTLAR INTEGRATSIYASI. Ilmiy konferensiya to'plami. 2023

12.Z. Elov. O'z joniga qads qilish masalasi jamiyat oldida turgan muhim ijtimoiy-psixologik muammo sifatida. 2023. Journal of Pedagogical and Psychological Studies 1 (12), 50-54

13.Z. Elov. Shaxsda fobiya holati va uning diagnostikasi. 2023. Journal of Pedagogical and Psychological Studies 1 (11), 66-74

14.Z. Elov. Suitsidial xulq-atvor haqida tahlillar va nazariyalar. 2023. Journal of Pedagogical and Psychological Studies 1 (10), 11-22

15.Z.S.Elov. Suitsidial xulq-atvorning zamonaviy psixologiyada o'rganilishi: tahlillar va nazariyalar. 2023. Science and Education 4 (10), 326-342

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ]

[AUTHORS INFO]

Rizoqulov Zavqiddin Nuriddinovich

Osiyo xalqaro universiteti magistranti,

Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri

TALABALAR O'ZINI O'ZI FAOLLASHTIRISHIDA KORREKSION METODLARING O'RNI



Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li
*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika
universiteti, Toshkent shahri*

Annotatsiya.

KIRISH: Mazkur maqolada talabalik davrida namoyon bo'ladigan o'zini o'zi faollashtirish tushunchasi hamda uni o'quv faoliyatida rivojlantirishdagi korreksion metodlarning ahamiyatli jihatlari keng yoritilgan. Shu bilan bir qatorda, talaba shaxsida yuzaga keladigan o'zini o'zi faollashtirish fenomenini rivojlantirish borasidagi xorij olimlarining yondashuvlari keltirilgan.

MAQSAD: Talabalik davrida namoyon bo'ladigan o'zini o'zi faollashtirish tushunchasi hamda uni o'quv faoliyatida rivojlantirishdagi korreksion metodlarning ahamiyatli jihatlari o'rganish, ushbu xususiyatning rivojlanish imkoniyatlarini tahlil qilishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: Ma'lum hodisalarni o'rganishda tadqiqotchi qanday metoddan yoki metodikadan foydalanganidan qat'i nazar, tadqiq etilgan idrok maydonida psixologik ta'sir izlari saqlanib qoladi, ushbu o'rinda boshlang'ich holatga nisbatan muayyan o'zgarishlar sodir bo'ladi. Biroq ta'sirning ixtiyorsiz, rejalashtirilmagan oqibatlarini shunchaki inobatga olish boshqa, o'rganilayotgan sohada to'g'ridan to'g'ri, rejali ta'sir hisobiga o'zgarishlarni keltirib chiqarishga urinish boshqadir. Aynan ikkinchi yondashuv, ya'ni shakllantiruvchi yondashuvning tamoyillari, usullari va yaxlit texnologiyasini, ularning samaradorligini baholash mezonlarini ishlab chiqish, shubhasiz, tadqiqotning amaliy ahamiyatini yanada yuksaltiradi.

XULOSA: Umuman olganda, o'quv motivatsiyasi sohasidagi shakllantiruvchi ishlarni olib borishda talabalar o'z oldiga barqaror maqsadlar qo'yishga, ularga erishishga qaratilgan harakatlarda qat'iyatli bo'lishga undovchi mashg'ulotlar ham alohida o'rin egallaydi. Bu yo'nalishda turli omillarning xalaqit beruvchi ta'siri sharoitida muayyan o'quv topshiriqlarini bajarishga undaydigan, bajarish vaqtida qaytar aloqa amalga oshirilmaydigan vaziyatda o'ta qiyin masalani yechish talab qilinadigan mashg'ulotlar o'tkazish tavsiya qilinadi.

Kalit so'zlar: o'zini o'zi faollashtirish, motivatsion tizim, o'quv motivlari, psixokorreksion metodlar, rivojlantiruvchi ta'sir, trening jarayoni, psixologik yordam dasturi, shaxs individual psixologiyasi.

РОЛЬ МЕТОДОВ КОРРЕКЦИИ В САМОДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ

Курбанбаев Азимбек Назирбой угли

*Ташкентский государственный педагогический университет
имени Низами, г. Ташкент*

Аннотация:

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье широко освещено понятие самоактивация, проявляющееся в студенческом периоде, а также важные аспекты коррекционных методов ее развития в учебной деятельности. Кроме того, представлены подходы зарубежных ученых к развитию феномена самоактивация, возникающего в личности студента.

ЦЕЛЬ: Понятие самоактивация, проявляющееся в студенческом периоде, а также изучение существенных аспектов коррекционных методов ее развития в учебной деятельности заключается в анализе возможностей развития этой особенности.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Независимо от метода или методики, применяемых исследователем при изучении тех или иных явлений, в исследуемом поле восприятия остаются следы психологического воздействия, в этом месте происходят определенные изменения по сравнению с исходным состоянием. Однако совсем другое — учитывать непреднамеренные, непреднамеренные последствия влияния, и совсем другое — пытаться добиться изменений в области исследования за счет прямого, запланированного влияния. Именно второй подход, то есть разработка принципов, методов и комплексной технологии формирующего подхода, а также критериев оценки их эффективности, несомненно, повышает практическую ценность исследования.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: В целом в проведении формирующей работы в области учебной мотивация особое место занимают тренинги, побуждающие студентов ставить перед собой устойчивые цели и проявлять настойчивость в усилиях по их достижению. В этом направлении рекомендуется проводить упражнения, стимулирующие выполнение определенных учебных задач в условиях мешающего воздействия различных факторов, требующие решения весьма сложной задачи в ситуации, когда при выполнении не обеспечивается обратная связь.

Ключевые слова: самоактивация, мотивационная система, мотивы обучения, психокоррекционные методы, развивающий эффект, тренировочный процесс, программа психологической поддержки, индивидуальная психология.

ROLE OF CORRECTION METHODS IN STUDENTS' SELF-ACTIVITY

Kurbanbaev Azimbek Nazirboy ugli

Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Tashkent

Annotation:

INTRODUCTION: In this article, the concept of self-activation manifested during the student period, as well as the important aspects of corrective methods in its development in educational activities, are widely covered. In addition, the approaches of foreign scientists to the development of the phenomenon of self-activation that occurs in the personality of the student are presented.

THE GOAL: The concept of self-activation manifested during the student period, as well as the study of the significant aspects of the corrective methods for its development in educational activities, consists in the analysis of the development possibilities of this feature.



MATERIALS AND METHODS: Regardless of the method or methodology used by the researcher in the study of certain phenomena, traces of psychological influence remain in the researched field of perception, certain changes occur in this place compared to the initial state. However, it is quite another to consider the unintended, unintended consequences of an influence, and it is quite another to attempt to bring about change in the field of study at the expense of direct, planned influence. It is the second approach, that is, the development of the principles, methods and integrated technology of the formative approach, as well as the criteria for evaluating their effectiveness, that undoubtedly increases the practical value of the research.

CONCLUSION: In general, trainings encouraging students to set stable goals and be persistent in their efforts to achieve them occupy a special place in conducting formative work in the field of educational motivation. In this direction, it is recommended to conduct exercises that encourage the completion of certain educational tasks in the conditions of the interfering effects of various factors, and require solving a very difficult problem in a situation where feedback is not provided during execution.

Key words: self-activation, motivational system, learning motives, psychocorrective methods, developmental effect, training process, psychological support program, individual psychology.

Замонавиё психология фанининг yutuqlari insonning xulq-atvori, uning maqsad va motivlariga, bu xulq-atvorga yoʻnalish beruvchi ustanovkalarga faol taʼsir koʻrsatish imkoniyatlarini kengaytirib bormoqda. Aslida psixologik tadqiqotning har qanday metodi ayni vaqtda muayyan darajadagi psixologik taʼsir metodi hamdir. Koʻplab tadqiqotda oʻrganilayotgan muammoga nisbatan shakllantiruvchi yondashuvning imkoniyatlari sinovdan oʻtkazilgan, psixologik korreksiya va rivojlantirish maqsadiga xizmat qilishi moʻljallangan uslubiy vositalar tizimi, ulardan foydalanish tartibi ishlab chiqilib, uning samaradorligi empirik jihatdan tekshirilgan [4].

Psixik hodisalar tizimi nihoyatda egiluvchi va oʻzgaruvchan tizimlardan biri boʻlib, haqli ravishda dinamik tizim sifatida tavsiflanadi. Shaxs motivatsion sohasi dinamizmning darajasi yuqori koʻrsatkichga ega psixologik tuzilmalardir. Ushbu sohadagi rivojlanish motivlarining yangi darajaga, yaʼni yanada chuqurroq, oʻquv faoliyati mazmuni bilan aloqasi yanada kuchliroq boʻlgan motivlar darajasiga

yetishini anglatadi [1]. Albatta, bunday rivojlanish oʻz-oʻzidan spontan va tasodifiy ravishda roʻy bermaydi. Psixik hodisalarning dinamikasi haqidagi nazariy qarashlarga asoslanib, shuni qayd etish mumkinki, tadqiq etilayotgan sohadagi ijobiy oʻzgarishlar doim quyidagi hodisalar bilan bogʻliq boʻladi:

a) motivatsion tizimning boshqa psixologik tuzilmalar bilan munosabati oʻzgarishi;

b) motivatsion tizim asosini tashkil etuvchi unsurlarning oʻzaro munosabati oʻzgarishi;

v) motivatsion tizimni tashkil etuvchi unsurlar tarkibidagi oʻzgarishlar.

Shubhasiz, mazkur oʻzgarishlar qandaydir tashqi omillar taʼsirida yuz beradi. Bu omillarning taʼsiri tartibsiz (xaotik) va tasodifiy yoki tizimli va maqsadga yoʻnaltirishi mumkin. Albatta, ikkinchi holatda taʼsir samaradorligi, uning natijasida roʻy bergan ijobiy oʻzgarishlarning barqarorligi nisbatan yuqori boʻladi. Tadqiqotimizning ushbu qismida shakllantiruvchi bosqichda oʻquv motivlari sohasida psixokorreksion-rivojlantiruvchi ishni tashkil etish uchun qoʻllangan amaliy

psixologik yordam dasturi, unga kiritilgan mashq-mashg'ulotlarning mazmuni ilmiy-nazariy asoslanadi va alohida olingan mashg'ulotlar samaradorligining tahlili keltiriladi.

Avvalo, shuni yodga olish kerakki, o'quv faoliyati davomida ikki asosiy omil - ta'lim jarayoni va talaba shaxsining o'zaro ta'sirlashuvi amalga oshadi. Shuning uchun eng umumiy ravishda talabalar o'quv motivlariga psixokorreksion-rivojlantiruvchi ta'sir ko'rsatish sohasida tashkil qilinadigan mashg'ulotlarning ikki yo'nalishini ajratish mumkin:

1) ta'lim jarayonining o'zida yashiringan ichki motivatsion imkoniyatlarni yuzaga chiqarish;

2) talaba shaxsida yashiringan ichki motivatsion salohiyatni yuzaga chiqarish.

Ta'lim jarayonining o'zidagi ichki motivatsion imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish hisobiga talabalar o'quv faoliyatida ijobiy motivlar ta'sir kuchining ortishiga olib keluvchi mexanizmning asosiy dastaklari o'qituvchining qo'lidadir. Birinchi navbatda, aynan o'qituvchi o'zining kasbiy mehnatiga va talabalar jamoasiga bo'lgan munosabatini o'zgartirishi, ta'lim jarayonini tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish va baholashning ilg'or va samarali, psixologik qonuniyatlarga asoslangan usullarini bilishi va ulardan samarali foydalana olishi hisobiga bolalar o'quv faoliyatining motivatsion jihatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, o'qitishning turli zamonaviy usul va vositalarining o'zi emas, balki o'qituvchining ulardan ijodiy foydalana bilish qobiliyati talabalar o'quv motivatsiyasiga ta'sir ko'rsatishini inobatga olish kerak.

O'quv motivlarini rivojlantirish nuqtayi nazaridan ham talabaning o'quv faoliyatida o'qituvchining markaziy o'rin egallashi, albatta, e'tirof qilinishi kerak. Biroq o'quv motivatsiyasiga psixokorreksion-rivojlantiruvchi ta'sir ko'rsatishning ikkinchi

yo'nalishida, ya'ni talaba shaxsida mujassamlangan va tashqi turtkini kutayotgan motivatsion salohiyatni yuzaga chiqarish masalasida psixologik xizmat va yordamning ahamiyati yuqoridir. Negaki, aynan maxsus psixologik usullar bilan talaba shaxsiga yo'naltirilgan ta'sir orqali bu sohada shunday o'zgarishlarga turtki beriladiki, natijada bu o'zgarishlar pirovardida o'quv motivatsiyasi sohasida rivojlanish sifatida baholanishga loyiq ijobiy holatlarga sababchi bo'ladi. Shuning uchun psixologik ta'sir amaliyotida maxsus psixologik mashg'ulotlarni o'z ichiga oluvchi motivatsion treninglarni ishlab chiqishga va ularni joriy etishga urinish holatlari ko'p uchraydi. Mazkur o'rinda shuni e'tiborga olish kerakki, motivatsion treninglarning mazmuni muallifning ilmiy-nazariy qarashlariga, motivatsiya muammosini tushunishdagi metodologik yondashuviga chambarchas bog'liq. Masalan, X.Xekxaufen tomonidan taklif etilgan motivatsion treninglarda talabalarda o'zining faoliyatiga nisbatan daxldorlik hissini kuchaytirishga urg'u beriladi [5]. Shuning uchun bu muallif taklif etgan motivatsion treninglar quyidagi psixologik sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan:

1) o'z oldiga qobiliyati va imkoniyatlariga mos maqsadlar qo'ya olish;

2) o'z imkoniyati va salohiyatini adekvat baholay bilish;

3) o'z faoliyati samaradorligiga ishonish;

4) o'z maqsadiga qanchalik erishganligini bilish uchun qayta teskari aloqa o'rnatishga qodir bo'lish;

5) o'z harakatlari va ularning oqibatlarini uchun mas'uliyatni his etish.

Boshqa ayrim mualliflar (Dj. Atkinson, Dj. Reynar, 1978) o'quv faoliyati bilan bog'liq ijobiy emosiyalarni shakllantirishda motivatsion sohani rivojlantirish imkoniyatlarini ko'rib, maxsus emotsional trening orqali o'quv faoliyatidagi

xavotirni kamaytirish ko'nikmasini, qiyinchiliklarni oldindan ko'ra olish qobiliyatini tarkib toptirish samarali ekanligiga e'tibor qaratmoqdalar.

Metodologik va metodik tasavvurlarida olamni psixik aks ettirish jarayoni va uning xususiy hosilasi bo'lgan xulq-atvorning boshqarilishida ustanovkaning ahamiyatiga urg'u berish markaziy o'rin egallaydigan mualliflarning yondashuvlari asosida psixologning o'quv motivatsiyasi sohasidagi shakllantiruvchi-rivojlantiruvchi faoliyati quyidagilarga yo'naltirilishi lozim, deb hisoblanadi [2]:

- talabada avvaldan mavjud ijobiy motivatsion ustanovkalarni qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash;
- yangi motivatsion ustanovkalar va ularning yangi sifatleri shakllanishi uchun sharoit yaratish;
- defekt motivatsion ustanovkalarni psixokorreksiyalash;
- talabaning o'z imkoniyatlariga nisbatan ham, ularni rivojlantirish istiqboliga nisbatan ham, ichki ustanovkalarni psixokorreksiyalash yoki rivojlantirish.

Motivatsiya sohasiga psixokorreksion-rivojlantiruvchi ta'sir ko'rsatish maqsadini ko'zlovchi turli xususiyatli trening va boshqa shakldagi mashg'ulotlarning dasturlarini tahlil etish natijasida shu narsa ayon bo'ldiki, ular bir-biridan o'z metodologik va metodik asoslariga ko'ra, ma'lum darajada farqlansa ham, ular o'rtasida umumiylik mavjud. Ushbu mashg'ulotlarning aksariyatida to'rt yo'nalish bo'yicha mashq olib borish – motivlar, maqsadlar, emosiyalar va bilish faoliyati bilan ishlash ko'zda tutiladi. Bunda, odatda, talabalarda ta'limiy ta'sirga nisbatan ochiqlikni mustahkamlashga, ularda kattalar bilan hamkorlik qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga mo'ljallangan mashg'ulotlar o'tkazish tavsiya qilinadi. Talabalar bilan o'tkaziladigan tajriba mashg'ulotlarining alohida yo'nalishi ularga o'quv faoliyatida

o'z oldiga realistik maqsadlar qo'ya olishni o'rgatadigan, buning uchun ularda o'z-o'ziga adekvat baho berish va talabgorlik darajasida o'z imkoniyatlarini to'liq hisobga olishga o'rgatadigan mashg'ulotlardan iborat bo'lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi [3].

Hozirgi davrda odamlar orasida asabiylashish hollari avvalgi paytlardagiga nisbatan ancha ko'p uchrayotganligi va buning natijasida ko'pgina hayotiy muammolar vujudga kelayotganligi ko'pchilikni, ayniqsa keng jamoatchilikni, shuningdek aynan psixolog mutaxassislarni ham tashvishga solayotganligi bejiz emas.

Shuni alohida qayd etish lozimki, trening jarayonida muammolarni yechish ham, bu boradagi bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish ham trenerdan shaxs psixologiyasi, shaxs individual psixologiyasi bilan ishlashni taqozo etadi. Shuning uchun psixologiyada bunday treninglar psixologik treninglar deb ataladi.

Trening – shaxsda mavjud bo'lgan yoki vujudga keladigan muammolarni hal qilish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma malakalarni hosil qilish maqsadida bahs-munozara, o'yin va mashqlar orqali o'tkaziladigan mashg'ulotlar yig'indisidir.

Trening jarayonida albatta o'tkazilishi kerak bo'lgan birinchi bosqich – guruhiiy normalarni ishlab chiqish bosqichidir. Guruhiiy normalarni ishlab chiqish jarayonida ishtirokchilar bilan bu normalarga albatta rioya qilish kerakligi to'g'risida kelishish va har bir a'zoning roziligini olish kerak. Bu qoidalarga rioya etish treningning maqsadiga erishish va qulay psixologik iqlimning yaratilishida katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Har qanday psixologik treninglarni tashkil etish quyidagi bosqichlardan tashkil topadi.

1. Guruhni tashkil etish yoki yig'ish bosqichi.
2. Boshlang'ich bosqich.
3. Ishni olib borish bosqichi.

4. Yakunlash bosqichi.

Eng muhimi guruhni tashkil qilish bosqichi bo'lib, bunda quyidagi jihatlarga e'tibor berish kerak:

- har qanday treningda tashqi jismoniy defektga ega bo'lgan va psixik holatida buzilishlar bo'lgan kishilar ishtirok etmasligi lozim. Negaki, bunday holatlarda aynan ana shunday kamchilikka ega bo'lganlarda aks ta'sir bo'lishi ehtimoli kuchliroqligi har qanday mutaxassis uchun tushunarli bo'lsa kerak.

- guruh a'zolarining soni 8 nafardan 12 nafargacha (ba'zi hollardagina 20 tagacha) bo'lgani ma'qul

- ishtirokchilarning yoshi iloji boricha taxminan teng bo'lishi, ya'ni ular orasidagi farq 4-5 yoshni tashkil etishi mumkin.

- ishtirokchilar orasida ayol va erkaklar soni imkoni boricha teng bo'lishi kerak.

Trening jarayonida guruhda ishlarni tashkil qilishga doir normalar (tamoyillar) quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin.

Intizomga qat'iy rioya qilish. Bunda har bir guruh a'zosi mashg'ulotga o'z vaqtida kelishi, o'z vaqtida ketishi kerakligi zarurligini his etishi lozim va bunga qat'iy amal qilishi kerak. Chunki mashg'ulotga kechikib kelishi ba'zi bir ishtirokchilarning jahlini chiqarishi, g'ashiga tegishli, mashg'ulotlarning to'xtab qolishi va noroziliklarga olib kelishi mumkin.

Maxfiylik. Seminarda bayon etilgan kimningdir, aniqrog'i biror-bir guruh a'zosining hayotiga oid hissiyot, fikr, axborotlar seminar doirasidan chetga chiqmasligi lozim.

Shu yerda va hozir. Guruhdagi muomala-munosabat mashg'ulot jarayoniga bevosita aloqador, ya'ni hozirgi zamonga bog'liq bo'lishi zarur. Hattoki ishtirokchilardan birortasi o'tgan zamondagi voqeani hikoya qilayotganda ham, uning shu yerda va ayni paytda nimani his qilayotganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, har bir ishtirokchi barcha muammolarini unutib, o'zini faqat "shu yerda va hozir" holatida his qilishi lozim.

Fikrni birinchi shaxs tomonidan bayon etish. Bunda doimo mulohazalar "Menimcha...", "Mening fikrimcha...", "Mening o'ylashimcha..." qabilida bayon etilishi maqsadga muvofiqligi uqtirilishi kerak.

Bir-birini iloji boricha ismi bilan chaqirish. Bu ishtirokchilarning o'zaro teng munosabatlarini ta'minlaydi.

Yagona mikrofon normasi. Bir ishtirokchi so'zlayotganda, boshqalar unga diqqat bilan quloq solishi va gapini bo'lmasligi, bir- birining shaxsini hurmat qilishlari lozim. Kimdir gapirayotganida boshqa birovning unga quloq solmasligi so'zlovchining shaxsiyatiga tegishi va u keyingi bahslarda o'z munosabatini bildirishdan bosh tortishiga olib kelishi mumkin. Bu esa trening samarasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimolini keltirib chiqaradi.

Seminarining boshidan oxirigacha qatnashish. Bu ishtirokchilarda mas'uliyatni vujudga keltirish uchun zarur bo'lgan tamoyildir.

Ixtiyoriylik. Seminarda o'z mulohazalarini bayon qilish, munozaralarda, o'yin va mashqlarda ishtirok etishda ixtiyoriylikni joriy qilishi mumkin.

Vaqtning tejash-aniqlik. Guruh ishtirokchilari trening mashg'uloti davomida gaplarini imkon qadar qisqa, lo'nda ifodalashi, mavzu doirasidan chetga chiqib ketmasligi lozim.

Shaxsni baholamaslik. Har bir ishtirokchi o'z fikr mulohazalarini, hissiyotlarini bayon qilishi mumkin, biroq, bunda boshlovchi va qolgan ishtirokchilar hikoyadagi vaziyatnigina muhokama qilishlari kerak va so'zlovchining o'sha paytdagi xulq-atvori, xatti-harakatini baholashdan qochishlari kerak. Buning o'rniga bunaqa vaziyatda "men bunday qilardim yoki deyardim" kabi variantlarda so'zlashish yoki fikrini bildirish so'raladi.

Ishtirokchilar bir-birlariga do'stona munosabatda bo'lishi, bir-birlarining hissiyotlarini hurmat qilishlari kerak. Bundan tashqari trener tomonidan quyidagilar alohida ta'kidlab o'tilishi shart. Birovning fikrini umuman noto'g'ri deb hisoblagan yoki unga qo'shilmagan taqdirda ham uni to'xtatib qo'yish yoki ustidan kulishga hech kimning haqqi yo'q. Ishtirokchilar bir-birini masxaralashi yoki g'ururiga tegadigan gaplar aytishi mumkin emas. Ishtirokchilar ham, boshlovchi ham, agar savol uning shaxsiy hayotiga tegishli bo'lsa, javob bermaslik huquqiga ega.

Boshlovchiga savollar va fikrlar anonim tarzda berilish imkoniyati yaratilishi shart. Lekin bu haddan tashqari chegaradan chiqish imkonini bermasligi, ya'ni boshlovchining shaxsiyatiga tegish kabilarga yo'l qo'yilmasligi ta'minlanishi kerak.

Normalarni mashg'ulot o'tkazishdan avvalroq katta qog'ozga yozib, xonaga osib

qo'yish yoki guruh a'zolari bilan birgalikda "Fikriy hujum" usuli orqali aniqlashtirib olish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, bu birinchi guruhii kelishuv hisoblanadi. Bunda shu narsa muhimki, har bir kishining fikrini albatta eshitish, nima uchun bu tamoyilga xayrixohligi yoki noroziligini izohlashini so'rash lozim. Tamoyillarni tasdiqlashni ovozga qo'yish kerakmas. Agar kimdir guruhning fikriga norozi bo'ladigan bo'lsa, uni ko'ndirishga harakat qilish yoki guruh boshqa qarorga kelishi lozim bo'ladi. Chunki uning fikrini inobatga olmaslik — guruhdagi psixologik iqlimga salbiy ta'sir etishi aniq. Ya'ni fikri inobatga olinmagan ishtirokchida norozilik holati paydo bo'ladi va bu uning treningdagi butun ishtiroki davomida minus holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bundan tashqari unda ruhiy tushkunlik, o'z-o'zini baholashning pasayishi va hokazolar ham paydo bo'lish ehtimolini tug'diradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Барзин К.В. Чтобы ребёнок успешно учился: Педагогический всеобуч родителей. – М: Педагогика, 1988.- 176 с.
2. Имедадзе И.В. Проблема полимотивация поведения //Вопросы психологии. –М., 1984. -№6. -С67-72.
3. Маркова А.К. Формирование мотивация учения в школьном возрасте. Пособие для учителя. – М: Просвещение, 1983.- 96 с
4. Петровская Л.А. Теоретические и методологические проблемы социально-психологического тренинга. – М: МГУ, 1982. - 168 с.
5. Хекхаузен Х. Мотивация и деятельность. В 2-х т./ Пер. с нем./ Под ред. Б.М.Величковского; предисл. Л.И.Анцыферовой, Б.М.Величковского. – М: Педагогика, 1986. Т.2.- 392 с.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ]

[AUTHORS INFO]

Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Manzil: O'zbekiston, 200100, Toshkent shahri

azimbek_qurbonboyev@mail.ru

O'SMIRLARDA ADDIKTIV XULQNI ANIQLASH VA YOLG'IZLIK HISSINING NAMOYON BO'LISHINI EMPIRIK TADQIQ ETISH



Mamajonova Shohista Kamoldinovna
Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona shahri

Annotatsiya.

KIRISH: Maqolada o'smirlik davridagi addiktiv ya'ni tobe xulqni aniqlash va yolg'izlik hissining nomoyon bo'lishini taqqoslash tadbiqlari va amaliy ishlar, olimlarning bu boradagi fikrlar-mulohazalari yoritib o'tilgan.

MADSAQ: O'smirlarda addiktiv xulqni aniqlash va yolg'izlik hissining namoyon bo'lishini empirik tadqiq etish.

MATERIALLAR VA METODLAR: O'smirlik davrida xos tomon identifikatsiya va ijtimoiylashuv ikkita qarama-qarshi tomonlarning birlashuvidir. Tadqiqotchilarning ta'kidlashlaricha, o'smirlik davrida o'z-o'zini anglash yolg'izlik fenomeni bilan hamohang kechadi. O'z-o'zini anglash o'smirlik davrida o'zining tashqi ko'rinishdagi o'zgarishlarga o'z-o'ziga bo'lgan qiziqishning natijasi hisoblanadi. O'smirning jismoniy va ruhiy holatidagi keskin o'zgarishlar nizoli va og'ir kechadi. O'smir atrofdagilarni oson ideallashtiradi, shuningdek, ulardan tez ko'ngli qoladi, chuqur axloqiy, ruhiy hissiyotlar, dunyoqarashlar iskanjasida qoladi.

XULOSA: O'smirlik davrida addiktiv xulq turlarining emotsional holatlardan yolg'izlik va empatiya bilan aloqadorligi masalalari tadqiq etilgan. Shunga muvofiq o'rganish natijalariga asoslanib, quyidagi xulosalarni shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Emotsional xayrixohlikni o'smir shaxsida namoyon bo'lishi addiktiv xulq bilan o'zaro ahamiyatli aloqadorlikka ega ekanligi ma'lum bo'ldi. O'smirlik davrida emotsional holatlardan yolg'izlikning ortib ketishi, addiktiv xulqdan ximoya mexanizmi sifatida foydalanishiga turtki bo'lishi qayd etildi. Addiktiv xulqqa sabab bo'luvchi omillarni bartaraf etishda mavzuga doir korreksion dastur tuzish va o'tkazishdagi tizimlilik addiktiv xulqqa moyil o'smirlar bilan ishlashda samarali natijalar beradi.

Kalit so'zlar: jahon, fiziologiya, xulq, ong, jamiyat, yolg'izlik, mehnat, o'qish davr, jinoyat, addiksiya, harakat, dolzarb, rehabilitatsiya, omillar, psixodiagnostika.

ЭМПИРИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ВЫЯВЛЕНИЯ АДДИКТИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ И ПРОЯВЛЕНИЯ ЧУВСТВА ОДИНОЧЕСТВА У ПОДРОСТКОВ

Мамажонова Шохиста Камолдиновна

Ферганский государственный университет, г. Фергана

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В статье освещены прикладные и практические работы по сравнению выявления аддиктивного, то есть зависимого поведения и отсутствия чувства одиночества в подростковом возрасте, мнения ученых по этому поводу.

ЦЕЛЬ: Эмпирическое исследование выявления аддиктивного поведения и проявления одиночества у подростков.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ. В подростковом возрасте идентичность и социализация представляют собой сочетание двух противоположностей. По мнению исследователей, самосознание в подростковом возрасте совпадает с явлением одиночества. Самооценка является результатом заинтересованности в изменениях своей внешности в подростковом возрасте. Резкие изменения физического и психического состояния подростка являются противоречивыми и трудными. Подростки легко идеализируют окружающих, а также быстро разочаровываются в них, остаются во власти глубоких нравственных, духовных чувств, мировоззрений.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Изучены вопросы, связанные с одиночеством и сопереживанием эмоциональных состояний аддиктивного поведения в подростковом возрасте. Соответственно, по результатам исследования мы сможем сформировать следующие выводы. Установлено, что проявление эмоциональной симпатии в личности подростка имеет значимую корреляцию с аддиктивным поведением. Отмечено, что в подростковом возрасте одиночество усиливается из-за эмоциональных ситуаций, что мотивирует использование аддиктивного поведения в качестве защитного механизма. Система создания и проведения коррекционной программы по теме устранения факторов, вызывающих аддиктивное поведение, дает эффективные результаты в работе с подростками, склонными к аддиктивному поведению.

Ключевые слова: мир, физиология, поведение, сознание, общество, одиночество, труд, учебный период, преступность, зависимость, действие, течение, реабилитация, факторы, психодиагностика.

**EMPIRICAL STUDY OF IDENTIFYING ADDICTIVE BEHAVIOR AND THE
MANIFESTATION OF LONELINESS IN ADOLESCENTS**

Mamajonova Shohista Kamoldinovna

Fergana State University, Fergana city

Annotation.

INTRODUCTION: In the article, the applications and practical works of comparing the identification of addictive, i.e. dependent behavior and the absence of the feeling of loneliness in adolescence, the opinions of scientists in this regard are highlighted.

GOAL: Empirical study of identification of addictive behavior and manifestation of loneliness in adolescents.

MATERIALS AND METHODS: In adolescence, identity and socialization are the combination of two opposites. According to the researchers, self-awareness in adolescence coincides with the phenomenon of loneliness. Self-esteem is the result of self-interest in changes in one's appearance during adolescence. Sudden changes in the physical and mental state of a teenager are controversial and difficult. Adolescents easily idealize those around

them, as well as quickly become disappointed in them, remain in the grip of deep moral, spiritual feelings, worldviews.

CONCLUSION: Issues related to loneliness and empathy from emotional states of addictive behavior in adolescence have been studied. Accordingly, based on the results of the study, we will be able to form the following conclusions. It was found that the manifestation of emotional sympathy in the personality of a teenager has a significant correlation with addictive behavior. It was noted that during adolescence, loneliness increases due to emotional situations, which motivates the use of addictive behavior as a defense mechanism. The system of creating and conducting a corrective program on the topic of eliminating the factors that cause addictive behavior gives effective results in working with adolescents prone to addictive behavior.

Key words: world, physiology, behavior, consciousness, society, loneliness, labor, study period, crime, addiction, action, current, rehabilitation, factors, psychodiagnostics.

Jahonda kechayotgan globallashuv jarayonlari o'smirlarga rivojlanish imkoniyatlari va keng dunyoqarashni taqdim etar ekan, shu bilan birga, ehtiyotkorlik bilan harakat qilishni talab qiladigan muammolarni ham keltirib chiqaradi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (World Health Organization) tomonidan berilgan ma'lumotlarga ko'ra, «Dunyo bo'yicha har yili 10-17 yoshdagi yoshlar orasida 200 mingga yaqin qotillik, talonchilik jinoyati sodir etiladi va ushbu xulq sabablarini aniqlash butun dunyo mutaxassislari tomonidan dolzarb muammo sifatida o'rganiladi»¹⁰. Xususan, ijtimoiy xavf guruhiga kiruvchi o'smirlar xulqining ijtimoiy-psixologik omillarining psixodiagnostikasi va reabilitatsiyasini amalga oshirish, addiktiv xulqqa moyillikni yuzaga keltiruvchi omillarning ta'sirini kamaytirishga xizmat qiluvchi psixoprofilaktik-korreksion mexanizmlarni ishlab chiqish va takomillashtirish bo'yicha doimiy tadqiqotlarni olib borish zarurati yuzaga kelmoqda.

O'smirlik davrida xos tomon identifikatsiya va ijtimoiylashuv ikkita qarama-qarshi tomonlarning birlashuvidir. Tadqiqotchilarning ta'kidlashlaricha, o'smirlik davrida o'z-o'zini anglash

yolg'izlik fenomeni bilan hamohang kechadi. O'z-o'zini anglash o'smirlik davrida o'zining tashqi ko'rinishdagi o'zgarishlarga o'z-o'ziga bo'lgan qiziqishning natijasi hisoblanadi. O'smirning jismoniy va ruhiy holatidagi keskin o'zgarishlar nizoli va og'ir kechadi. O'smir atrofdagilarni oson ideallashtiradi, shuningdek, ulardan tez ko'ngli qoladi, chuqur axloqiy, ruhiy hissiyotlar, dunyoqarashlar iskanjasida qoladi. O'smirning nazarida atrofdagilar uni tushunmayotganday tuyuladi, o'z xayolidagi qahramonining timsoli bilan yashaydi. O'smir doimo qahramonliklar ko'rsatishga, o'z yo'lida duch kelgan muammolariga qarshi kurashishga harakat qiladi. Shu yo'l bilan atrofdagilarga o'zining katta bo'lib qolganligi, o'z mustaqilligi, o'z shaxsining noyobligini isbot qilishga harakat qiladi va bu jarayonda o'z-o'zi bilan suhbat quradi, yolg'izlik holatini boshidan kechiradi. O'z o'y-xayollari bilan tanho qolish o'smirga real hayotda erishishning imkoni bo'lmagan turli holatlarni xayolida boshdan kechirish imkoniyatini beradi. «Yolg'izlik tabiiy holat, u o'smir ichki hayoti, ichki dunyosining shakllanayotganligidan darak beradi», – deb yozadi I.S.Kon.

O'smirlik davridagi barcha jarayonlar kabi o'ziga xos individuallik ham qarama-

¹⁰ World Health Organization. Health Topics. Violence. Accessed, July 27, 2019 – P.87



qarshi xususiyatga ega. Inson o'z-o'zini anglar ekan, kutilmaganda o'zining butunlay yolg'izligini his qiladi. Xuddi shunday o'smir ham «o'z men»ini himoya qilar ekan, yolg'iz qolishga intiladi, yolg'izlikda o'z-o'zini anglagandan so'ng esa tanholikdan qutilishga harakat qiladi. Endilikda yolg'izlikdan qutulishning yo'li odamlar bilan muloqot qilish, ularning qo'llab-quvvatlashlariga erishishdir.

L.Doddsning ta'kidlashicha, addiktiv xulq murakkab boshqariluvchanlik va kompulsivlik bilan bir qatorda, insonning ma'lum avtonomiyalarini yo'qotish bilan birga intensivligi bilan ham xarakterlanadi.

Addiktiv xulq sohasida tadqiqotlar olib boradigan mutaxassislar, addiktiv xulqni aniqlashda, ushbu xatti-harakatlar modelining halokatlilikiga, shuningdek, haqiqatdan qochish vositasi sifatida foydalanishga e'tibor berishadi. S.Sussman va A.Sussman o'z tadqiqotlqrida addiktiv xulq ta'riflarining tarkibiy elementlarini tahlil qiladilar va shunday xulosaga kelishadi. Bunday faoliyat odamning holati (jismoniy, hissiy) va farovonligida vaqtincha qoniqish hissi, ehtiyojlar, nazoratni yo'qotish va muqarrar salbiy oqibat kabilarni o'z ichiga oladi.

R.Wise va G. Koob ta'kidlashicha, «Addiktiv xulq» atamasi aniq belgilangan chegaralarga ega emas va uning aqliy addiktiv xulqqa nisbatan qo'llanilishi juda noo'rin ekanligi haqida fikr bildirgan.

Xorijlik mutaxassislar addiktiv xulqqa, odatda, ruhiy holatni o'zgartirish orqali haqiqatdan qochish istagida ifodalangan buzg'unchi xatti-harakatlarning o'ziga xos shakli sifatida qaraydilar.

Addiktiv xulq, odatda, kengroq hodisa sifatida qaraladi, u eng umumiy ma'noda «kimgadir yoki biror narsaga qoniqish yoki moslashish» yoki qo'llab-quvvatlash, faoliyat ko'rsatish va omon qolish uchun tayanish tendensiyasini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, mutaxassislar, ko'pincha, bu istakni tabiiy yoki sintetik moddani qayta ishlatish natijasida kelib chiqadigan davriy yoki surunkali intoksikatsiya holati yoki o'ziga xos xususiyatlar bilan tavsiflangan shaxsning ma'lum bir buzilishi bilan bog'lashadi. Shuni ta'kidlash kerakki, bu juda ziddiyatli pozitsiyani xorijiy mualliflarning asarlarida kuzatish mumkin. Shunday qilib, ilmiy munozaraga «Addiktiv xatti-harakat» atamasini kiritgan N.V.Miller bu faqat ma'lum moddalarni suiste'mol qilish davri ekanligini ta'kidlaydi.

O'smir bu davrda o'ziligini topishga, o'ziga xos tomonlarini rivojlantirishga harakat qiladi, lekin bu jarayon muloqot orqali, o'zi mansub bo'lgan ijtimoiy guruh normalari, qadryatlar tizimini qabul qilish orqali amalga oshadi, bu holat ko'pincha o'smirning tengdoshi xulqini o'ziga ko'chirishiga olib keladi, aynan shuning uchun ham bu bosqich identifikatsiya va ijtimoiylashuv o'rtasida qarama-qarshilikni keltirib chiqaradi. O'smirlik davridagi yolg'izlik bu identifikatsion inqirozdir. O'smir o'zligini topishi va dunyoqarashiga doir ustanovkalarini qayta qurishi uchun yetarli darajada quvvat va emotsional zahirasini sarflaydi. Biz tadqiqotimizda o'smirlarda yolg'izlikni his qilishning destruktiv tomonini ko'rib chiqib, natijalarni quyidagi 1- jadval asosida tahlil qildik.

1-jadval

O'smirlarning jinslar kesimida «Yolg'izlikni his qilish» metodikasi bo'yicha natijalari
(Styudent t mezoni n=680)

Jinsi	N	O'rtacha qiymat	St.og'	T
O'smir o'g'il bolalar	216	44,1	7,4	-0,57
O'smir qizlar	464	44,4	7,4	

*p≤0,05; **p≤0,01;***p≤0,001

Yolg'izlikka moyillik darajasi bo'yicha statistik jihatdan ahamiyatli farq kuzatilmadi ($t=-0,57$; $p>0,05$). Balog'at yoshining boshlanishi va u bilan birga keladigan jismoniy va hissiy o'zgarishlar har ikkala jins uchun qiyin vaqt bo'lib, ushbu o'tish davri tengdoshlaridan izolyatsiya va uzilish hissiga olib kelishi, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar (Facebook, instagram) o'smirlar o'rtasida yolg'izlik hissining

kuchayishiga ma'lum miqdorda ta'sir o'tkazadi. Ijtimoiy media vositalari o'zaro aloqalar osonlashtirishga yordam berishi bilan birga, o'smirda o'z hayotini o'zgalarning ijtimoiy tarmoqdagi mukammal etib ko'rsatilgan hayoti bilan solishtirish hisobiga, o'zini mukammal emasdek his qilish hissini keltirib chiqarishi bilan izohlash mumkin.

2- jadval

Hududlar kesimida o'smirlarning «Yolg'izlikni his qilish» metodikasi bo'yicha natijalar
(Styudent t mezoni n=680)

Hudud	N	O'rtacha qiymat	St.og'	T
Shahar	340	43,5	8,2	-2,671**
Qishloq	340	45,1	6,4	

*p≤0,05; **p≤0,01;***p≤0,001

«Yolg'izlikka moyillik» shkalasi bo'yicha ishonchli tafovutlar borligi aniqlandi ($t=2,671$; $p≤0,01$). Qishloq hududida aholi shahar hududida yashovchi aholidan ko'ra kamroq va bir-birlari bilan ko'proq bog'langan. Bu o'smirlarga o'xshash fikrli tengdoshlarini topishni qiyinlashtirishi yoki o'zi yashayotgan joydagi ijtimoiy munosabatlarda qabul qilinishini

qiyinlashtirishi mumkin, bu esa yakkalanish tuyg'usini keltirib chiqaradi. Qishloq hududida o'smirlar uchun dam olish tadbirlari va qulayliklar kamroq bo'lishi o'smirlarni boshqalar bilan muloqot qilish yo'llarini topishni qiyinlashtirishi mumkin. Bundan tashqari, ayrim qishloq joylarda internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish cheklanganligi, o'smirlarning

boshqalar bilan onlayn bog'lanishini qiyinlashtirishi bilan izohlandi.

3- jadval

Viloyatlar kesimida o'smirlarning «Yolg'izlikni his qilish» metodikasi bo'yicha natijalar (Styudent t mezon n=680)

Viloyat nomi	n	O'rtacha qiymat	St.og'	T
Farg'ona	340	45,98	6,8	6,1***
Andijon	340	42,61	7,6	

*p≤0,05; **p≤0,01; ***p≤0,001

Yolg'izlikka moyillik darajasi o'smirning yolg'izlikni his qilish darajasi, bo'yicha statistik jihatdan ahamiyatli farq Andijon viloyati hududida yashaydigan mavjud (t=6,1; p≤0,001.). Ko'rinib turibdiki, o'smirni yolg'izlikni his qilish darajasidan Farg'ona viloyati hududida yashaydigan yuqori.

4- jadval

O'smirlarning yosh ko'rsatkichlari bo'yicha «Yolg'izlikni his qilish» metodikasidagi natijalar (Styudent t mezon)

Yosh	n	O'rtacha qiymat	St.og'	t
12 yosh	104	43,5	7,41074	-2,66**
13 yosh	120	45,8	5,74821	
12 yosh	104	43,5	7,41074	0,19
14 yosh	213	43,3	7,68308	
12 yosh	104	43,5	7,41074	-1,3
15 yosh	243	44,7	7,75742	

*p≤0,05; **p≤0,01; ***p≤0,001

Yolg'izlikka moyillik darajasi bo'yicha yosh ko'rsatkichlarida ishonchli tafovutlar borligi ma'lum bo'ldi (t=2,66; p≤0,01). 12 yosh o'smirlarda 13 yoshli o'smirlarga qaraganda yolg'izlikka moyillik darajasining yuqoriligining quyidagicha omillar asosida izohlash mumkin. 12 yoshli bolalar boshlang'ich maktabdan o'rta maktabga o'tayotganda tengdoshlari bilan munosabatlarida o'zgarishlarni boshdan kechirganliklari uchun yangi do'stlik aloqalarini o'rnatishdagi qiyinchiliklar, bolalar o'smirlik davriga kirgan sari ular ijtimoiy me'yorlar va kutishlardan xabardorlik va natijada ijtimoiy taqqoslashning kuchayishiga, o'z-o'zini anglash va ijtimoiy begonalashuv tuyg'usiga olib kelishi mumkin. 12 yoshli bolalar o'zlarini tengdoshlari bilan

solishtirganlarida o'zlarini tengdoshlari tomonidan qabul qilingan standartlarga moslashish va ularga javob berish uchun kurashadilar. Erta o'smirlik davridagi kognitiv o'zgarishlar 12 yoshli bolalarda yolg'izlik hislarini kuchaytiruvchi ta'sir ko'rsatadi. 13,14,15 yoshli o'smirlarda yolg'izlikka moyillik darajasi bo'yicha umumiy natijalarning o'rta arifmetik qiymatlari o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq mavjud emas. Umuman olganda, ilk o'smirlik davri va 14-15 yoshli o'smirlar o'rtasidagi yolg'izlik hissidagi farqlar ijtimoiy rivojlanish, tengdoshlar bilan munosabatlar va kognitiv rivojlanishning kombinatsiyasi bilan bog'liq bo'lib, o'smirlar yetuk bo'lib borgan sari, kuchli ijtimoiy aloqalarni rivojlantiradilar, o'zlarini va boshqalarni yaxshiroq tushunishadi, ular

kamroq yolg'izlik va ko'proq ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tuyg'ularini boshdan kechirishlari mumkin. 15 yoshga kelib, o'smirlar tengdoshlari bilan yanada xavfsiz va barqaror munosabatlarni rivojlantirishlari, o'zlarini va o'z manfaatlarini yaxshiroq tushunishlari hisobiga, bu ularga o'xshash qadriyatlar va e'tiqodlarga ega bo'lgan do'stlarni topishni osonlashtiradi. Bu yolg'izlik tuyg'usini kamaytirishga va ijtimoiy aloqani kuchaytirishga yordam beradi.

